

Q

*R.X. Ergashev
S.N. Xamrayeva*

**ISHLOQ
XO'JALIGI
INFRATUZILMASI
IQTISODIYOTI**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK – IQTISODIYOT INSTITUTI

R. X. ERGASHEV, S. N. XAMRAYEVA

QISHLOQ XO'JALIGI INFRATUZILMASI IQTISODIYOTI

*Mazkur o'quv qo'llanma 5340100 – «Iqtisodiyot» (qishloq xo'jaligi) va
5610100 – «Fermer xo'jaliklarini boshqarish» bakalavriat ta'lif
yo'nalishlari talabalari uchun tayyorlangan*



Toshkent
2012

65.3(2)32

UDK: 631.635(075)

ЎЛГУВЕРІЛДІРІЛГІСІ

BBK: 40.я73

МІЛФАТ СИРХАМ

E-39 № 747

Ergashev R.X., Xamrayeva S.N. Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma, -T.: «Yangi asr avlodи» 2012, 332 b.

ISBN 978-9943-08-818-4

O'quv qo'llanmada qishloq xo'jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti fanining nazariy va amaliy asoslari Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi taflablari asosida bayon etilgan bo'lib, agrar iqtisodiy islohotlar natijasida qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritishning erkin bozor shakllariga o'tish va mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar salmog'ining o'sib borishi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari va qabul qilingan qonunlar, Prezident farmontari hamda boshqa me'yoriy hujjatlarga asoslangan. O'quv qo'llanma qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va erkinlashtirish sharoitida qishloq xo'jaligi infratuzilmasi faoliyatini takomillashtirish, samarali tashkil etish yo'nalishlarini belgilash, optimal joylashtirish, ustuvor shakllantirish yo'llarini aniqlash, qishloq xo'jaligi infratuzilmasi subyektlari bilan fermer xo'jaliklari o'rtaqidagi iqtisodiy va huquqiy munosabatlarni takomillashtirishga oid masalalarga bag'ishlangan.

UDK: 631.635(075)

BBK: 40.я73

Taqrizchilar:

G'.A. Samatov, TDAU, «Fermer xo'jaligini boshqarish» kafedrasи mudiri, iqtisod fanlari doktori, professor.

B.T. Salimov, TDIU «Tarmoqlar iqtisodiyoti» kafedrasи mudiri, iqtisod fanlari doktori, professor.

L. Ro'ziyev, QarMII «Buxgalteriya hisobi va audit» kafedrasи professori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi, iqtisod fanlari doktori.

CH. Murodov, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи huzuridagi P va MTI bosh ilmiy xodimi, iqtisod fanlari doktori

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Oliy va o'rta maxsus, kash-hunar ta'limi o'quv-uslubiy birlashmalari faoliyatini muvosiqlashtiruvchi kengashining 2011-yil 11-may 192-31-sonli qarori bilan nashr etishga ruxsat berildi.

ISBN 978-9943-08-818-4

© Ergashev R.X., Xamrayeva S.N. Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti. «Yangi asr avlodи», 2012-yil.

MUNDARIJA

KIRISH	6
I BOB. QISHLOQ XO'JALIGI INFRATUZILMASI IQTISODIYOTI FANINING PREDMETI, USULLARI VA VAZIFALARI	9
1.1. Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi iqtisodiyotining ahamiyati va uni rivojlantirishning obyektiv zarurligi	9
1.2. Qishloq xo'jaligini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda infratuzilmaning o'rni	13
1.3. «Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti» fanining predmeti, o'rGANISH usullari va vazifalari	21
II BOB. INFRATUZILMANING MOHIYATI, TARKIBI VA TURKUMLASHTIRILISHI	25
2.1. Xalq xo'jaligida infratuzilmaning tarmoq sifatida shakllanishi va rivojlanishi	25
2.2. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi infratuzilmasining shakllanishi, rivojlantirishning asosiy bosqichlari va o'ziga xos xususiyatlari	27
2.3. Qishloq xo'jaligi infratuzilmasining mohiyati, tarkibi va turkumlashtirilishi	37
III BOB. QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI VA XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR O'RTASIDAGI ALOQALARNING HUQUQIY VA IQTISODIY SHAROITLARI	49
3.1. Dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatining tahlili	49
3.2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar o'rtasidagi huquqiy-iqtisodiy aloqalarning asoslari	59
3.3. Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirish sharoitida hududlarning ixtisoslashuvini hisobga olgan holda infratuzilma obyektlarini optimal joylashtirish va rivojlantirish istiqbollari	63
3.4. Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi subyektlari bilan fermer xo'jaliklari o'rtasida o'zaro iqtisodiy va huquqiy munosabatlarni takomillashtirish	73
IV BOB. QISHLOQ XO'JALIGIDA MODDIY-TEXNIKA TA'MINOTI VA XIZMATI	80
4.1. Qishloq xo'jaligining «moddiy texnika bazasi» tushunchasi	80

3
AXBOR

ARKAZI

449876

4.2. Qishloq xo'jaligi infratuzilma korxonalarida moddiy-texnika ta'minotining tashkiliy-iqtisodiy omillari	85
4.3. Qishloq xo'jaligi infratuzilma korxonalarini moddiy-texnika ta'minoti bilan ta'minlanganlik darajasi tahlili	88
4.4. Qishloq xo'jaligida infratuzilma obyektlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari	102
Y BOB. QISHLOQ XO'JALIGIDA TRANSPORT XIZMATIDAN FOYDALANISH	104
5.1. Transport servis xizmati ko'rsatuvchi tarmoq rivojlanishining xalq xo'jaligi iqtisodiyotidagi ahamiyati va tutgan o'rni	104
5.2. Transport xizmati ko'rsatuvchi korxonalar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar o'rtasidagi o'zaro tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy munosabatlar	111
5.3. Transport xizmati ko'rsatishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari	118
YI BOB. QISHLOQ XO'JALIGIDA ENERGIYA RESURSLARIDAN FOYDALANISH	123
6.1. Qishloq xo'jaligini elektrlashtirish – texnika taraqqiyotining muhim yo'nalishidir	123
6.2. Qishloq xo'jaligi korxonalarida elektr energiya xizmatidan foydalanishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari	127
YII BOB. QISHLOQ XO'JALIGIDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH	131
7.1. Qishloq xo'jaligida suv resurslari– xo'jalik ishlab chiqarishning eng muhim omili	131
7.2. Qishloq xo'jaligida SIUlarini tashkil etish zarurligi	136
7.3. Suv xo'jaligi tizimlari xizmatidan foydalanishni havzaviy usulga o'tkazish va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish tadbirlari	146
7.4. Suvdan oqilona, samarali foydalanish yo'llari	154
YIII BOB. QISHLOQ XO'JALIGIDA SELEKSIYA VA NASLCHILIKNI RIVOJLANTIRISH XIZMATI	161
8.1. Qishloq xo'jaligida seleksiya va urug'chilikning ahamiyati	161
8.2. Urug'chilik va naslchilikni rivojlantirish muammolari	164
8.3. Naslchilikda veterinariya xizmatining ahamiyati	167
IX BOB. QISHLOQ XO'JALIGIDA KIMYO XIZMATINI TASHKIL ETISH	172
9.1. Qishloq xo'jaligida kimyo xizmatini tashkil etish va rivojlantirishning o'ziga xos hususiyatlari	172
9.2. Kimyo xizmatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar	179
9.3. Qishloq xo'jaligida mineral o'g'itlardan foydalanishni optimallashtirish va uni yetkazib berish tizimini takomillashtirish	184

X BOB. ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASIDA	15
TAYYORLOV TIZIMI VA UNING TASHKILIY -	
IQTISODIY ASOSLARI	188
10.1. Tayyorlov tizimini takomillashtirishning obyektiv shart-sharoitlari va uning infratuzilma tarmog'i sifatida shakllanishi	188
10.2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash, saqlash, qayta ishlash va sotish infratuzilmasini rivojlantirish	190
XI BOB. IJTIMOY INFRATUZILMA FAOLIYATINI	
TASHKIL QILISH	200
11.1. Ijtimoiy infratuzilmaning mohiyati va mazmuni	200
11.2. Qishloqda zamonaviy uy-joylar qurish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	207
11.3. Qishloq xo'jaligida ijtimoiy infratuzilmani tashkil etish va rivojlantirish yo'llari	214
XII BOB. QISHLOQ AHOLISIGA MADANIY-MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH	223
12.1. Aholiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish turlari va ular faoliyatini tashkil qilish	223
12.2. Madaniy-maishiy xizmat ko'rsatuvchi muassasalarning qishloq aholisi turmush darajasini oshirishdagi roli	225
12.3. Qishloqlarda madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'ida kadrlar tayyorlash	236
12.4. Istiqbolda qishloq joylarda sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish yo'llari	241
XIII BOB. QISHLOQ XO'JALIGIDA BOZOR	
INFRATUZILMASINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	246
13.1. Bozor infratuzilmasining iqtisodiy mohiyati	246
13.2. Bozor infratuzilmasini rivojlantirishda xorijiy tajriba	250
13.3. Qishloq xo'jaligi infratuzilmasini moliyalashtirishning asosiy yo'nalishlari	262
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	276
ILOVALAR	284

KIRISH

Bozor munosabatlarini shakllantirish jarayonida qishloq xo'jaligini isloh qilish asosida dehqon mehnatining nufuzini oshirish, oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish, mamlakatimiz qishloq joylarida aholi uchun qulay ish va turmush shart-sharoitlarini yaratish muammolarini hal etish bugungi kunning eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Darhaqiqat, O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar chuqurlashuvi sharoitida qishloq joylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida qabul qilingan. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun eng avvalo qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarga talab darajasida xizmat ko'rsatish va ularning ehtiyojlari to'liq qondirilishi uchun ilmiy asoslangan infratuzilmani yaratish talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: «Xizmatlar va servis sohasining joriy yilda keskin o'sishi, avvalo qurilish, transport, moliya-bank va axborot-kommunikatsiya sohalarida, aholiga tibbiy va kommunal-maishiy xizmatlar ko'rsatishda, ayniqsa, qishloq joylarda bu sohani yanada kengaytirish hali-beri foydalanilmayotgan katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Xizmatlar sohasining rivojlanishi ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi va sifati bo'yicha biz iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardan hamon jiddiy orqada qolmoqdamiz».¹

¹ I.A.Karimov. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. Xalq so'zi. 2012-yil 20-yanvar.

2012-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan biri «... bu xizmatlar sohasining jadal rivojlanishini ta'minlash»² dan iboratdir.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligida mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllarining o'zgarishi bilan birga, mahsulot ishlab chiqarishdan boshlab uni sotishgacha bo'lgan jarayonda, ya'ni tayyorlov, qayta ishlash, xizmat ko'rsatish, ta'minot, savdo-sotiqligi, moliya va tijorat tizimini o'z ichiga olgan yangi samarali infratuzilma tizimini bozor tamoyillari asosida rivojlantirish agrar tarmoqda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'ldi.

Respublika Prezidenti va hukumatining bir qator qarorlariga ko'ra, tegishli vazirlik, kompaniya, tijorat banklari va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qishloqda hududlarning tabiiy-iqtisodiy shart-sharoiti, qishloq xo'jaligi ekinlarini ixtisoslashtirish va joylashtirish, aholining o'sish sur'atlari, aholi bandligi va boshqa omillarini hisobga olgan holda ko'plab infratuzilma subyektlari tashkil etildi.

Ularni zarur texnika va jihozlar hamda malakali kadrlar bilan ta'minlash belgilab berilgan holda ushbu shoxobchalarga turli imtiyozlar (soliq imtiyozlari, imtiyozli kreditlar olish va boshqalar) ham berildi. Ushbu imtiyozlar natijasida qishloqdagagi xo'jalik yuritish subyektlarning boshlang'ich faoliyatlarining samarali yo'lga qo'yilishiga amaliy yordam ko'rsatildi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida fermer xo'jaliklarini rivojlantirishda moddiy-texnika ta'minot tizimi, ilmiy-texnika taraqqiyoti va intensivlashtirish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida hal qiluvchi omildir. Qishloq xo'jaligini intensivlashtirish ishlab chiqarish qurollari takomillashuvi, xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish va jonli mehnat hissasini kamaytirish evaziga ulardan samarali foydalanishni taqozo etadi.

² O'sha joyda.

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida qishloq xo‘jaligi infratuzilmasini optimal joylashtirish va rivojlantirish muammosi yaxlit tizimga keltirilgan holda yetarlicha o‘rganilmaganligini inobatga olgan holda, mazkur o‘quv qo‘llanmada qishloq xo‘jaligi infratuzilmasining o‘ziga xos xususiyatlarining nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan.

Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi infratuzilmasini samarali tashkil etish yo‘nalishlarini belgilash, optimal joylashtirish, ustuvor shakllantirish yo‘llarini aniqlash, qishloq xo‘jaligi infratuzilma subyektlari bilan fermer xo‘jaliklari o‘rtasidagi iqtisodiy va huquqiy munosabatlarni takomillashtirish, bu sohada mavjud muammolarni aniqlab, hal etish yuzasidan fikrlar bayon qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi talablari, Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘quv-uslubiy birlashmalari faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning qarori bilan tasdiqlangan (2009-yil 17-avgust-dagi 14-sonli bayonnomasi hamda №BD-5340100-3.10 bilan ro‘yxatga olingan) «Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti» fanining o‘quv dasturi asosida yozilgan ushbu o‘quv qo‘llanmada o‘qitishning yangi ta’lim texnologiyasi, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydanilgan holda har bir mavzu bo‘yicha maqsadi, mazmuni, mohiyati va ahamiyati yoritilgan hamda mavzu bo‘yicha nazorat va muhokama uchun savollar, tayanch iboralar va foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati keltirilgan.

«Qishloq xo‘jalik infratuzilmasi iqtisodiyoti» o‘quv qo‘llanmasi oliy o‘quv yurtlarining iqtisodiy ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun mo‘ljallangan. Bundan tashqari, ushbu kitobdan qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti muammolari bilan shug‘ullanuvchi o‘qituvchilar, talabalar, tadqiqotchilar, aspirantlar va tadbirkorlar ham foydalanishi mumkin.

Mualliflar ushbu o‘quv qo‘llanma bo‘yicha bildirilgan fikr va mulohazalar hamda takliflarni mammuniyat bilan qabul qiladilar va ularni keyingi nashrlarni tayyorlashda inobatga oladilar.

**I BOB. QISHLOQ XO'JALIGI INFRATUZILMASI
IQTISODIYOTI FANINING PREDMETI, USULLARI VA
VAZIFALARI**

O'quv maqsadi: fanning ahamiyati, o'rni, predmeti, o'rganish usullari, vazifalari va infratuzilmani rivojlantirishning obyektiv zarurligini o'rgatishdan iborat.

**1.1. Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi iqtisodiyotining
ahamiyati va uni rivojlantirishning obyektiv zarurligi**

Bozor munosabatlarini shakllantirish jarayonida qishloq xo'jaligi korxonalarini isloh qilish va shu asosda dehqon mehnatining nufuzini oshirish, qishloq xo'jaligini sifat jihatdan yangi asoslarda qayta tiklash, oziq-ovqat muammosini hal etish, mamlakatimiz qishloq joylarida qulay ish hamda turmush sharoitlarini ta'minlash eng asosiy masalalardan biri etib belgilangan.

XX asrning 90-yillariga kelib aholi turmush darajasini oshirish vazifasi bevosita qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, qishloqda ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini boshqarishning bozor tamoyillariga mos keladigan tashkiliy tuzilmasini shakllantirish singari dolzarb masalalarni kun tartibiga qo'ydi. Davlat mulkiga asoslangan xo'jalik yuritish shakllari, o'rniga tashkil etilgan shirkat xo'jaliklarining aksariyati o'z izdoshlarining bozor munosabatlariga zid an'analarini davom ettirdi va natijada yerdan samarasiz foydalanish tendensiyasi saqlanib qoldi. Ana shunda shirkatlarning istiqbolsiz tuzilma ekanligi yaqqol ko'zga tashlana boshladi. Bu ularning qarzdorligi va sarf-xarajatlarining oshishi bilan ham ifodalanadi. Shu kabi jiddiy sabablar yerdan yangicha uslubda, yangi tuzilmalar asosida foydalanish zaruratini tug'dirdi. Tashkil etiladigan yangi tuzilmalar asosida qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni ko'paytirishga, dehqonchi-

likdan ko‘riladigan manfaatdorlikni xarajatlarni kamaytirish va hosildorlikni osbirish hisobiga yuksaltirish hamda asosan qishloqlar aholisi uchun barqaror daromad manbaini shakllantirishga erishish lozim edi. Bunda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining mustaqilligini kengaytirish hamda ularning ishonchli huquqiy muhofazasini ta’minalash uchun qishloq xo‘jaligida mulkchilik shakllarini o‘zgartirish va ishlab chiqarish munosabatlarini takomillash-tirish eng muhim ustuvor masala qilib belgilandi.

Ana shunday vaziyatda yerlarni uzoq muddatli ijara berish kutilgan natijalarga olib kelishi nazariy jihatdan isbotlandi va shu uslub amalda qo‘llanib, dehqon va fermer xo‘jaliklari yuzaga keldi.

Yurtboshimiz o‘z nutqida ta’kidlaganlaridek: «Qishloq xo‘jaligini isloh qilish bo‘yicha aniq maqsadga qaratilgan ishlar natijasida qishloq xo‘jaligi tubdan o‘zgardi. ... xususiy fermer xo‘jaliklari o‘z mohiyatiga ko‘ra qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosiy shakliga, sohani barqaror va samarali rivojlantirishni ta’minalaydigan yetakchi kuchga aylandi»³.

Ma’lumki, qishloq xo‘jaligida dehqon va fermer xo‘jaliklarining tashkil etilishi qishloq xo‘jaligida tadbirdorlik va xususiy ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish orqali aholi turmush darajasini oshirish omili bo‘lib xizmat qiladi. Xo‘jalik yuritishning mazkur shakllari asosida respublikada aholini iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan samarali bandligini ta’minalash imkoniyati paydo bo‘ldi. Xo‘jalik yuritishning dehqon va fermer xo‘jaliklari shakli ishlab chiqarishni boshqarish tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqishni obyektiv zaruratga aylantirdi. Natijada, qishloq xo‘jaligini zamona-vylashtirish hamda dehqon va fermer xo‘jaliklariga bozor


³ Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta’minalash – barcha islohot va o‘zgarishlarimizning bosh maqsadidir; 2007-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakuntlari va 2008-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustivor yo‘nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasi. // Xalq so‘zi. 2008 8-fevral.

tamoyillari va mexanizmlari asosida xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma tarmog'i shakllanmoqda.

Islohotlarning asosiy yo'nalishlari quyidagilarda aks etdi:

- qishloq xo'jaligining xomashyo bozorini rivojlantirish (urug', o'g'it, yoqilg'i-moylash materiallari va individual xizmat kabi), qishloq xo'jaligi infratuzilmasini takomillashtirish;
- servis xizmatlarni yaxshilash, shuningdek, tayyorlov tizimini rivojlantirish;
- tarmoqda xizmat ko'rsatish sohasi uchun kadrlarni gayta tayyorlash va malakasini oshirish.

Agrar tarmoqda iqtisodiy islohotlar jarayonida fermerlik harakatiga ustunlik berilganligi natijasida 2010-yilda respublikada fermer xo'jaliklarining yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarishidagi ulushi 35,0 foizni tashkil etdi (1.1.1-rasm).



1.1.1- rasm. Respublikada qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining mult shakllari bo'yicha taqsimlanishi⁴

⁴ O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va Statistika vazirligi hamda Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Respublikamizda fermer xo'jaliklarini tashkil etish, ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash qishloq xo'jaligi infratuzilmasi obyektlari rivojlantirilishini quyidagi sabablarga ko'ra obyektiv zaruriyatga aylantirmoqda:

– ushbu xo'jaliklar tuman markaziga bank xizmatidan foydalanish, moddiy va xomashyo resurslarini sotib olish uchun borib-kelishi transaksion xarajatlarning sezilarli darajada oshishiga olib keladi. Har bir fermer xo'jaligi uchun bunday moliyaviy va vaqt bosimi ular faoliyatining samaradorligini kamaytiradi va barqaror xo'jalik yuritishiga salbiy ta'sir qiladi;

– O'zbekistonda shakllanayotgan bozor munosabatlari ta'sirida qishloq xo'jaligida bandlikning miqdor jihatdan mutlaq va nisbiy qisqarishga moyilligi bo'shayotgan mehnat vositalarini infratuzilma va qayta ishlash sohasiga yo'naltirilishini taqozo etadi;

– jahon tajribasidan kelib chiqqan holda, fermer va dehqon xo'jaliklarining samarali faoliyat yuritishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, infratuzilma muassasalari xizmatining yetarli bo'lishi va uning sifati xo'jaliklarni bozor iqtisodiyoti sharoitida samarali faoliyat ko'rsatishining muhim sharti hisoblanadi.

Aynan shu sababli o'tkazilayotgan agrar islohot nafaqat qishloq xo'jaligining o'zida bozor munosabatlariga moslashgan fermer xo'jaliklarini shakllantirishni, balki prinsipial jihatdan boshqacha qishloq xo'jaligi infratuzilmasini yaratishni ham ko'zda tutadi. Yangi infratuzilma obyektlari fermer xo'jaliklariga keng ko'lamdag'i kerakli ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasi xizmatlaridan foydalanish imkonini berishi, shuningdek, bir tomonidan, mahsulotni daladan iste'molchilarga samarali yetkazib berishi, ikkinchi tomonidan, bozordagi vaziyat haqidagi ma'lumotlarni iste'molchilardan ishlab chiqaruvchilarga samarali etkazishi lozim.

1.2. Qishloq xo‘jaligini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda infratuzilmaning o‘rnii

Respublikada 2000–2010-yillar mobaynida yalpi qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibida ma’lum bir o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. 2000-yilga nisbatan 2010-yilda yalpi qishloq xo‘jaligi mahsuloti YAIM tarkibida 30,1 foizdan 17,5 foizga kamaygan. Bu holat xalq xo‘jaligida boshqa tarmoqlarning o‘sishi hisobiga ro‘y bergan. Qishloq xo‘jaligida yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotida o‘silikchilik tarmog‘ining ulushi tahlil qilinayotgan davr mobaynida 50,2 foizdan 59,4 foizga oshdi, chorvachilik tarmog‘i esa aksincha 49,8 foizdan 40,6 foizga cha kamaygan (1.2.1-jadval).

1.2.1-jadval

Respublikada qishloq xo‘jaligi rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili⁵

№	Ko‘rsat- kichlar	O‘khov birligi	Yillar						
			2000	2005	2006	2007	2008	2009	2010
1	Qishloq xo‘jaligi- ning YAIM dagi ulushi	%	30,1	26,3	25,1	21,7	19,4	18,2	17,5
2	Qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chi- qatishning o‘sishi	%	103,1	105,4	106,7	106,1	104,5	105,7	106,8
3	O‘silik- chilik mah- sulotlari ishlab chi-	%	103,1	107,0	106,3	107,2	102,8	105,9	106,6

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va Statistika vazirligi hamda Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

	qarishning o'sishi	%	50,2	55,6	55,9	55,6	53,5	57,1	59,4
4	O'simlik- chilik mah- sulotlari- ning ulushi	%	103,0	103,6	105,9	104,6	106,7	105,5	107,0
5	Chorva- chilik mah- sulotlari ishlab chi- qarishning o'sishi	%	49,8	44,4	44,1	44,4	46,5	42,9	40,6
6	Chorva- chilik mah- sulotlari- ning ulushi	%							

Infratuzilma qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirish va samaradorligi o'sishining muhim omili hisoblanadi. Sanoatlashtirish, kimyolashtirish, melioratsiya va ishlab chiqarishning boshqa asosiy omillarini tez sur'atda o'sishiga nafaqat ishlab chiqarish mablag'larining miqdoran o'sishi hisobiga, balki xizmat tizimini tashkil etilishi hisobiga erishiladi. Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 5-yanvar 8-soni Qaroriga asosan respublikada 5ta qishloq xo'jaligi infratuzilmasi obyektlarining turlari (MMTP, SIU, YOMM, mineral o'g'itlarini sotish shoxobchalari, minibank) tashkil etilgan edi. Hozirgi kunga kelib, ushbu xizmat ko'rsatuvchi obyektlarning 10 ta turi mavjud, lekin istiqbolda ushbu turlar kengayib, qishloq xo'jaligi infratuzilma turlarini 23 taga etkazish lozim (1.2.2 - jadval).

Fermer xo'jaliklariga samarali xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar natijasida bugungi kunda respublikada 1720 ta MMTP, 1711 ta SIU, 1377 ta YOMM va 917 ta mineral o'g'it sotish shoxobchalari, 1179 ta minibank, 424 ta qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash, 2540 ta zotli mollar sotish va zooveterinariya xizmatlari, 301 ta axborot ta'minoti va

konsalting shoxobchasi, 82 ta transport xizmati ko'rsatish, 78 ta tara idishlar tayyorlash va qadoqlash bo'yicha shoxobchalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Ushbu infratuzilma obyektlari tomonidan bирgina 2010-yilda jami 2 trln. 100 mlrd. so'mdan ortiq xizmatlar ko'rsatildi.

1.2.2 - jadvar

O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan infratuzilma obyektlari⁶

Infratuzilma obyektlari	2006-y	2007-y	2008-y	2009-y	2010-y
Mini bank	895	1207	1094	1478	1179
Muqobil MTP	1562	1779	1777	1757	1720
Mineral o'g'itlar sotish shoxobchasi	1051	891	928	935	917
Suv iste'molchilar uyushmasi	1271	1676	1676	1712	1711
YOMM sotish shoxobchasi	1130	1340	1373	1389	1377
Qishloq xo'jalik mahsulotlari sotish shoxobchasi	581	443	424	424	424
Zooveterinariya punktlari	381	2180	2278	2411	2540
Axborot ta'minoti va konsalting xizmati ko'rsatish shoxobchalari	317	295	300	300	301
Transport xizmati ko'rsatish shoxobchasi	77	82	82	82	82
Tara idish va qadoqlash materiallari bilan ta'minlash shoxobchalari	73	78	78	78	78
Agrofirmalar	195	203	193	262	269

Infratuzilma tarmog'ining mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi roli naqadar katta ekanligini hisobga olib hukumatimiz tomonidan agroinfratuzilmalar tarkibini

⁶ O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va Statistika vazirligi hamda Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

yangilash, ishlab chiqarishga yaqinlashtirish, xizmatlar, samaradorligini oshirish to‘g‘risida bir qator me’yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ushbu hujjatlarning amal qilishi, infratuzilmaning agrosanoat majmuida tutgan o‘rnini oshirmoqda.

Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi tarkibiga kiruvchi tarmoqlar, korxonalar xizmat ko‘rsatish holatiga qarab turli guruhlarga bo‘linadi. Bu guruhlar bo‘linishiga qarab ulardan qaysi maqsadlar uchun foydalanish lozimligini aniqlash mumkin. Ularga:

- infratuzilma tarkibiga kiruvchi har bir tarmoq, korxonaning agrar ishlab chiqarish jarayonidagi xizmati va uning tutgan o‘rnini aniqlash va baholash imkoniyatini beradi;

- agrar ishlab chiqarish asosiy sohalari bilan ularga xizmat ko‘rsatayotgan infratuzilma o‘rtasidagi bajariladigan ishlar ko‘lami, ularni bajarish muddatlari, ularning moddiy-textnika holatini oldindan rejashtirishni amalga oshirish;


- ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarini boshqarishni bir-birlariga moslashtirish, oxirgi natijani aniqlash.

Ammo qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi tarmoqlari bajaradigan vazifalarining ko‘p qirrali bo‘lishi, ularni bir vaqtda bajarish mumkin emasligi, xizmat ko‘rsatish texnologiyasining turliligi, infratuzilma korxonalarini bir yoki ikki turdagि ko‘rsatkichlar yordamida guruhlarga kiritish mumkin emas.

Yuqorida sanab o‘tilgan masalalarning muvaffaqiyatli hal etilishi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni chuqur o‘rganishni taqozo etmoqda (1.2.1 – rasm).

Agrosanoat majmuasida ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sir etuvchi barcha omillarni quyidagi guruhlarga ajratish maqsadga muvofiqdir:

- tabiiy-tarixiy omillar: kimyolash, melioratsiya, irrigatsiya va boshqa vositalar yordamida tuproq iqlim



1.2.1- rasm. ASM tarmoqlarida ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar

sharoitlarini yaxshilash, chorvachilik va dehqonchilik sohalarda seleksiya, genetika va boshqa vositalar hamda omillar;

– ijtimoiy omillar: inson qobiliyatlarining aniqlanishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan omillar – jismoniy, psixologik, intellektual, mehnatga va uning natijalariga ijobiy munosabatlarning rivojlanishi va salbiylarining chetlash-tirilishi bilan bog'liq omillar;

– tashkiliy-xo'jalik omillari: ishlab chiqarishni tashkil etishning, uning ixtisoslashuvi, konsentratsiya, ilg'or tajribaning qo'llanilishi, boshqaruv tizimini va uslublarining xarakteri va darajasi hamda boshqalar;

– material-texnik omillar: ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, elektrlashtirish, avtomatlashtirish darajasi va sifati, qo'llaniladigan texnologiyalarning darajasi, fanning rivojlanishi va boshqalar;

– iqtisodiy omillar: ishlab chiqarishni rejalashtirish va istiqbolni belgilash, iqtisodiy tahlil, hisob va nazorat, mehnatni normallash, ishlarni tarifikatsiyalash va boshqalar.

Ushbu omillar u yoki bu darajada ishlab chiqarish rivojlanishining mazkur bosqichi uchun xarakterli bo'lgan ishlab chiqarish munosabatlarining yig'indisi bilan bog'langan.

Mamlakatimizning hozirgi sharoitida qishloq xo'jaligi tarmoqlarining islohotlari iqtisodiy o'zgarishlarning eng muhim strategik maqsadlar va birinchi galdag'i vazifalar sirasiga kiradi. Yuqorida ta'kidlanganidek, ishlab chiqarish samaradorligining o'sishiga tuproq-iqlimi, tashkiliy-unumli (ishlab chiqarishga oid), texnik-texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy kabi omillar ta'sir qiladi. Iqtisodiy tadqiqotlarda birinchi omillar guruhlariga katta e'tibor qaratilmoqda, binobarin, ishlab chiqarish natijalariga ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta'siri kam o'rganilgan. Buning sabablaridan biri – ularni miqdor jihatdan hisoblashning qiyinligi, shuningdek, ba'zi bir ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta'sirini birdan aniqlab bo'lmasligi.

Ishlab chiqarish bor joyda, albatta, ularga mos kelgan xizmatlarning ham bo'lishi talab etiladi. Ishlab chiqarish infratuzilmasi yuqorida qayd qilinganidek, ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatib, uning samaradorligini oshirishga o'z hissasini qo'shadi. Ishlab chiqarish jarayoniga ko'rsatiladigan xizmat turlari xilma-xil bo'lib, ular ichida salmoqli o'rinni agrar transport xizmati egallaydi.

Aloqa xizmatlaridan foydalanish ham ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Agrosanoat majmui – soha ichidagi bo'limlar, bo'g'inlar va sohalararo aloqalarsiz ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish muammolarini hal qilishni ancha qiyinlashtiradi.

Qishloq xo'jaligida katta maydonlarga ekinlar ekish asosida ish yuritadilar. Bu yerlarni qisqa vaqt ichida ekishga tayyorlash, ekish, ekin qator oralarini ishlash, qishloq xo'jaligi ekinlari kasalliklariga va zararkunandalariga qarshi kurash olib borish, hosilni o'rib-yig'ib olish, tayyorlov punktlariga, omborlarga tashish va boshqa bir qator katta hajmdagi ishlar qo'l kuchi bilan bajarilishi mumkin emas. Bu ishlarni bajarish uchun xilma-xil qishloq xo'jaligi mashina va texnikalaridan foydalanish talab etiladi. Ularning bir me'yorda ishlashi ishdan chiqqan qismlarini va eskirganlarini yangilash, yoqilg'i-moylash materiallari va ehtiyyot qismlar bilan ta'minlash,

ta'mirlash kabi xilma-xil xizmatlar ko'rsatish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Xizmatlarni amalga oshirish maqsadida mashina-traktor parki, avtoservis, xizmat ko'rsatish punktlari, savdo, servis markazlari tashkil etilmoqda.


Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi bo'g'inlarida maxsus xizmat ko'rsatish bo'g'lnlari (agrotexnik, o'simliklarni himoya qilish, veterinariya, sun'iy ochirish, yuridik konsultatsiyalar, banklar xizmati) ham o'z xizmatlarini ko'rsatadilar. Bu maxsus xizmatlarning har birining qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish faoliyatidagi ahamiyati kattadir. Masalan, faqat qishloq xo'jaligi ekinlari kasalliklariga va zararkunandalarga qarshi qilingan xizmatlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarining nobud bo'lishining oldini olish imkoniyatini yaratadi.

Qishloq xo'jaligi infratuzilma bo'limlari xizmati, birlarlari bilan o'zaro bog'langan holda yoki o'zlar mustaqil xizmat ko'rsatish yo'li bilan ishlab chiqarishning intensiv rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shib, qishloq xo'jaligida iqtisodiy o'sishni amalga oshirishga yordam beradilar. Tadqiqotlarga ko'ra, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda infratuzilma tarmoqlarining ta'siri katta bo'lib, ishlab chiqarish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadigan omillardan biri hisoblanib, bu jarayonning bir me'yorda borishini ta'minlab bersa, bozor infratuzilmasi xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida bozor mexanizmlarini rivojlantiradi va ikkalasi uyg'unlashgan holda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni ta'minlaydi (1.2.2-rasm).

Qishloq xo'jaligida mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllarining o'zgarishi bilan birga, mahsulot ishlab chiqarishdan boshlab uni sotishgacha bo'lган jarayonda, ya'ni tayyorlov, qayta ishlash, xizmat ko'rsatish, ta'minot, savdo-sotiq, moliya va tijorat tizimini o'z ichiga olgan yangi samarali infratuzilma tizimini bozor tamoyillari asosida rivojlantirish agrar tarmoqda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'ldi.

Respublika Prezidenti va hukumatining bir qator qarorlariga ko'ra tegishli vazirlik, kompaniya, tijorat banklari va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qishloqda hududlarning tabiiy-iqtisodiy shart-sharoiti, qishloq xo'jaligi ekinlarini ixtisoslashtirish va joylashtirish, aholining o'sish sur'atlari, aholi bandligi va boshqa omillarini hisobga olgan holda ko'plab infratuzilma subyektlari tashkil etildi.

Ularni zarur texnika va jihozlar hamda malakali kadrlar bilan ta'minlash belgilab berilgan holda ushbu shoxobchalarga turli imtiyozlari (soliq imtiyozlari, imtiyozi-



1.2.2 - rasm. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligiga infratuzilma tarmoqlarning ta'siri.

kreditlar olish va boshqalar) ham berildi. Ushbu imtiyozlar natijasida qishloqdagi xo‘jalik yuritish subyektlarining boshlang‘ich faoliyatlarini samarali yo‘lga qo‘yilishiga amaliy yordam ko‘rsatildi.

Biroq vazirlikning tegishli boshqarmalari tomonidan olib borilayotgan monitoring natijalari ushbu infratuzilma subyektlarining aksariyati samarasiz faoliyat yuritayotgani, ayrim hollarda moddiy-texnik bazasining umuman yo‘qligini, malakali mutaxassislar bilan ta’minlanmaganligini ko‘rsatmoqda.

Buning asosiy sababi sifatida viloyat va tumanlar hokimliklari darajasida infratuzilma obyektlarini, ayniqsa MMTP, SIU, agrofirma, zooveterinariya kabi subyektlarning faoliyatini tahlil qilish, debitor va kreditor qarzlarini kamaytirish borasida ularga o‘z vaqtida amaliy yordam ko‘rsatish, mavjud muammolarini hal qilish bo‘yicha olib borilayotgan ishlari, mahsulot ishlab chiqaruvchilar bilan xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar o‘rtasidagi shartnoma munosabatlарини то‘г‘ри yo‘lga qo‘yish va shartnoma majburiyatlarining bajarilishini nazorat qilish masalalari umuman talabga javob bermasligini ko‘rsatish mumkin.

1.3. «Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti» fanining predmeti, o‘rganish usullari va vazifalari

Qishloq xo‘jaligining muhim vazifalaridan biri, mamlakat aholisini oziq-ovqat, qayta ishlash sanoatini esa zarur qishloq xo‘jaligi xomashyosi bilan ta’milashdir. Ushbu masalani hal etish keljakda tarmoqni intensivlashtirish, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish, turli xil mulkchilik va xo‘jalik yuritishning ko‘pgina shakllarini rivojlantirish bilan bog‘liqdir. Xo‘jalik yuritishning ilmiy asoslanganlik darajasini yuksaltirish, ishlab chiqarishni boshqarishda tashabbuskorlik va faollikni kuchaytirishning asosiy sharti qishloq xo‘jaligi mutaxassislarini iqtisodiy jihatdan tayyorlash hisoblanadi.

Shu sababdan, «Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti» fanining asosiy maqsadi obyektiv iqtisodiy qonunlarning faoliyat ko'rsatishi hamda qishloq xo'jaligida amal qilishi shakllarini o'rghanishdir. Bunda u iqtisodiy yo'nalishdagi barcha fanlar kabi qishloq xo'jaligi tarmog'idagi ishlab chiqarish munosabatlari moddiy ishlab chiqarishning boshqa sohalari bilan o'zaro bog'liqlikda qaraydi, tabiiy, texnik va boshqa aralash fanlardagi tadqiqot natijalariga e'tibor qaratadi.

Iqtisodiyot deganda, keng ma'noda, kishilarning ishlab chiqarish jarayonida kirishadigan ijtimoiy munosabatlari yig'indisi tushuniladi. Tarmoq iqtisodiy fanlari (sanoat iqtisodi, transport, qurilish, savdo, qishloq xo'jaligi va boshqalar) umumiy iqtisodiy qonuniyatlarining xalq xo'jaligi tarmog'ida amal qilish xususiyatlarini o'rGANADI.

Qishloq xo'jaligi bo'ysunadigan iqtisodiy qonunlar obyektiv xarakterga ega va inson ongiga bog'liq bo'lmanan holda amal qiladi. Umumiy iqtisodiy qonunlar tomonidan boshqarilgan holda qishloq xo'jaligi iqtisodi ushbu qonunlarning aniq bir sharoitlarda amal qilish xususiyatlarini oshib beradi, ulardan xo'jaliklar amaliyotida foydalanish uslublarini ishlab chiqadi.

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy qonunlar tizimi – qiymat qonuni, mehnat unumdorligining o'sish qonuni, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish qonuni, jamg'arish qonuni amal qiladi. Ulardan buni bilgan holda foydalanish aholining o'sib borayotgan talabini qondirishga, jamiyatning barcha a'zolarini har tomonlama erkin rivojlantirishga yo'naltiriladi.

«Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti» fani bu jarayonga faol aralashib, amaliy xulosalar chiqaradi va asosiy iqtisodiy qonunlardan ASMni rivojlantirishda foydalanish usullarini ishlab chiqadi. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish jarayonidagi harakati va ishlab chiqarish bilan o'zaro munosabatlarni o'rGANADI, qishloq xo'jaligi iqtisodining muhim vazifasi bo'lgan qishloq xo'jaligi

mashina va uskunalarini, agrotexnik tadbirlar samaradorligini aniqlash jarayonlarini tashkil etadi.

Bozor munosabatlarini rivojlantirish sharoitida iqtisodiy fanlarda «tarmoq iqtisodi» tushunchasi bilan birga, «ekonomiks» tushunchasi ham keng ishlatalmoqda. Iqtisodiy qonunlarni o'rganish nuqtai nazaridan, «moddiy resurslardan foydalanish» va «aholi ehtiyojlarini qondirish» tushunchalari bir-biriga yaqin, lekin aynan bir xil emas. Iqtisodiyot xalq xo'jaligi tarmoqlarining (shu jumladan, qishloq xo'jaligining ham) moddiy ishlab chiqarishdagi boshqa sohalar bilan o'zaro ishlab chiqarish munosabatlarini o'rganadi. Ekonomiks, K.Makkonell va S.Bryularning ifodalashicha, insonlarning cheklangan resurslar olamida moddiy boylik va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonidagi xulq-atvorini o'rganadi. Ekonomiksning asosini quyidagi ikki fundamental haqiqat tashkil etadi:

- jamiyatning moddiy ehtiyojlari cheksiz va qondirilmaydigan;
- iqtisodiy resurslar, ya'ni tovar va xizmatlar uchun vositalar cheklangan.

Shu jihatdan mutlaq moddiy farovonlikka erishib bo'lmaydi. Insonning moddiy ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishga erishish maqsadida cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish variantlarini qidirish «Ekonomiks» fanining predmetiga kiradi.

«Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti» kursini o'rganishda texnologik («Yershunoslik», «O'simlikshunoslik», «Agrokimyo», «Melioratsiya», «Mexanizatsiya va elektrorashtirish», «Chorvachilik», «Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash», «Sabzavotchilik», «Bog'dorchilik» va boshqalar) hamda iqtisodiy («Matematika», «Siyosatshunoslik», «Iqtisodiyot nazariyasi», «Qishloq xo'jaligida rejalashtirish va istiqbollash», «Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish», «Hisoblash texnikasi va kompyuter texnologiyalari», «Informatika», «Statistika»,

«Mehnatni muhofaza qilish va normalashtirish», «Buxgalteriya hisobi») fanlar bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish muhim rol o'ynaydi. Ayni vaqtida «Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti» tarmoq fani sifatida iqtisodiy yo'nalishdagi quyidagi fanlarni o'rghanish uchun asos yaratadi: «Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish», «Xo'jalik faoliyati tahlili», «Iqtisodiy-matematik usullar», «Moliyalashtirish va kreditlashtirish», «Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini boshqarish», «Xalqaro iqtisodiy munosabatlar», «Tadbirkorlik», «Qishloq xo'jaligi bozorlari» va hokazo.

Haqiqatni bilish usullari fanning usullarini tashkil etadi. «Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti» fani asosini dialektik usul tashkil etib, bunda uzuksiz harakat va o'zgarishlar sharoitida jarayonning rivojlanishi o'r ganiladi va har bir hodisa yagonalik va qarama-qarshiliklar (eski va yangi) o'rtasidagi kurashni ifodalaydi. Katta hajmdagi iqtisodiy materiallarni tahlil qilishda iqtisodiy tadqiqot usullaridan, chunonchi, statistik (korrelatsiya, dispersiya, indeks, regressiya), monografik, iqtisodiy-matematik, grafik, o'chov-konstruktiv, tajribaviy, abstrakt-mantiqiy va boshqalardan foydalilanildi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. «Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti» fanining ahamiyati, zaruriyati nimadan iborat?
2. «Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti» fanining qishloq xo'jaligidagi o'rni nimadan iborat?
3. «Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti» fanining predmeti, vazifalarani aytib o'ting.
4. «Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti» fanining o'rghanish usullarini izohlab bering.
5. «Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti» fani qaysi iqtisodiy va texnologik fanlar bilan o'zaro aloqada?

II BOB. INFRATUZILMANING MOHIYATI, TARKIBI VA TURKUMLASHTIRILISHI

O‘quv maqsadi: infratuzilmaning mohiyati, mazmuni, tarmoq sifatida shakllanishi, rivojlantirishning asosiy bosqichlari va o‘ziga xos hususiyatlariga oid nazariy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

2.1. Xalq xo‘jaligida infratuzilmaning tarmoq sifatida shakllanishi va rivojlanishi

Jahon tajribasida infratuzilma tushunchasi XX asr boshlariда birinchi bor harbiy qurolli kuchlarning to‘laqonli faoliyat yurgizishi uchun zarur bo‘lgan obyektlar va inshootlar majmuasi sifatida muomalaga kiritilgan. G‘arb davlatlari taraqqiyot bosqichining 1940-yillariga kelib infratuzilmani moddiy ishlab chiqarish sohalarining faoliyatiga zaruriy shart-sharoitlar yaratuvchi tarmoq va muassasalarining yaxlit bir tarkibi sifatida tushunishgan.⁷ 1970–1980-yillardan sobiq ittifoq respublikalarining iqtisodiy adabiyotlarida, odatda, infratuzilmani muhandis-texnik bino va inshootlarning yig‘indisi sifatida ko‘rilgan.

Infratuzilma atamasining paydo bo‘lishi, shakllanish bosqichlari ushbu obyektlarning takomillashuvi va iqtisodiy nazariyaning rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir.

Dastlabki bosqichda infratuzilma tushunchasi alohida iqtisodiy kategoriya sifatida qaralmagan va bunda mazkur muammoning tahliliga yondashuvning shakllanishi vujudga kelgan. A.Smit o‘zining «Xalqlar boyligi» asarida davlatning vazifalari haqida so‘z yuritganda, «...faqatgina ayrim shaxs yoki kichik guruhlarga foydali bo‘lishi mumkin bo‘lmagan,

⁷ Коновалова В.Н. Экономическая эффективность производственной инфраструктуры сельского хозяйства.: Автореф. Дис.канд.экон. наук. – Вологда. РГБ ОД,2002., С. 18.

ma'lum bir ijtimoiy imorat va muassasalarini tashkil etish va ta'minlab turish»⁸ ni ham shularga kiritgan.

Jamoa ishlari deganda A.Smit yo'l, ko'priklarni qurish, yoshlarning ta'lim tizimini, sud tizimini, cherkovni nazarda tutgan. Klassik siyosiy iqtisod tarafdarlari ayrim individuumlar uchun ma'lum bir ishlab chiqarish obyektlarining faoliyat yuritishining o'zi norentabel deb hisoblashgan, ammo ularni butun jamoa uchun muhim ahamiyatga ega deb ta'kidlaganlar.⁹ Dastlabki bosqichning xususiyati shundan iboratki, infratuzilma obyektlari mutelik xarakteriga ega va to'liq asosiy ishlab chiqarish korxonalarining ehtiyojlari va o'sishiga bog'liq.

Infratuzilma kategoriyasining shakllanish bosqichi XX asrning 40-yillarida boshlandi. «Infratuzilma» atamasi bu bosqichda iqtisodiy adabiyotlarda qo'llanilib, ishlab chiqarishning muhim bir omili sifatida qarala boshlangan. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, ushbu bosqichda infratuzilmaning kategoriya sifatida shakllanishi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan.

Infratuzilmani alohida mustaqil element sifatida rivojlangan kapitalizmning iqtisodiy tizimida tahlil qilinishiga sabab, bir tomonidan jamiyatda mehnatning taqsimlanish jarayonlarining chuqurlashuvi, ikkinchi tomonidan faqatgina bozor mexanizmi orqali infratuzilmani to'liq rivojlantirish imkoniyati yo'qligi. Faqatgina xususiy kapital hisobiga mamlakat uchun zarur bo'lgan yo'l, ko'rik, kanal, dambalarni qurish imkonini yo'qligi davlatning infratuzilma sohalarini rivojlantirishga faol aralashuviga olib keldi. Natijada, infratuzilma sohasi mustaqil bir tarmoq sifatida shakllandi.

Sobiq ittifoq mamlakatlarda ishlab chiqarish omillari tizimida infratuzilmaning o'rnnini aniqlash va uning

⁸ Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. В 2-х т. – М.:Наука, 1992. Т.1. С. 13

⁹ Жаравина Ю.А. Производственная инфраструктура, как фактор повышения конкурентоспособности национального хозяйства: Автореф. дис...канд. экон. наук.. – Санкт – Петербург: 2006. С. 17.

rivojlanishiga turtki berilishiga sabab XX asr 40-yillarning birinchi yarmidagi industrializatsiya jarayonlarining chuqurlashuvi, ilmiy-texnika taraqqiyoti va hokazolardir.

Infratuzilmaning bir tizim sifatida shakllanish bosqichi XX asrning 80-yillarida boshlangan. Ushbu davrdan boshlab infratuzilmaga yaxlit tizim va raqobatbardoshlikni oshiruvchi, milliy iqtisodiyotning shakllanishini belgilovchi omil deb qaray boshlangan.

2.2. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi infratuzilmasining shakllanishi, rivojlantirishning asosiy bosqichlari va o‘ziga xos xususiyatlari

Mamlakatimizda keyingi yillarda infratuzilma yuksak sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda. Buni bir qator omillar bilan izohlash mumkin. Xususan, ishlab chiqarishning o’sish sur’atlari infratuzilmalar rivojidan oldin bormoqda va bu iqtisodiyotning rivojlanishiga ham o‘z ta’sirini o’tkazmoqda. G‘arb iqtisodiy adabiyotlarida bu jarayonni «iqtisodiyotning servislashuvi» (ingilizcha «servise» – xizmat) degan atama bilan nomlanmoqda. Ishlab chiqarishning servislashuviga quyidagi omillar ham o‘z ta’sirini o’tkazadi: ijtimoiy mehnat, taqsimotining chuqurlashuvi, aholi daromadlarining o’sishi, kredit resurslariga bo‘lgan talabning kengayishi, ilmiy-texnik taraqqiyot sur’atlarining oshishi, ishlab chiqarishning alohidalashuvi va diversifikatsiyasi, resurslarni tejashga asoslangan ishlab chiqarishning rivojlanishi va boshqalar. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning yakuniy natijalari nafaqat bevosita xo‘jalikning o‘z imkoniyatlariga bog‘liq bo‘ladi, balki unga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilma tarmoqlarining rivojlanish darajasi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Infratuzilma bo‘linmalarining rivojlanib borishidan dehqon va fermer xo‘jaliklari katta manfaat ko‘radi, negaki bu xo‘jalik a’zolarini ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlardan ozod etib, ularning kuchg‘ayratini asosiy faoliyatga qaratishga imkon yaratadi.

Respublikada qishloq xo‘jaligi infratuzilmasining rivojlanishini shartli ravishda uch bosqichga bo‘lingan holda o‘rganildi va ular uchun xos quyidagi xususiyatlar aniqlandi (2.2.1 - jadval):

I bosqich 1995–2001-yillarni qamrab olgan bo‘lib, qishloq xo‘jaligi infratuzilmasining shakllanish davri hisoblanadi. Ushbu yillarda infratuzilma xizmatlariga ehtiyoji bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar, ya’ni dehqon va fermer xo‘jaliklarining rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda past rentabelli, zarar bilan ishlaydigan shirkat xo‘jaliklari negizida fermer xo‘jaliklari vujudga keldi va fermer xo‘jaliklari ta’sischilarini hisoblangan muqobil MTP, SIU¹⁰lar tashkil etila boshladi. Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, bu davrda infratuzilma obyektlarini shakllantirish uchun huquqiy-me’oriy hujjatlar yetarli emas va ularni rivojlantirish mexanizmlari shakllanmagan edi.

II bosqich (2002–2006-yillar) – qishloq xo‘jaligi infratuzilmasini rivojlantirishga oid huquqiy-me’oriy hujjatlarning qabul qilinishi va fermerlarga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilma obyektlarining davlat dasturlari asosida shakllantirilishi kuzatildi. Istiqbolli xo‘jalik yurituvchi shakl hisoblangan fermer xo‘jaliklarining rivoji bevosita unga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilma obyektlariga bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 27-oktabrdagi «2004–2006-yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiysi to‘g‘risida»gi Farmoniga muvofiq fermer xo‘jaliklarining barqaror rivojlanishini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlarning biri sifatida qishloqda fermer xo‘jaliklarining ehtiyojlariga qarab barcha zarur xizmatlarni ko‘rsata oladigan zamonaviy ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini jadal rivojlantirish belgilandi.

¹⁰ MTP – mashina traktor parklari, SIU – suv iste’molchilarini uyushmalari

Qishloq xo'jaligi infratuzilmasining shakllanish bosqichlari

Bosqich nomi	Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi shakllanish davrlari	Qabul qilingan huquqiy va me'yoriy asoslar	Asosiy erishilgan natijalar
I bosqich. Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi shakllanish davri	1995- 2002-yillar	<ul style="list-style-type: none"> - «Bank va bank faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (1996-yil 25-aprel) - «Qishloq xo'jaligi kooperativi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (1998.yil 30-aprel) - «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (1998.yil 30-aprel) - «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (1998.yil 30-aprel) - «Lizing to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (1999.yil 14-aprel) - «MTPlarning moddiy texnika bazasini mustahkamlash haqida»gi O'zbekiston 	<ul style="list-style-type: none"> - Qishloq xo'jaligida asosiy xo'jalik yurituvchi subyektlar sifatida shirkat, fermer va dehqon xo'jaliklar shakllandi; - Qishloq xo'jaligi korxonalariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma obyektlari shakllana boshlandi (MMTP, SIU, minibanklar); - Qishloq xo'jaligi texnikalarini lizing asosida olish yo'lga qo'yildi; - «O'zqishloqxo'jalikkimyo» davlat aksiyadorlik kompaniyasiga qarashli viloyat boshqarmalari tarkibida 452 dan ortiq mineral o'g'itlar bilan savdo qiliwchi do'konlar tashkil etildi; - Davlat ehtiyojlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish transh mablag'lar hisobiga moliyalashtirildi;

			<ul style="list-style-type: none"> - Yer solig'i takomillashtirildi - yagona yer solig'i joriy qilindi.
Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori (1998-yil 10-mart)			<ul style="list-style-type: none"> - «Qishloq xo'jaligida agrokimyoiy xizmat ko'rsatishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori (2001-yil 1-fevral)
II bosqich. Qishloq xo'jaligi infrastrukturini masi ob'yektlarini rivojlantirishga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlar tizimini yaratish bosqichi	2002 – 2006-yillar		<ul style="list-style-type: none"> - «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chonqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (2003-yil 24-mart) - «Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish va majburiyatlarni bajarilishi uchun tomonlarning javob garligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori (2003-yil 4-sentabr) - «2004–2006-yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiysiyo to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi <p> <ul style="list-style-type: none"> - Fermer xo'jaliklarini rivojlantirishga e'tibor berildi; - «2004–2006-yillarda qishloqda ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini rivojlantirish dasturi» qabul qilindi. Ushbu daslurga muvofiq viloyatda 2004–2006-yillar mobaynida jami 84 ta muqobil MTP lar, 75ta suvdan foyda-lanuvchilar uyushmlari, 84 ta yoqilg'i-moylash materiallari (YOMM) sotish shoxobchalari, 68ta mineral o'g'itlar va o'simliklarni himoya qilish vositalarini sotish shoxobchalari, 55 ta mini banklar, 22 ta qishloq xo'jaligi mahsulotlari tayyorlash shoxobchalari, 9 ta zotli mollarni sotish va zooveterinariya xizmatlari </p>

	<p>Prezidentining Farmoni (2003-yil 27-oktyabr)</p> <ul style="list-style-type: none"> - 2004-2006-yillarda fermer xo‘jaliklari ni rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshinish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mafkumasining qaroni (2003-yil 30 oktyabr) - «Fermer xo‘jaliklarning davlat ehtiyojlarini uchun xarid qilinadigan paxta va g‘alla yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining (2003-yil 8-noyabr) va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Qarorlari (2003-yil 8- noyabr) 	<p>shoxobchalarini, 15 ta axborot ta‘minoti va konsalting shoxobchalarini tashkil etildi.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Yangi tashkil etilgan qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi obyektlariga imtiyozlar berildi – 2-yil davomida soyda va mol-mulk solig‘i to‘lashdan ozod etildi; - Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarni ishab chiqaruvchi va xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy munosabatlarning huquqiy asosi yaratildi; - Fermer xo‘jaliklarning davlat ehtiyojlarini uchun xarid qilinadigan paxta va g‘alla yetishtirish xarajatlarini imtiyozli kreditish tizimiga o‘tildi.
	<p>III bosqich. Qishlo q xo‘jaligi infratuzi- masini jadal rivqilan- tirish</p>	<ul style="list-style-type: none"> - Mevasabzavotchilik va uzumchilik sohalarida isloh qilish taskilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (2006-yil 11-yanvar) - «O‘zbekiston Respublikasida 2006-2010-yillarda xizmat ko‘rsatish va <ul style="list-style-type: none"> - Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi; - Qishloq xo‘jaligida yangi istiqbolli xizmat turlari – axborot-konsalting, bank, moliya, sug‘urta, tara idishlarini qadoqlash kabi xizmatlar shakllandi;

bosqichi	<p>servis sohasini rivojlanirishni jadaglishitirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (2006-yil 17-apreli) – «Mikrokreditbank» AT banki faoliyatini tashkil etish va uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (2006-yil 6-may)</p> <p>– «2007-yilda qishloq xo‘jaligi korxonalarini fermer xo‘jaliklariga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (2006-yil 11-noyabr)</p> <p>– «O‘zbekiston Respublikasida 2010-yil davrgacha xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlanirishni jadallashitish qo‘shimcha ehora-tadbirlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (2007-yil 21-may)</p>	<ul style="list-style-type: none"> – Infratuzhma muassasalarida ishlayotgan kadrlar malakasini oshirishga e‘tibor berilmoqda; – Qishloq xo‘jaligi mahsulotlарини ishlаб chiqaruvchilarga zamona viy sug‘urta xizmatlarini joriy etish; – Bank muassasalarining xizmat ko‘rsatish doirasini kengaytirish, mijozlar uchun qo‘shimcha shartsharoitlar yaratish va qo‘shimcha mablag‘larni jalg erish; – Fermer xo‘jaliklariga lizing va mikrolizing xizmat ko‘rsatish hajmi va sonini ko‘paytirish; – Fermer xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatadigan MMTP, SIU, YOMM, mineral o‘g‘it sotish shoxobchalarini, zoovete rimariya, tayyorlov korxona va muassasalarining xizmat ko‘rsatish sifatini yaxstilash
----------	---	--

III bosqich 2007-yil va undan keyingi yillarni o‘z ichiga olib, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish dasturi asosida amalga oshirilib, xizmat turlarini kengaytirish, sifat darajasini yaxshilash va istiqbolli fermer xo‘jaliklarining raqobatbardoshligini oshirishga ko‘maklashadigan xizmat turlarini jadal rivojlantirishga e’tibor berilmoqda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 11-yanvardagi 255-sonli va 2006-yil 21-noyabrdagi 514-sonli qarorlari asosida mamlakatimizda fermerlik harakatini jadal rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Shuningdek, xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida kadrlar tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlashga har tomonlama e’tibor berilmoqda.

Shu bilan birga, fermer xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatuvchi va ta’minot korxonalarini rivojlantirishda quyidagi kamchiliklarga yo‘l qo‘yilmoqda. Jumladan:

- infratuzilma subyektlari va fermer xo‘jaliklari o‘rtasida shartnomalarni aniq bir tizim asosida tuzilmasligi natijasida tomonlar o‘rtasida o‘z majburiyatlarining bajarilishiga mas’uliyatsizlik bilan qarash hollari uchramoqda;
- infratuzilma subyektlarida sarf-xarajatlar ustidan doimiy monitoring olib borilmayapti;
- infratuzilma subyektlarida ko‘rsatilgan xizmatlar va bajarilgan ishlar bo‘yicha aniq hisob-kitobni yuritilmasligi natijasida debitorlik va kreditorlik qarzlar oshib ketmoqda;
- tuman hokimliklari va infratuzilma subyektlari rahbarlari tomonidan debitorlik va kreditorlik qarzlarni kamaytirish borasida aniq tadbirlar (inkassaga qo‘yish, oldindan pul tushirilishini talab qilish va boshqalar) amalga oshirilmayapti;
- infratuzilma subyektlari rahbarlari va bosh mutaxassislarining kasbiy malakasini oshirish, zahira kadrlarni tayyorlash borasida aniq tadbirlar ishlab chiqilmagan;

– joylarda infratuzilma subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishiga (zarur bino-inshoatlar bilan ta'minlash, boshlang'ich moliyaviy yordam ko'rsatish, kadrlar bilan ta'minlash va boshqalar) mahalliy hokimiyatlar tomonidan amaliy yordam ko'rsatilmayapti.

Bular natijada infratuzilma subyektlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar narxlarining oshishiga, sifati pasayishiga, moddiy resurslar esa kerakli miqdorda o'z vaqtida yetkazib berilmasligiga olib kelmoqda.

Ko'rib turganimizdek, ushbu davrlar mobaynida respublikamizda qishloq xo'jaligi infratuzilmasini shakllantirish uchun ko'pgina chora-tadbirlar amalga oshirildi, ammo shuni ham ta'kidlash lozimki, agrar sektorda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish uchun quyidagi larga e'tibor qaratish lozim:

- fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy va huquqiy hujjatlar to'liq ishlab chiqilmaganligi;

- infratuzilma shoxobchalari qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning talab va takliflaridan kelib chiqqan holda nomutanosib joylashganligi;

- xizmat ko'rsatish muassasalari o'z funksiyalarini talab darajasida bajarishi uchun yetarli resurs va salohiyatga ega emasligi.

Respublikada xizmat ko'rsatish va servis sohasi bozor talablari darajasida yaxshi rivojlanmaganligini e'tiborga olib, xizmatlar ko'rsatish sohasida tadbirkorlikning faolligini yanada kuchaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish va yalpi ichki mahsulotda xizmat ko'rsatish tarmog'inining ulushini oshirish maqsadida Respublika Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida 2006–2010-yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2006-yil 17-apreldagi № 325-sonli va «O'zbekiston Respublikasida 2010-yilgacha xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirishning qo'shimcha

chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2007-yil 21- maydagi № 640-sonli Qarorlari qabul qilindi.

Qishloq joylarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasining yaxshi rivojlanmaganligi, o‘z navbatida, qishloq joylardagi ishsizlik darajasiga, qishloq aholisining turmush sharoitiga, umuman xizmat ko‘rsatish sohasiga bo‘lgan ehtiyojning yuqoriligidan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining № 640-sonli qaroriga asosan agrar sohada 2010-yilgacha xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan.

Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasini rivojlantirishdan ko‘zlangan maqsad quyidagilardan iborat:

- agrar tarmoqda xizmatlar ko‘rsatish va servis sohasi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- ushbu tarmoqda band bo‘lganlar sonini 20%gacha ko‘paytirish va shu orqali aholining daromadlarini oshirish;
- bozorni zamonaviy, sifatli xizmat turlari bilan to‘ldirish;
- 2010-yilgacha agrar sohada xizmatlar ko‘rsatish sohasida uning ulushini 49 foizgacha oshirish.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishni besh yo‘nalishlarda olib borish belgilangan.

Birinchi yo‘nalish – xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini va tashabbuskorlikni yanada kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish. Bunda qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi soha manfaatlarini huquqiy va me’yoriy jihatdan qo‘llab-quvvatlovchi tizimni yanada rivojlantirish, shuningdek, agrobiznes vakillari uchun maslahat, informatsiya ta’minot markazlarini tashkil etish.

Ikkinci yo‘nalish – xizmat ko‘rsatish sohasida ishlovchilar sonini oshirish. Bu yo‘nalish qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi bozor va ishlab chiqarish infratuzilma subyektlarining faoliyatini kengaytirish hamda xizmat ko‘rsatish va servis sohasida agrobiznes va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilma xizmatlarini tashkil etish masalalarini qamrab oladi.

Uchinchi yo‘nalish – kreditlash tizimini rivojlantirish va investitsiya loyihalarni jalb etish uchun qulay shart-sharoitlarni ta’minlash orqali tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish hamda an‘anaviy xizmat turlari bilan yangi istiqbolli xizmat turlarini jadal rivojlantirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarini o‘z ichiga olgan, qishloq aholisiga xizmat ko‘rsatuvchi xizmat turlarini kengaytirish va hajmini oshirib borish.

To‘rtinchi yo‘nalish – xizmat ko‘rsatish va servis sohasi uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga ko‘maklashish. Bunda asosiy e’tiborni tadbirkorlikni ilmiy- uslubiy ta’minotini ta’minlash va agrobiznes subyektlari uchun mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashga qaratilgan.

Beshinchi yo‘nalish - jahon bozorida mahalliy korxonalarining xizmat ko‘rsatish sisfati va darajasini oshirish. Bu yo‘nalishda korxonaning ijobiy natijalarini targ‘ib etish, jamiyatning ijtimoiy rivojlanishidagi yutuqlarini tashviqot qilish kabi chora-tadbirlarini amalga oshirish orqali erishish nazarda tutilgan.

Prezidentimizning «O‘zbekiston Respublikasida 2010-yilgacha xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirishning qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2007-yil 21-maydagi № 640-sonli Qaroriga ko‘ra 2007–2010-yillar davomida dehqon va fermer xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilma tarmog‘ini rivojlantirish natijasida quyidagi ishlarni amalga oshirish belgilangan:

- lizing asosida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari va mashina-traktor parkiga 10000 dona qishloq xo‘jaligi texnikasini xarid qilish;
- 2010-yilgacha suv iste’molchilarini uyushmasi sonini 1600 taga etkazish hamda 10 foizgacha suvni iqtisod qilish;
- zotdor chorva mollarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan xo‘jaliklar sonini 250 taga etkazish, fermer va dehqon xo‘jaliklariga har yili 10 ming dona zotli mollarni sotish belgilangan;

— fermer xo‘jaliklaridan mineral o‘g‘it sotish shoxobchalargacha bo‘lgan masofani maksimal darajada qisqarishini hisobga olib, ushbu tizimning disklokatsiyasini ta’minlash;

— tayyorlov shoxobchalarni, eng avvalo, qayta ishlovchi korxonalarining qo‘sishimcha tarmog‘ini tashkil etish. Bu o‘z navbatida, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotib olish va qayta ishslash hajmining oshishiga va nobud bo‘lishining qisqarishiga olib keladi.

2.3. Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasining mohiyati, tarkibi va turkumlashtirilishi

Iqtisodiy adabiyotda infratuzilma terminiga turlicha izoh berilgan. Lug‘aviy ma’nosiga qaraydigan bo‘lsak infratuzilma (lotincha infra – quyi, struktura – joylashuv, tuzilish) turli tuman xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlar kompleksi: transport, aloqa, savdo, moddiy texnika ta’mnoti, suv bilan ta’minlash, fan, maorif, sog‘liqni saqlash, atrof-muhitni himoya qilish va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Ayrim iqtisodchilar «Infratuzilma – bu iqtisodiy va ijtimoiy ishlab chiqarish uchun me’yoriy shart-sharoitlarni ta’minlovchi majmuadir», deb ta’riflasalar, boshqa adabiyotlarda «inson hayoti va ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida faoliyatlar almashinuvini ta’minlovchi tovar va xizmatlar yaratishda o‘ziga xos mehnat jarayonlari majmuasi»¹¹ dir, deb ta’rif berganlar.

Amerikalik olimlar Makkonel K.R., Bryu S.L. ning ta’kidlashicha, infratuzilma milliy iqtisodiyot darajasida «fuqarolar va firmalar tomonidan ulardan foydalanish odatda davlat tomonidan ta’minlanadigan kapital qurilmalardir (yo’llar, shahar transport tizimlari, suv tozalash qurilmalari, munitsipal suv ta’mnoti tizimlari,

¹¹ Salimov B.T. va b. Dehqon va fermer xo‘jaliklari iqtisodi. – Toshkent: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamig’armasi. 2004. 10-b.

aeroport) «shuningdek, «infratuzilma firma uchun – bu mahsulotni ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan xizmatlar va qurilmalardir (suv ta’minoti, elektroenergiya, ishlab chiqarish chiqimlarini olib ketish, yuklarni tashish, ilmiy – tadqiqot va loyiha - konstruktorlik ishlari, moliyaviy va bank xizmati)»¹². Ularni o‘z mablag‘lari bilan tashkil etish qimmatga tushganligi bois davlat va boshqa firmalar tomonidan ta’minlanadi deb ta’kidlaganlar.

Ishlab chiqarish sohasining unga xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar bilan o‘zaro aloqasidagi muammolar «infratuzilma» termini paydo bo‘lishidan avval vujudga kelgan, buni biz R.Nurke, P.Rozenshteyn-Rodan, A.Xirshman, A.YAngson asarlarida ko‘rshimiz mumkin.¹³

Amerikalik iqtisodchi P.Rozenshteyn-Rodanning olib borgan tadqiqotlarida infratuzilmaga «barcha aholining ehtiyojlarini qondiruvchi va iqtisodiyotning asosiy sohalarida xususiy tadbirkorlikni rivojlanishini ta’minlovchi umumi shart-sharoitlar majmuasi, yoki asosiy sohalar ...», deb ta’rif berilgan¹⁴. R.Ioxemsen o‘zining «Infratuzilma nazariyasi» nomli asarida infratuzilmani hududlarda yaxlit xo‘jalikni tashkil etishga ko‘maklashuvchi moddiy, shaxsiy va institutsional faoliyat turlarini va ularning tashkilotlarining yig‘indisi deb talqin etgan.¹⁵

Ingliz iqtisodchisi A.YAngson 40 - yillar boshida o‘zining ishlarida foydalangan «overhead capitale» – infratuzilma

¹² Макконел Кэмпбелл Р., Брю Стенли Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. В 2-х т. – М.: Республика, 1992. С. 388.

¹³ Коновалова В.Н. Экономическая эффективность производственной инфраструктуры сельского хозяйства: Дис...канд. экон. наук.- Вологда: 2002. С. 19.

¹⁴ Жаравина Ю.А. Производственная инфраструктура, как фактор повышения конкурентоспособности национального хозяйства: Дис...канд. экон. наук. – Санкт – Петербург: 2006. С. 19.

¹⁵ Коновалова В.Н. Экономическая эффективность производственной инфраструктуры сельского хозяйства: Дис...канд. экон. Наук. – Вологда: РГБ ОД, 2002. С. 18.

so‘zlarini X.Zingerga taalluqli deb uni ushbu atamaning kashfiyotchisi sifatida ko‘rsatadi. Ch.Murodov ham o‘z tadqiqotlarida R.Ioxemsenning infratuzilmaga ta’rifi o‘zining chuqur va to‘laqonli ekanligi va ko‘pgina chet el olimlarining bu boradagi fikrlarini umumlashtirganligi bilan ajralib turadi, deb ta’kidlagan¹⁶.

Rossiya olimlari «infratuzilma»ga turlicha ta’rif berishgan. Bir guruh olimlar (S.S.Nosova, V.P.Oreshin, V.G. Terentev) infratuzilmaga xalq xo‘jaligining tarkibini tashkil etuvchi sohalarning (sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish) rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar majmuasi deb ta’rif berishgan. Ikkinchi guruh olimlar esa (V.A.Jamin, V.P.Krasovskiy, A.Yu.Sharipov va boshq.) infratuzilma ixtisoslashgan sohalarning rivojlanishini ta’minlovchi tarmoqlar majmuasidir, deb ta’riflaganlar. Ularning asosiy vazifasi turli xildagi xizmatlarni ta’minalash hisoblanadi.¹⁷

Professor I.K.Belyayevskiy infratuzilmaga ta’rif berganda «asosiy bozor jarayonlarni tashkiliy va moddiy jihatdan ta’minlovchi, jami yordamchi soha va vositalar...»¹⁸, deb ta’kidlagan.

L.M.Gatovskiy fikriga ko‘ra, infratuzilma – bu butun bir ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligi va uzlusizligiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘lgan sohalar guruhidir.¹⁹

¹⁶ Murodov Ch. O‘zbekiston iqtisodiyotini erkinlashtirish sharoitida bozor infratuzilmasining rivojlanishi: Diss...iqt.f.d. – Toshkent: O‘zBIITI, 2001. 14-b.

¹⁷ Коновалова В.Н. Экономическая эффективность производственной инфраструктуры сельского хозяйства: Автореф. дис..канд. экон. наук.. – Вологда: РГБ ОД, 2002. С. 10.

¹⁸ Статистика рынка товаров и услуг/ И.К.Беляевский, Г.Д.Кулагина, Л.А. Данченко и др.; под ред. И.К.Беляевского – М.: Финансы и статистика, 2002. С. 364.

¹⁹ Жаравина Ю.А. Производственная инфраструктура, как фактор повышения конкурентоспособности национального хозяйства: Автореф. дис..канд. экон. наук.. – Санкт – Петербург: 2006. С. 12.

O‘zbek olimlari tomonidan infratuzilmaga turlicha ta’rif berilgan. Ba’zi adabiyotlarda «infratuzilma – takror ishlab chiqarish shart-sharoitlarini ta’minlaydigan ishlab chiqarish va noishlab chiqarish majmuidir. Asosiy ishlab chiqarish infratuzilmasi – bu energiyani ta’minlovchi, transport va aloqa zanjiridir».²⁰ Shuningdek, «infratuzilma – bu xalq xo‘jaligini yurgizib turish uchun umumiy sharoit yaratib beruvchi sohalardir. Ularning faoliyat natijasi – natura shaklidagi mahsulotlar emas, balki xizmatlardir».²¹

CH. Murodov fikriga ko‘ra, «infratuzilma jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va nomoddiy jarayonlarini qamrab olgan bo‘lib, turli-tuman moliyaviy ijtimoiy, huquqiy, axborot, ekologiya, boshqaruv va boshqa turdagи xizmatlar ko‘rsatish faoliyatini o‘z ichiga oladi va ishlab chiqarish jarayonining oxirgi natijasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi».²²

Tursunov A. G’. o‘z tadqiqotlarida «infrastruktura majmuasi – bevosita moddiy ne’mat ishlab chiqarishda qatnashmaydigan (ishlab chiqarish infrastrukturasiidan tashqari), ammo ishlab chiqarishning umumiy sharoitini va kishilar hayot faoliyatini ta’minlashga xizmat qiluvchi xo‘jalik tarmoqlari majmuidan iborat»²³, deb ta’riflagan, Chjen V.A. fikriga ko‘ra esa «infratuzilmaga moddiy ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatadigan, bilvosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq tarmoqlari kiradi»²⁴.

²⁰Berkinov B.B., Tashmatov R.X. O‘zbekistonda fermer xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilmalarni rivojlantirish yo‘nalishlari. – T.: TDIU, 2007. 23-b.

²¹ Ўша асап.

²²Murodov Ch. O‘zbekiston iqtisodiyotini erkinlashtirish sharoitida bozor infratuzilmasining rivojlanishi: Diss...iqt.fan..dokt. – Toshkent: O‘zBIITI, 2001. 18-b.

²³Tursunov A.G’. Ko‘p ukladli iqtisodiyot sharoitida qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish infrastrukturasiini tashkil etish va rivojlantirish: Avtref. Dis. ... iqt.fan.nomz.–T.:BIITI, 1998. 7-b.

²⁴Berkinov B.B., Tashmatov R.X. O‘zbekistonda fermer xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilmalarni rivojlantirish yo‘nalishlari. – T.: TDIU, 2007 - 23 b.

Vahobov A.R. o‘z tadqiqotlarida «xizmat ko‘rsatish sohasi – bu ishlab chiqarish tarmog‘i va ishchi kuchini takror ishlab chiqarish uchun sharoitlarni ta‘minlashga qaratilgan xalq xo‘jaligi tarmoqlari va faoliyat turlarining majmuasi-dir»²⁵, deb ta‘riflagan.

Umuman olganda, infratuzilma sohasiga ta‘rif berganda uning bir nechta jihatlariga e’tibor berish lozim:

- xizmatlar ko‘rsatish tizimida iqtisodiy munosabatlar tizimini tashkil etadi;
- infratuzilmaning rivojlanishi va taraqqiy etishi ko‘pgina hollarda u xizmat qilayotgan sohaning rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘ladi va aksincha;
- infratuzilma tarmog‘ining turlari qaysi sohaga xizmat qilishiga bog‘liq;
- jamiyat rivojlanishi, taraqqiy etishi bilan infratuzilma tarmog‘ining xizmat ko‘rsatish turlari kengayib boradi.

Umuman olganda, infratuzilma, bu – ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining mutanosib faoliyat yuritishi va aholi turmush darajasini oshirishga ko‘maklasuvchi xizmatlar majmuasi va ularning bino – inshootlaridir.

Shu paytga qadar infratuzilmani ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalardan iboratdir, deb qarab kelingan. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan iqtisodiy tizimning kirib kelishi bilan infratuzilmaning ko‘lami kengayib, bozor infratuzilmasi, institutsional infratuzilma, bank infratuzilmasi, birja infratuzilmasi, investitsion infratuzilma kabi atamalar iste’molga kirib kelmoqda.

Ch.Murodov fikricha, bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyat miqyosida infratuzilma oltita yo‘nalishda, ya’ni ishlab chiqarish, ijtimoiy-maishiy, institutsional, shaxsiy,

²⁵ Вахобов А.Р. Организация и развитие сферы услуг сельскому населению в условиях многоукладной экономики. Автореф. дис. канд. экон. наук. – Т.: НИИРР в АПК, 1997. С. 7.

ekologik va bozor munosabatlariga mos ravishda ajralib chiqadi va shakllanadi. Bu infratuzilmalarni bir-biridan ajratish, farqlash hamda ularning asosiy mohiyatlarini ifodalovchi ilmiy ta'riflash nafaqat nazariy, balki infratuzilma majmuasining iqtisodiy munosabatlar tizimida tutgan o'rnini asoslashda muhim amaliy ahamiyatga egadir.²⁶

Hozirgi adabiyotlarda asosan infratuzilmaning to'rtta turiga ta'rif berib kelmoqdalar, (2.3.1 - rasm).

1. Ishlab chiqarish infratuzilmasi bevosita ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarni o'z ichiga oladi.

Uning tarkibiga:


- moddiy-texnika ta'minoti;
- mahsulotni tashish, saqlash va qayta ishlash;
- texnik xizmat ko'rsatish;
- suv va elektr ta'minoti kabi bo'linmalar kiradi.

Bu turdag'i xizmatlarni ishlab chiqarish infratuzilmasiga kiritishdan asosiy maqsad – bu xizmatlar ishlab chiqarish jarayoniga bevosita ijobjiy ta'sir etadi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi o'ziga xos bir qator belgilarga ega:

- bu turdag'i xizmatlar bevosita mahsulot ishlab chiqarmaydi, lekin ishlab chiqarish jarayoniga bevosita ijobjiy ta'sir etadi;
- ko'rsatilgan xizmatlar samaradorligi faqat xizmat qilayotgan tarmoq, korxona, xizmat ko'rsatish punktlari ta'sirida amalga oshadi;
- infratuzilma tarmoqlarining rivojlanish darajasi asosiy ishlab chiqarish jarayonining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi;
- infratuzilma tarmoqlari, bo'g'inlarini ishga safarbar qilish, talablarning tezligi bevosita tovar ishlab chiqarish jarayonida paydo bo'ladigan talab darajasi bilan belgilanadi.

²⁶ Murodov Ch. O'zbekiston iqtisodiyotini erkinlashtirish sharoitida bozor infratuzilmasining rivojlanishi. Avtoref. iqt.f.dokt.. – T.: O'zBIIITI, 200-y. 11-12-b.



2.3.1.- rasm. Qishloq infruzilmasi va uning tarkibi

2. Bozor infratuzilmasi bevosita ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatmasa-da, xo'jalikning umumiy faoliyatini ta'minlashga xizmat ko'rsatadi. Masalan, marketing va reklama, axborot-maslahat, auditorlik, investitsion va shu kabi boshqa xizmat turlari xo'jalik faoliyatining turli tomonlari samaradorligini oshirishga xizmat ko'rsatadi.

Bozor infratuzilmasi huquqiy va jismoniy shaxs maqomidagi barcha sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi) va xaridor (iste'molchi)lar o'rtasida sodir bo'ladigan ko'p qirrali bozor munosabatlarining bevosita ishtirok etuvchi, boshqaruvchi, nazorat qiluvchi, tekshiruvchi, maqsadli yo'naltiruvchi va ishlab chiqarishdan toki iste'mol qilishgacha bo'lgan jarayonlarning bir tekis va to'xtovsiz kechishi uchun shart-sharoit, imkoniyatlar yaratish maqsadida xizmat ko'rsatuvchi jabha va muassasalarini o'z ichiga oluvchi butun bir yaxlit majmuadir.²⁷

3. Ijtimoiy infratuzilma ishlab chiqarish jarayonida ishchi va xizmatchilarga normal mehnat faoliyatini yaratish va ishchi kuchini takror hosil qilish uchun, shuningdek qishloq aholisining turli maishiy xizmat turlariga bo'lgan talabini qondirish uchun xizmat qiladi. Ijtimoiy infratuzilma tarkibi agrar sohada ishchi kuchini takror ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan xizmatlar: maorif va madaniy muassasalar, sport, turar joy va kommunal xo'jaligi, sog'liqni saqlash va himoya qilish muassasalari, bog'chagacha, muktabgacha bo'lgan bolalar muassasalari, umumovqatlanish korxonalari, savdo, aholiga xizmat ko'rsatuvchi transport, mehnatni muhofaza qilish xizmatlari, texnika xavfsizligi, o'quv-ishlab chiqarish kombinatlari,


²⁷ Choriyev Q.A. Bozor infratuzilmasini shakllantirish – iqtisodiy islohotlar chuqurlashtirish garovi// Bozor islohotlarini chuqurlashtirishning asosiy yo'naliishlari va qishloqda infratuzilmalarni rivojlantirish: Respublika ilmiy-amaliy seminar ma'ruzalar to'plami. – Toshkent: O'zBIIITI, 1998. 15-b.

sog'lomlashtirish muassasalari kiradi. Ijtimoiy infratuzilma – insonning har tomonlama kamol topishi va unga erishish sohasida ko'rsatiladigan xizmatlar yig'indisidir.

4. Institutsional infratuzilma iqtisodiyot rivojlanishining optimal makroiqtisodiy nisbatlarini qo'llab-quvvatlovchi va tartibga soluvchi sohalar faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Unga iqtisodiyotni tartibga solib turuvchi davlat va nodavlat boshqaruv organlari, moliya-kredit muassasalari va boshqalar kiradi.

Bundan tashqari, infratuzilma tarmoqlarini hududiy belgilari, soha va tarmoqlar belgisiga hamda foydalanish jihatlariga qarab quyidagicha turkumlashtirish mumkin (2.3.2 - rasm).

Infratuzilma hududiy belgilariga qarab – makroiqtisodiy, hududiy va mahalliy guruhlarga bo'linadi. Makroiqtisodiy infratuzilma mamlakat miqyosidagi infratuzilmasiga mansub



2.3.2-rasm. Qishloq xo'jaligida infratuzilma sohalarining vazifasiga qarab turkumlashtirilishi


bo'lib, ular makroiqtisodiyot tarkibiga kiruvchi sektorning ish faoliyatiga xizmat ko'rsatadi. Masalan, moddiy-texnika ta'minoti, elektr energiya uzatuvchi liniya, mineral o'g'itlar va urug'lar yetkazib berish, maorif, sog'liqni saqlash va hokazolarni kiritish mumkin. Bu infratuzilmalar bo'g'inlari mamlakat tomonidan tashkil etilib, ular davlat tomonidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish korxonalariga o'z xizmatini ko'rsatadilar. Hududiy infratuzilmalari ma'lum hududga, qishloq xo'jalik korxonalariga o'z xizmatini ko'rsatadi.

Mahalliy infratuzilmalar makroiqtisodiyot tarkibiga kiruvchi mahalliy ishlab chiqarish bo'g'inlariga: shirkatlar, fermer va dehqon xo'jaliklari va boshqalarga bo'linadi. Mahalliy infratuzilma ayrim xo'jaliklar bilan kelishgan holda shartnomalar asosida o'z xizmatlarini ko'rsatadilar.

Infratuzilmalarning soha va tarmoqlar belgisiga qarab guruhlarga bo'linishi agrosanoat majmuida ko'pchilik turdag'i infratuzilmalar, sohalararo xarakterga ega bo'ladilar. Bunga - transport, aloqa vositalari, elektr ta'minoti kabi infratuzilmalarni kiritish mumkin. Bu infratuzilma bo'g'inlari bir necha turdag'i sohalar, masalan, o'simlikchilik, chorvachilik sohalariga xizmat ko'rsatishi mumkin. Ammo bir qator infratuzilma bo'g'inlari faqat bir tarmoqqa xizmat ko'rsatishi mumkin: masalan, agrokimyo xizmati, texnika-ta'mirlash xizmati, veterinariya xizmati, urug' tayyorlash punkti va hokazo bo'g'inlar bir yoki bir necha ekin yoki chorva mollari turiga xizmat ko'rsatadi.

Infratuzilma xizmatlarini agrosanoat majmuida foydalanish jihatidan guruhlashda ikki darajada: bevosita qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish (agroservis) va yetishtirilgan mahsulotni iste'molchiga yetib borishiga qadar ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'linadi.

Birinchi doirada xizmat qiluvchi infratuzilma bo'g'inlariga: qishloq xo'jaligi mashinalariga texnik xizmatlar ko'rsatish, transport, melioratsiya, suv ta'minoti, agronomiya, veterinariya va boshqa xizmat turlari, ilmiy



2.3.3-rasm. Qishloq xo'shaligi infratuzilmasi xizmatlarining tasnifi

va amaliy xabar, axborotlar xizmati, yo‘l xizmati, aloqa, moddiy-texnika ta’minoti, elektr quvvati bilan ta’minlash kabi bo‘g‘inlar kiradi.

Ikkinci doirada xizmat qiluvchi infratuzilma bo‘g‘inlariga: qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tayyorlash, idish, ombor, sovutkich xo‘jaliklari kiradi. Bu turdag‘ xizmatlar, yetishtirilgan mahsulot sifati buzilmagan holda iste’molchilarga yetkazib berish bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlardan tashkil topadi.

Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi ko‘rsatayotgan xizmat turlarini xarakteriga ko‘ra moddiy ta’minot, moliyaviy ta’minot, informatsion ta’minot va reklama, maxsus xizmat, tashish va qayta ishlash turlariga ajratish mumkin (2.3.3-rasm).

Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasini ushbu tartibda tasniflash uning bajaradigan vazifasini to‘laqonli aks ettira oladi va shu bilan birga, kelajakda fermer xo‘jaliklariga ko‘rsatilayotgan xizmat turlarini kengaytirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Xalq xo‘jaligida infratuzilmaning tarmoq sifatida shakllanish bosqichlarini izohlab bering.
2. O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish bosqichlari nimalardan iborat?
3. Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasining o‘ziga xos xususiyatlarini izohlab bering.
4. Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasining mohiyati, tarkibi va turkumlanishi deganda nimani tushunasiz?
5. ASM tarmog‘ida infratuzilma qanday turlarga bo‘linadi?

III BOB. QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARI VA XIZMAT KO‘RSATUVCHI KORXONALAR O‘RTASIDAGI ALOQALARNING HUQUQIY VA IQTISODIY SHAROITLARI

O‘quv maqsadi: qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar o‘rtasidagi huquqiy-iqtisodiy aloqalarini asoslash va hududlarning ixtisoslashuvini inobatga olgan holda infratuzilma obyektlarini optimal joylashtirish va rivojlantirish bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

3.1. Dehqon va fermer xo‘jaliklari faoliyatining tahlili

Dunyoda aholi soni shiddat bilan o‘sayotganligi va shunga yarasha ularning oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlari tobora ortib borayotgan bir paytda, ularning extiyojlarini ta’minlaydigan asosiy tarmoq, ya’ni qishloq xo‘jaligida agrar islohotlarni yanada chuqurlashtirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash, aholini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan tadbirlarning samarali tizimini yaratishni taqozo etadi.

Buning uchun oldimizda turgan eng ustuvor masalalar, ya’ni mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish, sifatini yaxshilash, fermer xo‘jaligi yerlarida va aholi tomorqalarida yerdan foydalanish samaradorligini oshirish, buning uchun birinchi navbatga yerning haqiqiy egalarini topish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish, saqlash, qayta ishslash, eksportga yo‘naltirish, ularni mablag‘ bilan ta’minalash kabilarni hal etish talab etilmoqda.

O‘zbekistonda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan «2009–2012-yillarga mo‘ljallangan inqirozga qarshi choralar» dasturi doirasida ko‘rilayotgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta’minalash natijasida dastlabki hisob-kitoblarga

asosan mamlakat bo'yicha amaldagi baholarda 15 trln. 810,7 mlrd. so'mlik yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarilgani holda qiyoslama baholarda 2009-yilga nisbatan o'sish darajasi 6,8 foizni tashkil etdi. 2010-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 2009-yilga nisbatan 6,8 foizga, 2000-yilga nisbatan esa 1,8 barobar oshgani ham shundan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari bilan 1999–2001-yillar davomida 68 ta istiqbolsiz past rentabelli shirkat xo'jaliklari negizida 4041 ta fermer xo'jaliklari tashkil etildi.

Tashkil etilgan fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish, iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlari bu turdag'i xo'jalik yuritish shaklining ancha samarali ekanligini hamda hukumatimiz tomonidan bu borada olib borilayotgan siyosatning to'g'riligini isbotladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 5-yanvardagi 8-sonli «Qishloq xo'jaligi korxonalarini fermer xo'jaliklariga aylantirish to'g'risida»gi qaroriga asosan zarar bilan ishlayotgan Yozyovon, Mirzaobod va Mehnatobod tumanlaridagi yana 83 ta shirkat xo'jaliklari to'liq fermer xo'jaliklariga aylantirilgan edi.

2004-yildan respublikamizda fermerlikni keng targ'ib etish davri boshlandi.

2004–2007-yillar davomida respublikamizning barcha hududlarida shirkat xo'jaliklari to'liq tugatilib, ular negizida 215 mingdan ziyod fermer xo'jaliklari tashkil etildi.

Biroq fermer xo'jaliklari faoliyatini chuqur tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, amalga oshirilgan chora-tardbirlarga qaramay, hali ham fermer xo'jaliklari faoliyatida bir qator yechimini kutayotgan masalalar mavjudligini ko'rsatdi.

Xususan, ayrim hollarda fermer xo'jaliklari tomonidan yer maydonlari samarasiz foydalanilmayotganligi, moliyaviy-iqtisodiy ahvolining surunkali og'irligi, moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanmaganligi, yer ajratishda tumanlarning tuproq-iqlim sharoitiga va tumanlardagi aholi

zichligi va bandligi masalalariga e'tibor berilmaganligi, shuningdek xo'jaliklarning tarmoq ixtisosligi (paxta va g'allachilik, bog' va uzumchilik, sabzavot va polizchilik, chorvachilik va boshqalar) bo'yicha yer uchastkalarining maqbul bo'limmaganligi kabi masalalardir.

Shuning uchun ham, yuqorida qayd etilgan muammolarni hal etish maqsadida Respublika Prezidenti tomonidan 2008-yil 6-oktabrdagi F-3077-sonli «Fermer xo'jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalari maydonini maqbullashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi.

Mazkur farmon ijrosini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilgan maqbullashtirish jarayonida respublika fermer xo'jaliklarining soni 215 ming 776 tadan 105 ming 200 tagacha yoki 52 foizga kamaydi. Bunda fermer xo'jaliklarining o'rtacha yer maydonlari 27,4 hektardan 56,5 hektargacha ko'paydi.

Maqbullashtirish jarayonini tahlil qilish natijalariga ko'ra, fermer xo'jaliklarining aylanma mablag'lari oshganligi, yer uchastkalari mineral o'g'itlar, qishloq xo'jalik texnikalari va boshqa moddiy resurslardan samarali foydalanishga olib kelganligini ko'rsatdi.

Fermer xo'jaliklarida 2010-yilda yalpi ichki mahsulot 5528,9 mlrd. so'mni tashkil etdi yoki 2009-yilga nisbatan 105,5 foizga oshgan. Yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotida fermer xo'jaliklarining ulushi 35,0 foizni tashkil etdi.

Fermer xo'jaliklariga biriktirilgan umumiylar yer maydoni 5826,8 ming hektarni tashkil etmoqda.

2011-yil yanvar holatiga ko'ra fermer xo'jaliklarida jami 501,7 ming bosh yirik shoxli qoramollar, shundan 172,6 ming bosh sigir, 1149,9 ming bosh qo'y va echkilar, 3968,6 ming bosh parranda boqilgan.

1-yanvar 2010-yilga nisbatan yirik shoxli qoramollar soni 5,1 ming boshga (yoki 1,0 foizga), sigirlar 4 ming boshga (4,8 foizga), parrandalar – 483,3 ming boshga (13,9 foizga) ko'paygan.

**Qaroqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda maqbullashtirish natiyasida fermer xo'jaliklarining yer maydoni
to'g'risida²⁸**

Hududlar nomi	2009-yil 1-noyabr holatiga	Maqbullashtirish natiyasida						Fargi (+, -)			
		jami fix soni	jami may- doni gektar	o'rtacha bir fix may- doni gektar	jami fix soni	jami may- doni gektar	o'rtacha bir fix may- doni gektar	jami fix		jami may- doni gektar	o'rtacha bir fix maydoni gektar
								soni	%		
Qoraqalpo-	4970	317932	64,0	3879	308143	79,4	-1091	-22,0	-9789	15,5	24,2
g'iston Resp.	9634	250050	26,0	7296	250825	34,4	-2338	-24,3	775	8,4	32,5
Andijon	6693	647510	96,7	5168	647510	125,3	-1525	-22,8	0	28,5	29,5
Buxoro	6897	439254	63,7	5589	442428	79,2	-1308	-19,0	3174	15,5	24,3
Jizzax	10538	587730	55,8	8599	565369	65,7	-1939	-18,4	-22361	10,0	17,9
Qashqadaryo	3945	187766	47,6	2310	185082	80,1	-1635	-41,4	-2684	32,5	68,3
Navoiy	6910	217365	31,5	6245	218510	35,0	-665	-9,6	1145	3,5	11,2
Namangan	11903	524751	44,1	9108	524751	57,6	-2795	-23,5	0	13,5	30,7
Samarqand	6964	679874	97,6	5527	657537	119,0	-1437	-20,6	-22337	21,3	21,9
Surxondayo	4966	230504	46,4	4241	221628	52,3	-725	-14,6	-8876	5,8	12,6
Sirdaryo	8394	419627	50,0	7422	419234	56,5	-972	-11,6	-393	6,5	13,0
Toshkent	14940	302178	20,2	10131	287987	28,4	-4809	-32,2	-14191	8,2	40,5
Farg'ona	10602	206562	19,5	5794	206755	35,7	-4808	-45,3	193	16,2	83,2
Xorazm	107356	5011103	46,7	81309	4935759	60,7	-26047	-24,3	-75344	14,0	30,0
Jami:											

Fermer xo‘jaliklari tomonidan 2010-yilda jami yetishtirilgan donning 81,5 foizini, paxta xomashyosining 99,4 foizini, kartoshkaning – 19,9 foizini, sabzavotlarning – 34,9 foizini, poliz ekinlarining – 50,4 foizini, mevalarning – 47,7 foizini, uzumning – 56,4 foizini tashkil etgan (3.1.2-jadval).

3.1.2-jadval

Fermer xo‘jaliklarida asosiy turdag‘ qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish

Mahsulot turlari	Ming tonna	Jami ishlab chiqarishdagi ulushi, %	O‘sish sur’ati %
Donli ekinlar	6067,8	81,5	100,9
Paxta xomashyosi	3422,2	99,4	101,4
Kartoshka	336,3	19,9	121,9
Sabzavot	2215,7	34,9	110,9
Poliz	595,9	50,4	111,1
Meva	816,4	47,7	110,8
Uzum	556,6	56,4	112,2
Go‘sht	37,9	2,6	106,8
Sut	205,0	3,3	116,1
Tuxum, mln.dona	288,1	9,4	137,2
Jun, tonna	1715,0	6,5	119,2
Qorako‘l terisi, ming dona	44,1	4,7	104,2
Pilla, tonna	24629,7	97,9	106,0

Respublikada fermerlikni yanada rivojlantirish bir qator juda muhim muammolarni, xususan, fermer xo‘jaliklarining barqarorligi, eng muhimi, ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan bog‘liq masalalarni hal qilishni qat’iy talab etmoqda.

Faoliyat ko‘rsatayotgan aksariyat fermer xo‘jaliklarining ish tajribasi shundan dalolat beradiki, fermer xo‘jaliklariga

²⁸ O‘zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va Statistika vazirligi hamda Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

islohotlarning dastlabki bosqichida ajratib berilgan yer maydonlarining kamligi mahsulot ishlab chiqarish rentabelligining o'sishiga ko'p jihatdan to'sqinlik qilmoqda.


Imkoniyatlari, salohiyati past bo'lgan fermer xo'jaliklari o'zini zarur texnika, aylanma mablag' bilan ta'minlash, kredit qobiliyatiga ega bo'lish, eng asosiysi – o'z harajatlarini qoplash va foyda topib ishlash, fermer xo'jaligi daromadini oshirishni ishonchli asosga aylantirish qobiliyatiga ega bo'lmasligini bugun hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 22-oktabrdagi «Fermer xo'jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalari maydonlarini yanada maqbullashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi F-3287-sonli farmoyish ijrosini ta'minlash maqsadida birmuncha ijobiy ishlar amalga oshirildi, jumladan, yer maydonlari to'liq inventarizatsiyadan o'tkazilib, fermer xo'jaliklarining faoliyatini tanqidiy baholash asosida ularning yer maydonlarini maqbullashtirish bo'yicha keng ko'lamli, shu bilan birga puxta o'ylangan ishlar amalga oshirildi.

Maqbullashtirish jarayonining va fermer xo'jaliklarini tanlashning barcha mezonlarini belgilash maqsadida, aloqador vazirlik, idoralar, banklar ishtirokida maqbullashtirishning barcha jihatlarini qamrab olgan chora-tadbirlar dasturlari, uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi, yo'nalishlar bo'yicha ishchi guruhlari tashkil etildi (3.1.1-jadval).

Asoslangan holda o'tkazilgan maqbullashtirish jarayoni natijalariga ko'ra 26 ming 47 ta (24,3 foiz) fermer xo'jaliklari tugatilib, 2009-yilda fermer xo'jaliklarining jami soni 81 ming 309 tani, shundan 41 ming 900 tasi (51,5 foiz) paxta va g'allachilik, 4 ming 55 tasi (5,0 foiz) sabzavot va polizchilik, 22 ming 525 tasi (27,7 foiz) bog' va uzumchilik, 6 ming 81 tasi (7,5 foiz) chorvachilik hamda 6 ming 748 tasi (8,3 foiz) boshqa ixtisosliklarga moslashgan fermer xo'jaliklarini tashkil etadi (3.1.1-rasm).

Jami yiriklashgan fermer xo'jalikkari (loyihalar) 81 ming 309 ta, shundan



3.1.1-rasm. Respublika fermer xo'jaliklarining ixtisoslashuvি (2009-y.)²⁹


²⁹ O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va Statistika vazirligi hamda Qishloq va suv xo'jaligi vazirligini ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Respublikada o'rtacha bir fermer xo'jaligiga to'g'ri kelgan yer maydoni 60,7 gektarga yetdi. Fermer xo'jaliklarining o'rtacha yer maydonlarini tarmoqlar bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, paxtachilik va g'allachilikda 67,7 gektardan 80,7 gektargacha, sabzavotchilikda 14,8 gektardan 19,2 gektargacha, chorvachilikda 149,3 gektardan 166,1 gektargacha ko'paydi.

Bu ko'rsatkich Yaponiyada 2 gektarni, Finlyandiyada 13 gektarni, Pokistonda 13,5 gektarni, Buyuk Britaniyada 65 gektarni tashkil qiladi.

2010-yil 1-dekabr holatiga ko'ra respublikada jami fermer xo'jaliklar soni 66134 tani tashkil etgan (3.1.2-rasm). Ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, har bir davlatda fermer xo'jaliklarining yer maydonlari ularning qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholi soni, tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqib maqbullashtirilgan. Bu ko'rsatkichlar bizda qishloqda yirik mulkdorlar tashkil etilganligidan dalolat beradi.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini o'rganishda uning asosi qilib olingan ushubga ko'ra, taqqoslash, tekshirish, ma'lumotlarni



3.1.2- rasm. Respublikada fermer xo'jaliklari o'zgarish dinamikasi

ishlab chiqish va hokazolarning maxsus usullaridan foydalaniladi. Korxonalarning ishlab chiqarish - molyaviy faoliyatlarini har tomonlama o'rganib chiqish jarayonida qo'llaniladigan asosiy vazifalar quyidagilardir: taqqoslash, statistik guruhlash, o'rtacha va nisbiy ko'rsatkichlar, zanjirli bog'lanish usullari, matematik usullarni qo'llash va hokazolar.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini yuqorida qayd etilgan usullar yordamida o'rganish xo'jalikdagi foydalanilmayotgan imkoniyatlarni aniqlash, ularni ishlab chiqarishga joriy etish, ish faoliyati samaradorligini oshirish imkonini yaratadi. Bunda eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biri taqqoslashdir. Bu usulda bir necha iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Jumladan:

- hisobot ko'rsatkichlari rejada keltirilgan ma'lumotlar bilan taqqoslanadi;
- hisobot yilda erishilgan natijalar ko'rsatkichi bu boradagi ijroning o'tgan yilgi ma'lumotlari bilan solishtiriladi;
- ishlab chiqarish yo'nalishida bir necha yil davomida o'zgarishlar dinamikasi aniqlanadi;
- qishloq xo'jaligi bo'linmalarining ishlab chiqarish natijalari tuman, viloyat va respublika bo'yicha erishilgan ko'rsatkichlar hamda dehqon va fermer xo'jaliklari ish natijalari bilan solishtiriladi. Bu orqali ishlab chiqarish imkoniyatlarni aniqlash va ularni joriy etish choralarini belgilash imkoniyati ayonlashadi.

Taqqoslash usuli yordamida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida o'zaro uzviy bog'liq ko'p ko'rsatkichlar bir-biriga solishtiriladi. Xususan, har gektar qishloq xo'jaligi yeri hisobiga qanchadan daromad olish, har 100ga yer hisobiga chorva mahsulotlari yetishtirish, mehnat unumdorligini, mahsulot tannarxini, mahsulot sotish, qishloq xo'jaligida tovar mahsulotlari hajmi o'sishini, xo'jaliklarning daromadlari va ularning taqsimlanishi, texnikadan foydalanish, mehnat, yem-xashak balansini, xo'jalik

iqtisodiyotining rivojlanishi va boshqa ko'rsatkichlarni taqqoslash mumkin.

Har bir taqqoslash o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, korxonalarining ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini yaxshilash yo'nalishi uchun zarur muammolarni topishga imkon beradi.

Taqqoslash usuli orqali solishtirish mumkin bo'lgan ko'rsatkichlardan foydalanish kerak. Masalan, bir necha yil davomida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiylajmidagi o'zgarishlarni belgilash uchun haqiqiy sotish narxlarini olish kerak emas, balki bir birlikka keltirilgan narxlarda taqqoslash zarur.

Guruhlarga ajratilgan uslub guruhlash ma'lumotlarini ma'lum belgilarga ko'ra guruhlarga bo'lish, demakdir. U statistik tekshirishning muhim usuli hisoblanadi. Uning yordamida xo'jalik tarmoqlari, hosildorlik, mahsulot hajmi, chorva mollari, mahsuldorligi va boshqalar aniqlanadi.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar sifat jihatdan bir xil bo'lgan guruhlarga bo'linadi. Ko'rsatkichlar o'rtaida bir-biriga bog'lanishlar borligi, o'rganilayotgan hodisalarining eng muhimi qaysi biri ekanligi aniqlanadi. Har xil omillarning ishlab chiqarish natijalariga qay darajada, qanday ta'sir qilishi belgilanadi.

Statistik guruhlash uslubi qishloq xo'jaligini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlab berishning muhim vositasidir. Uning yordamida sifati bir xil bo'lgan ko'rsatkichlar bir guruhga birlashtiriladi. Masalan, paxtachilik ishlab chiqarish guruhiari hosildorlik ko'rsatkichiga qarab guruhlarga ajratiladi. Guruhlar ko'rsatkichiga qarab, brigadalarda yuqori yoki past hosil omillarini aniqlash mumkin.

Qishloq xo'jaligi faoliyatiga to'g'ri baho berish va tarmoqni takomillashtirishga oid tadbirlarni ishlab chiqish, mablag'lardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yishda tahlil ishlarining ahamiyati katta.

Tahlilni to'g'ri uyushtirish uchun tahlil rejasini ishlab, mavjud ma'lumotlarni o'rganish, oldindan tekshirish zarur.

Korxonalarda esa tahlil ishlarini tashkil etishni reja tuzish bilan yakunlab bo'lmaydi. Puxta tuzilgan reja ham imkoniyatlardan foydalanish va ishchilarni reja bajarilishiga yo'llashni aniqlaydigan tashkilotchilik ishlari reja (bajarilishiga) bilan bog'lanmasa, mo'ljallangan natijani bermaydi. Shu sababli, uning bajarilishi nazorat qilib turiladi. Nazorat xo'jalik iqtisodiyotini rivojlantirishda imkoniyatlardan to'liq foydalanishga yordam beradi. Statistika sohasi xodimlari ham iqtisodiy tahlil bilan shug'ullanadi. Ular qabul qilingan hisobot ma'lumotlarini statistika usullari bilan qayta ishlab, vazirliklar, boshqarmalar va korxonalarini yig'ma axborot ma'lumotlari bilan ta'minlaydi. Kompleks tahlilda korxona va tashkilotlarning xo'jalik faoliyati chuqur va har tomonlama o'rganiladi. Uning natijasi bilan xo'jalik faoliyatiga iqtisodiy baho beriladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida tahlil qilish ishlarini tashkil etishning asosiy shakli iqtisodiy tahlil bilan shug'ullanuvchi iqtisodiy kengashdir. Uning asosiy vazifasi xo'jalik va ishlab chiqarish bo'linmalarining ma'lum davr ichidagi ish natijalarini har tomonlama o'rganish, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning joriy istiqbolli rejalarini ishlab chiqishda qatnashish, imkoniyatlarni aniqlash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llarini belgilashdan iborat.

3.2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar o'rtaSIDAGI huquqiy-iqtisodiy aloqalarning asoslari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida» 2003-yil 24-martdagi PF-3236-son, «2004–2006-yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiysi to'g'risida»gi 2003-yil 27-oktabrdagi PF-3342-sonli farmonlariga asosan fermer xo'jaliklarini barqaror rivojlanishini ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qishloqda fermer xo'jaliklarining ehtiyojlariga qarab

barcha zarur xizmatlarni ko'rsata oladigan zamonaviy ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini jadal rivojlantirish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchining tayyorlov, qayta ishlash va xizmat ko'rsatish tashkilotlari bilan ishlab chiqarish munosabatlarida ustuvor mavqeい belgilandi.


Moddiy-texnika ta'minoti va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining asosiy vazifalaridan biri qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilariga zamonaviy va sifatli xizmat ko'rsatishdir. Ushbu vazifasidan kelib chiqqan holda qishloq xo'jaligi infratuzilma tashkilotlari fermer xo'jaliklari bilan huquqiy va iqtisodiy munosabatlarga kirishadi (3.2.1-rasm).

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, infratuzilma subyektlari nafaqat fermer xo'jaliklari bilan iqtisodiy va huquqiy aloqalarga kirishadi, balki o'zaro ham munosabatda bo'lishadi. Misol uchun moliyaviy ta'minot xizmat turlari fermer xo'jaliklarini moliyaviy jihatdan ta'minlashga qaratilgan choratadbirlarni amalga oshirish bilan bir vaqtida qishloq xo'jaligi infratuzilmasini ham moliyaviy jihatdan ta'minlab turadi va o'zaro iqtisodiy aloqaga kirishadi. Buni biz boshqa xizmat ko'rsatish subyektlari faoliyatida ham ko'rishimiz mumkin, ya'ni moddiy ta'minot, informatsion ta'minot va reklama xizmat turlarida va hokazo.

Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi subyektlari va fermer xo'jaliklari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar quyida-gildan iborat:

- shartnomaviy munosabatlar;
- soliq tizimidagi munosabatlar;
- moliyalashtirish va investitsiya jalb qilish sohasidagi munosabatlar;
- sug'urta tizimidagi munosabatlar;
- moddiy-texnik ta'minot tizimidagi munosabatlar.

Huquqiy munosabatlar fermer xo'jaliklari va infratuzilma subyektlari o'rtasidagi o'zaro majburiyatlari, huquqlari, javobgarligi va ushbu munosabatlarini huquqiy-me'yoriy hujjatlarda aks etganligi bilan xarakterlanadi.



3.2.1-rasm. Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi subyektlari va fermer xo'jaliklari o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy va huquqiy munosabatlar tizimi

Shartnomaviy munosabatlar xizmat ko'rsatuvchi va fermer xo'jaliklari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning asosini tashkil etadi hamda fermer xo'jaliklari paxta, g'alla, meva, sabzavot, go'sht, sut va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishida hamda ularni iste'molchilarga yetkazib berish jarayonida infratuzilma subyektlari bilan, ya'ni moddiy-texnika ta'minoti, servis xizmati, tayyorlovchi, qayta ishllovchi va boshqa xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan tashkil topadigan munosabatlardan iborat (3.2.1-jadval).

Hozirgi kunda respublikamizda qishloq xo'jaligi paxta va g'alla mahsulotlari va ularni ishlab chiqarishda sarflanayotgan resurslarning narxlari o'rtasidagi nomutanosiblik natijasida paxta va g'alla yetishtiruvchi qishloq xo'jaligi korxonalaridan «O'zagromashservis», «O'zneftmahsulot», «O'zkimyosanoat» va «O'zbekenergo» kompaniyalari tizimidagi tashkilotlarning debitorlik va kreditorlik qarzlari vujudga kelmoqda (3.2.2-jadval).

3.2.1-judval
va «O'zbekenergo» kompaniyalari tizimidagi tashkilotlarning debitorlik qarzlarini to'g'risida ma'lumot³⁰
(mln. so'm)

T/ R	Viloyat- lar nomi	Jami debitorlik qarzlarini						Shu jumladan								
		"O'zneftmashsulot" kompaniyasi			"O'zkimyosanoat" kompaniyasi			"O'zagromashservis" uyushmasi			"O'zbekenergo" kompaniyasi					
		2010 1.01-y. holati- ga debitor qarz- dorlik	2011 1.01-y. holati- ga debitor qarz- dorlik	Yil boshi- ga nishba- tan fargi (+,-)												
1	Qoraqal- Pos'iston Resp.	47713	57521	9807	21081	30128	9048	20344	21148	804	3577	4043	466	2711	2200	-511
2	Andijon	36839	34557	-2282	13668	13259	-409	19711	18698	-1033	3167	2690	-567	293	0	-293
3	Buxoro	14555	10468	-4088	4676	3898	-778	7728	4406	-3322	1783	1761	-22	368	403	35
4	Jizzax	80573	82995	2421	45035	55324	10268	27828	20305	-7533	6526	5942	-584	1164	1425	260
5	Qashqoja- daryo	45030	44424	-607	10917	14871	3954	29981	24443	-5339	3409	2623	-787	723	2487	1764
6	Navoiy	4468	3780	-688	580	318	-362	1779	1339	-440	516	354	-162	1593	1770	176
7	Namang- an	48486	50749	2263	9208	8787	-522	27519	26163	-1356	3800	3763	-37	7859	12637	4178
8	Samar- qud	35753	45639	9905	17133	23734	6602	11305	13517	2010	4447	4377	-70	2646	4010	1364
9	Surxon- daryo	26544	129094	2550	4371	5094	723	16318	16624	-194	3175	3051	-124	2179	4325	2145
10	Sidaryo	73916	98664	24748	31749	45910	14162	30808	41055	10247	10290	10199	-92	1070	1501	431
11	Tashkent	36946	38936	1991	7051	10155	3103	25750	23529	-2221	2864	4176	1311	1280	1077	-203
12	Ferg'on'a	59127	52073	1946	6940	11948	5088	37459	34440	-3019	2772	2633	-139	2956	3053	96

**Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda tugatilayotgan
fermer xo'jaliklarining ta'minotchi va xizmat ko'rsatuvchi
korxonalar oldidagi kreditorlik qarzlarini qisqartirish reja-
jadvalini bajarilishi to'g'risida**
MA'LUMOT

№	Korxona, tashkilotlar nomi	Tugatila- yotgan fermer xo'jalik- lari soni	Undiri- ladigan kredi- torlik qarzi	29-noyabr – 30-dekabr kunlari undirilishi			
				reja bo'yicha	haqi- qatda	Farqi	
						(+, -)	%
1	«Qishloq- xo'jalik- kimyo» HAJ						
2	«O'zneft- mahsulot» UK	4699	51262	51262	51262		100,0
3	Viloyat MTP DAJ	5036	35438	35438	35438		100,0
4	Viloyat elektr tarmoqlari	3923	11298	11298	11298		100,0
	Jami	1146	6089	6089	6089		100,0
		14606	104087	104087	104087		100,0

**3.3. Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirish
sharoitida hududlarning ixtisoslashuvini hisobga olgan
holda infratuzilma obyektlarini optimal joylashtirish va
rivojlantirish istiqbollari**

Fermer xo'jaliklarining ixtisoslashuvi ko'p jihatdan hududning tabiiy sharoitlari, mahsulotning alohida turini ishlab chiqarish an'anasi, qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqaruvchining ixtisosligi va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi. Fermer xo'jaliklarini ixtisoslashtirishi o'z faoliyatini

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va Statistika vazirligi hamda Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

alohida bir tovar mahsulotni ishlab chiqarishga yo‘naltirilishi bilan belgilanadi. Dehqonchilikka ixtisoslashgan xo‘jaliklarda – bu don, paxta, sabzavot, yem-xashak va boshqa o‘simlik mahsulotlari, chorvachilik tarmog‘i uchun – chorvachilik va parrandachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hisoblanadi.

Umur an olganda, ixtisoslashtirish har bir hududning tabiiy-iqtisodiy sharoitidan kelib chiqib, bozordagi talabni e’tiborga olgan holda u yoki bu turdagি mahsulotni ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan mehnat taqsimotidir.

Ma’lumki, fermer xo‘jaligining boshlig‘i o‘z Ustavida va yer uchastkasini ijara olish shartnomasiga ko‘ra ishlab chiqarish yo‘nalishini mustaqil ravishda o‘zi belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustda qabul qilingan «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi Qonuni (yangi tahrir) va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ning 2003-yil 30-oktabrdagi 476-sonli qaroriga asosan chorvachilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo‘jaligi kamida 30 shartli chorva moli bo‘lgan taqdirda tashkil etiladi. Fermer xo‘jaligiga ijara beriladigan yer uchastkalarining eng kam o‘lchami bir shartli bosh chorva moliga hisoblanganda Andijon, Namangan, Samarqand, Toshkent, Farg‘ona va Xorazm viloyatlaridagi sug‘oriladigan yerdarda kamida 0,3 hektarni, boshqa viloyatlar va Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi sug‘oriladigan yerdarda kamida 0,45 hektarni, sug‘orilmaydigan (almikor) yerdarda esa kamida 2 hektarni tashkil etadi.

Dehqonchilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo‘jaliklariga ijara beriladigan yer uchastkalarining eng kam o‘lchami paxtachilik va g‘allachilik uchun kamida 10 hektarni, bog‘dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va boshqa ekinlarni yetishtirish uchun kamida 1 hektarni tashkil etadi.³¹

³¹ O‘zbekiston Respublikasining «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi Qonuni (Yangi tahrirda) // Xalq so‘zi – 15-oktabr 2004-yil.

Tahlillarga ko'ra, Qashqadaryo viloyatida fermer xo'jaliklarining aksariyat qismi asosan paxtachilik va g'allachilikka ixtisoslashgan, ya'ni jami fermer xo'jaliklarining 75 foizni, sabzavotchilik va polizchilik yo'nalishdagilar 2,3 foizni, bog'dorchilik va uzumchilik – 15,9 foizni, chorvachilik sohasidagi fermer xo'jaliklari 5,8 foizni va boshqa yo'nalishdagilar 0,4 foizni tashkil etadi.

Tumanlar miqyosida tahlil qilganimizda, Kitob va Shahrисabz tumanlarida bog'dorchilik va uzumchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari mos ravishda 52,9 va 44,3 foizni, sabzavotchilik va polizchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari Kitob tumanida rivojlangan bo'lib, 72 tani, jami fermer xo'jaliklari tarkibida 8,2 foizni tashkil etgan (3.3.1-jadval).

Koson, Mirishkor, G'uzor va Chiroqchi tumanlarida tashkil etilgan fermer xo'jaliklarining 90 foizidan ko'prog'i bevosita paxta va g'alla yetishtirishga ixtisoslashgan, Dehqonobod tumanida faoliyat ko'rsatib kelayotgan fermerlarning 77,7 foizi g'alla yetishtirib kelmoqdalar. Demak, infratuzilma shoxobchalarini rivojlantirishda va joylashtirishda aynan har bir hududning ixtisoslashuvi hamda tabiiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini inobatga olish zarur.

Paxta va g'allachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari uchun SIU, texnik-servis xizmati, seleksiya, o'g'it, yoqilg'i resurslari bilan ta'minlash shoxobchalarini rivojlantirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklariga asosan zooveterinariya xizmati, naslchilikni rivojlantirish, chorvachilik sohasi uchun texnik-servis xizmati ko'rsatadigan infratuzilma obyektlarini tashkil etish zarur.

Bog'dorchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarini rivojlantirishda tayyorlov korxonalari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi shoxobchalarning o'rni kattadir. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi va sanoat sohasi o'rtasida o'zaro integratsiyani kuchaytirish zarur, ya'ni har

3.3.1-jadval

Qashqadaryo viloyatida fermer xo'jaliklarining mahsulot yetishtirish bo'yicha ixtisoslashuvi
(2011-yil 1-yanvar holati)³²

№	Tumanlar	jami fermer xo'jaliklari soni	fermer xo'jaliklarining ixtisoslastuvi						boshqalar soni	boshqalar foizi
			paxta va g'allachilik soni	foizi	chorvachilik soni	foizi	sabzavot, polizchilik soni	foizi	uzumchilik soni	foizi
1	<i>Muborak</i>	298	240	80,5	29	9,7	6	2,0	23	7,7
2	<i>Mirishkor</i>	755	696	92,2	14	1,9	4	0,5	39	5,2
3	<i>G'uzor</i>	383	350	91,4	18	4,7	0	0,0	14	3,7
4	<i>Dehqonobod</i>	251	195	77,7	28	11,2	0	0,0	28	11,2
5	<i>Qamashi</i>	601	471	78,4	26	4,3	47	7,8	51	8,5
6	<i>Qarshi</i>	474	384	81,0	27	5,7	4	0,8	59	12,4
7	<i>Kasbi</i>	510	455	89,2	12	2,4	10	2,0	30	5,9
8	<i>Kitob</i>	821	124	15,1	67	8,2	181	22,0	437	53,2
9	<i>Koson</i>	592	551	93,1	30	5,1	0,0	0,0	9	1,5
10	<i>Nishon</i>	638	560	87,8	23	3,6	15	2,4	40	6,3
11	<i>Chiroqchi</i>	855	772	90,3	71	8,3	2	0,2	9	1,1
12	<i>Shahrisabz</i>	255	162	63,5	29	11,4	12	4,7	47	18,4
13	<i>Yakkabog'</i>	735	345	46,9	54	7,3	26	3,5	300	40,8
Viloyat bo'yicha biriktirilgan yer maydoni, ga o'rtacha fermer xo'jaligining yer maydoni, ga										
		7168	5305	74,0	428	6,0	307	4,3	1086	15,2
		772099,0	634986	82,3	104809	13,6	11238	1,4	19833	2,5
		107,7	119,7	X	244,9	X	36,6	X	18,3	X
									29,4	X

bir hududning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan sanoat korxonalarini qishloq joylarda tashkil etish kerak.

Viloyatda qishloq xo‘jaligi infratuzilma obyektlari bilan ta‘minlanishini tahlil qilganimizda, har 1000 ta fermer xo‘jaligiga 2008-yilda 6,6 ta muqobil MTP; 5,7 ta SIU; 6,2 ta yoqilg‘i moylash materiallari sotish shoxobchasi; 4,2 ta mineral o‘g‘it sotish shoxobchasi; 1,8 ta qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tayyorlash va sotish shoxobchalari; 8,4 ta zotli mollarni sotish va zooveterinariya xizmati; 1,1 ta axborot ta‘minoti va konsalting shoxobchasi; 0,2 ta transport xizmati ko‘rsatish shoxobchasi; 0,1 ta tara idishlarini tayyorlash va sotish shoxobchasi to‘g‘ri kelishi aniqlandi (3.3.2-jadval).

Tumanlar kesimida tahlil qilganimizda, fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi infratuzilma obyektlari bilan ta‘minlanish darajasi viloyat o‘rtacha ko‘rsatkichlariga nisbatan:

- yuqori bo‘lgan tumanlar – bu Kitob (2,39) va Muborak (1,20) tumanlari;

- o‘rtacha darajada ta‘minlanganlar – bu G‘uzor, Shahrisabz, Nishon va Yakkabog‘ tumanlari. Bu yerda infratuzilma obyektlari bilan ta‘minlanish indeksi 1,06–1,18gacha;

- qolgan tumanlar viloyatda fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi infratuzilma obyektlari bilan o‘rtacha ta‘minlanish darajasiga nisbatan past ta‘minlangan.

Shuni ta‘kidlab o‘tish lozimki, hozirgi kunda fermer xo‘jaliklarining yer maydonlarini maqbullashtirish jarayonida har 1000 fermer xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatadigan infratuzilma obyektlari soni ortadi. Ammo bu holat qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi bilan ta‘minlanganlik

³² Qashqadaryo viloyati iqtisodiyot bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

3.3.2-jadval

Qashqadaryo viloyatiда tumanlar bo'yicha har 1000 fermer xo'jaligiga xizmat ko'rsatadigan infratuzilma obyektlarining soni (2010-yil holati)³³

№	Tumanlar	Tashkil etilgan fermer xo'jaliklari soni	1000 ta fermer xo'jaliklariiga to'g'ri keladigan infratuzilma obyektlari		Minibank							
			Muqobil MTP	Suv iste'molchilarini uyushmasi								
			soni	ta'minlanish koefit-sienti *	soni							
					ta'minlanish koefit-sienti *							
1	G'uzor	383	9,8	1,5	11,1	2,0	8,5	1,4	8,5	2,0	5,9	1,3
2	Dehqonobod	251	8,3	1,3	0,0	0,0	8,3	1,3	0,0	0,0	4,1	0,9
3	Qarshi	474	6,3	0,9	5,9	1,0	6,3	1,0	3,7	0,9	4,4	0,9
4	Koson	592	6,8	1,0	7,4	1,3	6,5	1,0	3,7	0,9	4,6	1,0
5	Qamashi	601	7,1	1,1	7,1	1,2	8,7	1,4	5,1	1,2	5,1	1,1
6	Kitob	821	4,8	0,7	0,6	0,1	2,5	0,4	1,9	0,5	3,5	0,7
7	Mirishkor	755	4,9	0,7	3,4	0,6	5,7	0,9	4,9	1,2	4,9	1,1
8	Muborak	298	10,0	1,5	25,1	4,4	8,8	1,4	7,5	1,8	8,8	1,9
9	Nishon	638	6,7	6,6	5,2	0,9	6,7	1,1	5,2	1,2	4,8	1,0
10	Kasbi	510	5,3	0,8	6,1	1,1	5,3	0,9	4,6	1,1	5,0	1,1
11	Chiroqchi	855	4,6	0,7	2,0	0,3	6,0	1,0	4,3	1,0	3,6	0,8
12	Shahrisabz	255	9,2	1,4	3,6	0,6	7,1	1,1	2,5	0,6	5,1	1,1
13	Yakkabog'	735	6,9	1,0	6,2	1,1	6,2	1,0	4,3	1,0	4,3	0,9
	Viloyat bo'yicha	7168	6,6	1,0	5,7	1,0	6,2	1,0	4,2	1,0	4,7	1,0

№	Tumanlar	1000 ta'fermer xo'jaliklariga to'g'ni keladigan infratizlma obyektlari						Infratu- zilma obyekti bilan ta'minla-					
		Q/ x mahsulot- larini sotish shoxobchasi	Zolli mollarni sotish va zoo- veterinaryya xizmati	Axborot ta'mi- not va konsal- ting	Transport xiz- mati ko'rsatish tarmog'i	Tara idishlarni tayyorlash va qadoqlash shoxobchasi	soni	ta'min- lanish koeffit- sienti *	soni	ta'min- lanish koeffit- sienti *	soni	ta'min- lanish koeffit- sienti *	
1	G'uzor	1,3	0,8	12,4	1,5	1,3	1,1	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	1,15
2	Dehqonobod	0,0	0,0	23,5	2,8	1,4	1,2	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,75
3	Qarshi	1,5	0,8	11,4	1,4	2,2	1,9	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,89
4	Koson	0,6	0,3	3,4	0,4	0,3	0,3	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,63
5	Qamashi	1,5	0,8	8,1	1,0	1,0	0,9	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,76
6	Kitob	4,1	2,3	6,4	0,8	1,3	1,1	1,6	7,9	1,0	9,5	2,39	
7	Mirishkor	2,3	1,3	3,0	0,4	1,6	1,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,75
8	Muborak	1,3	0,7	10,0	1,2	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	1,29
9	Nishon	0,0	0,0	4,8	0,6	0,4	0,3	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	1,18
10	Kasbi	0,8	0,4	8,0	1,0	0,4	0,3	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,66
11	Chiroqchi	2,0	1,1	10,0	1,2	0,7	0,6	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,67
12	Shahrisabz	3,6	2,0	15,8	1,9	3,1	2,7	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	1,14
13	Yakkabog'	2,5	1,4	8,7	1,0	1,4	1,3	0,4	1,8	0,0	0,0	0,0	1,06
	Viloyat bo'yicha	1,8	1,0	8,4	1,0	1,1	1,0	0,2	1,0	0,1	1,0	1,0	

* . viloyat o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan infratizlma obyekti bilan ta'minlanishi.

darajasining ekstensiv yo‘l bilan oshishidir. Shu sababli, infratuzilma obyektlari bilan ta’minlanish darajasi va sohada raqobat muhitini shakllantirish maqsadida qishloq xo‘jaligi infratuzilma obyektlari soni, turi va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirib borish lozim, shunda bozor mezonlariga javob beradigan qishloq xo‘jaligi infratuzilmasini shakllantirish imkonи paydo bo‘ladi.

3.3.3-jadval

Qashqadaryo viloyatida qishloq xo‘jaligi infratuzilmasining fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlariga ta’siri

Yillar	Bir gek-tardan olingan yalpi mahsulot, so‘m / ga	Bitta MMTP ga to‘g‘ri keladigan fermer xo‘jalik-lari yer maydoni, ga	Bitta SIU ga to‘g‘ri keladigan fermer xo‘jalik-lari yer maydoni, ga	Bitta YOMM sotish shoxchala- riga to‘g‘ri keladigan fermer xo‘jaliklari yer maydoni, ga	Mineral o‘g‘it sotish shoxchalari soni, birlik X ₄
2002	15788	7352,7	7352,7	7352,7	26
2003	23345	5007,1	5192,5	5007,1	56
2004	37140	3453,8	3776,6	3812,3	89
2005	37802	3313,3	3573,6	3678,8	106
2006	47664	3191,8	3806,3	3669,6	132
2007	45948	3589,7	4159,8	3822,6	126
2008	51398	3640,0	4193,5	3876,1	126
2008-yilda 2002-yilga nisbatan, %	325,6	49,5	57,0	52,7	77,4

³³ Qashqadaryo viloyati Iqtisodiyot bosh boshqarmasi ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

Mamlakatimizda inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirish sharoitida fermer xo'jaliklari moliyaviy barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy samaradorligini oshirib borish muhim masalalardan biri sanaladi. Shundan kelib chiqqan holda, tadqiqot jarayonida fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi infratuzilma obyektlari bilan ta'minlanganlik darajasining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlariga ta'siri o'r ganib chiqildi (3.3.3-jadval).

Tahlilda natijaviy omil sifatida fermer xo'jaliklarida bir gektardan olingan yalpi mahsulot qiymati, ta'sir etuvchi omillar sifatida esa, bitta muqobil MTP, bitta SIU, bitta YOMM sotish shoxobchalariga to'g'ri keladigan fermer xo'jaliklari yer maydonlari, mineral o'g'it sotish shoxobchalari soni hisobga olindi.

3.3.3-jadval ma'lumotlarini kompyuter dasturi yordamida qayta ishlash asosida quydag'i natijalarga ega bo'ldik (3.3.4-jadval):

3.3.4.-jadval

Regression tahlilning yakuniy natijasi

Regression statistika			
	Koeffitsientlar	Standart xato	t-statistika
Ko'plik R	0,985145		
R-kvadrat	0,97051		
Normalangan R-kvadrat	0,91153		
Standart xato	3912,497		
Kuzatuvlar	7		
Y-kesishgan joy	6234,04	22567,55429	0,276239044
O'zgaruvchan X_1	-9,49547	33,7493393	-0,281352861
O'zgaruvchan X_2	10,75287	24,97117676	0,430611119
O'zgaruvchan X_3	-0,98487	16,63412138	-0,059207559
O'zgaruvchan X_4	275,471	201,9285875	1,364200251

Olingen natijalardagi koeffitsient miqdorlaridan ko'rinib turibdiki, bitta muqobil mashina-traktor parkiga to'g'ri keladigan yer maydonlari bir gektarga oshishi boshqa omillar o'zgarmagan holda, qishloq xo'jaligida bir gektardan olingen yalpi mahsulotning o'rtacha 9,49 so'mga kamayishiga olib keladi, bitta suv iste'molchilari uyushmasiga to'g'ri keladigan yer maydoni bir gektarga oshishi boshqa omillar o'zgarmagan holda, qishloq xo'jaligida bir gektardan olingen yalpi mahsulotning o'rtacha 10,75 so'mga oshishiga olib keladi, bitta YOMM sotish shoxobchasiga to'g'ri keladigan yer maydonining bir gektarga oshishi boshqa omillar o'zgarmagan holda, qishloq xo'jaligida bir gektardan olingen yalpi mahsulotning o'rtacha 0,98 so'mga kamayishiga olib keladi va mineral o'g'it sotish shoxobchalari sonining bittaga ko'payishi boshqa omillar o'zgarmagan holda, qishloq xo'jaligida bir gektardan olingen yalpi mahsulotning o'rtacha 275,47 so'mga oshishiga olib keladi. Demak, ushbu omillarning har birini yakka holda tahlil etganda qolgan omillar o'zgarishsiz, deb qaralganda eng katta ta'sir mineral o'g'it sotish shoxobchalari soniga to'g'ri keladi. Natijaviy omil bilan ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'lanishni ifodalaydigan regressiyaning chiziqli tenglamasini quyidagicha aks ettirish mumkin:

$$Y=6234,04 - 9,49X_1 + 10,75 X_2 - 0,98 X_3 + 275,47 X_4$$

Bu yerda Y – qishloq xo'jaligida bir gektar yerdan olingen yalpi mahsulot, so'm

X_1 – bitta muqobil MTPga to'g'ri keladigan yer maydoni, ga

X_2 – bitta SIU tomonidan xizmat ko'rsatiladigan yer maydoni, ga;

X_3 – bitta YOMM sotish shoxobchalari tomonidan xizmat ko'rsatiladigan yer maydoni, ga;

X_4 – mineral o'g'it sotish shoxobchalari soni, birlik.

3.4. Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi subyektlari bilan fermer xo‘jaliklari o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy va huquqiy munosabatlarini takomillashtirish

Qishloq xo‘jaligi infratuzilma subyektlari bilan fermer xo‘jaliklari o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlardagi muammolardan biri o‘zaro majburiyatlarning ko‘rsatilgan muddatda bajarilmasligidir, ya’ni bir tomondan, fermer xo‘jaliklarida qishloq xo‘jaligi infratuzilmasining sustkashligi bilan kontraktatsiya shartnomalari vaqtida talab darajasida bajarilmaslik holatlari mavjud bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa fermer xo‘jaliklari ko‘rsatilgan xizmat turi uchun infratuzilma tashkilotlariga o‘z vaqtida to‘lovlarni amalga oshira olmayotganligidir. Shu nuqtayi-nazardan qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi faoliyatini takomillashtirishga majmuaviy yondashish talab etiladi (3.4.1-jadval).

Ko‘p hollarda infratuzilma subyektlari bilan fermer xo‘jaliklari o‘rtasidagi tuziladigan shartnomalarda belgilangan ish miqdori bilan haqiqatda bajarilgan ishlar mos bo‘lmay kelmoqda. Misol uchun, 2008-yilda fermer xo‘jaliklari va suvdan foydalanuvchilar uyushmalari bilan tuzilgan shartnomalarda jami 3681,3 ming so‘mlik xizmat ko‘rsatish belgilangan bo‘lsa, haqiqatda esa 2208,9 ming so‘mlik ish bajarilgan. Fermer xo‘jaliklariga shartnomada belgilangan 57850 tonna yoqilg‘i-moylash materiallari va 93145 tonna mineral o‘g‘it yetkazib berish belgilangan bo‘lsa, haqiqatda esa mos ravishda 52307 va 86516 tonna yetkazib berilgan. Shuningdek, boshqa xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar tomonidan shartnomalarda belgilangan xizmat ko‘rsatish miqdoriga nisbatan haqiqatda bajarilgan xizmat hajmi 60-80 foiz atrofida tashkil etmoqda. Faqat axborot ta’minoti va konsalting shoxobchalari tomonidan bajarilgan ish hajmi shartnomada belgilangan xizmat miqdoriga mos keladi.

Qishloq xo‘jaligi infratuzilma subyektlari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovlik darajasi ham 100

foizdan kamni tashkil etadi. 2008-yilda muqobil mashinatraktor parklari tomonidan 11170,0 mln. soʻmlik xizmat bajarilgan boʻlsa, lekin fermerlar tomonidan 8503,0 mln. soʻm mablagʻ oʻtkazilgan.

Shuningdek, fermer xoʻjaliklari infratuzilma subyektlari tomonidan bajarilgan xizmatlar uchun toʻlovlik darajasi quyidagicha ekanligi aniqlab chiqildi:

- suv isteʼmolchilarini uyushmasi boʻyicha 47,3 foiz;
- qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini sotish shoxobchasi boʻyicha 96,5 foiz;
- zotli mollarni sotish va zooveterinariya xizmati – 73,9 foiz;
- transport xizmati koʼrsatish tarmogʻi – 82,7 foiz;
- tara idishlarini tayyorlash va qadoqlash shoxobchasi boʻyicha 71,4 foiz.

Bozor munosabatlari sharoitida ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish va xoʻjalik yuritishning huquqiy asoslarini oʼrganish, qonun va meʼyoriy hujjatlarning mazmun-mohiyati, oʼzgarishlar va maʼlumotlarni fermer xoʻjaliklariiga va qishloq xoʻjaligi infratuzilma subyektlariga ham tushunarli tarzda yetkazish lozim.

Huquqiy bazani yaratish va rivojlantirishda, oʼquv markazlarini tashkil qilish hamda ularni malakali kadrlar, oʼquv-uslubiy taʼminot bilan taʼminlash, fermer xoʻjaligi va infratuzilma tarmogʻining xodimlari uchun seminar va trening mashgʻulotlari oʼtkazish, informatsion bazani yaratish zaruriyatini keltirib chiqarishi maʼlum vaqt va xarajat talab qiladi.

Huquqiy bilimlarsiz qishloq xoʻjaligi infratuzilmasi tarmogʻi va fermer xoʻjaliklari oʼrtasidagi iqtisodiy munosabatlarni yuksak darajada rivojlantirish yoki iqtisodiy samaraga erishish imkonini cheklangan.

Qishloq xoʻjaligi infratuzilmasi va fermer xoʻjaliklari oʼrtasidagi huquqiy va iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy-meʼyoriy hujjatlarga «Fuqarolik kodeksi», «Xoʻjalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-

3.4. I-jadval

Qashqadaryo viloyatida infratuzilma subyektlari va fermier xo'jaliklari o'rtaсидаги shartnomaviy munosabatlarning tahlili (2008-yil holati)³⁴

№	Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi obyektlari	Fermier xo'jaliklari bilan tuzil- gan shart- nomalar soni	Shartno- mada bel- gilangan xizmat miqdori*	Haqiqatda bajarilgan xizmat miqdori*	Sharhno- maga nisbatan bajaril- ganlik da- rajasি, %	Bajaril- gan ish qiymati, mln. so'm	Undi- rilgan summa, mln. so'm	To'lov- lik darajasi, %
1	Muqobil MTP	14679,0	16348,1	11170,0	68,3	11170,0	8503,0	76,1
2	Suv iste'molchilar uyushmasi	26522,0	3681,5	2208,9	60,0	2208,9	1044,7	47,3
3	YOMM sotish shoxobchasi	16554,0	57850,0	52307,0	90,4	80987,0	80987,0	100,0
4	Mineral o'g'it sotish shoxobchasi	17891,0	93145,0	86516,0	92,9	66573,0	66573,0	100,0
5	Q/x mahsulotlarini sotish shoxobchasi	4900,0	8864,0	6010,0	67,8	6010,0	5800,0	96,5
6	Zottii mollarni sotish va zooveterinariya xizmati	402,0	56,0	49,0	87,5	49,0	36,2	73,9
7	Axborot ta'minot va konsalting shoxobchasi	304,0	15,4	15,4	100,0	15,4	15,4	100,0
8	Transport xizmati ko'rsatish tarmog'i	36,0	37,7	29,5	78,2	29,5	24,4	82,7
9	Tara idishlarni tayyorlash va qadoqlash shoxobchasi	158,0	2,7	2,1	77,8	2,1	1,5	71,4

* - mineral o'g'it hamda yoqilg'i-moylash materiallari sotish shoxobchalarda sharhnomada betgilangan va haqiqatda bajarilgan ish miqdori tonnada, qolgan infratuzilma subyektlarida min. so'mda ko'rsatilgan.

huquqiy bazasi to‘g‘risida»gi Qonuni, «Qishloq xo‘jaligida islohotlarni chugurlashtirishning eng muhim yo‘nalishlari to‘g‘risida» hamda «2004–2006-yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiysi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, «Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish va majburiyatlar bajarilishi uchun tomonlarning javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi va «2004–2006-yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va boshqa me‘yoriy hujjatlar kiradi.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, viloyat tumanlarida fermerlarga va ularga xizmat ko‘rsatuvchi subyektlarga huquqiy yordam ko‘rsatuvchi markazlar, birlashmalar tashkil etilmagan, huquqiy muammolarni o‘rganish va hal etish bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazilmasdan kelinmoqda.

Qishloq xo‘jaligi infratuzilma subyektlari o‘rtasidagi huquqiy-iqtisodiy munosabatlarida ko‘p uchraydigan muammolardan biri – ular o‘rtasida tuzilgan shartnomalarning bir tomonlama ko‘rinishda tuzilganligi (xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar foydasiga) va imzolanganligi, natijada tuzilgan shartnomalarning shartlari sifatsiz bajarilayotganligi ma’lum bo‘ldi.

Viloyat hududida fermer xo‘jaliklari bilan ularga xizmat ko‘rsatuvchi qishloq xo‘jaligi infratuzilma subyektlari o‘rtasidagi iqtisodiy-huquqiy munosabatlar, shu jumladan tuzilgan shartnomalarning qonuniyligi va ularning bajarilishi tahlil qilindi. Nishon tumanidagi «Kenjayev Bobonazar», «Uzoqov Abdulla», «Rahimov Shukurali» fermer xo‘jaliklarda o‘tkazilgan monografik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, quyidagi muammolar borligi aniqlandi:

³⁴ Qashqadaryo viloyati qishloq va suv xo‘jaligi boshqarmasi ma’lumotlari asosida hisoblangan.

Qashqadaryo viloyati tumanlarida 2009-yil tozilgan shartnomalar va ularning bajarilishi haqida 2010-yil 1-yanvar holatiga bo‘lgan

M A * L U M O T

- shartnomalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun va me'yoriy hujjatlariga, Adliya vazirligida huquqiy ekspertizadan o'tkazilgan namunaviy hujjat talablariga to'liq mos emasligi;
- shartnoma tuzishda ixtiyoriylik, tenglik va foyda ko'rishga qaratilgan kelishuvga erishish tamoyillariga e'tibor qaratilmaganlik;
- shartnomalarning maqsad va mazmuni fermer xo'jaliklarining tez, sifatli va bozorbop qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirishni targ'ib qilish, rag'batlantirishga e'tibor qaratilmasdan, yetkazib berilgan moddiy-texnika resurslari va bajarilgan xizmatlar uchun hisob - kitob qilish ko'zda tutilganlik;
- shartnomada belgilab qo'yilgan taraflarning huquq va majburiyatları ishlab chiqaruvchining emas, balki xizmat ko'rsatuvchi korxonaning manfaatlaridan kelib chiqib tuzilganligi yoki asosan ularni huquqiy himoya qilishga qaratilganligi;
- taraflarning huquq va majburiyatları to'rt yoki besh banddan iborat bo'lib, xizmatlarni bajarishning muhim talablari, shart-sharoitlari, amalga oshirish usullari va vositalari, sifati, miqdori, samaradorligi, shartnomani amal qilishning va xizmatlar ko'rsatishning aniq sanalari, amalga oshirilgan ishlarning natijasiga ko'ra kelib chiqadigan masalalar to'liq bayon etilmaganligi;
- shartnoma shartlarini bir tomonlama yoki ikki tomonlama taraflarning ixtiyoriga bog'liq bo'limgan hollarga ko'ra o'zgartirish, to'xtatish va bekor qilish, form-major holatlari ko'rsatilmasdan qolganligi;
- shartnomada taraflarning javobgarligi va nizolarni hal etish tartibi taraflarning o'zaro murosaga kelish asosida emas, davlat tashkiloti bo'lgan hokimlik idoralari yoki vakolatli sudlar tomonidan hal etilishi bayon etilgan.

Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi subyektlari va fermer xo'jaliklari o'rtasidagi huquqiy-iqtisodiy munosabatlarni quyidagi yo'naliishlarda takomillashtirish lozim:

– qishloq xo‘jaligi infratuzilmasini rivojlantirishning huquqiy-me’yoriy hujjatlarini takomillashtirish. Ma’lumki, qishloq xo‘jaligida infratuzilma xizmatlari asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-3226, PF-3342, PF-640 farmonlari va boshqa me’yoriy hujjatlar asosida tashkil etilib kelinmoqda, ammo yaxlit «Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi to‘g‘risida»gi Qonunni ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ushbu qonunda qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi obyektlari va subyektlari, ularning huquq va majburiyatlari, qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar, davlat va boshqa tashkilot va muassasalar bilan huquqiy va iqtisodiy munosabatlari aks etishi lozim.

– fermer xo‘jaligi va qishloq xo‘jaligi infratuzilma subyektlari o‘rtasidagi iqtisodiy-huquqiy munosabatlari yuzasidan kelib chiqadigan muammolarni adolatli hal qilishda, shartnoma majburiyatlari bajarilishida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini erkinlashtirish. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish va majburiyatlarni bajarish uchun tomonlarning javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to‘risida»gi 2003-yil 4-sentabrdagi 383-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilari bilan tayyorlov, xizmat ko‘rsatish tashkilotlari o‘rtasida shartnomalar tuzish, ularni ro‘yxatdan o‘tkazish, bajarish, shuningdek, bajarilishi monitoringirni olib borish tartibi to‘g‘risida»gi Nizomga asosan kelishmovchiliklar, nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda tomonlar, qoidaga ko‘ra, ularni sudgacha hal etish yuzasidan mustaqil yoxud tuman qishloq va suv xo‘jaligi bo‘limlari ishtirokida chora-tadbirlar ko‘rish belgilangan, ammo nizolar assosiy hollarda sud va prokuratura organlari tomonidan hal qilinib kelinmoqda va bu ishlar asosan fermer xo‘jaliklariga nisbatan qarshi da’volardan iborat.

– Fermer xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi infratuzilma subyektlari o‘rtasidagi huquqiy-iqtisodiy munosabatlarni

takomillashtirish maqsadida yuridik xizmat ko'rsatish tizimidan keng ko'lamda foydalanishni yo'lga qo'yish.

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo'jaligi infratuzilma subyektlari va fermer xo'jaliklari o'rtasidagi iqtisodiy va huquqiy munosabatlarni o'zaro kelishish va murosali hal qilish ikkala xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish jarayoniga ijobjiy ta'sir qilib, hamkorlik asosida faoliyatini tashkil qilishga ko'maklashadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Qishloq xo'jaligi korxonalari, dehqon va fermer xo'jaliklariga ta'rif bering.
2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar va unga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar o'rtasida qanday iqtisodiy aloqalar mavjud?
3. Iqtisodiy va huquqiy munosabatlar tushunchalariga izoh bering.
4. Qishloq xo'jaligi infratuzima obyektlarini optimall joylashtirish va rivojlantirish qanday amalga oshiriladi?
5. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar va unga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar o'rtasidagi iqtisodiy va huquqiy munosabatlarni takomillashtirishda nimalarga e'tibor berish kerak?

IY BOB. QISHLOQ XO'JALIGIDA MODDIY-TEXNIKA TA'MINOTI VA XIZMATI

O'quv maqsadi: qishloq xo'jaligida va unga xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda moddiy-texnika ta'minoti va ta'minlanganlik darajasi, ularni mustahkamlash bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni o'rgatishdan iborat.

4.1. Qishloq xo'jalinining «moddiy texnika bazasi» tushunchasi

Qishloq xo'jalinining moddiy-texnika bazasi deyilganda, moddiy boylik ishlab chiqarish sharoitida bevosita band bo'lgan mehnat vositalari va mehnat buyumlari yig'indisi

tushuniladi. Qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika bazasi – fan-texnika yangiliklaridan keng ko‘lamda foydalaniladigan, elektrlashgan yirik mashina ishlab chiqarishdir. Masalan, dehqonchilikning moddiy-texnika bazasini tavsiflasak, uni moddiy asosda, texnika asosida, traktorlar va mashinalarni dehqonchilikda ko‘plab ishlatish, elektrlashtirishni ommaviy miqyosda amalga oshirish asosidagina hal qilish mumkin.

Qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika bazasi tarkibiga yer resurslari, traktorlar, mashinalar, mehnat qurollari va buyumlari; elektr jihozlari; yonilg‘i va moylash materiallari, ta‘mir texnikasi, ishlab chiqarish binolari, metoratsiya va yo‘l inshootlari; aloqa vositalari; mahsuldar va ishchi hayvonlar; ko‘p yillik daraxtlar; urug‘lik; oziq va hokazolar kiradi.

Qishloq xo‘jaligi moddiy-texnika bazasi xalq xo‘jaligining boshqa sohalari moddiy-texnika bazasiga nisbatan o‘ziga xos bir qator xususiyatlarga ega. Yuqorida aytganimizdek, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi moddiy-texnika bazasida energetika resurslari katta rol o‘ynaydi. Qishloq xo‘jaligi korxonalarini ixtiyoridagi barcha dvigatellar, kuch beruvchi mexanizmlar va ishchi hayvonlar quvvati yig‘indisi ularning energetika resurslarini tashkil etadi.

Qishloq xo‘jaligining energetika resurslariga xo‘jalik ixtiyoridagi traktorlar, kombaynlar, paxta terish mashinalari, statsionar dvigatellar, avtomashinalar, elektr generatorlar, pasaytiruvchi transformatorlar, ishchi hayvonlar va boshqa turdagи mexanizmlar kiradi.

Qishloq xo‘jaligining energetika resurslari doimo rivojlanib, takomillashib bormoqda. Kam quvvatli va tezligi kam traktorlar kuchli, tezyurar va iqtisodiy jihatdan qulay traktorlar bilan almashtirilmoqda. Bunga misol qilib, respublikamiz sotib olayotgan «Keys» va «Magnum» traktorlarini ko‘rsatishimiz mumkin. Bu esa qishloq xo‘jaligi korxonalarini yuqori sifatli energiya quvvatlari bilan ta‘minlamoqda.

4. I. I - jadval

2004–2010-yillarda Respublika bo'yicha mavjud va yangi sotib olingan qishloq xo'jaligi texnikalari to'g'risida
MA'LUMOT

tirkamaları	70637	64	63614	368	55117	250	57258	348	54114	1421	50161	691	50852	3524
Kultiva-toları	25227	625	26053	503	24572	279	26458	440	25858	1433	25719	633	26352	4592
Chigit seyalkaları	17356	517	16428	352	14625	178	14475	237	13389	215	12799	320	13119	2409
Pluglar	11874	10	10690	130	9617	90	9889	117	9520	244	9415	67	9482	755
Don o'rish kombayn-ları:														
sh. j. yu-qori naumli	5349	3	4725	116	4645	93	4962	332	4903	123	4822	167	4989	915
O't-o'r-gichlar	2027	1	2057	55	1962	52	2181	86	2286	110	2671	167	2838	496
Zichlab-bog'la-gichlar	2272	0	1732	30	1481	59	1334	40	1380	308	1211	173	1384	650
	851	0	622	1	511		397	14	395	47	385	126	511	191

Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan fermer va dehqon xo'jaliklarining mustahkam oyoqqa turishi va barqaror sur'atlar bilan rivojlanishi uchun ularning moddiy-texnika bazasini yuksaltirishga e'tibor qaratish lozim. Fermer xo'jaligining moddiy-texnika resurslari tarkibiga xomashyo, yoqilg'i-moylash materiallari, ehtiyyot qismlar, urug'lik va ko'chat, mineral va organik o'g'itlar, yem-xashak va yosh chorva mollari, texnika vositalari va boshqalar kiradi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish ko'p jihatdan zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan qurollanishga bog'liq bo'lib bormoqda va bu holat fermer xo'jaliklarini moddiy-texnika vositalari bilan ta'minlash yo'nalishlarini takomillashtirishni talab qilmoqda. Lekin shu bilan birga, fermer xo'jaliklarining rivojlanishi bevosita unga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmaning xizmat sifati bilan uzviy bog'liqdir. Ma'lumki, infratuzilma subyektlarining xizmat ko'rsatish sifati ko'p jihatdan ularning moddiy-texnika bazasi bilan ta'minlanish darajasiga bog'liq.

Infratuzilma obyektlarining moddiy-texnika bazasiga ularning bino-inshootlari, asbob-uskunalar, texnikalar, transport vositalari, elektron asboblar, modemlar, o'lchash asboblari va boshqa infratuzilma muassasalarning faoliyatida qo'llanilayotgan asosiy va aylanma vositalari kiradi.

Respublikamizda qishloq xo'jaligi sohasini texnikalar bilan ta'minlash borasida bir qator ijobiylar amalga oshirildi.

Jumladan, 2004–2010-yillar davomida jami 14 ming 548 ta, shundan, 2004-yilda 900 ta, 2005-yilda 1 ming 876 ta, 2006-yilda 2 ming 211 ta, 2007-yilda 652 ta, 2008-yilda 2 ming 231 ta, 2009-yilda 3 ming 7 ta va 2010-yilda 2 ming 671 ta yangi turli rusumdagagi qishloq xo'jalik texnikalari fermer xo'jaliklari, DAJ MTP va muqobil MTPlarga yetkazib berildi.

Sotib olingan qishloq xo'jalik texnikalarining 2 ming 548 tasi haydov, 8 ming 242 tasi chopiq va 3 ming 524 tasi transport traktorlarini tashkil etadi.

Shu bilan birgalikda, boshoqli don ekinlarini o'rib-yig'ib olish uchun 2004–2010-yillar davomida jami 915 ta, undan 496 ta yuqori unumli bo'lgan g'alla o'rish kombaynlari sotib olindi.

Keyingi yillarda respublikamizda ishlab chiqarilgan texnikalarni iste'molchilarga yetkazib berish miqdorlari ham yildan-yilga ko'payib bordi.

2009-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 14-noyabrdagi «2009-yilda ishlab chiqarilgan va yetkazib beriladigan qishloq xo'jaligi texnikalarining asosiy ko'rsatgichlari to'g'risida»gi 247-sonli qarori bilan belgilangan rejaga nisbatan 263 ta transport traktorları, 580 ta kultivatorlar, 173 ta traktor tirkamalari iste'molchilarga ko'proq yetkazib berilib, 2004-yilda yangidan sotib olingan texnikalar soniga nisbatan chopiq traktorlari 3 marta, transport traktorlari 6 marta, kultivatorlar 2,5 marta ko'p miqdorni tashkil etdi.

2011-yilning 1-yanvar holatida respublikamizdagи umumiyl qishloq xo'jaligi texnikalari soni 156 ming 378 tani tashkil etmoqda.

4.2.Qishloq xo'jaligi infratuzilma korxonalarida moddiy-texnika ta'minotining tashkiliy-iqtisodiy omillari

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, rivojlangan qishloq xo'jaligi infratuzilmasiga ega bo'lmasdan turib, ishlab chiqarishni rivojlantirish, bozorga raqobatbardosh qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, taklif etish imkoniyati pasayadi.

Bozor munosabatlari sharoitida qishloq xo'jaligida infratuzilma xizmatlarining shakllanishi va rivojlanishi asosan davlat ko'magi va bevosita ishtiroki yordamida amalga oshirilmoqda, ya'ni bunda O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va Prezident Farmonlari asos bo‘lmoqda. Xususan, 2003-yil 24-martdagи «Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo‘nalishlari to‘g‘risida»gi, 2003-yil 27-oktabrdagi «2004–2006-yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiysi to‘g‘risida»gi, 2006-yil 17-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasida 2006–2010-yillarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2007-yil 21-maydagi «O‘zbekiston Respublikasida 2010-yil davrgacha xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaror va Farmonlari, «2004–2006-yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-oktabrdagi 476-sonli Qarorlariga asosan qishloq joylarda servis va infratuzilma shoxobchalari tashkil etildi. Qishloq xo‘jaligida infratuzilma xizmatlarining tashkil etishga miqdoriy jihatdan yondoshib kelinmoqda. Shu sababli, ushbu xizmatlarni tashkil etish faqat ma’muriy usulda emas, balki iste’molchilarining va bozordagi talab va takliflardan kelib chiqqan holda vujudga kelishi lozim.

Ma’lumki, respublikamizda narxlarning liberallahushi natijasida sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining narxlari o‘rtasidagi nomutanosiblik qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir etmoqda, shuningdek, ba’zi turdagи resurslarning, texnika vositalarining chetdan olib kelinishi ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxining oshishiga sabab bo‘lmoqda. Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasida bozor mexanizmlarini rivojlantirish, raqobatni shakllantirish, xizmatlar sifatini oshirish uchun avvalambor, infratuzilma tarmog‘ining moddiy-texnika bazasini mustahkamlab borish zarur.

Qishloq xo‘jaligi infratuzilma korxonalarining moddiy-texnika resurslari bilan ta’minlanish darajasi baholanganda

quyidagi obyektlarda resurslarning holati, sifati normativ me'yorga nisbatan mavjudligiga e'tibor qaratish lozim:

– muqobil MTP bo'yicha: qishloq xo'jaligi mashina, traktor, kombaynlar, mashina-traktor parkining bino-inshootlari.

– SIU bo'yicha: meliorativ va gidrotexnik inshootlar, suv o'lchagich, nasos, kollektor-zovur tizimlari.

– YOMM va mineral o'g'it sotish shoxobchalari bo'yicha: maxsus inventar, asbob-uskuna, omborxona, tarozi, taralar.

– minibanklar bo'yicha: zarur inventarlar, personal kompyuterlar, modemlar.

Shuningdek, ushbu va boshqa qishloq xo'jaligi infratuzilmasi tarmoqlarining moddiy-texnika resurslar bilan ta'minlanish darajasi tahlil qilinganda nafaqat texnikalar soni, ularning turlari, sifati, ishlagan muddati, yaroqliligin, balki hozirgi bozor talablariga javob berishini ham inobatga olish zarurdir.

Hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida har yili fermer xo'jaliklarida moddiy-texnika resurslari, mineral o'g'it, yoqilg'i-moylash materiallari, texnika vositalari va boshqa vositalar bilan ta'minlash, ulardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish borasida ko'pgina amaliy ishlar qilinmoqda. Buning natijasida har bir viloyatda qishloq xo'jaligi infratuzilmasining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ta'minot va xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishga ijobiylashtirishga qilmoqda.

Ma'lumki, fermer xo'jaliklariga agrotexnik xizmat ko'rsatishni yaxshilash, qishloq xo'jaligi texnikasidan foydalanish samarasini oshirish maqsadida respublikamizda muqobil mashina-traktor parklari tuzildi. Viloyatda faoliyat ko'rsatib kelayotgan muqobil MTPlarda jami 5745 ta turli rusumdagagi traktorlar mavjud bo'lib, shundan 566 tasini haydov traktorlari va 2479 tasini chiqiq traktorlari tashkil etadi.

4.3. Qishloq xo‘jaligi infratuzilma korxonalarini moddiy-texnika ta’minoti bilan ta’minlanganlik darajasi tahlili


Qashqadaryo viloyati agrar tarmog‘ida hozirgi kunda jami 9218 ta barcha rusumdagি traktorlar, 158 ta buldozer, 689 ta g‘alla o‘rish kombayni, 127 ta ekskovatorlar va boshqa turdagи texnikalar mavjud bo‘lib, asosiy texnika turlarining mulkchilik shakli bo‘yicha taqsimlanishi keyingi rasmda ko‘rsatilgan (4.3.1- rasm).

4.3.1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, qishloq xo‘jaligi texnikalarining asosiy qismi muqobil MTPlarda shakllangan. Jami texnikalarni turlari bo‘yicha taqsimlab chiqilganda, jami traktorlarning 62 foizi, buldozerlarning 49 foizi, ekskovatorlarning 39 foizi, g‘alla o‘rish kombaynlarning 35 foizi bevosita muqobil mashina-traktor parklarida mujassamlashgan bo‘lib, ularning mulki hisoblanadi.

Bugungi kunda muqobil MTPlar fermer xo‘jaliklarida mexanizatsiya ishlarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda, ammo ular moddiy va ma’naviy jihatdan eskirgan, xizmat muddatini o‘tagan, oldingi shirkat xo‘jaliklarining texnikalari hisobiga shakllanganligi sababli yetarli darajada va sifatda xizmat ko‘rsatish imkonini cheklangan. Mashina-traktor parklarida mavjud bo‘lgan aksariyat texnikalarni eski, 10-20-yil va undan ortiq xizmat qilgan texnikalar tashkil etadi.

I.A.Karimov o‘z so‘zlarida ta’kidlab o‘tganlaridek: «Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi zamonaviy agrotexnologiyalarni o‘rganish va amalda joriy etish bilan o‘ta jiddiy shug‘ullanishi, seleksiya ishlarini yanada takomillashtirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining mahsulдорligini oshirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqishi zarur.

Chopiq traktorlarning 55 foizdan ortig‘i va yer haydaydigan traktorlarning 46 foizi 15-yildan ortiq vaqt mobaynida ishlatilayotgani, boshqacha aytganda, ular



4.3.1-rasm. Qashqadaryo viloyatida asosiy turdag'i texnikalarning mulkchilik shakli bo'yicha taqsimlanishi³⁵

³⁵ Qashqadaryo viloyati «Davtexnazorat» ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

belgilangan foydalanish muddatini allaqachon o'tab bo'lgani, quvvati, ish unumi va yoqilg'i iste'mol qilish bo'yicha zamonaviy standartlarga javob bermaydigan eski texnikalar ekani tashvish uyg'otmasdan qolmaydi».³⁶

Buni biz Nishon tumani muqobil MTP misolida ham ko'rishimiz mumkin (4.3.1-jadval).

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, muqobil MTPlardagi asosiy turdag'i texnikalarning aksariyat qismi 20-yil va undan ortiq yil avval ishlab chiqarilgan texnikalarni tashkil etadi.

4.3.1-jadval

Nishon tumani muqobil MTPlarda asosiy turdag'i texnikalarning ishlab chiqarilgan yillari bo'yicha guruhlanishi³⁷

№	Texnika turlari	Texnikalarning yillar bo'yicha taqsimlanishi, %				Jami texni- kalar soni, dona
		1-5- yilga- cha	5-10- yilga- cha	10-20- yilga- cha	20 yildan yuqori	
1	Barcha rusumdag'i traktorlar	6,8	3,6	33,7	55,9	468
2	Shu jumladan, haydov traktorlari	16,3	17,8	48,1	17,8	23
3	Chopiq traktorlari	8,8	3,3	31,9	56	277
4	Transport traktorlari	3,6	1,7	33,7	61	168
5	G'alla o'rish kombayni	0	28,6	65,1	6,3	8
6	Chigit ekish seyalkasi	0,6	0	47,5	51,9	89
7	Kultivatorlar	6,1	0,8	28,6	64,5	225

³⁶ I.A.Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zR Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza, 2011-yil 21-yanv./-T.: O'zbekiston, 2011. 27-28-b.

³⁷ Qashqadaryo viloyati «Davtexnazorat» Nishon tumani bo'limi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

Barcha rusumdagи traktorlarning 56 foizga yaqinini 20–30-yil oldin ishlab chiqarilgan traktorlar tashkil etadi. Bu holatni g‘alla o‘rish kombayni va kultivatorlarning ishlab chiqarish sanasida ham ko‘rishimiz mumkin. Muqobil MTPlarda texnikalarning aksariyat qismi eskirganligi, albatta, ularning ish unumiga salbiy ta’sir etadi.

Moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun zarur bo‘lgan moliyaviy mablag‘ni shakllantirish esa muqobil MTPlarda katta muammo bo‘lib qolmoqda, chunki ularning ta’sischilarini hisoblangan fermer xo‘jaliklaridan xizmat haqi sifatida tushayotgan mablag‘lar yetarli emas, shu bilan birga mashina-traktor parklarining moliyaviy ahvoli hozirgi kunda bunga yo‘l qo‘ymaydi. Ta’sischilarining qo‘sishimcha mablag‘lari hisobiga ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashning mexanizmlari ishlab chiqilmagan. Shuningdek, fermer xo‘jaliklarining yer maydoni hajm jihatidan juda kam bo‘lib, texnika salohiyatini yaxshilash uchun imkon bermaydi. Shu sababli, fermer xo‘jaliklarini optimal joylashtirish va hajmini kattalashtirish zarur deb hisoblaymiz.

Umuman olganda, Nishon tumani bo‘yicha paxta va g‘alla yetishtirishda ishlatiladigan texnikalarning 1000 hektar ekin maydoni hisobiga me’yor bo‘yicha hisoblanganimizda asosiy turdagи texnikalarning yetishmasligi aniqlandi (4.3.2 -jadval).

4.3.2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Nishon tumanida paxta va g‘alla yetishtirishda ishlatiladigan texnikalarning ayrim turlari yetishmaydi. Misol uchun, haydov traktorlari me’yorga nisbatan 10 ta kam, chopiq traktorlari 79 ta, chigit ekish seyalkasi 154 ta, hamda 87 ta don ekish seyalkasiga talab mavjud. Ammo g‘alla o‘rish kombayni me’yorga nisbatan 18 ta ortiq. Demak, kelajakda fermer xo‘jaliklarida mexanizatsiya ishlarini kengaytirish maqsadida me’yorga nisbatan kam bo‘lgan texnikalarni xarid qilishga e’tibor berishimiz zarur.

4.3.2-jadval

**Nishon tumanida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida
foydalaniладиган асоси турдаги техникаларга бо'лган талаб³⁸**


№	Texnika turlari	shu jumladan				1000 gektar hisobiga		Farqi +; -	Talab qilinadi
		Jami texnikalar soni	muqobil MTP va MTP DAJ	fermer xo'jaliklarida	boshqa xo'jalik yurituvchi subyektilarda	haqiqatda	me'yor bo'yicha		
1	Haydov traktorlari	115	53	57	5	2,57	2,80	-0,23	10
2	Chopiq traktorlari	457	277	165	15	10,22	12,00	-1,78	79
3	Chigit ekish seyalkasi	144	89	53	2	6,43	13,30	-6,87	154
4	Don ekish seyalkasi	20	20	0	0	0,90	4,80	-3,90	87
5	G'alla o'rish kombayni	63	31	30	2	2,83	2,00	0,83	-18

Lizing munosabatlarini kengaytirish qishloq xo'jaligi korxonalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashda ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Hukumatning 2002-yil 2-noyabrdagi «Lizing bo'yicha qishloqni qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlash yuzasidan qo'shimcha choratadbirlar haqida»gi Qarori bilan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarni, shu jumladan, fermer xo'jaliklariga qishloq xo'jaligi texnikalarini lizing bo'yicha yetkazib berish mexanizmi ishlab chiqilgan. Keyingi yillarda lizing

³⁸ Nishon tumani «Davtexnazorat» ma'lumotlari asosida hisoblab chiqilgan.

to‘g‘risidagi me‘yoriy xujjatlarga 40 dan ziyod o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Buning natijasida lizing munosabatlari takomillashmoqda: 2007-yilda lizing muddati 7 yildan 10 yilga uzaytirildi, lizing bozorida lizing kompaniyalari bilan birga, tijorat kompaniyalari ham faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu esa o‘z navbatida, lizing bozorida raqobatning kuchayishiga olib keladi. Ammo tahlillarga ko‘ra, muqobil MTPlarida lizingdan foydalanib texnikalar xarid qilinishi yetarli darajada rivojlangan, deb bo‘lmaydi.

2002–2008-yillar davomida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar va infratuzilma sohalariga 1689 ta turli xildagi qishloq xo‘jaligi texnikalari yetkazilgan. Ammo keyingi yillarda muqobil MTP va MTP DAJ korxonalarining iqtisodiy salohiyati yetishmasligi sababli lizing asosida texnikalarni xarid qilish sur’ati pasaygan (4.3.2-rasm).



4.3.2-rasm. «O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing» aksionerlik lizing kompaniyasi (ALK) Qashqadaryo viloyat filiali tomonidan yetkazilgan texnikalar soni³⁹

³⁹ «O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing» ALK Qashqadaryo viloyat filiali ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

Tahlillarga ko'ra, 2002-yilda asosan shirkat xo'jaliklari texnikalarni lizing asosida xarid qilishgan bo'lsa, 2008-yilga kelib lizing asosida xarid qilingan texnikalarning asosiy qismi fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi infratuzilmasi hissasiga to'g'ri keladi.

Ma'lumki, bitta xo'jalik hududida foydalanib kelingan xo'jalik ichki kanallari, undagi gidrotexnik inshootlari va meliorativ texnikalar, mol-mulklaridan foydalanadigan bir nechta subyektlar paydo bo'lganligi suv iste'molchilari uyushmasini tashkil etish zaruriyatini keltirib chiqardi.

Suv iste'molchilari uyushmasi mustaqil yuridik shaxs hisoblanib, o'z faoliyatini xo'jalik hisobi tamoyillari asosida olib boradi. SIU o'zi sotib olgan, qurgan va uning balansiga o'tkazib berilgan barcha (suv xo'jaligi obyektlari va boshqalar) mol-mulklar uning moddiy-texnika bazasini tashkil etadi. U xizmat ko'rsatadigan hududdagi irrigatsiya – melioratsiya tarmoqlari va unda joylashgan gidrotexnik inshootlar shular jumlasidandir. Meliorativ va gidrotexnik texnikalarga ekskovator, buldozer, skreper, drenaj yuvish agregatlari, avtovoz, yuk ko'tarish kranlari, bino hamda qayta tashkil etilayotgan qishloq xo'jaligi korxonalari bududidagi suv xo'jaligi obyektlari va boshqa mol-mulk kiradi.


Ichki xo'jalik obyektlariga qayta tashkil etilayotgan qishloq xo'jaligi korxonalari tasarrufidagi sug'orish va kollektor – drenaj tarmoqlari, gidrotexnika inshootlari, nasos stansiya va agregatlari, sug'orish va drenaj quduqlari, ularning elektr uzatish tarmoqlari, yordamchi transformator stansiyalari hamda ichki xo'jalik maqomiga ega bo'lgan suv xo'jaligi obyektlaridan foydalanishga oid boshqa inshootlar kiradi.

Ma'lumki, SIUarning aksariyat qismi muqobil MTPlar kabi sobiq shirkat xo'jaligi hududida tashkil topgan bo'lib, ularning irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlari endilikda faoliyat ko'rsatayotgan SIUning mulki hisoblanadi. Uyushma shu tarmoqlarni ishlatish va ishchi holatda saqlashni o'z zimmasiga olgan. Tugatilgan xo'jalikning balansida bo'lgan

og‘ir texnika va ma‘muriy bino ayrim SIUlar ixtiyoriga berilgan. Lekin ko‘pchilik uyushmalarning moddiy-texnika bazasi qoniqarsiz ahvolda. Bu esa suvdan foydalanuvchilarga samarali va sifatli xizmat ko‘rsatish imkoniyatini pasaytiradi. SIUlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida hukumatimiz tomonidan bir necha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 29-oktabrdagi «Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF -3932 farmoniga ko‘ra sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilash 2008–2012-yillar davrida qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlaridan biri sifatida suv xo‘jaligi va SIUlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, melioratsiya texnikasi saroyini yangilash belgilandi. Shuningdek, sug‘oriladigan yerlarning hozirgi ahvolini tahlil qilish, bor bo‘lgan drenaj tarmoqlari va ulardagi inshootlarni hamda SIUlar drenaj tarmoqlarini hisobga olib, ta‘mirlash-tiklashga doir amaliy ishlarni bajarish belgilab olingan:

- viloyatlararo, tumanlararo va xo‘jaliklararo kollektorlar qurish va rekonstruksiya qilish uchun 288906,4 mln. so‘m mablag‘ ajratish;
- melioratsiya obyektlarini ta‘mirlash va tiklash uchun 211423,4 mln. so‘m mablag‘ ajratish;
- maxsus qurilish va ekspluatatsiya tashkilotlari hamda SIUlar moddiy-texnika bazasini yaxshilash uchun 1038747,0 mln. so‘m ajratish.

Tahlillarga ko‘ra, 2008-yilda viloyat tumanlarida joylashgan suvdan foydalanuvchilar uyushmalarida jami 281 ta har xil turdagи texnikalar mavjud bo‘lib, shundan 30 ta ekskavator, 27 ta buldozer, 43 ta avtomobil, 105 ta traktor va 75 ta boshqa turdagи texnikalar irrigatsiya – melioratsiya ishlarni bajarishga jalb etilgan. Ammo tumanlar kesimida ularning joylashuvini tahlil qilib chiqqanimizda, texnikalar ‘notekis taqsimlab chiqilganligi aniqlandi (4.3.3-rasm).




4.3.3-rasm. Qashqadaryo viloyati tumanlarida joylashgan SIUlarda mavjud texnikalar tarkibi⁴⁰

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, Nishon, Chiroqchi, Mirishkor, Kitob tumanlaridagi SIUlarda texnika soni va turi ham kam bo‘lib, fermer xo‘jaliklariga sifatli xizmat ko‘rsatishga salbiy ta’sir etib kelmoqda.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning va sug‘oriladigan maydonni hisobga olgan holda, uyushmalarga qo‘srimcha 358 ta texnika kerakligi aniqlab chiqildi. Tahlillarga ko‘ra, G’uzor, Qamashi, Nishon tumanlarida ekskavator, buldozer, avtomobil kabi texnikalar umuman mavjud emas, boshqa tumanlarda talabga nisbatan juda kamligi e’tiborga olinib, tumanlarda joylashgan suvdan foydalanuvchi uyushmalarga zarur bo‘ladigan texnika turlari va soni aniqlab chiqildi (4.3.4-rasm).

⁴⁰ Amu – Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.



4.3.4-rasm. Qashqadaryo viloyati tumanlari kesimida SIUlarda talab qilinadigan texnikalar tarkibi⁴¹

Yuqorida ta’kidlab o’tilganidek, muqobil MTP va SIUlarning ta’sischilari fermer xo’jaliklari hisoblanadi, shu sababli ushbu tashkilotlarga tegishli mulk, shuningdek, ularning a’zolari hisoblangan fermerlarning mulki ham hisoblanadi.

O’tkazilgan tadqiqotlarga ko’ra, fermerlarning muqobil MTP va SIUlarning moddiy-texnika bazasi bilan ta’minlanganligini tahlil qilganimizda, keyingi yillarda ushbu ko’rsatkichlar o’zgarib borayotgani aniqlandi (4.3.3-jadval).

Muqobil MTPlarning moddiy-texnika bazasini fermer xo’jaliklari soniga nisbatan taqsimlanganida 2004–2010-yillar davomida 3,6 martaga, yer maydoniga nisbatan 4,4 martaga va ishlovchilar soniga nisbatan 4,3 martaga ko’paygan. Ammo SIUlar bo'yicha ushbu ko'rsatkichlarni tahlil qilganimizda, teskari holatni ko'rishimiz mumkin.

⁴¹ Amu – Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

4.3.3- jadval

Qashqadaryo viloyati muqobil MTP va SIU ta'sischilarini moddiy-texnika bazasi bilan ta'minlanish darajasining tahlili⁴²

Yillar	MMTPning moddiy-texnika bazasining taqsimlanishi			SIUning moddiy-texnika bazasining taqsimlanishi		
	fermer xo'jaliklari soniga nisbatan, ming so'm/ dona	fermer xo'jaliklari yer maydoniga nisbatan, ming so'm/ga	fermer xo'jaliklarining ishlovchilar soniga nisbatan, ming so'm/ kishi	fermer xo'jaliklari soniga nisbatan, ming so'm/ dona	fermer xo'jaliklari yer maydoniga nisbatan, ming so'm/ga	fermer xo'jaliklarining ishlovchilar soniga nisbatan, ming so'm/ kishi
2004	159,794	5,359	25,551	305,178	10,234	48,798
2005	212,362	7,260	28,916	342,406	11,706	46,624
2006	247,931	9,370	37,415	346,539	11,238	44,875
2007	345,946	13,073	59,414	260,570	9,847	44,751
2008	456,399	20,151	87,569	192,904	8,517	37,012
2009	584,866	24,286	110,694	253,033	13,537	25,445
2010	572,644	23,785	109,370	181,970	7,558	34,755
O'zgarishi	3,6 marta ko'paydi	4,4 marta ko'paydi	4,3 marta ko'paydi	1,7 martaga kamaygan	1,4 martaga kamaydi	1,4 martaga kamaydi

Bunda suv iste'molchilari uyushmasining fermer xo'jaliklari soniga nisbatan taqsimlab chiqilganda tahlil qilinayotgan davr mobaynida 1,7 martaga, ishlovchilar soniga nisbatan 1,4 martaga kamaygan. Bunga sabab SIUlarning aksariyatida moddiy-texnika bazasi eskirganligi va uni yangilash uchun mablag'ning yetishmasligidir.


Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 29-oktabrdagi PF-3932-sonli farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan,

⁴² Amu – Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi va viloyat iqtisodiyot bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

2008-yilda Ixtisoslashtirilgan qurilish va ekspluatatsiya tashkilotlari, SIUlarni melioratsiya texnikalari bilan ta'minlash bo'yicha ixtisoslashtirilgan lizing kompaniyasi tashkil etildi. Lizing kompaniyasining asosiy vazifasi – melioratsiya texnikasini, jumladan, lizing shartlari asosida mablag'lar ajratish yo'li bilan suv xo'jaligi tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishdir.

Rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun xarajatlarni tejash emas, aksincha resurslar samaradorligini oshirish evaziga erishish texnologiyasiga o'tilgan. Umuman olganda, iqtisodiyotning fundamental muammolardan biri – bu cheklangan resurslar doirasida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirishda mineral o'g'it va kimyoviy vositalar muhim ahamiyatga ega, ammo mineral o'g'itlar samaradorligi nihoyatda past bo'lmoqda, bu esa qishloq xo'jaligida intensivlashtirish darajasiga salbiy ta'sir etmoqda. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini kimyolashtirish orqali intensivlashtirishda o'simliklarga ham bevosita va bilvosita ta'sir etadi, ishlov berish usullari va agrotexnik tadbirlar bilan birga tuproqning iqtisodiy unumdorlik darajasini oshirib borish, mehnat sarflarini kamaytirishga, sarflangan resurslar hisobiga olinadigan mahsulot miqdorini ko'paytirishga olib keladi. Shu bois, «Qishloqxo'jalikkimyo» hududiy birlashmalari tarkibidagi xizmat ko'rsatuvchi shoxobchalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu shoxobchalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi turli ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarining amalga oshirilishini ko'zda tutuvchi, atrof-muhit ekoliyasi buzilmasligini inobatga oluvchi kimyolashtirishning kompleks dasturini ishlab chiqish, bozor munosabatlari talablariga tarkibiy va funksional jihatdan to'g'ri keluvchi agrokimyo siyosatini amaliyatga joriy etish mumkin. Hozirgi kunda «Qishloqxo'-

jalikkimyo» hududiy birlashmalari tarkibidagi xizmat ko'rsatuvchi shoxobchalarining texnika vositalarining katta qismini 10 – 15-yil oldin olingen texnikalar tashkil etadi va ularning ma'lum bir qismi jismoniy va ma'naviy jihatdan eskirgan, bundan tashqari omborxonalarining ko'plari ta'mirtalab holatga tushib qolgan. Hozirgi kunda viloyat «Qishloqxo'jalikkimyo» hududiy aksiyadorlik jamiyat tasarrufida jami 634 ta barcha turdag'i texnika vositalari mavjud bo'lib, shundan 560 tasi, ya'ni jami texnikalarning 88 foizi mineral o'g'it tashish va agrokimyoviy xizmat ko'rsatishda, qolgan texnikalarning 26 tasi ombor xo'jaliklarida, 39 tasi filial binosida va 6 tasi viloyat HAJda xizmat ko'rsatmoqda (4.3.5-rasm).



4.3.5-rasm. Qashqadaryo viloyat hududiy aksiyadorlik jamiyat tasarrufidagi texnikalar holati⁴³

⁴³ Qashqadaryo viloyat «Qishloqxo'jalikkimyo» hududiy aksiyadorlik jamiyati ma'lumotlari asosida tayyorlangan.


Shuni ta'kidlash lozimki, keyingi yillarda jamiyat o'zining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga katta e'tibor bermoqda, xususan «Toshkent traktor zavodi» ochiq hissadorlik jamiyati bilan tuzilgan shartnomaga binoan 2007-yilda 19 ta ITTZ-80-10 rusumdag'i va 19 ta I2PTS-793A rusumdag'i texnikalarni, 2008-yilda to'g'ridan-to'g'ri shartnomaga asosida 4 ta tirkama va 40 ta purkagich sotib olindi. Bu esa o'z navbatida moddiy-texnika bazani yangilab borishga va xizmat sifatini oshirishga ko'maklashadi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, xizmat ko'rsatish shoxobchalarida jami 560 ta har xil turdag'i texnika vositalari mavjud, ammo shundan 474 tasi yaroqli va 86 ta texnika vositalari ta'mirtalab holatda ekanligi aniqlandi. Jamiyatga tegishli texnikalarning asosiy qismi mineral o'g'it tashish va agrokimyoviy xizmat ko'rsatishda qatnashadi, qolganlari esa ombor xo'jaliklari va filial binolarida xizmat ko'rsatib kelmoqda (4.3.6-rasm).

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mineral o'g'it bilan ta'minlash shoxobchalarida mavjud texnikalarning asosiy qismi yaroqli, ammo kultivatorlarning 70 foizi, yuk avtomashinalarining 45 foizi yaroqsiz bo'lib, ushbu texnikalarga bo'lган talabni qondirish yo'llarini izlab topish lozim.

YOMM sotish shoxobchalarining moddiy-texnika vositalari bilan ta'minlanish darajasini tahlil qilinganda yuqoridagi holatni ko'rishimiz mumkin, ya'ni bunda ham yaroqli mulkning bir qismi sobiq shirkat xo'jaliklari balansidagi texnikalar hisobidan shakllangan.

Nafaqat muqobil MTP, SIU, mineral o'g'it va kimyoviy vositalarni sotish shoxobchalarining moddiy-texnika bazasi talab darajasida emas, balki qishloq xo'jaligi infratuzilmasining boshqa turlarida ham shu ahvolni ko'rishimiz mumkin.

Joylarda tashkil etilayotgan minibanklar asosan moslashtirilgan binolarda joylashgan, birortasi ham zamонавиъ loyiha asosida qurilgan binoga ega emas. Viloyatimizda mavjud 129 ta minibankdan 110 tasida modern



4.3.6-rasm. Mineral o'g'it tashish va agrokimyoiy xizmat ko'rsatish shoxobchalarida soz va nosoz texnikalar tarkibi⁴⁴

bor, lekin qishloq joylarda telekommunikatsiya sohasi yaxshi rivojlanmaganligi sababli bosh bank bilan aloqa o'rnatishi cheklangandir. Natijada ko'p banklar fermerlarga talab darajasidagi xizmat ko'rsatish imkoniga ega emas, ya'ni ish haqiga naqd pul to'lash uchun sharoit yaratish, hisobkitoblarni oxirigacha amalga oshirish kabi xizmatlarni o'z vaqtida bajarishda bir necha muammolar yuzaga kelmoqda.

4.4. Qishloq xo'jaligi infratuzilma obyektlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari

Qishloq xo'jaligi infratuzilma tarmoqlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashda, albatta, infratuzilma obyektlari joylashgan hududning ixtisoslashuvi, tabiiy

⁴⁴ «Qishloqxo'jalikkimyo» HAJ ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

sharoitlari, ekin ekiladigan maydonning hajmini, tuproqning mexanik va tarkibiy xususiyatlarini hamda boshqa tabiiy-iqtisodiy omillarni hisobga olish zarur.

Shu sababli, qishloq xo'jaligi infratuzilma obyektlari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash quyidagi yo'nalishlarda olib borilishi taqozo etiladi:

- qishloq xo'jaligi infratuzilma obyektlari moddiy-texnika bazasini mustahkamlashda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirib borish va davlat aralashuvini kamaytirish;
- chetdan keladigan resurslar va texnika vositalarini mahalliylashtirish;
- xizmat ko'rsatish va ta'minot tizimida raqobat muhitini yaratish;
- lizing, ipoteka, franchayzing va imtiyozli kreditlardan foydalanish.

Qishloq xo'jaligi infratuzilma obyektlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash natijasida qishloq xo'jaligi, unga xizmat ko'rsatish va ta'minot yo'nalishidagi sohalar o'rtaida mustahkam iqtisodiy aloqani yo'lga qo'yilishi, qishloq xo'jaligi tarmog'ini barqaror rivojlanishi va iqtisodiy samaradorligi oshib borishi ta'minlanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Qishloq xo'jaligi moddiy - texnika bazasi tushunchasiga izoh bering.
2. Qishloq xo'jaligi infratuzilma korxonalarida moddiy-texnika ta'minoti deganda nimani tushunasiz?
3. Qishloq xo'jaligi infratuzilma korxonalarida moddiy-texnika ta'minotining iqtisodiy omillari nimalardan iborat?
4. Fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi muqobil MTPlari xizmat turlari nimalardan iborat?
5. Qishloq xo'jaligi va unga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma tarmog'ining moddiy - texnika bazasini mustahkamlashda lizingning ahamiyati va o'rni nimalardan iborat?

Y BOB. QISHLOQ XO'JALIGIDA TRANSPORT XIZMATIDAN FOYDALANISH

O'quv maqsadi: qishloq xo'jaligida transport servis xizmatining ahamiyati, o'rni va qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilari o'rtasidagi tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy munosabatlarini takomillashtirishga oid nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

5.1. Transport servis xizmati ko'rsatuvchi tarmoq rivojlanishining xalq xo'jaligi iqtisodiyotidagi ahamiyati va tutgan o'rni

Hozirgi kunda yuqori darajadagi xalqaro standartlarga javob beradigan, mamlakatimizning barcha hududlarini o'zaro ishonchli bog'laydigan va mintaqaviy hamda jahon bozorlariga chiqishni ta'minlaydigan O'zbekiston milliy avtomagistralini qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha keng ko'lamli dastur amalga oshirilmoqda. Buning natijasida umumiyl foydalanishdagi avtomobil yo'llarining uzunligi 42530 kilometrga yetdi (5.1.1-jadval).

5.1.1-jadval

O'zbekiston Respublikasi avtomobil yo'llari tarmog'ining umumiyl uzunligi

Yo'l turlari	Uzunligi, km
Umumiyl foydalanishdagi avtomobil yo'llari	42530
Shaharlar va boshqa aholi punktlari ko'chalari	61664
Xo'jalik avtomobil yo'llari	79367
shu jumladan:	
- ichki xo'jalik yo'llari	67274
- korxonalarga qarashli yo'llar	12093

Umumiyl foydalanishdagi avtomobil yo'llarining 51 foizi mahalliy ahamiyatdagi, 40 foizi davlat ahamiyatidagi va 9 foizi xalqaro ahamiyatidagi yo'llar hisoblanadi (5.1.1-rasm).


Mazkur dastur doirasida 2009-yilda 217 kilometrlik avtomobil yo'li foydalanishga topshirildi, 538 kilometr yo'l va 19 ta ko'prik kapital ta'mirlandi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun Respublika yo'l jamg'armasi hisobidan 280 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi. O'zbekiston Respublikasi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida 2009-yil yakuni bo'yicha qurish va ta'mirlash bo'yicha jami bajarilgan ishlar hajmi 2008-yilga nisbatan 118,7 foizni tashkil etdi.

Ma'lumki, transport yordamida inson tomonidan hosil qilingan mehnat natijalari bir joydan ikkinchi joyga yoki ishlab chiqarish jarayonidan iste'mol jarayoniga yetkaziladi. Transport quyidagi ko'rinishlarda: havo, suv, temir yo'l, avto va ot-arava transporti ko'rinishida xizmat ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligidagi yuklar asosan traktor telejkasi, avtomashina va temir yo'l transportlari yordamida amalga oshiriladi. Transport xizmatidan foydalanish:

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilardan iste'molchilarga yetkazib berish vaqtini qisqartirishga olib keladi;

- mahsulot sifati buzilishini keskin kamaytiradi;
- qishloq xo'jaligida bajarilgan tadbirlarni o'z muddatida va yuqori sifatli o'tkazishga (mineral o'g'it, urug'lik, ozuqa va boshqalar) ta'sir etib, oqibatda ishlab chiqariladigan mahsulot miqdorini oshirishga yordamlashadi;
- qishloq xo'jaligini xalq xo'jalinining boshqa sohalari bilan bog'laydi;



5.1.1-rasm. O'zbekistonda umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari

– qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini jahon bozoriga chiqarish imkoniyatini beradi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish infratuzilmalarida yo‘l xo‘jaligi ham katta ahamiyatga ega. Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasining transport bo‘g‘ini bevosita yo‘l xo‘jaligi holatiga bog‘liqdir. Yo‘l xizmati holati bevosita transport xizmati darajasiga yoki ijobiy yoki salbiy ta’sir etadi.

– transport vositalari umrini qisqartiradi, qismlari tezda ishdan chiqadi, sinadi;

– yuk tashish xarajatlari ortadi, uning samaradorligi pasayadi, mahsulot sifati buzilishiga olib keladi;

– yuklarni o‘z muddatida tashish imkoniyatiga putur etkazadi;

– yo‘l qishloq madaniyati qay darajada ekanligini ko‘rsatuvchi ko‘zgudir.

O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida bunyod bo‘lishi va uning qishloqda olib borayotgan qishloq xo‘jaligi islohotlari natijasida yo‘l xo‘jaligi xizmatining zamonaviy turlari bunyodga kelmoqda. Yangi yo‘llar, ko‘priklar qurilmoqda. Ularning xizmat ko‘rsatish madaniyati yaxshilanmoqda.

Moddiy ishlab chiqarish to‘rt sohadan: qazib oluvchi; ishlab beruvchi; sanoat; dehqonchilik va transportdan tashkil topgan. Transportning boshqa ishlab chiqaruvchi sohalardan farqi shundaki, u yangi mahsulot yaratmaydi, balki ishlab chiqarilgan moddiy boylikni iste’molga yetkazadi.

Transport yordamida sohalar, soha ichidagi tarmoqlar, tarmoq ichidagi korxonalar bir-biri bilan bog‘lanib, ishlab chiqarish jarayoni maromida borishi uchun barcha sharoitlar yaratiladi. Transport ishlab chiqarish bilan iste’mol o‘rtasidagi aloqani ta’minlaydi. Ish kuchi, mehnat qurollari va mehnat buyumlarini bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirib, jami iste’mol mahsuloti ko‘lamiga ta’sir ko‘rsatadi.

Transport vositalari yordamida moddiy boyliklar bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirilishi natijasida iste’molgacha yaqinlashadi, iste’mol qiymatining tashkil topishi tezlashadi. Transport vositalarining o‘ziga xos xususiyatlari ulardan

moddiy boylik ishlab chiqarishning hamma sohalarida keng ko‘lamda foydalanish zaruratin keltirib chiqaradi. Transport vositalaridan foydalanish mahsulot ishlab chiqarish va uni realizatsiya qilish uchun sarflanadigan vaqt ni qisqartiradi, mehnat unumdorligini oshiradi, mahsulot tannarxini kamaytiradi.

Transport vositalaridan unumli foydalanish qishloq xo‘jaligida yo‘llar qurish, ularning yuk tashish qobiliyatini oshirish, ta‘mir ishlarini muntazam ravishda olib borish, yo‘l xo‘jaligi ixtiyoridagi texnikani takomillashtirish va ulardan unumli foydalanish, demakdir. Kuzatishlar avtomobilning yuk ko‘tarish qobiliyati qattiq qoplasmal yo‘llarda qattiq qoplamasiz yo‘llardagiga nisbatan 25-80%, tezligi 2-3 marta oshishini, yonilg‘i sarfini esa 2 marta kamayishini ko‘rsatadi. Shuning uchun xo‘jaliklararo va xo‘jalik ichidagi yo‘llarni rekonstruksiyalash va o‘z muddatida ta‘mirlash, yo‘l qurilishini kengaytirish va qishloq xo‘jaligini yanada intensiv rivojlantirish uchun real sharoitlar yaratadi.

Qishloq xo‘jaligida transport vositalaridan foydalanish xalq xo‘jaligining boshqa sohalariga nisbatan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlarga quyidagilar kiradi:

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari keng hududda yetishtirilishi tufayli ularni tashish bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi;
- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining mavsumiyligi tufayli yuk tashishni yil mobaynida bir me'yorda amalga oshirib bulmaydi. Ayrim hollarda katta miqdordagi yuklarni qisqa vaqt ichida tashish zarurati paydo bo‘ladi;
- turli xil transport vositalari talab etiladi;
- tashiladigan yuklar turi, hajmi, xususiyatiga ko‘ra har xildir;
- yuk tashish masofasi har xil bo‘ladi;
- transport vositalari shirkat xo‘jaliklariga kam boradi.

Qishloq xo‘jaligida transport vositalaridan foydalanishning bu xususiyatlari qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tannarxida transport xarajatlari miqdorining oshishiga olib

keladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, mahsulot tannarxida transport xarajatlari 30-40%ni, don mahsulotlari tannarxida 26%ni, makkajo'xori tannarxida 15%ni tashkil etadi. Hozirgi vaqtda shirkat xo'jaliklarida tashiladigan yuklarning 80%i avtomobil transportiga, 16%i traktor transportiga va 4%i ot-ulov transportiga to'g'ri keladi. Xo'jaliklararo tashiladigan yuklarning ko'pi avtomobil transporti, xo'jaliklar ichida tashiladigan yuklarning ko'p qismi esa traktor transportlari hissasiga to'g'ri keladi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida havo va suv, temir yo'l transportidan ham foydalanilmoqda.

Transport tarmog'i asosan xalq xo'jaligining buyumlar ishlab chiqarish jarayonini davom ettirib, uni nihoyasiga, ya'ni iste'mol doirasigacha yetkazuvchi sohasidir. Demak, transportning umumjamiyat ishlab chiqarishdagi asosiy vazifasi sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlarni birlashtirishdan iboratdir.

Transport organizmning qon arteriyasiga o'xshaydi. U barcha tarmoqlarni, mamlakatning turli hududlarini bir butun xalq xo'jaligi sifatida birlashtirib turadi.

Transport xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini bir-biriga bog'lovchi vositadir. Xomashyolar, asbob-uskunalar, yarim tayyor mahsulotlar yonilg'i va turli xil mahsulotlarni sanoat tarmoqlari va korxonalar o'rtasida tashish transport yordamida amalga oshirilmoqda. Qishloq xo'jaligiga mineral o'g'itlar, qishloq xo'jaligi mashinalari, yonilg'i va boshqa narsalarni yetkazib berishda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini iste'molchilarga yetkazib berishda ham transport muhim rol o'ynaydi.

Transport mahsulotini o'lhash uchun o'Ichov birligi qilib yuk tashishda tonna kilometr va yo'lovchilar soni qabul qilingan. 5.1.2-jadvalda Qashqadaryo viloyati xalq xo'jaligida avtotransport vositalaridan foydalanish holatining tahlili keltirilgan.

5.1.2-jadval

**Qashqadaryo viloyati xalq xo'jaligida avtotransport vositalaridan
foydalanish holati (2008–2010-yil)**

Nº	Ko'rsatkichlar	O'l-chov birligi	2008-yil	2009-yil	2010-yil	2010-yil 2008-yilga nisbatan %
1	Jami avtomobil Shundan: texnik sozi jamiga nisbatan	Dona dona %	6305 4400 69,8	6480 4536 70,0	6517 4809 73,8	103,4 102,3 –
2	Yuk avtomobillari Shundan: texnik sozi jamiga nisbatan	dona dona %	2770 1881 67,9	2805 1916 68,3	2874 1977 68,8	103,6 105,1 –
3	Yuk tashish hajmi 1 ta texnik soz yuk avtomobiliga to'g'ri kelgan yuk tashish hajmi	mln.t ming dona	21,61 11,5	24,8 12,9	30,0 15,1	138,8 131,3
4	Yuk oboroti 1 ta texnik soz yuk avtomobiliga to'g'ri kelgan yuk oboroti	mln.t. km mln. t.km	851,2 45,2	958,5 50,0	1079,8 54,6	126,8 120,8
5	Jami yo'lovchi tashish avtomobillari Shundan: texnik sozi jamiga nisbatan	dona dona	4979 3485	4414 3090	4569 3198	91,7 91,7
6	Yo'lovchi tashish hajmi 1 ta texnik soz avtomobilga to'g'ri kelgan yo'lovchi tashish	mln. yo'lovchi mln. yo'lovchi	235,0 6,7	254,2 8,2	295,3 9,2	195,6 137,3

7	Yo'lovchi tashish oboroti 1 ta texnik soz avtomobilga to'g'ri kelgan yo'lovchi tashish	mln. yo'lov- chi mln. mas. km	2379,1	2550,4	3127,5	131,4
---	---	--	--------	--------	--------	-------

Yuklarni bir joydan ikkinchi joyga tashish jarayoni asosan uch tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi, bu yukni transport vositalariga ortish, yukni bir joydan ikkinchi joyga tashish va transport vositalaridan yuklarni tushirish jarayonlaridir. Demak, yuk va passajirlarni bir joydan ikkinchi joyga tashish jarayoni ham ishlab chiqarish, ham muomala doirasiga taalluqlidir. Har qanday mahsulot ishlab chiqarilar ekan va tayyor bo'lgan mahsulotni iste'molchiga yetkazilar ekan, transport ishtirokisiz bu jarayonlarni tasavvur qilib bo'lmaydi.

Demak, transport ishiga xarajat qilamiz, transport vositalarining qanchalik takomillashtirilganligi, yuklash va tushirish jarayonlari qanchalik mexanizatsiyalashganligi, transport ishining qanchalik oqilona tashkil etilganligi bu xarajatlarni kamaytirishning asosiy omillaridir.

Transport mahsulotining qiymati ham moddiy ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlariga xos bo'lgan iqtisodiy qonunlar bilan belgilanadi. Yuk tashish uchun transport vositalarida moddiylashtirilgan eski mehnat va transportda surʼat qilingan ijtimoiy mehnat hosil qiladi.

Bozor iqtisiodiyoti sharoitida bizning fikrimizcha transport servis xizmatining quyidagi tashkiliy-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqilishi taqozo etiladi:

- transport korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish va nodavlat transport servis korxonalarini tashkil etish mexanizmini ishlab chiqish;
- transport servis xizmatining turli shakllarini joriy etish va ularning moddiy - texnika bazasini mustahkamlashning iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish;

- transport korxonalari bilan ular xizmatidan foydalanuvchi subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy - tashkiliy va huquqiy munosabatlarni takomillashtirish;
- transport sohasiga chet el investitsiyasini jalb qilish yo‘nalishlarini ishlab chiqish;
- kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalasini hal qilish.

Xulosa qilish mumkinki, transport tarmog‘i xalq xo‘jaligining muhim va ajralmas qismidir. Hozirgi vaqtdagi asosiy vazifa ushbu tarmoqni bozor infratuzilmasining muhim bo‘g‘ini sifatida bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida rivojlantirib, bu sohada ham haqiqiy bozor mexanizmlarini ko‘proq joriy etish asosida doimo takomillashtirib borishni taqozo etadi.

5.2. Transport xizmati ko‘rsatuvchi korxonalar va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar o‘rtasidagi o‘zaro tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy munosabatlar

Turli mulkchilik va xo‘jalik yuritish shakllaridagi qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari hamda boshqa tashkilotlarning yuk tashishga bo‘lgan ehtiyojlarini eng kam xarajat evaziga to‘laqonli qondirish uchun transport xizmati ko‘rsatuvchi korxonalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bilan bir qatorda, mavjud transport vositalidan foydalanishni yaxshilash ham muhim ahamiyatga ega. Lekin yuk transport vositalaridan foydalanish darajasi joylarda juda past darajada qolmoqda. Ma’lumki, qishloq xo‘jaligi korxonalarining transport xizmatiga bo‘lgan ehtiyojlari, ayniqsa ekinlarni o‘rib-yig‘ib olish vaqtida juda seziladi. Lekin shu davrda ko‘pgina transport korxonalarida yuk avtomobillarining texnik nosozligi tufayli mahsulotlarni o‘z vaqtida tashilmasligi, qishloq xo‘jaligi ishlarining cho‘zilib ketishiga hamda yetishtirilgan hosilning nobud bo‘lish darajasining ortishiga olib kelmoqda. Hozirgi vaqtida aksariyat xo‘jaliklar o‘z transport vositalariga ega emaslar.

Yirik shirkat xo'jaliklaridagi mavjud transport vositalari ham deyarli 90-95% o'z xizmat muddatlarini o'tab bo'lgandir. Ko'pchilik fermer xo'jaliklari, ayniqsa dehqon xo'jaliklarining narxi baland transport vositalarini sotib olishlari va ulardan foydalanishlari iqtisodiy jihatdan arzon emas. Shunday bir vaziyat transport servis xizmati tizimini ham ushbu xususiyatlarni hisobga olgan holda takomillashtirishni taqozo qilmoqda. Buning uchun esa avvalo joylardagi transport xizmati ko'rsatuvchi korxonalarda mavjud avtotransport vositalaridan foydalanish darajasini har tomonlama tahlil qilish va undan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash lozim.

Ma'lumki, transport korxonalarida avtotransport vositalaridan samarali foydalanish darajasini belgilovchi ko'rsatkichlardan ya'ni, parkdan foydalanish koeffitsienti yuk ko'tarish qobiliyati o'rtacha yo'l yurish hajmini ortishi va boshqalar bilan birgalikda transport xizmati ko'rsatuvchi korxonaning iqtisodiy samaradorligiga bevosita ta'sir qiluvchi ko'rsatkich bu bir tonna – kilometr tannarxdir. Transport xizmat ko'rsatuvchi korxonalardagi mavjud avtotransport vositalarining son jihatdan kamaytirish, mavjudlarining 90-95 foizini o'z xizmat muddatlarini o'tab bo'lganligi, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarining ortishi, moddiy resurslar, ya'ni ehtiyyot qismi, yonilg'i moylash materiallari, ta'mirlash materiallari narxlari keskin ortib ketishi va boshqa omillar tufayli nafaqat avtotransport vositalaridan samarali foydalanish darajasiga, balki bu korxonalarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarining pasayishiga olib kelmoqda.

Ular quyidagilardir: transport korxonalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar, ularni rivojlantirishda kredit masalalari, soliq to'lash iste'molchilar bilan o'zaro hisob-kitob hamda shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish va boshqalar.

**Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridagi 2529-avtojamlanmada
yuk avtomobillaridan foydalanish holati tahlili**

No	Ko'rsatkich	2008	2009	2010	2010-yil 2008-yilga nisbatan
1	Yuk avtomobillarining jami soni, dona	63	62	54	85,7
2	Jami yuk ko'tarish qobiliyati, tonna	327,6	310	286,2	87,3
3	Bitta mashinani o'rtacha texnik yuk ko'tarish qiymati, tonna	5,2	5,0	5,3	101,9
4	Avtomobil parkidan foydalanish koeffitsienti	0,6	0,52	0,51	85,0
5	Yo'ldan foydalanish koeffitsienti	0,5	0,49	0,48	96,0
6	Jami tashilgan yuk hajmi, ming tonna	315,6	297,6	275,4	87,2
7	Jami yuk oboroti, ming tonna km	386,8	418,3	387,9	100,2
8	Bitta yuk avtomobiliga to'g'ri keladigan yuk hajmi tonna	5,0	4,8	5,1	102,0
9	Yuk ko'tarish qobiliyati- dan foydalanish koeffitsienti	0,96	0,96	0,96	100,0
10	1 tonna tannarxi, so'm	5300	6700	8400	158,5

Qishloqda tub iqtisodiy islohotlar olib borilishi natijasida turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidagi xo'jaliklar tashkil topdi. Bular ichida istiqbolli hisoblangan fermer xo'jaliklarining moddiy-texnika bazasi talab darajasida emas. Fermer xo'jaliklari ishlab chiqargan mahsulotlarini savdo punktlariga, omborlariga va boshqa maqsadlarda o'z vaqtida, sifatli tashishga bo'lган ehtiyojlarini qondirish uchun yirik xo'jalik ixtiyoridagi, xususiy yoki tumandagi mahsus transport korxonalariga murojaat qilishga majburdirlar.

Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridagi 2529-avtojamianma misolida qishloqda turli xo'jalik yuritish shakllari, aholi, tashkilotlar va boshqa subyektlarga xizmat ko'rsatish salmog'ini tahlil qilganimizda qishloq xo'jaligi korxonalariga umuman xizmat ko'rsatish salmog'i kamayganligiga asosan boshqa turli tashkilotlar va korxonalarga xizmat ko'rsatish ortganligini kuzatish mumkin (5.2.2-jadval).

5.2.2-jadval

Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridagi 2529-avtojamianmaning qishloqdagi aholi va turli xo'jalik subyektlariga xizmat ko'rsatish salmog'i

Ko'rsatkichlar	2008		2009		2010	
	mln. so'm	%	mln. so'm	%	mln. so'm	%
Jami bajarilgan ish hajmi	60,0	100,0	35,0	100,0	105,0	100,0
Shu jumladan:						
- shirkat va jamoa xo'jaliklari	-	-	-	-	-	-
- fermer xo'jaliklari	20,0	33	12,0	34,3	28	26,6
- aholiga xizmat	10	16,7	8	22,8	19	18,1
- boshqa tashkilot- lar va korxonalar	30,0	50,3	15	42,9	58	55,3

Lekin shunga qaramasdan, fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatish salmog'i 2009-yilda 2007-yilga nisbatan sezilarli ortgan. Transport korxonalarining xizmat ko'rsatish baholarini tahlil qilganimizda oxirgi yillarda ko'rsatgan bir tonna kilometr yoki bir soat uchun xizmat baholari keskin ortib ketganligining guvohi bo'ldik. Buning asosiy sababi moddiy resurslar narxlarining keskin ortib ketishidir. Bu esa transport korxonalarining xizmat ko'rsatish tannarxlarini oshib ketishiga olib kelmoqda. 5.2.3-jadvalda Qarshi shahar 2529-avtojamianma 2009-yilda 2007-yilga nisbatan moddiy

resurslar (yonilg'i-moylash materiallari, ehtiyyot qismlar, shinalar va boshqa materiallar) narxlari o'sishining tannarxga ta'siri tahlili keltirilgan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, jami tannarx tarkibida yonilg'i-moylash materiallari salmog'i agar 2007-yilda atigi 8,2 foizni tashkil etgan bo'lsa 2009-yilga kelib 41,1 foizni tashkil etgan. Ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish va shinalarga ketgan xarajatlar 2007-yilda 2,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2009-yilga kelib bu ko'rsatkich 15,2 foizga oshgan. Ish haqi esa bu davrda mos ravishda 39,6 foizdan 18,0 foizga kamayganligini kuzatishimiz mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida turli mulk shakllaridagi qishloq xo'jaligi korxonalarini turli xildagi yuklarni o'z vaqtida sifatli tashib berish talab etiladi. Shuning uchun qishloq xo'jaligi korxonalarini ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini kamaytirish uchun ko'rsatilayotgan xizmatlar narxini arzonlashtirish yo'llarini topish muhim masaladir.

5.2.3-jadval

Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridagi 2529-avtojamlanma misolida ehtiyyot qismlari, yonilg'i - moylash materiallari va shina narxlarining keskin o'sishining tannarxga ta'siri tahlili

Ko'rsatkichlar	2008-yil		2010-yil	
	mln. so'm	%	mln. so'm	%
1. Jami ko'rsatilgan xizmatlar	60,0	-	105,0	-
2. Jami tannarx	49,5	100,0	84,3	100,0
Shu jumladan:				
- ish haqi ajratmalari bilan	20,2	40,8	31,3	37,1
- amortizatsiya	5,1	10,3	1,7	2,9
- yonilg'i - moylash materiallari	17,3	35,0	29,5	35,0
- ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish va shinalar yoyilishi	1,8	3,6	18,3	21,7
Boshqa xarajatlar	5,1	10,3	3,5	3,3

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashish jarayonida yuklarni eng kam xarajat qilish va avtotransport vositalarini unumdorligini oshirish. Moddiy ishlab chiqarish sohalarida yaratilgan mahsulotlar transport vositalari yordamida tashiladi. Bunda ishlab chiqarish vositalarida moddiylashgan o'tgan mehnat (avtotransportlarda amortizatsiya miqdori summasi) va jonli mehnat sarflanadi. Mahsulotlarni tashish uchun ketgan jonli va moddiylashgan mehnat xarajatlari transport ishlab chiqarishining tannarxini tashkil etadi. Yuk avtotransportlarida tashish tannarxi ko'rsatkichi uni bajargan ishini baholashda muhim ahamiyatga ega. Transport xizmati ko'rsatuvchi korxonalarning xizmat ko'rsatish baholari tarkibidagi tannarx miqdori ularni samarali faoliyat yuritayotganligining muhim belgisi sifatida namoyon bo'ladi. Chunki tannarx avtotransport vositalaridan unumli foydalanish darajasi yonilg'i - moylash materiallari xarajatlari, ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari hamda mehnat unumdorligi va transport ishlarini nechog'li samarali tashkil etilganligini o'zida ifoda etadi. Yuk tashish hajmlari ortishi bilan transport vositalari uchun ketgan xarajatlar ham oshib boraveradi.

Transport xizmat ko'rsatuvchi korxonalar faoliyati va umuman qishloqlarda transport servis xizmat ko'rsatish darajasini o'zgarishi natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, hozirgi vaqtida ushbu servis turini barqaror rivojlana olmasligining asosiy sabablari quyidagilardir:

- mavjud transport xizmati ko'rsatuvchi korxonalar xo'jaliklar, tashkilotlar va boshqa iste'molchilarni transport xizmatiga bo'lgan talablarini to'laqonli, arzon sifatli va o'z vaqtida qondirishga tashkiliy va iqtisodiy jihatdan tayyor emas;

- transport xizmati ko'rsatuvchi korxonalar va yirik qishloq xo'jaligi korxonalari negizidagi transport vositalari asosan o'z xizmat muddatlarini o'tab bo'lganligi xizmat ko'rsatish sifati past va to'la quvvat bilan ishlashiga asosiy to'siq bo'lmoqda;

– ma'lumki har qanday transport vositasi jismoniy eskirgan sari uni soz holda saqlab turishga ketadigan ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari ortib boradi, bu esa bevosita xizmat ko'rsatish narxlariiga ta'sir qilib, ortib ketishiga olib kelmoqda;

– xo'jaliklar bilan o'zaro hisob-kitob qilishda, xizmat baholarini kalkulatsiya qilishda ilmiy asoslangan zamon talabiga mos bo'lgan me'yoriy hujjatlar va uslubiyatlar yo'q. 1989-yil 14- martda tasdiqlangan va 1990-yil 1-yanvardan amalga kiritilgan 13-01-01-sonli «Avtotransport vositalarida yuklarni tashish va bajariladigan boshqa xizmatlar uchun tariflar» preyskuranti eskirgan va undan foydalanish ko'p noaniqliklarni keltirib chiqarmoqda. Transport korxonalarining xizmat narxlari qimmat va tarkibida ilmiy asoslangan xarajatlar mavjud;

– transport xizmati tannarxi yuqori bo'llishiga sabab asosan yonilg'i-moylash materiallari va ta'mirlash texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari salmog'i ortib ketganligidir. Transport korxonalarida yonilg'i-moylash materiallari, ehtiyyot qismlaridan xo'jaliklarda foydalanish hollari uchraydi, ushbu moddiy resurslarni hisobga olish ishlari juda yomon ahvolda. Ayrim transport xizmati korxonalarida esidan qolgan bajarilmagan ishlarni qo'shib yozish holatlari uchrab turadi.

Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

– qishloq joylarda transport servis xizmat ko'rsatishning nodavlat shakllarini tashkil etishni kengroq joriy etish lozim. Bunday servis korxonalari yirik xo'jaliklar negizidagi avtotransport saroylari bazasida tashkil etilishi mumkin;

– eng zarur bo'lgan transport vositalarini fermer xo'jaliklari o'rtada sotib olib foydalanishlari mumkin;

– xususiy tartibda transport xizmati ko'rsatuvchi shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, joylarda yirik tashkilotlar bazasida faoliyat ko'rsatuvchi transport korxonalari tashkil etish maqsadga muvofiq.

Natijada, bunday nodavlat mulk shakllaridan transport xizmati ko'rsatuvchi korxonalar soni ortishi tufayli ular orasidagi raqobat muhitining vujudga kelishiga ko'proq, arzonroq va sifatliroq xizmat ko'rsatishga intilishning ortishiga hamda transport xizmatidan foydalanuvchilar uchun tanlash imkoniyati va ular talabini to'laroq qondirishga zamin yaratiladi.

5.3. Transport xizmati ko'rsatishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari

Bozor iqtisodiyotiga o'tish va iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida qishloqda transport vositalaridan foydalanishning tashkiliy iqtisodiy asoslari tubdan o'zgarish jarayonidadir. Bozor iqtisodiyoti qaror topishi bilan qishloqda muhim tarkibiy o'zgarishlar transport xizmatidan foydalanish ishlarini, undan samarali faoliyat ko'rsatishni taqozo etmoqda.

Qishloq xo'jaligida transport vositalaridan samara undan unumli va oqilona foydalanish orqali erishiladi. Transport vositalaridan unumli foydalanish ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini kamaytirish, qishloq xo'jaligining iqtisodiy samaradorligini oshirishiga olib keluvchi omildir.

Transport vositalaridan foydalanish samaradorligiga juda ko'p omillar ta'sir qiladi. Transport vositalarining samaradorligini belgilashda ana shu omillar ta'sirini hisobga olish lozim. Har bir omil samaradorlikka alohida ta'sir etishi mumkin.

Transport vositalari samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi to'rtta guruhga ajratish mumkin:

Birinchi guruh omillarga transport vosilarining texnik ko'rsatkichlari kiradi. Bularga yuk ko'tarish qobiliyati, yuklash va tushirishga qulayligi, tezligi, o'tuvchanligi, manevrliligi, yonilg'i-moylash materiallari sarf qilishi, puxtaligi, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishga qulayligi va hokazolar kiradi.

Ikkinchı guruh omillarga tabiiy iqlim hamda yo‘l sharoitlari kiradi. Bularga havoning minimal o‘rta va maksimal harorati, yilning eng issiq va sovuq oylari, qish faslining davomiyligi, yoz oylarida havoning namligi va boshqalar. Yo‘l sharoitlariga yo‘l qoplamasining tekisligi va mustahkamligi, yo‘l turi (tuproq shag‘alli, asfalt va hokazo) yo‘llarning relsida, ko‘prik va boshqa barqarorligi.

Uchinchi guruhga tashkiliy-texnik omillar kiradi. Bularga boshqarish shakli mulkchilik va xo‘jalik yuritish shaklli va avtomatik vositalaridan foydalanish shakllari, mehnatni tashkil etish, transport vositalarini ta’mirlash, texnik xizmat ko‘rsatish va saqlash ishlarining takomillashtirilganligi va boshqalar.

To‘rtinchi guruhga iqtisodiy omillar kiradi. Bularga moddiy-texnika ta‘minoti darajasi, haydovchi kadrlar bilan ta‘minlanganligi, transport vositasining narxi va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan omillarning u yoki bu darajada ta’sir qilishi pirovard natijada iqtisodiy samaradorligini aniqlashga imkon beruvchi ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish zarur.

Ikkinchı guruhga quyidagilar kiradi. Bular yuk tashish tannarxi avtotransport l ming so‘mlik narxiga to‘g‘ri kelgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining qiymati, ko‘rsatkichlaridir. Lekin ta‘kidlash kerakki, yuk tashish tannarxi avtotransport vositalaridan foydalanish samaradorligiga bilvosita emas, bevosita ta’sir qiladi.

Bizning fikrimizcha, avtotransport vositalaridan foydalanish samaradorligini aniqlashda, ko‘rsatkichlar tizimini sinflashtirishda ma’lum bir mezonne aniq qilib olish lozim. Transport xizmatidan foydalanish samaradorligini belgilashda asosiy mezon bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq yo‘nalishining pirovard natijasi bilan ya’ni mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan uzviy bog‘langan bo‘lishi lozim.

Avtotransport vositalaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlashning uslubiy asoslari bo‘yicha

qilingan ilmiy ishlarga tayangan holda transport xizmatini iqtisodiy samaradorligini belgilovchi ko'rsatkichlar tizimini uch asosiy guruhga ajratishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

I guruh. Avtotransport vositalari bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlari.

II guruh. Avtotransport vositalaridan foydalanish darajasini aniqlovchi ko'rsatkichlar.

III guruh. Avtotransport vositalaridan foydalanish iqtisodiy samaradorligini aniqlovchi ko'rsatkichlar.

Avtotransport vositalari bilan ta'minlanganlik, undan foydalanish va iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Transport vositalari bilan yetarli ta'minlanganlik joylarda transport xizmatiga bo'lgan talabni to'liq qondirishga imkon bermaydi va yuklar o'z vaqtida sifatli tashilmaydi, natijada, xo'jalik yoki korxonananining iqtisodiy samaradorligiga salbiy ta'sir qiladi. Aksincha, transport korxonasida ortiqcha avtotransport vositalarining mavjudligi ulardan samarasiz foydalanishga olib keladi. Bundan tashqari, transport korxonasida haydovchi, muhandis-texnik xodimlarining yetishmasligi esa avtotransportdan foydalanish koeffitsienti va boshqa sifatini yaxshilashga imkon bermaydi.

1. Avtotransport vositalari bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

1.1. 100 hektar haydov maydoni hisobiga to'g'ri keluvchi avtotransport vositalari sana, dona;

1.2. 100 hektar haydov maydoni hisobiga to'g'ri kelgan avtotransport vositalarining yuk turlari qobiliyati, tonna;

1.3. 100 hektar haydov maydoni hisobiga to'g'ri kelsa transport vositalarining quvvati, ot kuchi;

1.4. Avtomobil va traktor transport vositalarining yuk ko'tarish qobiliyati yoki quvvati bo'yicha nisbati;

1.5. Bir yuk avtomobilini hisobga to'g'ri kelgan haydovchilar soni yoki bir transport traktoriga to'g'ri kelgan traktorchi mashinistlar soni, kishi;

1.6. Fond bilan qurollangan bir transport hodimiga to‘g‘ri kelgan transport vositalari qiymati, ming so‘m;

1.7. Energiya bilan qurollanganlik, ya’ni bir transport hodimiga to‘g‘ri kelgan avtotransport vositalarining ot kuchidagi quvvati, ot kuchi/kishi;

1.8. Ta’mirlash bazalari va avtogaражlar bilan ta’milanganligi.

II. Avtotransport vositalaridan foydalanish darajasini aniqlovchi ko‘rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

2.1. Avtotransport vositalarining texnik tayyorgarlik koeffitsienti;

2.2. Transport vositalarini ishga chiqish koeffitsienti;

2.3. Harakatdagi tarkibning naryadda bo‘lim vaqtiga undan foydalanish koeffitsienti;

2.4. Transport vositalarini kalendar muddatlarida foydalanish koeffitsienti;

2.5. Transport vositalarining texnik va ekspluatatsion tezliklari, km/soat;

2.6. Yuklarni o‘rtacha tashish masofasi;

2.7. Yuk bilan yurishning o‘rtacha uzunligi;

2.8. Yuk ko‘tarish qobiliyatidan foydalanish koeffitsienti;

2.9. Avtotransport vositasining bir tonna yuk ko‘tarish qobiliyatiga to‘g‘ri kelgan unumdotligi;

2.10. Bir birlik transport mahsulotiga to‘g‘ri kelgan mehnat sarfi.

III. Avtotransport vositalaridan foydalanish samaradorligini aniqlovchi ko‘rsatkichlar:

3.1. Avtotransport vositalarining 1 so‘m qiymatiga to‘ri kelgan fond qaytishi;

3.2. Bir tonna yoki bir tonna kilometr yuk tashish tannarxi, so‘m;

3.3. Yuk tashish rentabelligi %;

3.4. Qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligi, ts/ga;

3.5. Bir hektar ekin maydoniga to‘g‘ri kelgan yalpi va sof mahsulot qiymati so‘m;

3.6. Bir gektar haydov maydoniga to‘g‘ri kelgan foyda, so‘m;

Shuni ta’kidlash lozimki, transport vositalari, ularga taalluqli ehtiyot qismlar, shinalar va boshqa zarur moddiy resurslar narxlarni to‘xtovsiz o‘sishi, inflyatsiya darajasi oshishi sharoitida bizning fikrimizcha, avtovositalardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini belgilashda qiymat ko‘rsatkichlarga nisbatan ko‘proq miqdoriy (natural) ko‘rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunki bunday ko‘rsatkichlar transport servis xizmatidan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniq ifodalashga yordam beradi.

Yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlar ma’lum bozor iqtisodiyoti sharoitida va ushbu servis turining iqtisodiy samaradorligini haqqoniy baholashga imkon beradi.

Transport vositalaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi, chunonchi:

- bir tonna kilometr yuk tannarxi ko‘rsatkichi qilingan xarajatlarni tashilgan tonna. kilometrga bo‘lish yo‘li bilan;
- transport vositalarining soatlik yoki smenalik ish unumi ko‘rsatkichi tashilgan tonna kilometr yukning sarflangan vaqtga nisbati bilan;

- mashinaning ishda bo‘lish koeffitsienti ko‘rsatkichi ishda bo‘lgan mashina-kunlari sonini mashinaning xo‘jalikda bo‘lgan mashina kunlari soniga bo‘lish bilan aniqlanadi.

- mashinaning yuk ko‘tarish koeffitsienti ko‘rsatkich umumiylashilgan yukning yuk bilan bosilgan yo‘lga nisbati bilan aniqlanadi.

Bunda avtomobilning texnik jihatdan tayorgarlik koeffitsienti, mashinalarni ishga chiqarish koeffitsienti, o‘rtacha ishda bo‘lgan vaqt, sutkalik o‘rtacha yurgan yo‘li, o‘rtacha texnik tezligi, yukni o‘rtacha tashish masofasi, yuk tashish mavsumiylik koeffitsienti kabi ko‘rsatkichlardan ham foydalilanadi.

Transport vositalaridan unumli foydalanish va ularning xarajatlarini kamaytirish avtomashina va uni boshqaruvi-

chilarning mehnat unumdorligini oshirish, moylash va yoqilg‘i materiallarini tejab-tergash, joriy ta’mir va joriy qarovlar uchun qilinadigan xarajatlarni tejashga bog‘liq.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Qishloq xo‘jaligida transport servis xizmati deganda nimani tushunasiz?
2. Qishloq xo‘jaligida transport servis xizmatining ahamiyati, o‘rni va rivojlanishi nimalardan iborat?
3. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilari bilan transport servis xizmati ko‘rsatuvchi korxonalar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni izohlab bering.
4. Transport servis xizmatining iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari nimalardan iborat?
5. Qishloq xo‘jaligida transport servis xizmatining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari nimalardan iborat?

YI BOB. QISHLOQ XO‘JALIGIDA ENERGIYA RESURSLARIDAN FOYDALANISH

O‘quv maqsadi: qishloq xo‘jaligini elektrlashtirish va elektr energiya xizmatidan foydalanishning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlashni o‘rgatishdan iborat.

6.1. Qishloq xo‘jaligini elektrlashtirish – texnika taraqqiyotining muhim yo‘nalishidir

Mamlakatimizda energetikaning rivojlanishi va energetika resurslarining xalq xo‘jaligida katta hajmda ishlatilishi, ayniqsa qishloq xo‘jaligida energetika resurslaridan foydalanishning keskin o‘sib borishi, energetika resurslarini tejash, ulardan oqilona foydalanish, energiya tejaydigan texnologiyalar joriy etishni taqozo etadi. Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, «Energetikaning

mustaqilligi – respublikamizning to‘liq mustaqilligini ta’minlaydi.»

Hozirgi kunda xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida iqtisodiy islohotlar davom etmoqda. Ko‘pgina tarmoqlar davlat tasarrufidan chiqarilib, xususiy mulk shakliga o‘tkazilgan. Bu borada qishloq xo‘jaligida ham bir qancha ishlar olib borilmoqda. Qishloq xo‘jaligida yetishtirilayotgan yalpi mahsulotning 99 %’i nodavlat sektori hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Qishloq xo‘jaligi korxonalariga xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlarning davlat tasarrufidan chiqarilishi va xususiy lashtirilishi olib borilayotgan islohotlarning muhim natijasidir.

Qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi ishlab chiqarish infratuzilmalari obyektlarida bir qancha yirik tarmoqlar davlat tasarrufida qolgan bo‘lib, bular qatoriga elektr uzatish, yo‘l xo‘jaligi, asosiy transport xo‘jaligi va boshqa shu kabi tarmoqlar kiradi. Bu tarmoqlar rivojlangan davlatlardagi kabi davlat tasarrufida bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qolishi kerak. Chunki bozor munosabatlari sharoitida bunday yirik tarmoqlar sanoqligina bo‘lgani uchun ular xususiy lashtirilsa, yirik monopolistlar paydo bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlaridagi kabi qishloq xo‘jaligida ham elektr energiyasi bilan ta’minlanganlik va undan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo‘jaligida elektr energiyasi asosan yoritish, isitish, ya’ni issiqxonalar, suv ko‘tarib beruvchi nasos stansiyalarini elektrlashtirish, statsionar va ko‘chma sug‘orish agregatlarini elektrlashtirish, inkubatoriyalarda hamda chorvachilik fermalarida mikroiqlim hosil qilish va boshqalar uchun ishlataladi.

Qishloq xo‘jaligini elektrlashtirish xizmati ham katta ahamiyatga ega, chunki elektr energiyasiz qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining ko‘pchilik bo‘g‘inlarining ish faoliyatini amalga oshirish mumkin emas:

– tez buziluvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va saqlash mumkin emas. Masalan, sut, go‘sht, ho‘l meva, sabzavot, tuxum va boshqa mahsulotlar;

- davlat buyurtmalarini qayta ishlash;
- mahsulot tannarxini arzonlashtirish;
- mahsulot sifati buzilishini kamaytiradi;
- mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi;
- qishloq turmush darajasini yuksaltirish imkoniyatini beradi.

Inqirozga qarshi choralar dasturida belgilangan vazifalardan biri – bu elektroenergetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya iste'molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish choralarini amalga oshirish.

Jumladan, bu borada O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan elektr energiyasi ta'minoti tizimiga xususiy operatorlarni joriy qilish bo'yicha amaliy tajriba natijalarini misol qilib ko'rsatish mumkin. Mazkur amaliy tajribani o'tkazishdan maqsad, foydalilanigan elektr energiyasi uchun hisob-kitob tizimini takomillashtirish, iste'molchilar hisob-kitobini to'g'ri yo'lga qo'yish hamda iste'mol davrida elektr energiyasi yo'qotishlarni kamaytirishdan iborat edi.

Ushbu maqsadga erishish uchun Toshkent shahar Bektemir tumani misolida elektr energiyasini taqsimlash va sotish bo'yicha mustaqil (xususiy) operatorni jalb qilish mexanizmi ishlab chiqildi. Bunda xususiy operatorni tanlash bo'yicha maxsus komissiya tuzilib, tarif siyosati va shartnoma loyihalari qat'iy kelishib olindi. Jumladan, xususiy operatorni tanlash shartlari sifatida quyidagilar belgilandi:

- tegishli biznes rejaning mavjud bo'lishi;
- xo'jalik yuritish faoliyati bo'yicha kamida 2-yil ish tajribasiga ega bo'lishi;
- elektr energiyasini sotish faoliyati uchun kamida muayyan tumandagi elektr energiyani iste'mol qilishning 3 oylik miqdoriga teng moliyaviy mablag'larga ega bo'lishi;
- mavjud debitorlik qarzdorlikni undirishni o'z zimmasiga olishi;

- maksimal ballga ega bo‘lishi va shartnomaga tuzishi;
- 30% miqdoridagi oldindan to‘lov hamda har oyning yakunidan so‘ng 30 kun davomida yakuniy hisob-kitob hisobotlarini amalga oshirishi.

Shunday tanlovlarda g‘olib chiqqan xususiy operatorlardan biri DXO «Shosh Energo» korxonasi hisoblanadi. Ushbu korxonani elektr energiyasini sotish xizmatiga jalb qilish orqali erishilgan iqtisodiy samarani quyidagi jadval orqali ko‘rish mumkin (6.1.1-jadval).

6.1.1-jadval

DXO «Shosh Energo» korxonasining elektr energiyasini sotish xizmatiga jalb qilish orqali erishilgan iqtisodiy samara⁴⁵

Ko‘rsatkich	Tajribadan oldingi holat	Tajribadan keyingi holat	Natija, foizda
Mavjud debitorlik qarzlari, mln.so‘m	3379,0	443,0	- 86
Jismoniy shaxs bo‘lgan abonentlar soni	9883	10122	+ 2
Yuridik shaxs bo‘lgan abonentlar soni	326	426	+ 31
Elektr energiyasidagi yo‘qotish miqdori, foiz	36,4	15,6	- 20,8 (mutlaq) - 57 (nisbiy)

Jadvaldan ko‘rinadiki, elektr energiyasi sotish xizmatini xususiy operatorga o‘tkazilishi natijasida mavjud debitorlik qarzlari 86% ga qisqargan, abonentlar soni jismoniy shaxslar bo‘yicha 2%, yuridik shaxslar bo‘yicha 31% ga ortgan, elektr energiyasidagi yo‘qotish miqdori mutlaq holda 20,8% ga, nisbiy holda esa 57% ga pasaygan.

⁴⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralar» nomli asarini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009. 62-b.

Bunday ilg'or tajribani ommalashtirish maqsadida hozirgi kunda xususiy operatorlar Toshkent shahrining Bektemir, Sirg'ali, S.Rahimov tumanlarida ham tashkil etilib, faoliyat yuritib kelmoqda. Shuningdek, xususiy operatorlarni jalb qilish bo'yicha Andijon, Surxondaryo va Namangan viloyatlarida ishlar boshlangan. Bundan tashqari, xususiy operatorlarni tabiiy gaz va suv ta'minoti tizimiga jalb qilish bo'yicha keng ko'lAMDAGI ishlar amalga oshirilmoqda.

6.2. Qishloq xo'jaligi korxonalarida elektr energiya xizmatidan foydalanishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari

Qishloq xo'jaligini intensivlashtirish va uning samaradorligini oshirish qishloq xo'jaligi tarmoqlarining qay darajada elektr energiyasidan foydalanayotganligi darajasi orqali amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligining dehqonchilik tarmog'ida elektr energiyasidan foydalanishi ekinlarni sug'orish ishlarini mexanizatsiyalash imkonini yaratib, mehnat xarajatlarini 10-20% ga, ekspluatatsiya xarajatlarini esa 10% ga kamaytiradi. Isssiqxonani isitish, yoritish, suv nasoslarini ishga solish ishlarida elektr energiyasidan foydalanish faqat mehnat sarfini kamaytiribgina qolmay, balki har gektar ekin maydonidan olinadigan hosilni ham oshiradi.

Chorvachilik tarmog'ida elektr energiyadan foydalanish mehnat sarfini keskin kamaytirishga olib keladi. Elektr energiyasidan foydalanish fermadagi bir qator ishlar, shu jumladan, suv bilan ta'minlash, oziqlarni hayvonlarga berish, sigirlarni sog'ish, yuklarni tashish, qo'y junlarini qirqish, sutga dastlabki ishlov berish, inkubatsiya va hokazo ishlarni mexanizatsiyalar yordamida bajarish imkonini beradi.

Chorva mollarga suv berishni avtomatlashtirish natijasida chorva mollarining mahsuldarligini 10-15 % ga oshiradi, yem-xashakni molga berish oldidan tayorlash ishlarida elektr energiyasidan foydalanish mehnat sarfini 75-90 % ga

kamaytiradi, oziq sifatini yaxshilaydi, uning nishxo'rdga chiqishini keskin kamaytiradi. Chorva mollarini sog'ishni elektrlashtirish katta ahamiyatga ega. Sigir sog'ish apparatlari yordamida sog'ilganda mehnat sarfigina tejilib qolmay, balki sog'uvchilarning mehnati ham yengillashadi. 1 ts. sut qo'lda sog'ilganda 4,4 kishi-soat sarflangani holda, sog'ish apparati yordamida sog'ilganda 2,5 kishi-soat, sog'ish zalida sog'ilganda esa 1,8 kishi-soat sarflanadi. Chorvachilikda elektr energiyasidan foydalanish sut sog'ib olish mehnatini tejabgina qolmay, balki sog'iladigan sutning tozalik darajasini ham oshiradi.

Qo'y junini mexanizmlar bilan qirqish mehnat unumdorligini 3-4 barobar oshiradi. Qirqib olingan jun sifati ham ancha yuqori bo'ladi.

Parrandachilik fermalarini tunda elektr energiyasi bilan yoritish natijasida tovuq va o'rdaklardan olinadigan tuxum 25-30 %ga ko'payadi. Elektr energiyasidan xo'jalikda yordamchi tarmoqlarda, jumladan, ustaxona, tegirmon, yog'och arralash va hokazo ishlarda foydalanish katta iqtisodiy samara beradi.

Ilmiy-tekshirish institutlarining ma'lumotlariga ko'ra, qishloq xo'jaligida foydalanilgan har bir milliard kVt/soat elektr energiyasi yiliga mehnatga yaroqli 700 ming kishining mehnatini tejab, mahsulot yetishtirish uchun sarflanadigan xarajatlarni 2 mln. so'mga kamaytiradi.

Elektr energiyasidan foydalanish qishloq aholisining moddiy va madaniy farovonligini oshirishda, qishloq madaniyatini shahar madaniyatiga yaqinlashtirishda katta rol o'ynaydi.

1980-yilda qishloq xo'jaligida bir xodim hisobiga to'g'ri keladigan elektr energiyasi 2520 kvt/soat ni tashkil etdi. 1990-yilga kelib, qishloq xo'jaligida foydalaniladigan elektr energiyasi 210-235 mlrd kVt/soatga yetdi.

Qishloq xo'jaligida elektr energiyasidan samarali foydalanish quyidagi ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi: mehnat unumdorligi, mahsulot tannarxi, 1 kishi-soatga to'g'ri

keladigan sof daromad, 1 soʻmlik ishlab chiqarish sarfiga olingan daromad, rentabellik darajasi, qoʻshimcha sarflangan kapital mablagʼning qaytish muddati.

Elektr energiyasidan foydalanish faqat mehnat unumdoorligini oshirib, mahsulot tannarxini kamaytiribgina qolmay, balki ijtimoiy, iqtisodiy va ishlab chiqarish sharoitlarining ham yaxshilanishiga olib keladi.

Xoʻjalikning elektr energiyasiga boʻlgan yillik talabini aniqlash uchun avval tarmoqlar (dehqonchilik, chorvachilik, mexanizatsiya, ipakchilik va boshqa tarmoqlar) boʻyicha talab aniqlanadi. Yoki boʻlmasa elektr energiyasiga boʻlgan talab, energiya isteʼmolchilari boʻyicha (elektr bilan ishlaydigan jami mashina va mexanizmlar, qurilmalar, ishlab chiqarish va jamoat binolari) aniqlanadi.

Hisoblash ikki yoʼl bilan:

1. Har bir kvadrat metrni yoritishga, har bir elektr dvigateliga har bir isitkich pribor yoki elektr quvvatini barcha tarmoqlar boʻyicha hisoblab, bir-biriga qoʻshish yoʼli bilan aniqlanadi. Bunday hisoblash ancha murakkab boʻlib, koʻp vaqt ketadi, lekin hisob ancha aniq boʼladi.

2. Umumlashtirilgan holda: bir xonadonga, 1 t mahsulot yetishtirishga yoki qayta ishlashga, chorva mollarini bir boshiga, ustaxonalarda 1 ta traktor yoki mashinani remont qilishga, 1m³ taxtani ishlashga va hokazolar bir yilda oʼrtacha qancha elektr energiya talab qilinishi aniqlanadi.

Hisoblashni formula shaklida quyidagicha yozish mumkin:

$$R_m = R_1 + R_2 + R_3 + R_4$$

R_m – xoʻjalik boʻyicha elektr energiyasiga talab (kVt);

R₁ – dehqonchilik, R₂ – chorvachilik, R₃ – ustaxonalar, R₄ – xonodonlar boʻyicha talab.

Bu yerda shuni hisobga olish kerakki, xoʻjalikdagi barcha chiroqlar, elektr uskunalari va dvigatellar bir vaqtda ishlaydi. Shuning uchun RMni talab koeffitsientiga (K_s) koʻpaytirilib haqiqiy talab aniqlanadi.

$$R = Rm \cdot Ks$$

Haqiqiy talabga xo'jalik ichidagi elektr tarmoqlarida elektr tokining yo'qolishini ham qo'shsak, xo'jalik bo'yicha qanday quvvatga ega bo'lgan transformator o'rnatish kerakligini aniqlaymiz. Xo'jalik bo'yicha yoki xo'jalikning biron uchastkasiga qanday transformator o'rnatish kerakligi quyidagi formula shaklida aniqlanadi:

$$Rmr = (Rm \cdot Ry) \cdot KsKvt$$

Rmr – transformator quvvati;

Rm – belgilangan norma bo'yicha talab;

Ry – tarmoqda tokning yo'qolishi;

Ks – talab koeffitsienti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan inqirozga qarshi ishlab chiqilgan choratadbirlardan biri bu elektr energiyasi sohasini isloq qilish va ushbu siyosat quyidagi yo'nalishlarda olib borilmoqda.

Elektr energetika sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari⁴⁶:

- O'zbekiston Respublikasining elektr energetikasi xavfsizligini ta'minlash;
- yagona elektr energetikasi tizimining xavfsiz va ishonchli ishlab turishini ta'minlash, iste'molchilarining elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantirish;
- iste'molchilarining hududiy elektr tarmoqlaridan teng foydalanishini ta'minlash;
- energiya hosil qiluvchi quvvatlarni va elektr tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash, rivojlanish jarayonlariga investitsiyalar jalb qilish;
- elektr energiyasi hosil qilish, uzatish va sotish bo'yicha boshqaruv hamda xo'jalik aloqalari tizimiga bozor prinsiplari va mexanizmlarini joriy etish;

⁴⁶ I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. 34-b.

- elektr energetikasining mutanosib rivojlanishini ta'minlash;
- elektr energiyasidan va yoqilgi-energetika resurslaridan oqilona foydalanish.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Qishloq xo'jaligini elektrlashtirish va texnika taraqqiyoti tushunchasiga ta'rif bering.
2. Qishloq xo'jaligida elektr energiya resurslaridan samarali foydalanishda xorij tajribasi va uni joriy etish masalalari nimalardan iborat?
3. Qishloq xo'jaligi korxonalarida elektr energiyasi resurlaridan foydalanishning iqtisodiy ko'rsatkichlari nimalardan iborat?
4. Qishloq xo'jaligi korxonalarida elektr energiyasiga bo'lgan talab qanday aniqlanadi?
5. Elektrlashtirish xizmatining qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sirini izohlab bering.

YII BOB. QISHLOQ XO'JALIGIDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH

O'quv maqsadi: qishloq xo'jaligida suv resurslari, SIUlar ni tashkil etish zarurligi va suv resurslarini boshqarishning havzaviy usuliga o'tkazishning afzalliklarini tushuntirshdan iborat.

7.1. Qishloq xo'jaligida suv resurslari – xo'jalik ishlab chiqarishning eng muhim omili

O'zbekiston Respublikasida yer-suv resurslari nihoyatda cheklangan. Shuning uchun ham, yer-suv resurslaridan butun chora-tadbir va usullarni qo'llagan holda tejab va samarali foydalanish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yetarli miqdordagi suv resurslarisiz xalq xo'jaligini, shu jumladan qishloq xo'jaligini barqoror rivojlantirib bo'lmaydi.

Mavjud suv resurslari hozirgi o'sib borayotgan talabni to'liq ta'minlay olmaydi. Bundan tashqari, suv resurslarining aksariyat ko'p qismi qishloq xo'jaligida foydalaniladi. Mamlakatimizda mavjud suv resurslari davlat muhofazasidadir. Ular mulkchilik shakllari bo'yicha taqsimlanmagan. Yer-suv resurslariga egalik qilishning huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida «Yer-suv umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir» deb alohida qayd qilingan.

O'zbekiston hududidan oqib o'tadigan Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon daryolarining suvlaridan xalqaro shartnomalarga asosan foydalaniladi. Biroq Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikka erishgan davrdan boshlab suv resurslarining tovar sifatidagi mavqeい yildan-yilga ortib bormoqda. Bu jarayon respublikamizning qishloq xo'jaligidagi sug'oriladigan yerkarda suv yetkazib berishda suv tanqisligini yuzaga keltirmoqda. 2004-yil ma'lumotlari ko'rsatishicha, mamlakat qishloq xo'jaligida sug'oriladigan yer maydonlari 4132,4 ming hektarni tashkil qilib, aholi jon boshiga hisoblaganda 0,16 hektar to'g'ri ketardi. Ayrim aholisi zinch joylashgan Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida bu ko'rsatkich 0,12-0,13 hektardan iborat.

Ushbu sug'oriladigan yer maydonlarini sug'orish uchun 2004-yilda 50828,5 ming m³ suv yetkazib berilgan yoki respublika bo'yicha bir hektar sug'oriladigan yer maydonini sug'orish uchun 12,3 ming m³ suv yetkazib berilgan. Samarqand, Farg'ona, Jizzax, Namangan, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlarida bu ko'rsatkich 9,8-10,7 ming m³ ni, Buxoro, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatlarida 15,2-19,8 ming m³ ni tashkil etadi. Binobarin, 2005-yilda sug'oriladigan yerkarda har hektar hisobiga bir yilda sarflanadigan suv miqdori 11 ming m³ dan oshirmsaslik ko'zda tutilgan. Suv tansiqligi sharoitida bu juda murakkab vazifa hisoblanadi.

Sug'oriladigan yerkarda sarflanayotgan suv miqdorining viloyat va hududlar bo'yicha har xil bo'lishi qator omillarga bog'liq. Ya'ni sug'orish tizimlari va sug'orish suvlarining sifati ortiqcha yoki kam suv sarflashga olib keladi. Har hektar sug'oriladigan yerkarda nisbatan kamroq suv sarflanayotgan Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarining aksariyat hududlarida sug'orish suvlarining sifati yaxshi yoki ular tarkibida hosildorlikka salbiy ta'sir o'tkazuvchi turli xildagi minerallar kam.

7.1.1-jadval

Orol dengizi havzasidagi davlatlar hududida shakllanadigan va iste'mol qilinadigan suv resurslari

Davlatlar	Amudaryo havzasi		Sirdaryo havzasi		Orol dengizi havzasi bo'yicha jami	
	Shakllanadi-gan	Iste'-mol qili-nadi-gan	Shakllanadi-gan	Iste'-mol qili-nadi-gan	Shakllanadi-gan	Iste'-mol qili-nadi-gan
O'zbekiston	5.14	38.91	6.39	17.28	11.53	56.19
Qirg'iziston	4.04	0.38	26.79	4.03	30.83	4.41
Tojikiston	44.18	9.88	0.38	2.46	44.56	12.34
Qozog'iston	-	-	2.50	12.29	2.50	12.29
Turkmaniston	2.79	21.73	-	-	2.79	21.73
Afg'oniston	22.19	7.44	-	-	22.19	7.44
Jami	78.34	78.34	36.06	36.06	114.40	114.40

Markaziy Osiyo mamlakatlarini suv bilan ta'minlab turadigan asosiy suv zaxiralari Chotqol, Pomir-Oloy va Tyanshan tizma tog'larida joylashgan, ular doimiy muzliklar shaklidadir. Markaziy Osiyo davlatlari suv zaxiralarining 70-80%ni Tojikiston, Qirg'iziston va Qozog'iston davlatlarining tog'li o'lkalari hududlarida joylashgandir (7.1.1-jadval). Hozirgi kunda Markaziy Osiyo davlatlarining Orol dengizi havzasiga qarashli qismida 8 mln. hektar atrofida yer sug'oriladi. Huddi shu hududda bir yilda ichimlikka va

sug‘orish uchun yaroqli 126 mlrd. m³ suv paydo bo‘ladi. Bu hududda paydo bo‘ladigan suvning hajmi har bir hektar sug‘oriladigan yer hisobiga 15750 m³ dan to‘g‘ri keladi. Agarda bir hektar yerga paxta ekib, undan o‘rtacha 25-30 sentner hosil olinadigan bo‘lsa, bir hektar yerni sug‘orish uchun manbadan olinadigan suvning hajmi kamida 10 ming m³ni tashkil qiladi. Bundan kelib chiqib hulosa qilinadigan bo‘lsa, bu hududlarda juda ko‘p suv sarf qilish evaziga dehqonchilik qilinadi, O‘zbekiston Respublikasida bir yilda o‘rtacha 60 mlrd. m³ suv iste’mol qilinadi, shundan 50 mlrd. m³ sug‘orma dehqonchilik uchun sarflanadi. Har bir hektar sug‘oriladigan yerga o‘rtacha 11-12 ming m³ suv sarflanadi.

Suv resurslari bilan ta‘minlanganlik deganda, haqiqatda sarflangan suv miqdorining limit asosida berilishi kerak bo‘lgan suv miqdori nisbatiga aytildi. Hudud ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishi, mehnat resurslarining mavjudligi va joylashishi suv ta‘minoti bilan bog‘liq bo‘ladi. Suv bilan ta‘minlash suvning sifatiga suv xo‘jaligi kompleksining boshqa turlariga bo‘lganidan ko‘ra yuqoriroq talablar qo‘yadi. Suv ta‘minotining quyidagi turlari farq qilinadi: kommunal, sanoat, qishloq xo‘jaligi, temir yo‘l va hokazo suv ta‘minoti. Har qaysi suv ta‘minoti turi o‘z xususiyatlariga egadir (7.1.2 - jadval).

7.1.2-jadval

Respublika xalq xo‘jaligi tarmoqlari bo‘yicha suvdan foydalanish

Xalq xo‘jaligi tarmoqlari	Suv resurslarining taqsimlanishi	
	Mldr m ³	Foizda, %
maishiy xizmat	2,9	5,2
energetika	4,09	7,3 %
sh. j. to‘liq sarflanish	0,124	0,2
sanoat	0,77	1,4
baliqchilik	0,40	0,7
qishloq xo‘jaligi	52,1	92,5

Bunda Farg'ona vodiysi viloyatlari hissasiga mamlakatda iste'mol qilinadigan sug'orish suvining 18%, Toshkent viloyati hissasiga 6,2%, Jizzax va Sirdaryo viloyatlari hissasiga 10,5%, Zarafshon vodiysi viloyatlari hissasiga 17,0%, quyi Amudaryo viloyatlari hissasiga 25,5%, Qashqadaryo, Surxondaryoga 19,5% to'g'ri keladi. Kelajakda qishloq xo'jaligi uchun suv olish taxminan 1,2 baravar ko'payadi.

1 tonna kartoshka hosili yetishtirishda, suvga ehtiyoj 1500 m³ ni, kuzgi bug'doy yetishtirishda 600 m³ ni, paxta yetishtirishda 3000 m³ni, sholi yetishtirishda 13500 m³ ni tashkil etadi.

Xalq xo'jaligi tarmoqlarining ehtiyojlari uchun 2008-2009-yillar kuz-qish mavsumida jami 11489,8 mln. m³ cheklangan suv miqdori belgilanib, joriy yil 1-aprel holatiga sug'orish va sho'r yuvish ishlariiga 9362 mln. m³ yoki limitga nisbatan 107,0% (2008-yilning shu davrida 10343 mln. m³) suv sarflandi. Bu ko'rsatkich Sirdaryo (148%), Namangan (138%), Andijon (136%), Farg'ona (130%) va Jizzax (130%) viloyatlarida nisbatan yuqori bo'ldi.

Yetkazib berilgan suv bilan jami 5303 ming hektar/ sug'orish yoki 90% (6156 ming ga/sug'orish), shundan kuzgi boshoqli don 2890 ming hektar/sug'orish, 2,5 marta (3058 ming ga/sug'orish), 980 ming hektar (1030 ming hektar) maydonda sho'r yuvish ishlari bajarildi.

Respublikadagi barcha suv omborlarida sug'orish mavsumi uchun 8509,0 mln. m³ (8753,0 mln. m³) suv yig'ildi. 2009-yilda kutilayotgan suv tanqisligining salbiy oqibatlarini yumshatishga hamda mavjud suv resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida suvdan foydalanishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar bo'yicha javobgar shaxslarga nisbatan 4025 ta (4659 ta) dalolatnomalar rasmiylashtirilib, yuridik shaxslarga 2945 ta (3194 ta) ogohlantirish xatlari kiritildi. O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi Qonuni talablarining takroran buzilishi bo'yicha 1158 (1126) holat

yuzasidan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy kodeksiga asosan fuqaro va mansabdar shaxslarga nisbatan qonunda belgilangan tartibda jami 22,7 (14,6) mln. so'm miqdorida jarima rasmiylashtirilib, to'liq undirib olindi.

7.2. Qishloq xo'jaligida SIUlarni tashkil etish zarurligi

Suv iste'molchilari uyushmasi (SIU) bir yoki bir necha kanal atrofidagi suvdan foydalanuvchilarning xohish-irodasi bilan tuziladigan va ular tomonidan boshqariladigan nodavlat, notijorat tashkilotdir. Suvdan foydalanuvchilar fermer va dehqon xo'jaliklari yoki tomorqa egalari bo'lib, adolatli suv taqsimoti hamda irrigatsiya-zovur tarmoqlaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish orqali uyushma hududida sug'orma dehqonchilikni rivojlantiradilar va buning uchun o'zlarining moliyaviy va texnik imkoniyatlarini birlashtiradilar. SIUga birlashmagan suvdan foydalanuvchilar quyidagi muammolarga duch kelishlari mumkin:

- yagona teng huquqli suv taqsimlash tizimi yo'lga qo'yilmaganligi bois, suvdan foydalanuvchilar o'rtasida suv uchun doimiy ziddiyatlar vujudga keladi;
- irrigatsiya-zovur tarmoqlarining uzluksiz ishlashini ta'minlashga davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'larning yetishmasligi tufayli ularning holati yomonlashib boradi;
- suv resurslaridan oqilona foydalanmaslik suvning keskin kamayish xavfini keltirib chiqaradi va kelajakda ekologik vaziyat yanada og'irlashadi.

SIUning tashkil qilinishi o'z a'zołari bo'lgan suvdan foydalanuvchilarga sug'orish tarmog'idagi suvni taqsimlash va uyushmani demokratik asosda boshqarishda faol qatnashish imkoniyatini beradi. Suvdan foydalanuvchilar SIU ning moliyaviy boshqaruvini oshkora tashkil etishlari uyushma faoliyatining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Bu qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini

birlashtirgan holda nafaqat suv xo'jaligi, balki qishloq xo'jaligi bilan bog'liq umumiy muammolarni hal qilishda ham yordam beradi. Bundan tashqari, suvdan samarali foydalanish hisobiga qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligi oshishi fermerlarda ertangi kunga yanada ishonch uyg'otadi.

SIU tuzish uchun uyushmaning bo'lajak a'zolaridan iborat tashabbuskor guruh zaruriy hujjatlarni tayyorlaydi. Ushbu guruh SIU ning ta'sis hujjati va ustav loyihasini a'zolarning takliflarini hisobga olgan holda tuzadi va buning uchun fermerlar orasida tushuntirish ishlarini olib boradi. Ta'sis hujjatlari SIUning ta'sis shartnomasi va ustavidan iborat.


Ta'sis shartnomasi SIUni ta'sis etishga asos bo'ladigan hujjat bo'lib, uyushmaning huquqiy maqomi, rasmiy nomi, ta'sischilar ro'yxati, maqsad va vazifalarining qisqacha sharhidan iborat. Ta'sis shartnomasi SIU ta'sischilarining barchasi tomonidan imzolanadi.

SIU tuzish uchun zarur bo'ladigan hujjatlar namunasi mavjud bo'lib, ular uyushmani tuzish jarayonini osonlashtiradi va tezlashtirishga yordam beradi. Shuni alohida qayd etish kerakki, uyushmani tuzish jarayonida o'z manfaatini ifodalash uchun har bir a'zoning ishtiroki zarur bo'lib, bu SIUning ta'sis sharnomasi va ustavida irrigatsiya-zovur tarmoqlarini saqlash va boshqarishning mahalliy o'ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarini hisobga olgan holda ifodalanadi. Bu ishlarni bajargandan so'ng tashabbuskor guruh bo'lajak SIUning ta'sis shartnomasi va ustavini salohiyatli a'zolar ishtirokida muhokama qilish va tasdiqlash uchun umumiy yig'ilish chaqiradi. Ta'sis hujjatlari tasdiqlanganidan so'ng uyushma a'zolari yoki suvdan foydalanuvchilar guruhi vakillari SIU kengashi va taftish komissiyasiga nomzodlar ro'yxatini tuzadilar. Uyushma a'zolari yoki suvdan foydalanuvchilar guruhi vakillari umumiy yig'ilishda Kengash va Taftish komissiyasini saylaganlardan so'ng kengash a'zolari barcha uyushma a'zolari nomidan SIU boshqaruvchisini tayinlaydilar. Suv iste'molchilari uyushma-

si mustaqil yuridik shaxs hisoblanib, o‘z faoliyatini xo‘jalik hisobi tamoyillari asosida olib boradi. O‘z faoliyatini fermer va dehqon xo‘jaliklari va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar bilan shartnoma asosida suv yetkazib berish xizmatlari uchun to‘langan mablag‘lari hisobidan amalgalashiradi. SIUlarning faoliyatiga quyidagi vazifalarni bajarish yuklatildi (7.2.1-rasm).

Sug‘orma dehqonchilik rivojlangan mamlakatlardagi SIUlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularning aksariyat ko‘pchiligi notijorat tashkilot sifatida faoliyat ko‘rsatayotganligining guvohi bo‘lamiz. Aslida SIUlar mazmun-mohiyati va maqsadlariga ko‘ra, qolaversa, quyidagi sabablarga ko‘ra notijorat tashkilotlar turkumiga kiradi:

- SIUning asosiy maqsadi foyda olish emas, balki a'zolar belgilab bergen tartibda barcha suvdan foydalanuvchilarga suvni vaqtida va kerakli miqdorda yetkazib berish;
 - suvni suvdan foydalanuvchilarga sotish orqali daromad olib, uni a'zolar o'rtasida taqsimlash emas, balki suvni olib



7.2.1-rasm. SIUlarning vazifalari

kelish va taqsimlash bilan bog'liq xarajatlarni fermerlardan undirish;

– tugatilgan shirkat xo'jaligidan SIU balansiga o'tkazib berilgan sug'orish va melioratsiya tarmoqlarini barcha suvdan foydalanuvchilar bilan hamkorlikda boshqarish va ishchi holatda saqlash;

– SIU ta'sischilari bu– fermerlar, shu sababli ular SIUni boshqarib boradilar;

– SIU boshqaruvchilik tashkiloti emas, balki fermerlarning tashkilotidir, boshqaruvchi yollanma xodim hisoblanadi.

SIUning suvdan foydalanuvchilar guruhi vakili umumiylig'ilishlarda ma'lum bir uchastkadagi suvdan foydalanuvchilar nomidan ularning manfaatlarini himoya qiluvchi saylangan shaxs hisoblanada.

SIU a'zolarining huquqlari:

– SIU boshqaruv organiga nomzodlar tavsiya qilish yoki o'z nomzodlarini qo'yish;

– suvdan foydalanish rejasiga muvofiq sug'orish suvidan adolatli va teng huquqli foydalanish hamda qo'shimcha suv resurslari mavjud bo'lsa, birinchi navbatda olish;

– o'z manfaatlari bilan bog'liq masalalar muhokamasida ishtirok etish;

– shartnomaga majburiyatlarini bajarmagan va ustaviga rioya qilmagan hollarda SIU dan da'vo talab qilish;

– suv iste'molchilari o'z qiziqishi va umumiyl manfaatdan kelib chiqib, SIU faoliyatiga oid ma'lumotlar bilan tanishish.

SIU a'zolarining majburiyatları:

– Ustav qoidalariga va uyushma tornonidan qabul qilingan barcha me'yoriy hujjatlarga rioya qilish;

– belgilangan badallarini hamda uyushma xizmatlari haqini o'z vaqtida to'lash;

– sug'orish rejimiga rioya qilish hamda har bir suvdan foydalanuvchi bilan kelishilgan holda belgilangan limitdagि suvni olish;

– uyushmani tasarrufidagi yer va foydalanilgan suv bilan bog'liq ma'lumotlar bilan ta'minlash;

– SIUga qarashli irrigatsiya-zovur tarmoqlarini asrabavaylash.

SIU ning moliyaviy manbalari va mulki:

Uyushmaning Nizom jamg'armasi ta'sischilar va boshqa suvdan foydalanuvchilar tomonidan ajratilgan mulkiy ulushlar va mablag'lar hisobidan tashkil topadi.

Quyidagilar uyushmaning mol-mulkini shakllantirish manbalari hisoblanadi:

– uyushma ta'sischilarining boshlang'ich mulkiy ulushlari;

– suv iste'molchilarining to'lagan badallari;

– qimmatbaho qog'ozlar va ulardan olinadigan daromadlar;

– banklar va boshqa tashkilotlarning kreditlari va grantlari;

– uyushmaning boshqa faoliyatlaridan tushgan mablag'lari;

– respublika va chet el sarmoyadorlarining beg'araz yordami tariqasida berilgan mulklar va mablag'lar hamda O'zbekiston Respublikasi qonunlarida ta'qiqlanmagan boshqa mablag'lari.

SIU qonunda belgilangan tartibda o'z faoliyati natijalarining hisobi va hisobotini va ularning haqiqiyligini kafolatlaydi.

SIU mustaqil balansga ega, xo'jalik faoliyatini ta'sischilarning va boshqa suvdan foydalanuvchilarning badallari va qonunda man etilmagan boshqa manbalar hisobiga mablag' bilan o'zini o'zi ta'minlash asosida amalga oshiradi.

SIU faoliyatini yaxshilash va rivojlantirish hamda xodimlarni ijtimoiy himoya qilish maqsadida zaxira, ishlab chiqarish, fan va texnika yutuqlarini joriy qilish, moddiy rag'batlantirish va qonunda man etilmagan boshqa jamg'armalarni tashkil qilishi mumkin.

SIU O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlardan foydalanadi.

SIUning tashkil qilishdan maqsad va uning vazifalari:

SIU ning asosiy maqsadi ta’sischilarga hamda uyushma hududidagi boshqa suvdan foydalanuvchilarga o’rnatilgan limit asosida suv yetkazib berish, o’zaro ichki suv xo‘jaligi munosabatlarini tartibga solish, ularning suvdan foydalanish huquqini himoya qilish, shuningdek qonunda man etilmagan boshqa faoliyatlarni amalga oshirishdan iborat.

SIU o‘z maqsadini amalga oshirish uchun quyidagilarni bajaradi:

- suv iste’molchilarini va ularning suv olish joylarini ro‘yxatdan o’tkazadi;
- suvdan foydalanish rejalarini ishlab chiqish va ularni irrigatsiya tizimi boshqarmasi tomonidan uyushmaga belgilangan limit doirasida muvofiqlashtiradi;
- irrigatsiya tizimi boshqarmasi hamda suv iste’molchilar bilan suv olish va undan foydalanish bo‘yicha shartnomalarni tuzadi va ularning bajarilishini ta’minlaydi;
- suv iste’molchilariga ajratilgan limitlar suv yetkazib berish va o’rnatilgan tartibda suvning oldi-berdisi va hisobotlarini olib boradi;
- SIU ta’sischilari va boshqa suvdan foydalanuvchilar hamda suv xo‘jaligi tashkilotlari bilan ichki suv xo‘jaligi obyektlarini ta’mirlash va ishlatish bo‘yicha shartnomalarini tuzadi va uning bajarilishini ta’minlaydi;
- SIU hududidagi ichki suv xo‘jaligi obyektlarini tozalash va ta’mirlash, rekonstruksiya qilish ishlarini tashkil etadi;
- suv o‘lchan vositalarini qurishni tashkil etish va belgilangan tartibda ularning pasportlarini tuzish, shahodatlash hamda ro‘yxatdan o’tkazishni ta’minlaydi;
- yer egalariga sug‘oriladigan yerkarning sho‘rini yuvish, suvdan maqsadli va samarali foydalalanishni ta’minalash bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirishda uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatadi;

– suvni tejash va ilg‘orlar tajribalarini hamda yangi texnologiyalarni joriy qilishni tashkil etadi;

– SIU balansidagi asosiy vositalarni texnik ko‘riklardan o‘tkazib borish, ta’mirlash va yangilash, resurslarni iqtisod qiluvchi texnika va texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha joriy va istiqbolli rejalarни ishlab chiqish, umumiyligi shu jumladan joriy va rivojlanish sarf-xarajatlar smetasini ishlab chiqish hamda har bir suvdan foydalanuvchining badallarini hisob-kitob qilib, belgilangan tartibda ta’sischilarning umumiyligi yig‘ilishida tasdiqlash;

– o‘z faoliyati to‘g‘risida belgilangan tartibda tuman, qishloq va suv xo‘jaligi bo‘limiga, irrigatsiya tizimi boshqarmasiga hamda tegishli tashkilot va idoralarga axborot va hisobotlar berib boradi;

– SIU ta’sischilarning haq-huquqlarini va manfaatlarini himoya qiladi;

– SIU o‘z ta’sischilariga va uning hududidagi boshqa suvdan foydalanuvchilarga ularning manfaatlarini ko‘zlagan holda qonunga zid bo‘lmagan boshqa faoliyat turlarini ham ko‘rsatish mumkin.

SIU quyidagi majburiyat va huquqlarga ega:

– o‘z hisobidagi asosiy vositalarni va boshqa mulklarni hamda mablag‘larni maqsadli ishlatish va talon-taroj bo‘lmasligini ta’minlaydi;

– SIU ajratilgan suv resurslarini suvdan foydalanuvchilarga ularning tasdiqlangan suvdan foydalanish rejasiga proporsional ravishda taqsimlaydi va yetkazib beradi;

– faoliyat ko‘rsatayotgan hududdagi suvdan foydalanuvchilarga va boshqa uyushmalarga suv ta‘minoti va suv xo‘jaligi obyektlaridan foydalanishdan boshqa xizmat ko‘rsatishni tashkil qilish, buning uchun banklarda xo‘jalik hisob raqami ochiladi. Ushbu faoliyat bo‘yicha tushgan mablag‘lardan davlat byudjetiga tegishli to‘lovlarini amalga oshiradi. Ichki suv xo‘jaligi obyektlarini meliorativ texnika va boshqa vositalarni ta’mirlashga va rivojlantirish hamda

uyushma yig‘ilishi qarori bilan boshqa maqsadlarga ishlataladi;

- amalga oshirilgan ishlar haqida yiliga ikki marta uyushma ta’sischilariga umumiy yig‘ilishda hisobot beradi;
- manbada suv kamaygan (ko‘paygan) taqdirda suv limitlariga o‘zgartirishlar kiritadi;
- texnika va mexanizmlar yetishmagan holatda shartnoma asosida boshqa pudratchilarni jalg qiladi;
- suvni taqsimlash va uni suvdan foydalanuvchilarga yetkazishni tashkil qilish hamda kechayu kunduz nazorat olib borish uchun sug‘orish tarmoqlari bo‘yicha joylashgan suvdan foydalanuvchilarning vakillarini grafik asosida jalg qiladi;
- belgilangan tartibda suvdan maxsus foydalanish ruxsatnomasini oladi;
- SIU qonun hujjatlarida man etilmagan boshqa huquqlarga ham ega.

SIU ta’sischilari va boshqa suv iste’molchilarining majburiyatları va huquqlari:

- suvdan va suv xo‘jaligi obyektlaridan foydalanish bo‘yicha o‘z vaqtida shartnomalarni tuzish va o‘ziga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishini ta’minlaydi;
- suv xo‘jaligi obyektlariga va boshqa asosiy vositalarning texnik holatiga zarar yetkazmaslikni ta’minlaydi va ulardan belgilangan tartibda foydalanadi;
- mavjud suv xo‘jaligi obyektlariga, texnika va uskunalaiga yetkazilgan zararni o‘rnatilgan tartibda qoplaydi;
- suv o‘lchash vositalarini o‘z hisobidan qurishni ta’minlaydi, olingan suvdan maqsadli foydalanish haqida uyushmaga o‘rnatilgan tartibda ma’lumotlar berib boradi;
- SIU talabi asosida suvni taqsimlash uni iste’molchilarga yetkazishni tashkil qilish hamda kechayu-kunduz nazoratni olib borish uchun o‘z vakillarini ajratadi;
- ajratilgan suv resurslarini belgilangan limit doirasida suvdan foydalanish rejasi asosida o‘z vaqtida berilishini talab qiladi;

– tuzilgan shartnomaga asosan berilgan buyurtma bo‘yicha o‘z vaqtida tegishli xizmatlar bajarishni talab qiladi;

– SIUning ta’sischilarini va boshqa suv iste’molchilarini qonun hujjatlarida belgilangan boshqa huquqlarga ham ega.

Uyushma o‘z ta’sischilarining boshqa yuridik va jismoniy shaxslar oldidagi majburiyatlari bo‘yicha javobgar emas.

Respublika bo‘yicha 2009-yilda jami 1693 ta (2008-yilning shu davrida 1676 ta) suvdan foydalanuvchilar uyushmalari faoliyat ko‘rsatmoqda. SIU tomonidan 3 mln. 996 ming hektar maydonda 86,7 ming nafar ikkilamchi suvdan foydalanuvchilarga, shu jumladan 84,4 ming fermer xo‘jaliklariga suv xizmati ko‘rsatib kelinmoqda.

SIU tomonidan ikkilamchi suvdan foydalanuvchilarga yillik 34,3 mlrd. so‘mlik (28,1 mlrd. so‘m) xizmat ko‘rsatish belgilangan va hisobot davrida amalda 5,9 mlrd. so‘mlik (5,4 mlrd. so‘m) xizmat ko‘rsatildi va uning 2,2 mlrd. so‘mi yoki 38,0% (5,4 mlrd. so‘mi) to‘lab berildi. Bu ko‘rsatkich Qashqadaryo (9,0%), Samarqand (26,0%) va Xorazm (37,0%) viloyatlarida nisbatan past bo‘ldi, bunda o‘rtacha bir hektar maydonga to‘langan mablag‘ respublika bo‘yicha o‘rtacha 560 so‘mni (1336 so‘m) tashkil qildi.

SIUlar faoliyatini rivojlantirish uchun quyidagilarga e’tibor berish lozim:

– SIUlar tashkil etish jarayonini tuman hokimlari tomonidan qo‘llab-quvvatlash;

– tugatilayotgan xo‘jaliklarning moddiy-texnika resurslarini SIU tasarrufiga o‘tkazishni odilona hal qilinishi;

– SIUlarini rivojlantirish bo‘yicha xalqaro grantlarni jalg qilish;

– nasos qurilmalari mayjud SIU da elektr tarmoqlaridan uzilish holatlarini oldini olish;

– SIU boshqaruv va ijroiya organlariga o‘z vazifasini va mas’uliyatini sezuvchi tajribali mutaxassislar saylanishi;

– SIU xodimlarining malakalarini o‘quv-seminarlar orqali doimiy ravishda oshirib borish;

– ommaviy axborot vositalarida SIUlar va ular tomonidan kafolatlangan suv xizmati ko'rsatilishini keng yoritish.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida respublikamizda suvdan foydalanishni yaxshilash maqsadida va suvning tayin egasi bo'lishini hisobga olib, suv iste'molchilar uyushmasi tashkil etildi. Umuman olganda, suv resurslaridan oqilona foydalanish va shu maqsadda suv xo'jaligi infratuzilmasini takomillashtirish va uning xizmatlaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Uning vazifasiga suv manbalaridan suv olish, kanallar orqali suv iste'molchilarini suv bilan ta'minlash, sug'orish va yerning sho'rini yuvishga olinadigan suv resurslarini hisobga olish, suvdan foydalanish va sug'orish suvining sifatini nazorat qilish va boshqalar kiradi. SIUlar asosan tugatilgan shirkat xo'jaliklari negizida tashkil etilgan fermerlarni birlashtirib, ular to'langan badal va yillik daromadidan ma'lum miqdordagi to'lov hisobiga o'z faoliyatini yuritadi va rivojlantiradi. Hozirgi kunda SIUlarning shakllanishiga va rivojlanishiga to'siq bo'luvchi ba'zi bir muammolarni inkor etib boilmaydi:

– uyushma a'zolari badallari hisobiga tashkil topgan mablag' yangi mexanizmlar, mashina va uskunalar jihozlari sotib olishga yetmasligi mumkin;

– asosiy qishloq xo'jaligi ekinlariga belgilangan narxlar suvdan foydalanuvchilarga suvga haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni qoplash imkonini berilmasligi;

– bank tomonidan suvdan foydalanuvchilarga beriladigan kredit stavkalarining yuqoriligi, SIUning loyihalarini amalga oshmasligiga sabab bo'lishi mumkin;

– SIUni boshqaradigan va tashkil etadigan suv o'chagich asboblarining yetishmasligi.

Ushbu va boshqa muammolarni bartaraf etish hamda uyushmaning samarali faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadida suvdan xususiy foydalanishning huquqiy asosini yaratish lozim. Suvga va irrigatsiya tizimiga mulkchilik huquqini aniqlash uyushmaning uzoq vaqt faoliyat ko'rsatishi uchun zamin yaratadi.

7.3. Suv xo‘jaligi tizimlari xizmatidan foydalanishni havzaviy usulga o‘tkazish va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish tadbirlari


O‘zbekiston Respublikasi suv resurslarini boshqarishning oldingi tarkibida jami 260 ta tashkilotlar faoliyat yuritgan bo‘lsa, amaldagi tarkib esa o‘z ichiga 101 ta tashkilotni birlashtiradi yoki ular soni 159 taga qisqartirildi. Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi tarkibidagi Suv xo‘jaligi bosh boshqarmasi zimmasiga: Davlatlararo suv xo‘jaligi komissiyasi, Amudaryo va Sirdaryo suv havzalari, Markaziy dispatcherlik xizmati, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari faoliyatini samarali va bozor tamoyillari hamda mexanizmlari asosida tashkil qilish vazifasi yuklatildi.

Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalarining asosiy vazifalari qilib esa suvdan foydalanishning bozor prinsiplari va mexanizmlarini joriy etish asosida suv resurslaridan maqsadli va oqilona foydalanishni tashkil etish; ilg‘or texnologiyalarni joriy etish asosida suv xo‘jaligida yagona texnika siyosatini o‘tkazish; iste’molchilarini suv bilan uzlucksiz va o‘z vaqtida ta’minlashni tashkil etish; irrigatsiya tizimlari suv xo‘jaligi inshootlarining texnik ishonchliliginin ta’minlash; havza hududida suv resurslarini oqilona boshqarish hamda uning tezkorligini oshirish va suv iste’molchilari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanishning aniq hisobi va hisobotini ta’minlash qilib belgilanadi.

Respublikada suv xo‘jaligini boshqarishning tashkiliy tuzilmasini tahlil qiladigan bo‘lsak, u irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, mutasaddi tashkilotlar va korxonalardan iborat ekanligini ko‘rishimiz mumkin (7.3.1-rasm).

Mintaqalarni irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalariga biriktirish tuzilmasi esa quyidagicha: Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi – Andijon viloyati; Norin-Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi – Namangan viloyati; Sirdaryo-So‘x irrigatsiya tizimlari havza

QISHLOQ VA SUV XO'ALIGI VAZIRLIGI



7.3.1-rasm. O'zbekiston Respublikasida suv boshqaruvi tizimi

boshqarmasi – Farg'ona viloyati; Chirchiq-Ohangaron irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi – Toshkent viloyati; Quyi Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi – Sirdaryo va Jizzax viloyati tumanlari (Arnasoy, Do'stlik, Zomin, Zafarobod, Mirzacho'l, Paxtakor, Forish va Yangiobod); Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi – Samarqand va Jizzax viloyati tumanlari (Baxmal, Fallaorol, Jizzax), Navoiy viloyati tumanlari (Xatirchi, Navoiy, Konimex, Navbahor), Qashqadaryo viloyati tumanlari (Chiroqchi); Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi – Qashqadaryo viloyati (Chiroqchi tumani dagi Eski Anhor zonasidan tashqari); Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi – Buxoro va Navoiy viloyati tumanlari (Qiziltepa, Navoiy (Navoiy kanali zonasi)); Amu-Surxon irrigatsiya tizimlari boshqarmasi – Surxondaryo viloyati; Quyi-Amudaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi – Qoraqolpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati.

Birlashgan dispetcherlik markaziga ega bo'lgan Farg'ona vodiysi magistral kanallari tizimi boshqarmasi tarkibiga; Farg'ona vodiysi birlashgan dispetcherlik markazi: Katta magistral kanali boshqarmasi–Teshiktosh gidrouzeli, Katta Farg'ona magistral kanali boshqarmasi–Katta Andijon magistral kanali boshqarmasi: Janubiy Farg'ona magistral kanali boshqarmasi – Kampirovat gidrouzeli, Janubiy Farg'ona magistral kanali boshgidrouzeli, Papjon gidrouzeli, Karkidon suv ombori, Qo'rg'ontep suv ombori, Shahrixonsoy kanali bosh uchastkasi va Janubiy Farg'ona magistral kanali kiritilgan.

Birlashgan dispetcherlik markaziga ega bo'lgan Farg'ona vodiysi magistral kanallari tizimi boshqarmasi bevosita O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining suv xo'jaligi bosh boshqarmasiga hisobdor subyekt hisoblanadi va o'z faoliyatini bozor tamoyillari asosida tashkil etadi.

Magistral kanallar (tizimlar) boshqarmalari va irrigatsiya tizimlari boshqarmalari esa irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining tarkibiy bo'linmalari hisoblanadi.

Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasiga O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining buyrug'i bilan tanlov asosida lavozimga tayinlanadigan boshliq rahbarlik qiladi. Havza boshqarmasi boshlig'inining tanlov asosida tanlanadigan ikki nafar o'rinnbosari bo'ladi. Shuningdek, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzurida Suv xo'jaligi kengashi tashkil etiladi, uning tarkibiga Boshqarma boshlig'i (Kengash raisi), irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining faoliyat ko'rsatishi hududidagi viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi boshliqlari (yoki boshliqlarning o'rinnbosarlari), magistral kanallar (tizimlar) boshqarmalari, irrigatsiya tizimlari boshqarmalari boshliqlari va boshqa tegishli tashkilotlarning rahbarlari hamda tajribali va yuqori malakali xodimlar kiradi.

Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining moliyalash-tirish manbalari bo'lib, Davlat byudjeti mablag'lari xo'jalik

faoliyatidan va suv iste'molchilariga xizmatlar ko'rsatishdan olinadigan mablag'lar, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa faoliyatlardan tushadigan mablag'lar hisoblanadi.

Magistral kanallar (tizimlar) boshqarmasining vazifalari quyidagilardan iborat: Magistral kanallar (tizimlar) va inshootlar suv resurslarini oqilona boshqarish va uning tezkorligini oshirish: magistral kanal (tizim) bo'yicha suvdan foydalanishning belgilangan tartibiga rioya qilinishini ta'minlash: magistral kanallar (tizimlar) va suv xo'jaligi inshootlarining texnik ishonchlilikini ta'minlash: magistral kanallarni (tizimlarni) ishonchli foydalanish uchun tayyorlash va uni ish holatida saqlash suv ombori va suv berish to'g'risida ishonchli hisob va hisobot kiritish va suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish ajratilgan mablag'lar, moddiy-texnika resurslari, texnika va asbob-uskunalardan foydalanish samaradorligini oshirish.

O'z navbatida, magistral kanallar (tizimlar) boshqarmasi suv resurslarini boshqarishni va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tomonidan belgilangan limitlarga asosan irrigatsiya tizimlari boshqarmalarga suv berishni amalga oshiradi. Bunda magistral kanallar boshqarmasi irrigatsiya tizimlari hamda nasos stansiyalari Energitika va aloqa boshqarmalari bilan suv berish yuzasidan shartnomalar tuzadi, tizimning ichki nasos stansiyalari va agregatlaridan foydalanish rejimini belgilab beradi.

Boshqarma suvdan foydalanishning bozor prinsiplari va mexanizmlarini joriy etish barobarida tizimni suv o'lhash qurilmalari bilan zarur miqdorda ta'minlaydi, suvning zamонавиу тизимларини жорий этиди hamda ta'mirlash ishlarini arzonlashtiradi va sifatini oshirish maqsadida, resurslarni tejaydigan texnologiyalarni, ishlarni bajarishning maqbul shakl va usullarini ishlab chiqadi va amaliyotga joriy qiladi.

Shuningdek, magistral kanallar (tizimlar) va suv xo'jaligi inshootlari bo'yicha suv resurslari oqilona boshqarilishini nazorat qilish bilan birga, investitsiya dasturiga kiritish

uchun tizimni va inshootlarni zamonaviylashtirish, rekonstruksiya qilish hamda texnika bilan qayta jihozlash bo'yicha investitsiya dasturlari bajarilishini tashkil etadi.

Ta'kidlash kerakki, agrosanoat majmuasining eng muhim tarkibiy qismini sug'oriladigan dehqonchilik mintaqalarida suv xo'jaligi tizimi tashkil qiladi. Agarda qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblangan suv resurslarining ahamiyati, o'rni hamda sug'oriladigan dehqonchilikdagi mohiyati hisobga olinsa, suv xo'jaligi majmuasining qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishdagi ahamiyati qay darajada muhimligini yaqqol ko'rish mumkin.

Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining vazifalari, huquqlari va majburiyatları:

- Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining suv xo'jaligi sohasidagi hududiy organi hisoblanadi;
- Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari va boshqa hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi hay'atining qarorlariga, Vazirlikning buyruqlari va qarorlariga hamda boshqa qonun hujjatlariga, shuningdek o'zining Nizomiga amal qiladi;
- Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi yuridik shaxs hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi yozilgan muhrga, bank muassasalarida hisob raqamlariga ega bo'ladi;
- Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi suv havzasida suv resurslarini tartibga solish va foydalanishda yagona siyosat o'tkazilishi uchun mas'ul hisoblanadi.

Quyidagilar havza boshqarmasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- suvdan foydalanishning bozor prinsiplarini va mexanizmlarini joriy etish asosida suv resurslaridan maqsadli va oqilona foydalanishini tashkil etish;
- suvni tejovchi ilg‘or texnologiyalarni joriy etish asosida suv xo‘jaligidagi yagona texnika siyosatini yuritish;
- iste’molchilarни suv bilan uzlusiz va o‘z vaqtida ta’minlashni tashkil etish;
- irrigatsiya tizimlari suv xo‘jaligi inshootlarining texnik ishonchlilagini ta’minlash;
- irrigatsiya tizimidan ishonchli foydalanish va uni ish holatida saqlash uchun uni tayyorlashni tashkil etish;
- havza hududida suv resurslarini oqilona boshqarish hamda uning tezkorligini oshirish;
- suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, ajratilgan mablag‘lar, moddiy-texnika resurslari, texnika va asbob-uskunalaridan foydalanish samaradorligini oshirish va ulardan maqsadli foydalanish.

Boshqarma quyidagi funksiyalarini amalga oshiradi:

- suv resurslarini boshqarishni va Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tomonidan belgilangan limitlarga muvofiq Irrigatsiya tizimlari boshqarmalariga suv berishni amalga oshiradi;
- irrigatsiya tizimlari hamda nasos stansiyalari, energetika va aloqa boshqarmalari bilan suv berish yuzasidan shartnomalar tuzadi, tizimning ichki nasos stansiyalari va aggregatlaridan foydalanish rejimini belgilaydi;
- umumiy suv xo‘jaligi ahvolini hisobga olgan holda irrigatsiya tizimlariga suv berish jadvallariga tuzatishlar kiritadi;
- suvdan foydalanishning bozor prinsiplari va mexanizmlari joriy etilishini ta’minlaydi;
- Tizimning alohida kanallari suv ta’minotini oshirishga doir takliflarni tayyorlaydi va amalga oshiradi;
- Umuman tizim bo‘yicha suv olish va suv berish hisobini yuritadi, tizim bo‘yicha suv resurslari balansini tuzadi;
- magistral kanallar (tizimlar) va suv xo‘jaligi inshootlari bo‘yicha suv resurslari oqilona boshqarilishini nazorat qiladi;

- umuman suv xo‘jaligi tizimidan ishonchli foydalani-lishini ta‘minlaydi;
- tizimni suv o‘lchash qurilmalari bilan zarur miqdorda ta‘minlaydi, suv resurslarini boshqarishda aloqa, avtomatika va telemexanikaning zamonaviy tizimlarini joriy etadi hamda ularni takomillashtiradi;
- mukammal va joriy ta‘mirlash bo‘yicha kompleks tad-birlar tuzadi, ushbu maqsadlarga ajratiladigan mablag‘-lardan maqsadli va samarali foydalanishni ta‘minlaydi;
- ta‘mirlash ishlarini arzonlashtirish va sifatini oshirish maqsadida, resurslarni tejaydigan texnologiyalarni, ishlarni bajarishning maqbul shakl va usullarini ishlab chiqadi va joriy qiladi;
- tasarrufidagi kanallar tizimlarida ishlarni tashkil etishda ilg‘or tajribani, suv xo‘jaligiga oid fan yutuqlarini omma-lashtiradi;
- qurilayotgan korxonalar birlashgan direksiyalari bilan birgalikda investitsiya dasturlariga kiritish uchun tizimni va inshootlarni zamonaviylashtirish, rekonstruksiya qilish hamda texnika bilan qayta jihozlash bo‘yicha takliflar tayyorlaydi, magistral kanal (tizim) bo‘yicha investitsiya dasturlari bajarilishini tashkil qiladi;
- umuman irrigatsiya tizimi bo‘yicha suv xo‘jaligini istiqbolli rivojlantirish sxemalarini tuzish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi.

Boshqarma quyidagi huquqlarga ega:

- o‘z vakolatiga kiruvchi masalalarni hal etish uchun zarur bo‘lgan materiallarni korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan belgilangan tartibda so‘rash va olish;
- kelishish uchun o‘ziga taqdim etiladigan suv resurslarini boshqarish bo‘yicha qarorlar loyihalari yuzasidan xulosalar berish;
- boshqa tizimlarda va ichki xo‘jalik gidromeliorativ tarmoqlarida ta‘mirlash ishlarini shartnomalar bo‘yicha bajarish;
- suv xo‘jaligi tizimlaridan foydalanish qoidalari, suvdan limit bo‘yicha foydalanish tartibi buzilganligi uchun aybdor

shaxslarni tegishli javobgarlikka tortish to‘g‘risida belgilangan tartibda taqdimnomalar kiritish;

– Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tomonidan tasdiqlangan suv resurslari limitlariga vujudga kelgan suv xo‘jaligi ahvolini hisobga olgan holda 10 foiz doirasida tuzatish kiritish;

– qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ega.

Boshqarmaning o‘z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari joylardagi boshqaruv organlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar, shuningdek mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiydir.

Boshqarmani tanlov asosida O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligining buyrug‘i bilim lavozima tayinlanadigan boshliq boshqaradi. Tanlov Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig‘ining taqdimnomasiga ko‘ra Suv xo‘jaligi bosh boshqarmasi tomonidan o‘tkaziladi.

Boshliq o‘rinbosarlari lavozimiga Boshqarma boshlig‘ining taqdimnomasiga ko‘ra Suv xo‘jaligi bosh boshqarmasi bilan kelishgan holda Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig‘ining buyrug‘i bilan tanlov asosida tasdiqlanadi.

Tanlovlarni o‘tkazish tartibi Suv xo‘jaligi bosh boshqarmasi tomonidan tasdiqlanadi.

Boshqarma boshlig‘i:

– boshqarma faoliyatiga rahbarlik qiladi hamda Boshqarma yuqlangan vazifalar va majburiyatlarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

– Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasiga Boshqarma boshlig‘i o‘rinbosarlari lavozimiga tayinlash uchun Suv xo‘jaligi bosh boshqarmasi bilan kelishilgan nomzodlarni taqdim etadi;

– boshqarma apparati shtatlar jadvali bo‘yicha takliflarni tasdiqlash uchun Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasiga belgilangan tartibda kiritadi;

– boshqarma apparati xodimlarini, shuningdek tasarrufidagi kanallar tizimlari rahbarlarini Irrigatsiya tizimlari havza

boshqarmasi bilan kelishgan holda lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi;

– bo‘linmalar rahbarlari va mutaxassislarini tanlov asosida tayinlaydi. Tanlovn ni o‘tkazish tartibi Suv xo‘jaligi bosh boshqarmasi bilan kelishgan holda Boshqarma boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadi;

– qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlar doirasida boshqa vakolatlarni amalga oshiradi:

Gidrouchastkalar va gidrouzellar (yuridik shaxs maqomisiz) Boshqarmaning tarkibiy bo‘linmalari hisoblanadi, ular o‘z faoliyatini Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tasdiqlaydigan Nizomga muvofiq amalga oshiradi.

Byudjetdan ajratmalar hamda xo‘jaligi faoliyatidan va suv iste’molchilariga xizmatlar ko‘rsatishdan tushadigan mablag‘lar, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar Boshqarmani mablag‘ bilan ta’minlash manbalari hisoblanadi.

7.4. Suvdan oqilona, samarali foydalanish yo‘llari

Yer qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning asosiy vositasi hisoblanadi. Suv esa qishloq xo‘jaligi mahsuloti hosil bo‘ladigan muqarrar omildir. Yer optimal namga ega bo‘lgandagina unum dor bo‘ladi va yuqori hosil olinishini ta’minlaydi. Hosil yetishtirish uchun qaytmas tarzda sarflanadigan juda ko‘p suv kerak bo‘ladi. O’simlik o‘sishi davrida har bir gektar maydon tuprog‘idan minglab tonna suv atmosferaga chiqariladi. Mahsulot hosil bo‘lishi uchun yuzlab kubometr suv o’simliklar orqali o‘tib, bug‘lanishi kerak. Masalan, 1 tonna kartoshka yetishtirishda, suvgaga ehtiyoj 1500 m^3 ni, kuzgi bug‘doy yetishtirishda 600 m^3 ni, paxta yetishtirishda 3000 m^3 ni, sholi yetishtirishda 13500 m^3 ni tashkil etadi.

Madaniy o’simliklar me’yorida rivojlanishi uchun tuproqning o‘sish davridagi namligi 70-75% ni tashkil qilish kerak. Hududning katta qismida esa bundan anchagini

pastdir. Tuproq namligining kamligi yoki ortiqchaligi qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi darajasiga salbiy ta’sir etadi. Tuproq suv rejimini tuproq aktiv qatlamida namlik aktiv balanslarini hosil qilish va uni butun o’sish davrida saqlab turishga qaratilgan melioratsiya tadbirlari yordamidagina tartibga solib turish mumkin. Tuproq suv rejimining to‘la tartibga solinadigan turini texnologik jihatdan mukammal sug‘orish tizimlarigina ta’minkay oladi.

Qishloq xo‘jaligida sug‘oruv suvidan foydalanish yerdan foydalanish bilan uzviy bog‘liqdir. Suvning iste’mol qiymati sug‘orma dehqonchilikning pirovard natijalari hisobga olingan holdagina ko‘rib chiqilishi mumkin. Ishlab chiqarish vositasi bo‘lgan suvning qiymati ishlab chiqarish jarayonidan ajratilsa, yo‘qoladi.

Sug‘orish manbalaridan olingan sug‘oruv suvi o‘z xususiyatiga egadir. Bu suv belgilangan muddatda va kerakli miqdorda muayyan uchastkaga yuborilishi kerak. Bu shartlarni bajarmaslik qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Sug‘oruv suvidan foydalanish samaradorligini oshirish davlat ahamiyatiga molik vazifa hisoblanadi. Suv resurslaridan samarali foydalanishning mohiyati kam xarajatlar bilan sug‘oruv suvi birligiga eng ko‘p mahsulot olishdadir. Bunga turli xil texnologik, tashkiliy va iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirish yo‘li bilan erishiladi.

Sug‘orma dehqonchilikda suvdan foydalanish samaradorligini quyidagi ko‘rsatkichlar xarakterlab beradi:

- sug‘orish tizimining foydali ishlash koeffitsienti;
- sug‘orish tizimida suvdan foydalanish koeffitsienti;
- sug‘oruv suvining unumdarligi.

Qishloq xo‘jaligida suvning ko‘pgina qisimi qaytmas tarzda sarflanishi qayd qilib o’tildi. Suvning qaytmas tarzda iste’mol qilinishi sabablaridan biri uning irrigatsiya tizimlarida shamilishi va bug‘lanishi natijasida yo‘qotilishidir. Bu yo‘qotishlar iste’mol qilinadigan hamma suvning 20-25%ni, goho esa 40% ni tashkil etadi.

Suvning yo'qotilishi sug'orish tizimi foydali ishlashi koeffitsienti (KPD)da aks etadiki, bu maydonga oqib boradigan suvning (W_{n-t}) muayyan davr (dekada, oy, o'sish davri) ichida sug'orish manbalaridan (W_{br}) olingan suv miqdoriga nisbatidir.

$$KPD_s = W_{nt}/W_{br}$$

Suv olish hajmi bilan berilgan suv o'rtasidagi farq shimilishi va bug'lanishga ketgan yo'qotishlarni tashkil etadi. $[(1-KPD)*100]$ ifodasi bo'yicha tizimdag'i suv yo'qotishlari foizi aniqlanadi.

Sug'orish tizimi foydali ishlashi koeffitsientiga xo'jaliklararo shoxobcha (KPD m.x.) va xo'jalik ichidagi shoxobcha (KPD_{vx}) kiradi va bu ifoda quyidagicha aniqlanadi:

$$KPD = KPD_{mx} * KPD_{vx}$$

Foydali ishlash koeffitsienti sug'orish tizimining texnika darajasi, tuproq xarakteri, relef va hokazolarga bog'liq bo'ladi. U har bir tizim uchun yil davomida o'zgarib turadi.

Bunda u yerli o'zanlarda kanallari bo'lgan va gidrotexnik inshootlar bilan kam jihozlangan sug'orish tizimlarida ancha ko'p tebranib turadi.

Respublika viloyatlari bo'yicha sug'orish tizimlari xo'jaliklararo shoxobchasing haqiqatdag'i KPDsi ko'rsatkichlari 7.4.1-jadvalda keltirilgan.

Suvning anchagina qismi xo'jaliklararo shoxobcha va kanallarida yo'qoladi. Umuman mamlakat bo'yicha xo'jaliklararo va xo'jaliklar ichidagi shoxobchada sug'orish manbalaridan olingan butun suv hajmining 40% dan ko'prog'i yo'qoladi. Shuning uchun sug'orish tizimlari foydali ishlash koeffitsientining o'sishi suv tejashning muhim rezervidir.

Suvning shoxobchada yo'qolishi moddiy zarar keltiradi. Namning bevosita yo'qolishidan tashqari, uning shimilib ketishi yer osti suvlari ko'tarilishiga, tuproqlarni sho'r

bosishiga, sug'oriladigan yerlar melioratsiya holati yomonlashishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, bu suvlarni sug'oriladigan uchastkalardan chetga oqizib yuborish uchun ko'p mablag' sarflashga to'g'ri keladi.

7.4.1-jadval

Xo'jaliklararo sug'orish tizimlari foydalanishining koeffitsienti⁴⁷

Viloyatlar	O'rtacha 2002-2009-yillar davomida
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,56
Andijon	0,66
Buxoro	0,58
Jizzax	0,80
Qashqadaryo	0,68
Navoiy	0,61
Namangan	0,69
Samarqand	0,64
Surxondaryo	0,77
Sirdaryo	0,66
Toshkent	0,66
Farg'ona	0,64
Xorazm	0,61

Suvning dalalarda yo'qotilishi ham sodir bo'lib turadi: bunda suvning ma'lum qismi ildizlar o'sadigan qatlamdan pastga shimilib, yer osti suvlariga qo'shiladi, shuningdek maydonlar sirtidan bug'lanib ketadi.

Suvning umumiyoq yo'qolishlari tizim suvlaridan foydalanish (SUYTK)ni koeffitsientida aks etadi. Bu koeffitsient o'simliklarning maydonlardagi suvni foydali iste'mol qilishining sug'orish manbalaridan olingan suv miqdoriga nisbatidir.

⁴⁷ O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

bunda:

E-qishloq xo'jaligi ekinlarining muayyan vaqt ichida foydali suv iste'mol qilishi, m³ ga;

F – sug'oriladigan maydon, ga;

Wbr – sug'orish manbaidan olingan suv miqdori, m³.

Tizimdagi suvdan foydalanish koeffitsienti o'simliklar hosil yaratish uchun sug'orish manbaidan olingan suvning qanchasini iste'mol qilishini [(1-SFKs)•100] ifodasi tizim va daladagi suv sarfining umumiyl foizini ko'rsatadi. Sug'oruv suvning umumiyl yo'qolishlari sug'orish tizimlaridagi suvdan ularni texnika jihatdan ishlatalishni yaxshilash hisobiga oqilona ishlatalish rezervlari mavjudligini ko'rsatadi. Sug'oruv suvidan foydalanish unumdarligining ko'rsatkichi suvdan foydalanish samaradorligining umumlashuvchi ko'rsatkichidir. Sug'oruv suvidan foydalanish unumdarligi (SFU) ko'rsatkichi esa tabiiy yoki qiymat ko'rinishida (SIU) ishlab chiqarilgan mahsulotning sug'orish manbai (Wbr) dan olingan suvning umumiyl hajmiga nisbati sifatida aniqlanadi.

SFU=SIU/Wbr

Suv tanqis bo'lgan qurg'oqchilik rayonlarida yer maydoni gektaridan emas, balki 1 m³ suv hisobiga eng ko'p mahsulot olish vazifasi qo'yiladi.

Sug'oruv suvi unumdarligining ko'rsatkichi sintetik ko'rsatkichdir. U tuproqning mahsulot ishlab chiqarish hajmida ifodalanadigan iqtisodiy unumdarligi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu ko'rsatkich qishloq xo'jaligi korxonalarining xo'jalik faoliyatini va sug'orish tizimlarini ishlatalish darajasini xarakterlab beradi.

Sug'oruv suvidan oqilona foydalanish muammosi hozirgi vaqtda favqulodda ahamiyat kasb etmoqda. Sug'orish texnikasini takomillashtirish va mavjud tizimlarni rekonstruksiya qilish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Sug'orish tizimlarining texnika darajasini oshirish (tizimlarini gidrotexnika va suv o'lchagich inshootlari bilan jihozlash,

kanallarga shimalishga qarshi qoplamlalar o'rnatish, yopiq truboprovodlar qurish, sug'orishning ilg'or usullarini qo'llash) yer va suvdan foydalanishni yaxshilashga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29-oktabr 2007-yildagi «Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF – 3932-sonli Farmoniga ko'ra suv xo'jaligi tashkilotlari ekspluatatsiya xarajatlariga respublika budgetidan mablag' ajratish tizimi tubdan o'zgartirildi va natijada moliyalashtirish hajmi yildan yilga ortib bormoqda. Jumladan, suv xo'jaligi tashkilotlari ekspluatatsiya xarajatlariga 1994-yilda 826,3 mln. so'm miqdorda mablag' ajratilgan bo'sha, 2009-yilga kelib bu ko'rsatkich 757,4 mlrd. so'mga etdi yoki salkam ming marotaba oshdi.

Qishloq xo'jaligi yerlarning suv ta'minoti va meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha 2003–2009-yillar davomida jami 801,5 mln. AQSH dollari qiymatidagi 21 ta loyiha amalga oshirilib, shundan chet el investitsiyalari hisobidan kiritilgan mablag' 560,4 mln. AQSH dollarini tashkil qilgan. Jumladan, 2009-yilda jami 36,9 mln. AQSH dollari qiymatidagi 12 ta investitsion loyiha asosida yerlarning suv ta'minoti va meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha kompleks tadbirlar amalga oshirildi. Davlatimiz tomonidan faqatgina 2004–2009-yillar davomida suv xo'jaligi tizimlarini ekspluatatsiya qilish, yerlarni meliorativ holatini yaxshilash, suv xo'jaligi inshootlarini qurish va rekonstruksiya qilishga, yerlarning suv ta'minotini oshirish hamda suv bilan kafolatli ta'minlash ishlariiga katta e'tibor qaratilib, ushbu tadbirlarga jami 3 trln. 709 mlrd. mablag' yo'naltirildi.

Birgina bajarilgan meliorativ tadbirlar natijasida 346 ming hektar sug'oriladigan yerlarning meliorativ holati yaxshilandi, kuchli va o'rta sho'rangan maydonlarni 42 ming hektarga kamayishiga, 127 ming hektar maydonda yer osti suvlarini qishloq xo'jaligi ekinlari uchun maqbul sathlarga tushirilishiga erishildi.

پ

89

7.4.2 - jadval

G‘o‘zani har xil sug‘orish usullarining iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Oddiy usul	Tomchi-latib sug‘orish usuli	Polietyl plyonka bilan mulchabab sug‘orish texnologiyasi	Diskret usuli	Qator oralatib sug‘orish
Mavsumiy suv me‘yori, ming m ³ /ga	5,5	2,75	3,0	5,0	4,5
Sug‘orishlar soni, marta	5	10	7	5	6
Suv iqtisodi, %	-	50	25-30	10	18
Hosildorlik, ts/ga	35	40	45	37	35

7.4.3 - jadval

G‘o‘zani subirrigatsiya usuli bilan sug‘orishning samaradorligi

Viloyatlar	Suv sarfi, m ³ /ga		
	Oddiy usulda sug‘orish	Subirrigatsiya usulida sug‘orish	Nazoratga nisbatan daryo suvi iqtisodi, m ³ /ga
Farg‘ona	4150	3070	+1080
Qashqadaryo	5250	3350	+1900
Samarqand	1864	886	+978
Xorazm	3614	2707	+907

Pirovard natijada, yerlar unumdorligi, paxta, g‘alla va boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligi sezilarli darajada oshishiga olib keldi. Jumladan, paxtaning

hosildorligini 2003-yilga nisbatan 4,9 s/ga, g'alla hosildorligi esa 9,5 s/ga ko'paydi (7.4.2 - jadval).

Qishloq xo'jaligida suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanishning yo'llaridan biri bu sug'orishning subirrigatsiya usulidan foydalanish hisoblanadi. Ushbu usul orqali sug'orilganda har bir gektar yer uchun suv sarfi 1,2 – 1,5 marta iqtisod qilinadi (7.4.3 - jadval).

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Suv xo'jaligi, suv resurslari, melioratsiya va suv xizmati tushunchalariga izoh bering.
2. Suv resurslarining qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ahamiyati nimalardan iborat?
3. Qishloq xo'jaligi SIUlarni tashkil etishning obyektiv zarurligi nimalardan iborat?
4. Qishloq xo'jaligida sug'orish texnologiyalariga izoh bering.
5. Qishloq xo'jaligida suv islohoti nimalardan iborat?
6. Suv resurslari xizmatidan samarali va oqilona foydalanish yo'llari qanday?

170

YII BOB. QISHLOQ XO'JALIGIDA SELEKSIYA VA NASLCHILIKNI RIVOJLANTIRISH XIZMATI

O'quv maqsadi: qishloq xo'jaligida seleksiya, urug'chilik, naslchilik va veterinariya xizmatini rivojlantirishning ahamiyati bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

8.1. Qishloq xo'jaligida seleksiya va urug'chilikning ahamiyati

Ma'lumki, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning samaradorligi ko'p jihatdan chorvaning mahsuldorligi hamda o'simliklarning potensial hosildorligi bilan bog'liqdir. Shu bois ham chorvaning zotdor va madaniy o'simliklarning

unumdor navlarini yaratish beqiyos ahamiyatga ega bo'lib, ilm-fan va texnologik rivojlanishning ustivor yo'nalishidir.

Ayniqsa, rivojlangan industrial davlatlarda, birinchi navbatda AQSH qishloq xo'jaligida kechayotgan texnologik inqilobning mohiyatini biotexnologiya va informatsion texnologiyalarni fermerlikning chorvachilik va dehqonchilik sohalariiga jalb etib, mahsulot sifatini yaxshilashda ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirishda, yangi hususiyatlarga ega zotdor hayvonlar zoti va navli o'simliklarni yaratishda, shuningdek ishlab chiqarishni nazorat qilishda va fermerlarning ichki boshqaruvida qo'llashda namoyon bo'lmoqda.

Hozirgi zamон qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozoridagi raqobat asosida tovarlarning juda tez sur'atlar bilan yangilanishi yuzaga kelmoqda. Bu esa ishlab chiqaruv-chilardan yangidan-yangi izlanishlar olib borishni va ularning natijalarini zudlik bilan amalga tatbiq etishni taqozo qilmoqda. Masalan, Isroilda urug'chilikka katta e'tibor berilmoqda. «Arava» tadqiqot markazida Isroil pomidor bozori juda xilma-xilligini inobatga olib, har yili qandaydir yangilik – rangi, o'lchami yoki shakli, mazasi ajralib turuvchi nav bilan chiqishga harakat qilar ekanlar.

Bizning respublikamizda oxirgi yillarda seleksiya va urug'chilik masalalariga katta e'tibor berilmoqda.

Don seleksiya va urug'chiligini rivojlantirish borasida ham mamlatimizda ko'p ishlar amalga oshirilmoqda. Natijada don ekinlari hosildorligining o'sishi va mamlakatimizda don mustaqilligiga erishish uchun zamin yaratildi. Respublikamizda bug'doydan yuqori hosil olinishining asosiy omili bu unumli navlarning tanlanishi va texnologik jarayonlarining o'z vaqtida bajarilishidir.

Donchilik kabi respublikamizda paxtachilikning ham ahamiyati beqiyosdir.


O'zbekistonning dunyo paxtachiligidagi yetakchi o'rinalardan birini egallab kelayotgani hamda paxta xomashyosining eksporti davlatimiz valyuta zahirasining muhim manbasi

bo'lganligi va qishloq xo'jaligi ishchilarining ko'p qismi paxtachilikda band ekanligi mazkur sohaning izchil rivojlantirishini taqozo etadi. Shu bois, mamlakatimiz hukumati tomonidan paxtachilik majmuasini hozirgi zamон texnik va texnologik vositalar bilan ta'minlash orqali sohani keskin rivojlantirish yuzasidan uzlusiz chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda.

Mamlakatda g'o'za urug'chiligin rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining Respublika G'o'za urug'chiligi markazi va viloyatlardagi birlashmalar alohida o'rinn tutadi (8.1.1-rasm).

Seleksiya – o'simlikchilikda yangi navlarni yaratish, chorvachilikda yangi zotlarni shakllantirish va yaxshilash usullari to'g'risidagi fandir, shuningdek, seleksiya deb qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi nav va gibridlarini va chorva mollarining yangi zotlarini yaratish bilan shug'ullanuvchi qishloq xo'jaligining bir tarmog'iga aytiladi.

Urug'chilik – bu o'simlikchilik sohasida takror ishlab chiqarish va mahsulotning sifatini yaxshilab borish maqsadida eng sara urug'larni tanlab borish;



8.1.1-rasm. «G'o'za urug'chiligi» birlashmasining tuzilishi

Naslchilik – chorva mollarining mahsuldorligini oshirib borish maqsadida ularning zotini va naslini yaxshilab borish.

O'zbekiston respublikasida:

- urug'chilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari;
- naslchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari va shirkat xo'jaliklari, parrandachilik fermalari;
- urug'chilik, seleksiya va naslchilik ishlarini olib boradigan ITI va ilmiy ishlab chiqarish markazlari.

2010-yil yakunlariga ko'ra respublikamizda barcha toifa-dagi xo'jaliklarda qoramollar umumiyligi bosh soni 9093,7 ming bosh tashkil etib, 582,9 ming boshga yoki 6,8 foizga oshdi. Sigirlar bosh soni 228,0 ming boshga (6,4 foizga), qo'y va echkilar 902,2 ming boshga (6,2 foizga), parrandalari 4707,5 ming boshga (14,3 foizga) oshdi. Shunga ko'ra, go'sht tirik vaznda 1461,4 ming tonna (2009-yilga nisbatan 6,8 foizga ko'p), sut 6169,0 ming tonna (6,7 foizga), tuxum 3058,8 mln. donaga (12,6 foizga), jun 26,5 ming tonna (12,8 foiz) ishlab chiqarildi.

Bundan tashqari:

- respublikada aholi bandligi va daromadini oshirish maqsadida kam ta'minlangan oilalarga 2878 bosh qoramol bepul tarqatildi;
- shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklariga qoramol sotib olish uchun tijorat banklari tomonidan jami 5,5 mlrd. so'm miqdorida mikrokreditlar ajratildi;
- chorva mollarining kuchli ozuqalarga bo'lgan talabini qondirish va shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklari chorva mollariga omuxta yem, paxta shroti va sheluxasini uzlucksiz yetkazib berish maqsadida 1950 ta shoxobcha tashkil etildi.

8.2. Urug'chilik va naslchilikni rivojlantirish muammolari

Chorvachilikni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan muammolar:

- ozuqa ekin maydonlarining chorva mollari bosh soniga mutanosib joylashtirilmaganligi;

- ozuqa ekin maydonlaridan unumli foydalanish va ekinlarning hosildorlik darajasining pastligi;
- yem-xashak o'rim-yig'im texnikalarining yetishmasligi;
- naslchilik ishlarining talab darajasida yo'lga qo'yilmaganligi;
- naslli mol tayyorlab sotish va chetdan naslli mollar keltirishning kamayganligi;
- to'la qamrovli zooveterinariya xizmati ko'rsatilmayotganligi;
- zooveterinariya punktlarining jihozlanish darajasining talabga javob bermasligi;
- kredit resurslari bilan yetarli darajada ta'minlanmaganlik.

2009-yilda respublikada naslchilik xo'jaligi maqomini olgan xo'jalik yurituvchi subyektlar soni jami 633 tani, shundan 344 tasini naslchilik xo'jaliklari tashkil etadi.

Rejaga asosan 37 ta zooveterinariya punktlari tashkil etish rejalashtirilgan bo'lib, haqiqatda 43 ta zooveterinariya punktlari tashkil etildi va ularning soni 2486 taga yetkazildi.

O'tgan hisobot davri davomida 1774,8 mln.so'mlik pullik xizmatlar ko'rsatildi.

Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida yuqori mahsuldor naslli mollarni ko'paytirish maqsadida joriy yilning o'tgan davrida 258,6 ming bosh ona mollar sun'iy urug'lantirildi.

Ona mollarni sun'iy urug'lantirishning afzalligi va mohiyati to'g'risida joylarda veterinariya mutaxassislari tomonidan aholiga to'g'ridan-to'g'ri va ommaviy axborot vositalari orqali tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Chorvachilik tarmog'inining samaradorligini va mamlakat aholisining chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini ta'minlash tizimini yaxshilash borasida sohaga xizmat qiluvchi infratuzilma subyektlari faoliyatini quyidagicha rivojlantirish maqsadga muvofiq:

- nasldor mollarni ko'paytirish chora-tadbirlarini ko'rish, monitoring asosida zotli va mahsuldor sigirlar mavjudligini

o'rganish, ularning saqlanishi bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish, zotli ona sigirlarni saqlab qolish, sigirlar guruhini nasldor g'unajinlar bilan to'ldirish ishlarini tashkil etish, ixtisoslashtirilgan naslchilik fermer xo'jaliklarida nasldor buqalarini yetishtiruvchi sigirlar, naslli buzoqlar o'stirish guruhlarini yaratish va ularda maxsus oziqlantirish ratsionini shakllantirish, sun'iy urug'lantirish punktlarini rivojlantirish hamda respublikaning har bir tumanida tashkil etish, bu punktlarni «Nasl – xizmat» respublika uyushmasiga va uning viloyatlaridagi birlashmalariga biriktirish, ularni maxsus jibozlar, naslchilik materiallari, malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, joylarda nasldor buqalarni tanlab olish va ularning urug'larini muzlatilgan holda yetkazib berish masalasini tashkil etishga e'tiborni qaratish;

– ixtisoslashgan chorvachilik yo'nalishidagi fermer xo'jaliklari yerlarida asosan ozuqa ekinlari yetishtirish, dehqon xo'jaliklari uchun mollar bosh soniga mutanosib ravishda dehqonchilik yo'nalishidagi fermer xo'jaliklarining g'alladan bo'shagan ekin maydonlarida subijara asosida qo'shimcha yerlar ajratish, ozuqabop ekinlarning elita navlarini va urug'larini ta'minlovchi, oraliq duragay ertapishar ozuqabop ekinlar yetishtirish bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaliklarini ixtisoslashtirish va rivojlantirish;

– veterinariya tizimini yaxshilash, malakali veterinar vrachlarni tayyorlash tizimini rivojlantirish, sohani mollardagi kasalliklarni tezlikda aniqlab, davolash imkonini beruvchi zamonaviy tekshiruv va tashxis qo'yish hamda boshqa zarur asboblar bilan ta'minlash, veterinariya tizimi uchun dori-darmon ishlab chiqarishni rivojlantirish, bu sohadagi xorijiy investorlarga investitsiya kiritishlari uchun yengilliklar yaratish tizimini kengaytirish;

– tarmoqqa davlat tomonidan asosiy vositalar bilan ta'minlanishi uchun uzoq muddatli kreditlar berish, yil davomida xo'jaliklarga biznes reja asosida mollar bosh

sonidan kelib chiqqan holda qo'shimcha yem-xashak va konsentrat ozuqa bilan ta'minlashni yaxshilash maqsadida imtiyozli kredit berish tartibini joriy etish, shuningdek, yetishtirilgan mahsulotlarni xarid qiluvchilar va qayta ishlovchi korxonalar bilan f'yuchers shartnomalari tuzish masalasini rivojlantirish va avans pullari berish bo'yicha mexanizmni shakllantirish kerak. Chorva mollarini sug'urtalash tizimini yaxshilash, shu jumladan, naslli chorva mollarini, xorijdan keltirilgan zotli chorva mollarini sug'urtalash bo'yicha maxsus dastur ishlab chiqish, ushbu dasturda sug'urta to'lovini naslchilik tizimiga sarf etish, uni rivojlantirishga yo'naltirish masalasi ko'zda tutilgani holda sug'urta to'lovining bir qismini davlat tomonidan moliyalashtirish nazarda tutilishi lozim;

– chorva mahsuloti yetishtiruvchi dehqon va fermer xo'jaliklari mahsulotini sotish, qayta ishlash va yetkazib berish doirasidagi ixtiyoriy kooperatsiyalariga birlashishlarini qo'llab-quvvatlash hamda ularda marketing tizimini yo'lga qo'yish. Ushbu kooperatsiyalarning bozor infratuzilmasi obyektlari va ulgurji bozorlar bilan o'zaro munosabatlarini yo'lga qo'yish hamda iste'molchilarga vositachilarsiz to'g'ridan-to'g'ri yetkazib berish tizmini rivojlantirish.

8.3. Naslchilikda veterinariya xizmatining ahamiyati

Qishloq joylaridagi chorvachilik bilan shug'ullanuvchi aholi hamda chorvachilik fermer xo'jaliklarida chorva mollari sonini ko'paytirish, naslchilik ishlarini kuchaytirish, zooveterinariya servis xizmatlarini ko'rsatishni kengaytirish uchun sharoitlarni yaxshilash choralari ko'rildi.

Chorvachilik sohasida olib borilgan islohotlar natijasida 2004-yilda qoramollar bosh soni 5 mln. 878,8 ming boshdan 2009-yilda 8 mln. 510,8 ming boshga yoki 144,8 foizga, shundan sigirlar soni mos ravishda 2 mln. 556,7 ming boshdan 3 mln. 535,6 ming boshga yoki 138,3 foizga, qo'y

va echkilar soni 9 mln. 928,6 ming boshdan 14 mln. 438,3 ming boshga yoki 145,4 foizga, parrandalar soni esa 17 mln. 675,7 ming boshdan 33 mln. 25,8 ming boshga yoki 186,8 foizga o'sdi.

Shu davr ichida chorvachilik mahsulotlari, jumladan, go'sht ishlab chiqarish 996,3 ming tonnadan 1 mln. 367,3 ming tonnaga, yoki 137,2 foizga, sut ishlab chiqarish 4 mln. 279,8 ming tonnadan 5 mln. 760,7 ming tonnaga yoki 134,6 foizga, tuxum ishlab chiqarish 1 mlrd. 859,9 mln. donadan 2 mlrd. 715,8 mln. donaga yoki 146 foizga oshdi.

Chorva mollari naslini yaxshilash maqsadida oxirgi besh yil ichida chet davlatlardan 16 ming 771 bosh naslli qoramollar olib kelindi.

Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklari chorva mollariga malakali veterinariya xizmatlarini ko'rsatish maqsadida zooveterinariya punktlari soni 2 ming 443 taga yetkazildi.

Keyingi 5 yilda zoovetpunktlar orqali pullik xizmat ko'rsatish 6 baravarga oshib, 2009-yilning o'zida 6 mlrd. 300 mln. so'mni tashkil etdi.

Shu davr ichida sigir va tanalarni sun'iy urug'lantirish 10 barobarga oshib, 1 mln. boshni tashkil etdi.

1. Zooveterinariya xizmatlari:

- tabiiy va sun'iy urug'lantirish;
- chorva mollarining ozuqa bazasini yaxshilash;
- chorva mollarini joylashtirish va yer maydonlari bilan ta'minlash;
- chorva mollarining epidemik kasalliklariga qarshi kurashish (parranda grippi, sibir yazvasi va hokazo);
- emlash ishlarini olib borish;
- profilaktika ishlarini olib borish (bir joydan boshqa joyga ko'chirganda, yaylovlarga olib chiqqanda tuyoq ostini dorilash);
- chorva mollarining boshqa turli kasalliklariga qarshi kurashish.

2. Chorvachilikda axborot konsalting xizmati:

– ratsion tuzishda (chorva mollar zotiga, turiga, yoshiga, joylashganligiga, og'irligiga qarab);

– chorvachilikda mahsuldarlikni oshirishda;

– chorvachilik mahsulotlarini realizatsiya qilishda;

– bozor kon'yukturasini o'rganish;

– naslchilik va seleksiya ishlari;

4. Chorvachilikda texnik servis xizmatlarini ko'rsatish (muqobil MTP, transport xizmati, SIU).

5. Bank, sug'urta, birja va boshqa bozor infratuzilmasi xizmatlari.

8.3. I-jadval

O'zbekiston, rivojlangan Yevropa mamlakatlari va Rossiyada chorvachilikda mahsuldarlik ko'rsatkichlarining holati

Ko'rsatkichlar	Rivojlangan Yevropa mamlakatlari	Rossiya Federat- siyasi	O'zbekiston
O'rtacha bir sigirdan sog'ib olingan sut miqdori, kg 100 bosh sigirdan olingan buzoqlar soni, bosh O'rtacha bit qo'yidan qirqib olingan jun miqdori, kg	10000-13000 92-96 6-8	7000- 10000 80 – 90 6-8	1500-1800 74-76 1,8-2

Respublika Prezidenti choryachilik sohasidagi muammolar to'g'risida quyidagilarni ta'kidlab o'tdi: «Masalan, chorvachilik sohasini oladigan bo'lsak, bu borada ishga solinmagan katta imkoniyatlar mavjudligini ta'kidlash o'rinnlidir. Taqqoslash uchun quyidagi bir misolni keltiraman: Daniya va Janubiy Koreyada sut sog'ib olish bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 8-9,5 ming kilogrammni, Vengriya, Germaniya, Gollandiyada esa 6-7 ming kilogrammni tashkil

qilayotgan bir paytda, bizda keyingi besh yilda bu raqam 1,7 ming kilogramm darajasida saqlanib qolmoqda».⁴⁸

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish, asosan, chorva mollarining naslini yaxshilash hisobiga, mahsuldorligini oshirish yo'li bilan amalga oshiriladi (8.3.1-jadval).

Buning uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirishga alohida e'tibor beriladi:

- chorvachilik tarmog'inining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;
- naslchilikni tubdan yaxshilash va modernizatsiya qilish;
- xo'jaliklarga zooveterinariya xizmatlari ko'rsatish tizimini rivojlantirish;
- tarmoqda servis xizmatlari ko'rsatish sifati va assortimentini oshirish;
- chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirish, qayta jihozlash va modernizatsiya qilish, sohaga investitsiyalarini jalg etishni rag'batlantirish;
- chorva mollarini yuqumli kasalliklarga qarshi emlash va kasalliklarga qarshi kurashda davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash;
- ayniqsa parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik va pillachilik sohalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish;
- yem-xashak bazasini mustahkamlash va sifatini yaxshilash;
- ozuqa ekinlarini joylashtirishning maqbul darajalariga erishish, bunda lalmi yerlardan chorva ozuqasi yetishtirish uchun foydalanishni kengaytirish lozim.

⁴⁸ I.A.Karimov Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'naliishlarga bag'ishlangan O'zR Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza, 2011-yil 21-yanv.J-T.: O'zbekiston, 2011. 27-b.

Chorvachilik sohasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari		
1-yo'nalish	2-yo'nalish	3-yo'nalish
Xo'jaliklarga markazlari bo'lish uchun mikrokreditlar ajratish	Chetda nasili mollarni kechirish chorva mahsul-dorligi haquqiy xizmat tashkilotlari	Mavjud ozuqa ekinlari maydonidan unurla foydalanish, ekinlar hissildorligini oshirish
Turli tashkilotlar qoshida chorvachilik yordamchi xo'jaliklarini tashkil etish	Zooveterinariya punktlari sonini ko'paytirish	Chorva ozuqa mahsulotlarini mazsus shoxobchalar orqali aholi va fermer xo'jaliklariga yetkazib berish

8.3.1-rasm. Chorvachilik sohasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari

Hozirgi kunda mamlakatimizda chorvachilik sohasini rivojlantirish asosan uch yo'nalishda amalga oshirilmoqda (8.3.2-rasm).

Ushbu ishlarni amalga oshirish natijasida:

- Respublikada qoramollar soni oxirgi 5-yilda 2,6 mln. boshga yoki 145 foiz ko'payib, 8,5 mln. boshga etdi. Shu jumladan, shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida 2,2 mln. boshga (138 foiz), fermer xo'jaliklarida 200 ming boshga (162 foiz) oshdi;
- zooveterinariya servis xizmatlarini kengaytirish maqsadida 791 ta punktlar tashkil etilib, ularning soni 2443 taga yetkazildi. Shu yillar davomida pullik xizmat ko'rsatish darajasi 6 barobarga oshdi;
- aholi qaramog'idagi chorva mollarini ko'paytirish va bandligini oshirish maqsadida qoramollar sotib olish uchun oxirgi 4-yilda 125,6 mlrd. so'm miqdorida mikrokreditlar ajratildi;
- parrandachilik fermer xo'jaliklari soni oxirgi uch yilda 370 taga oshib, 677 taga yetkazildi. Ushbu maqsadlarda birgina 2009-yilning o'zida 18 mlrd. so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi.

Bunday keng ko'lamdag'i ishlar natijasida aholining qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji tobora to'laroq qondirib borilmoqda.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Seleksiya, urug'chilik, naslchilik, veterinariya xizmatlari deganda nimani tushunasiz?
2. Qishloq xo'jaligida seleksiya va urug'chilik xizmatining ahamiyati va o'rni nimalardan iborat?
3. Qishloq xo'jaligida naslchilik xizmatini rivojlantirish yo'llari nimalardan iborat?
4. Naslchilikda veterinariya xizmatining ahamiyati nimadan iborat?
5. Seleksiya va naslchilik xizmatini rivojlantirishda nimalarga e'tibor berish kerak?

IX BOB. QISHLOQ XO'JALIGIDA KIMYO XIZMATINI TASHKIL ETISH

O'quv maqsadi: qishloq xo'jaligida kimyo xizmatini tashkil etish, uning o'ziga xos hususiyatlari va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rgatishdan iborat.

9.1. Qishloq xo'jaligida kimyo xizmatini tashkil etish va rivojlantirishning o'ziga xos hususiyatlari

Hukumatimiz xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga katta e'tibor bermoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 1-fevraldag'i 63-sonli «Qishloq xo'jaligida agrokimyoviy xizmat ko'rsatishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qaroriga asosan «O'zqishloqxo'jalikkimyo» davlat aksiyadorlik kompaniyasiga qarashli viloyat boshqarmalari tarkibida 452 dan ortiq mineral o'g'itlar bilan savdo qiluvchi do'konlar tashkil etildi (9.1.1-rasm). Rejali iqtisodiyot davrida qishloq xo'jaligini kimyolashtirish bo'limlari yirik xo'jaliklar tarkibida tuzilgan va kimyolashtirish xizmatlari ichki xo'jalik tizimi asosida amalga oshirilgan. Agrokimyoservis korxonalari esa «ta'minotchi» sifatida faoliyat ko'rsatgan. Endilikda agrokimyoservis xizmatlaridan foydalanish turli

mulkchilikka asoslangan xo'jalik shakllari talabidan kelib chiqqan holda quyidagicha ta'riflanadi.

Agrokimyoservis xizmati – qishloq xo'jaligi korxonalariga shartnoma asosida organik va mineral o'g'itlar, biologik va kimyoviy vositalarni yetkazib berish, qo'llash, ishlov berish, sepish, shuningdek, mineral o'g'itlarni agrokimyo kartogrammalari asosida solish va kimyoviy vositalarni qo'llash bo'yicha ilmiy asoslangan maslahatlar berish, ekinlar hosildorligi va tuproq unumdarligini oshirishga qaratilgan turli tadbirlarni o'z ichiga olgan barcha agrokimyoviy xizmatlar majmuidir.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, viloyatlarda agrokimyoservis talab darajasida emas:

- kimyoviy vositalar va mineral o'g'itlarning baholari tez sur'atlar bilan oshib bormoqda;
- «O'zqishloqxo'jalikkimyo» davlat aksiyadorlik kompaniyasi tizimidagi kimyoviy vosita va mineral o'g'it saqlash omborlarining holati talab darajasida emas;
- kimyoviy vositalar va mineral o'g'itlarni tashish va saqlashda foydalaniladigan texnika vositalarining aksariyatining xizmat muddatlari tugagan.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun raqobat muhitini yaratish lozim. Chunki, «O'zqishloqxo'jalikkimyo» davlat aksiyadorlik kompaniyasiga teng keladigan nodavlat tashkilotlarning yo'qligi sababli, ular monopol korxonaga aylanib qolmoqda. Monopoliyaga barham bermasdan turib, fermer xo'jaliklariga agrokimyoservis ko'rsatish tizimini bozor talablariga moslashtirish mumkin emas.

Shu bilan birga, yoqilg'i-moylash materiallarini sotish shoxobchalarida ham ushbu muammolar mavjud bo'lib, ularning soni 173 tani tashkil etadi. Umuman olganda, YOMM va mineral o'g'it bilan fermerlarni ta'minlashda monopol holatni bartaraf etish uchun tumanlarda birjalarni tashkil etish va fermerlarning aynan shu birjalar orqali savdo qilishini yo'lga qo'yish lozim.

Respublikamiz bo'yicha 4,3 mln. hektar yer maydonlaridan 3313,6 ming hektar suvli maydonlarda, shu jumladan 1362,5 ming hektar paxta, 1083 ming hektar boshoqli don ekinlari va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda dehqonchilik qilinadi. Bu maydonlarning hosildorligi ko'p jihatdan ularni mineral o'g'itlar bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq (9.1.1 - jadval).

9.1.1-jadval

Azotli o'g'itlar me'yoring kuzgi bug'doy navlari hosildorligiga ta'siri

Mineral o'g'itlar me'yori			Azotli o'g'itlarni qo'llash muddati, yillik me'yori foiz				Navlar hosildorligi, s.ga hisobida		
N	P	K	kuzda	Ertabahorda	Naychalash fazasida	Boshoqlash fazasida	Kroshka	Polovchanka	Chiflaki
0	90	60	15	25	45	15	28,9	27,7	30,0
100	90	60	15	25	45	15	54,5	52,2	48,6
120	90	60	15	25	45	15	60,1	56,0	52,5
150	90	60	15	25	45	15	65,4	60,3	58,6
180	90	60	15	25	45	15	70,4	65,4	60,5
210	90	60	15	25	45	15	76,1	67,5	62,4


Bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish sharoitida qishloq xo'jaligi korxonalarini rivojlantirishda intensivlashtirish omillaridan foydalanishda yangicha yondashish talab etilib, seleksiya va urug'chilik, kompleks mexanizatsiyalash, melioratsiyalash va kimyo lashtirish tizimlarini takomillashtirish, shuningdek, ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarini erishilgan darajasini hisobga olib, inson omilini faollashtirish agrar ishlab chiqarishning rivojlanishini barcha bosqichlarini intensivlashtirishning asosiy yo'nalishlari bo'lib qolmoqda.

Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishda, birinchidan, mahsulot birligini ishlab chiqarishda pul-material va mehnat sarfini minimallashtirish bo'yicha har bir-birlik tabiiy va moddiy resurslar hisobiga ko'proq mahsulot olish; ikkinchidan, kimyolashtirish va mexanizatsiyalashtirish asosida mehnat unumdarligini oshirish asosiy pirovard maqsad hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishda mexanizatsiyalash, elektrlashtirish, melioratsiyalash va boshqa bir qator omillar kabi kimyolashtirish ham o'simlikka bevosita va bilvosita ta'sir etib, ishlov berish usullari va agroteknik takomillashtirish bilan birga, tuproqning iqtisodiy unumdarlik darajasini oshirib borish, mehnat sarflarini kamaytirishga, sarflangan resurs hisobiga olinadigan mahsulot miqdorini ko'paytirishga olib keladi. Mineral o'g'itlarni asoslangan tarzda qo'llash natijasida qo'shimcha hosil olinsa, pestitsidlar yordamida o'simliklarni zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilish natijasida hosil saqlanadi va sifati yaxshilanadi.

O'simlikchilik tarmog'ida har xil turdag'i kimyoviy vositalarni qo'llash tobora kengayib bormoqda. Bugungi kunda tuproq unumdarligini ta'minlovchi ko'p miqdordagi mineral o'g'itlar, qishloq xo'jaligi ekinlari zararkunandalar, kasallik va begona o'tlarga qarshi kurashda qo'llaniluvchi turli xil o'simliklarni himoya qilish vositalari insektitsidlar, fungitsidlar, gerbitsidlar, ekinlar hosildorligini oshiruvchi va o'simlik o'sishini tezlashtiruvchi transfitlar, jumladan hosilni yig'ib olishdan oldin barglarni to'kish uchun defoliantlar va o'simliklarni quritish uchun desikantlar, tuproq tarkibini yaxshilovchi va uning meliorativ holati yaxshilanishini ta'minlovchi ko'plab vositalardan qishloq xo'jaligida keng foydalanilmoqda.

Lekin qishloq xo'jaligini kimyolashtirish o'ta murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki, mineral o'g'it va kimyoviy vositalarni qo'llash tashqi muhit va insonga nafaqat ijobjiy, balki salbiy ta'sir etishi ham mumkin. Mineral o'g'it va



9.1.1-rasm. Viloyat «Qishloqxo'jalikkimyo» HAJ Nishon tuman filialiga qarashli mineral o'g'itlar tarqatish shoxobchalarining sxemasi

kimyoviy vositalardan noto'g'ri foydalanish katta ekologik xavfni yuzaga keltiradi. Xususan, mineral o'g'it va pestitsidlari qoldiqlari, og'ir metallarning o'simlik va hayvonlar to'qimalarida belgilangan me'yoridan ortishi inson organizmiga hamda atrof-muhitga katta ziyon etkazishi mumkin. Hozirgi kunda kimyoviy vositalar, ayniqsa, pestitsidlarni qo'llash qat'iy nazorat ostida bo'lib, ularning salomatlik uchun xavfli bo'lgan shakllarini qo'llashdan voz kechilmoqda va ayrim o'ta zaharli preparatlar zararsiz turlariga almashtirilmogda. Biroq jahon amaliyotining ko'rsatishicha, qishloq xo'jaligida kimyoviy vositalarni qo'llashdan to'lafigicha voz kechib bo'lmaydi, chunki u yoki bu turdag'i zararkunanda, kasallik va begona o'tlarni muntazam ravishda paydo bo'lishi hisobiga kimyolashtirishning zarurligi doimo saqlanib qoladi.

Qishloq xo'jaligini kimyolashtirish muammosining kompleksligi fan va qishloq xo'jaligi-kimyo sanoati o'rtasida uzlucksiz, keng aloqadorlikni hamda yuqori yakuniy natijalarga erishishda ularning imkoniyat va manfaatlarini uyg'unlashuvini talab etadi. Bu esa hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligi mahsulotli ishlab chiqaruvchilarini o'rtasida sog'lom raqobat muhitining yaratilishi bilan bevosita bog'liq. Ekologik toza mahsulotga bo'lgan talabning oshishi mineral o'g'it va pestitsidlardan foydalanish borasida yangi, o'ziga xos talablarni qo'yadi. Bir tomondan, kimyo sanoatining mahsulotlari, qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarishning intensivligini ta'minlasa, ikkinchidan inson faoliyati va sog'ligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi tabiatni (er, suv va havo) ifoslantiruvchi omil hisoblanadi. Shu bois, bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligini kimyolashtirishni rivojlantirish ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy, texnologik, ekologik va boshqa kompleks muammolarni bozor talablari asosida hal qilish bilan bog'liq. Ya'ni, kimyolashtirish korxonalari va xo'jalik yuritish shakllari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar xo'jalik faoliyatidan foyda olish maqsadlariga mos keluvchi, mutlaqo

yangi yondashuvni talab qiladi. Bu esa ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarga mineral o'g'it va kimyoviy vositalarni arzon, sifatli va o'z vaqtida yetkazib berish bilan bog'liqdir.

Agrokimyoservis xizmati ko'rsatish qishloq xo'jaligini kompleks kimyolashtirish orqali ishlab chiqarish jarayonini intensivlashtirishning tashkiliy shakli hisoblanadi. Agrokimyoservis xizmatining faolligi hisobiga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirishning muhim omillaridan biri bo'lgan tuproqning tabiiy unumidorligi iqtisodiy unumidorlikka o'zgaradi. Bu jarayonga ko'plab omillar turlicha ta'sir ko'rsatadi, kimyolashtirish ular orasida asosiy omil hisoblanadi.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligida agrokimyoservis xizmatini rivojlantirish, qayta tashkil etish va takomillashtirishning obyektiv zaruriyati quyidagilardan iborat:

- ko'p ukladli iqtisodiyot sharoitida ilgarigi yirik xo'jaliklar o'mida mayda va o'rta tovar ishlab chiqaruvchi dehqon va fermer xo'jaliklarining ortishi hamda ular ixtiyoridagi yer maydonlari o'rtacha hajmining nisbatan kichikligi;

- ilgarigi yirik qishloq xo'jaligi korxonalarini kimyolashtirish ishlarini bajaruvchi texnika vositalariga ega bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda kichik hajmdagi xo'jalik shakllari bunday turdagagi texnika vositalarini sotib olish imkoniyatiga ega emasligi;

- yirik hajmdagi qishloq xo'jaligi korxonalarida ichki agrokimyo punktlari tashkil etilgan va agrokimyo tadbirlarni o'zları amalga oshirgan, moddiy-texnika resurslarini bevosita davlat tomonidan fond orqali ta'minlangan bo'lsa, mayda xo'jalik subyektlarining vujudga kelishi sharoitida mineral o'g'it va kimyoviy vositalarni o'z mablag'lari hisobiga sotib olishligi;

- agrokimyoservis korxonalarini asosan yirik xo'jaliklarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashganligi va kichik hajmdagi xo'jalik shakllarining imkoniyatlari hisobga olinmaganligi;

– turli mulkchilik va xo‘jalik shaklarining ko‘payishi sharoitida bir qator yangi -agrokimyoservis xizmatlariga bo‘lgan talabning ortib borishi;

Agrar sohada yangi xo‘jalik shakllarining vujudga kelishi sharoitida mineral o‘g‘it va kimyoviy vositalardan samarali foydalanish -agrokimyoservis xizmatini tashkil etish, xizmat ko‘rsatish sifatining darajasi bilan belgilanadi. Bu esa agrokimyoservis xizmatini doimiy ravishda takomillash-tirishni talab etadi.

9.2. Kimyo xizmatini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar

Agrokimyoservis xizmatini rivojlantirishga bir qator tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy, tabiiy-ekologik va boshqa omillar ta’sir etadi. Sohani rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish belgilangan tadbirlarni amalga oshirishda ushbu omillarning qay darajada ta’sir etishini aniqlashga imkon beradi (9.2.1-rasm).

Tashkiliy omillar -agrokimyoservis xizmatini tarkibiy o‘zgarishlariga olib keladi va sohani bozor talablari asosida rivojlantirish hamda bozor munosabatlarining shakllanishiga yordam beradi.

Agrokimyoservis xizmatini rivojlantirishning tashkiliy omillariga quyidagilar ta’sir etadi:

– xo‘jaliklarga yaqin bo‘lgan joylarga turli mulkchilik va ixtisoslashuvdagi -agrokimyoservis xizmati ko‘rsatuvchi punktlarni tashkil etish;


– agrokimyo kartogrammalari asosida tuproq unumdarligini belgilashni keng tatbiq qilish;

– mineral o‘g‘it, kimyoviy va biologik vositalarni talabini aniqlash;

– agrokimyoservis korxonalari va xo‘jaliklar orasidagi masofa;

– qishloq xo‘jaligi korxonalarini hududiy ixtisoslashuvi;

– agrokimyoservis xizmati ko‘rsatishda xorijiy va mamlakatimiz ilg‘or tajribalarini joriy qilish;



9.2.1-rasm. Agrokimyooservis xizmatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar tasnifi.

– xizmat ko'rsatish korxonalarida ishlovchilarning ma'lakasi, saviyasi va professional tayyorgarligi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida agrar sohada mulkchilik va xo'jalik yuritishning turli shakllari vujudga kelishi va maydalashuvi sharoitida tashkiliy omillar -agrokimyoservis xizmatining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy omillar ham agrokimyoservis xizmatini rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu ko'proq mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatning o'zgarishi bilan bog'liq. Mamlakatda narx-navoning o'zgarishi xizmat baholarining o'zgarishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Moddiy-texnika vositalari narxlarining o'sishi, shuningdek, qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlari narxlari o'rtasidagi nomutanosiblik, agrokimyoservis xizmatidan foydalanuvchilarning moliyaviy holatining yomonlashishi tomonlar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy munosabatlarga va xizmat turlaridan keng foydalanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida agrokimyoservis xizmatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillar quyidagilardan iborat:

- agrokimyoservis xizmati ko'rsatuvchilarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashda lizing tizimini rivojlantirish;
- mineral o'g'it va kimyoviy vositalar qiymatining bir qismini davlat tomonidan kompensatsiya qilish;
- keng tarqalgan zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurashishda davlat ko'magi;
- qisqa va uzoq muddatli imtiyozli kreditlar ajratishni joriy qilish;
- soliqqa tortish imtiyozlarini yaratish;
- sug'urta mexanizmini rivojlantirish va undan keng foydalanish.

Huquqiy omillar agrokimyoservis xizmatini rivojlantirishning huquqiy bazasini yaratishda xizmat ko'rsatish tizimini tashkil etish va faoliyat yuritishini tartibga soluvchi qonun va qonun osti hujjatlarining qabul qilinishi hamda ijrosi

muhim ahamiyat kasb etadi. Bular quyidagilarni tashkil etadi:

- agrokimyoservis xizmatini tashkil etish va faoliyat yuritishni tartibga soluvchi qonun va qonun osti hujjatlarining qabul qilinishi va ijrosi;
- mineral o‘g‘it va kimyoviy vositalardan oqilona foydalanishning me’yoriy chora-tadbirlarini ishlab chiqish;
- agrokimyoservis xizmatini rivojlantirishning me’yoriy-huquqiy dasturlarini ishlab chiqish;
- agrokimyoservis xizmatining kafolatliligi;
- shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish;
- fyuchers bitimlarini tuzish amaliyotini joriy etish.

Tabiiy-ekologik omillar agrokimyoservis xizmatini rivojlantirishda o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Mineral o‘g‘it va kimyoviy vositalardan foydalanishda atrof-muhit ekologik muvozanatining buzilishi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifatining yomonlashishi, inson organizmining zararlanishi, tuproq tarkibining buzilishi va boshqa salbiy oqibatlarni oldini olishda muhim o‘rin tutadi. Mineral o‘g‘it va kimyoviy vositalardan foydalanish natijasida ekologik xavfsiz mahsulot ishlab chiqarish mumkin emas, bunda ma’lum miqdorda mahsulot sifatining pasayishi va atrof-muhit ifloslanishi sodir bo‘ladi.

Agrokimyoservis xizmatining rivojlanishiga quyidagi tabiiy-ekologik omillar ta’sir etadi:

- hududiy tabiiy-iqlim shart-sharoitlari;
- tuproq unumdarligini saqlash va oshirish;
- zararli pestitsidlarni qo‘llashni qisqartirish va ular o‘rniga biologik vositalardan foydalanish;
- ekologik zararsiz texnologiyalarni joriy qilish;
- ekologik muvozanatni saqlash va uning monitoringini olib borish;
- ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishga o‘tish.

Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalar hamda olib borilgan tadqiqot natijalariga asoslangan holda qishloq xo‘jaligida turli mulkchilik va xo‘jalik shakilarini vujudga

kelishi sharoitida agrokimyoservis xizmatini rivojlantirish bo'yicha quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- agrokimyoservis xizmati ko'rsatish tizimi tashkiliy tuzilmalarini bozor qonunlari talabi asosida takomillash-tirish, qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllari imkoniyatlariga mos holda agrokimyoservis xizmati ko'rsatuvchilar faoliyatini moslashtirish;
- qishloq xo'jalik korxonalariga yaqin bo'lgan joylarda turli xildagi agrokimyoservis xizmati ko'rsatuvchi punktlarni tashkil etish, ular orqali biologik va kimyoviy vositalarni, organik va mineral o'g'itlarni dalagacha yetkazib berish, ishlov berish, solish va shu kabi agrokimyoviy tadbirlarini o'z vaqtida, sifatli qilib bajarish, shuningdek, kimyoviy vositalarni ilmiy asoslangan me'yorlar, agrokimyo kartogrammalar asosida qo'llashni hamda tuproq unumdorligini oshirish va ekologik muvozanatni saqlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;
- agrokimyoservis xizmatini rivojlantirish va qishloq xo'jaligi korxonalarini mahsulot tannarxi tarkibidagi kimyoviy vositalar xarajatlarini kamaytirish maqsadida ayrim kamyob, qimmatbaho kimyoviy vosita va mineral o'g'itlar bahosining bir qismini davlat tomonidan kompensatsiya qilish;
- agrokimyoservis korxonalarini moddiy-texnika bazasi hozirgi kun talabiga to'liq javob bermaydi va asosiy texnika vositalari xizmat muddatlarini o'tab bo'lgan, shuning uchun texnika vositalarini eskilarini o'rniga yangilarini to'ldirishda davlat ko'magi, lizing tizimini rivojlantirish, ilg'or texnika va texnologiyalarni joriy qilish moddiy-texnika bazasini mustahkamlashda imkoniyatlar yaratadi;
- agrokimyoservis korxonalari doirasi raqobat muhitini shakllantirish maqsadida hozirda faoliyat ko'rsatayotgan agrokimyoservis korxonalariga teng kuchga ega bo'lgan kimyo zavodlarining muqobil shakldagi dilerlik shoxobchalarini tashkil etish lozim;

– agrokimyoservis korxonalarini ko'rsatgan xizmatlari uchun javobgarlik tamoyillariga asoslangan holda kafolatlar berishi maqsadga muvofiq.

Qishloq xo'jaligida ekinlar hosildorligini ko'tarish, tuproq unumdarligini saqlash va oshirish hamda ekologik toza mahsulot ishlab chiqarish jarayoni bevosita agrokimyoservis xizmati ko'rsatish bilan bog'liq ekan, ushbu sohani mahsulot yetishtiruvchilar talabiga mos ravishda tashkil etish agrar sohaning barqaror rivojlanishida muhim omil bo'ladi.

9.3. Qishloq xo'jaligida mineral o'g'itlardan foydalanishni optimallashtirish va uni yetkazib berish tizimini takomillashtirish

Faoliyat yuritayotgan qishloq xo'jaligi korxonalarining intensiv rivojlanishi ko'p jihatdan ularga zaruriy bo'lgan xizmatlarning nechog'li samarali ko'rsatilishiga bog'liqdir. Hozirgi kunda istiqbolli deb tan olingan xo'jalik yuritishning uch shaklining barqaror rivojlanishi va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirishda servis xizmati ko'rsatish sohalarini ham tubdan qayta qurish va bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida rivojlantirish zaruriyati tug'ildi. Shuning uchun servis xizmati ko'rsatish sohalarini samarali tashkil etmasdan turib, turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllarida faoliyat yurituvchi qishloq xo'jaligi korxonalarini jadal sur'atlar bilan rivojlantirish mumkin emas.

Qishloq xo'jaligini isloh qilish natijasida surunkali zarar ko'rib ishlayotgan va past rentabelli shirkat xo'jaliklarini fermer xo'jaliklariga aylantirishning me'yoriy-huquqiy bazasini mustahkamlash, ularning xo'jalik faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirish hamda qayta tashkil etilayotgan shirkat xo'jaliklari hududida bozor va ishlab chiqarish infratuzilmalarini barpo etish zaruriyatini keltirib chiqardi.

Qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini ta'minlovchi omillarning salmog'i Amerika olimlarining baholashicha

quyidagicha: yetishtirilgan hosilning 41 foizi mineral o'g'it hisobiga, 15 foizi qulay ob-havo sharoiti hisobiga, 13-20 foizi gerbitsidlar (begona o'tlarni yo'qotish) hisobiga, 8 foizi gibrild urug'i hisobiga, 5 foizi irrigatsiya-melioratsiya hisobiga, 11-18 foizi boshqa qolgan omillar hisobiga to'g'ri keladi. Nemis olimlari qishloq xo'jaligi ekinlaridan olinadigan hosilning yarmi, fransuz olimlari esa 50-70 foizi o'g'itlar qo'llash hisobiga olinadi, deb hisoblaydilar.

Qishloq xo'jaligi infratuzilma obyektlarini rivojlantirish va optimal joylashtirishda fermer xo'jaliklarining ixtisoslashuvi, bir hektar yerga sarflanadigan ishlab chiqarish vositalarining me'yorlari va ular o'rtasidagi masofani e'tiborga olish zarur.

Nishon tumanidagi «Samarqand» fermerlar uyushmasida bitta 1500 tonnalik ombor sig'imiga ega bo'lgan mineral o'g'it yetkazib beruvchi shoxobcha bo'lib, 3664 hektar ekin maydoniga ega bo'lgan 164 ta fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatadi. Ushbu shoxobchadan sharqqa qarab jami 45 ta fermer xo'jaliklari joylashgan bo'lib, eng yaqini 2 km, eng uzog'i 13 km, g'arbda 35 ta fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning eng yaqini 1,5 km, eng uzog'i 6 km, shimolda mos ravishda 26 ta, 1 km va 12 km hamda janubda 58 ta, 3 km va 20 km masofada joylashgan. Ushbu shoxobchadan, mineral o'g'itlarni fermer xo'jaliklariga bir yilda o'rtacha 11961 tonna km masofa orqali yetkazib beriladi.

Fermer xo'jaliklarining ixtisoslashuvini, bir hektar yerga sarflanadigan mineral o'g'it me'yorini inobatga olgan holda, transaksion xarajatlarni kamaytirish, fermer xo'jaliklari uchun qulay bo'lishi va raqobat muhitini shakllantirib borish maqsadida qo'shimcha ravishda yana to'rtta mineral o'g'it tashish shoxobchasini tashkil etish tavsiya etildi. Bunda birinchi shoxobcha mavjud shoxobchadan janub tarafga 10 km uzoqlashgan bo'lib, 268 tonna ombor sig'imiga ega bo'lishi, g'arbda mos ravishda 3 km, 122 tonna, sharqda mos ravishda 6,5 km uzoqlikda 202 tonna hamda mavjud

shoxobchā o'rnida 500 tonna sig'imiga ega bo'lgan shoxobchalar joylashtiriladi. Transport masalasining ochiq modelining potensiallar usuli yordamida hisoblarni amalga oshirish natijasida bir yilda o'rtacha 7044 tonna km masofa orqali mineral o'g'itlarni fermer xo'jaliklariga yetkazish imkonini beradi.

Shu orqali mineral o'g'it yetkazib beruvchi shoxobchalarning optimal joylashish masofasi aniqlanadi.


Qishloq xo'jaligida mineral o'g'itlarni yetkazib berish tizimini takomillashtirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish muhim vazifalardan hisoblanadi:

- agrokimyo xizmati ko'rsatish tizimining tashkiliy tuzilmalarini bozor qonunlari talablari asosida takomillashtirish, qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllari imkoniyatlariga mos holda agrokimyo xizmat ko'rsatuvchilar faoliyatini moslashtirish;

- qishloq xo'jaligi korxonalariga yaqin bo'lgan joylarda turli xildagi xizmatlar ko'rsatuvchi (mineral va organik o'g'itlar solish, kimyoviy va biologik ishlov berish) agrokimyo shoxobchalarini tashkil etish, ular orqali agrokimyoviy tadbirlarni o'z vaqtida sifatli qilib bajarish uchun qator qulayliklar yaratish, shuningdek, kimyoviy vositalarni ilmiy asoslangan me'yorlar, agrokimyo kartogrammalar asosida qo'llashni hamda tuproq unumdorligini oshirish va ekologik muvozanatni saqlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;

- agrokimyo xizmatini rivojlantirish va qishloq xo'jaligi korxonalarini mahsulot tannnarxi tarkibidagi kimyoviy vositalar xarajatlarini kamaytirish maqsadida ayrim kamyob, qimmataho kimyoviy vosita va mineral o'g'itlar bahosining bir qismini davlat tomonidan moliyalashtirish;

- agrokimyo korxonalarini moddiy-texnika bazasi hozirgi kun talabiga to'liq javob bermaydi va asosiy texnika vositalari xizmat muddatlarini o'tab bo'lgan, shuning uchun eskirgan texnika vositalari o'rniga yangilarini to'ldirishda



9.3.1-rasm. Qishloq xo'jaligi korxonalarini mineral o'g'it va agrokimyoviy vositalar bilan ta'mintashning takomillashtirilgan sxemasi

davlat ko'magi, lizing tizimini rivojlantirish, ilg'or texnika va texnologiyalarni joriy qilish ular moddiy-texnika bazasini mustahkamlashda muayyan imkoniyatlar yaratadi;

– agrokimyo korxonalar doirasida raqobat muhitini shakllantirish maqsadida hozirda faoliyat ko'rsatayotgan agrokimyo korxonalariga teng kuchga ega bo'lgan kimyo zavodlarining muqobil shakldagi dilerlik shoxobchalarini tashkil etish;

– agrokimyo korxonalar ko'rsatgan xizmatlari uchun javobgarlik tamoyillariga asoslangan holda kafolatlar berish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, «O'zqishloqxo'jalikkimyo» DAK qishloq xo'jaligida mineral o'g'it yetkazib berishdagi faoliyatini davlat ehtiyojlari uchun yetishtiriladigan mahsulotlar doirasida cheklash lozim va umuman mineral o'g'it, boshqa agrokimyo vositalarini yetkazib berishni quyidagicha tashkil etish maqsadga muvofiq (9.3.1-rasm).

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Qishloq xo'jaligida kimyo xizmatini tashkil etish qanday amalga oshiriladi?
2. Qishloq xo'jaligida kimyo xizmatini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

3. Qishloq xo'jaligida mineral o'g'itlar sotish shoxobchalarini tashkil etish va ularni optimal joylashtirishda nimalarga e'tibor berish kerak?
4. Qishloq xo'jaligida kimyo xizmatini rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar nimalardan iborat?
5. Agrokimyo xizmatida iqtisodiy-ekologik muammolar nimalardan iborat?

**X BOB. ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASIDA
TAYYORLOV TIZIMI VA UNING TASHKILIY-IQTISODIY
ASOSLARI**

O'quv maqsadi: tayyorlov tizimini infratuzilma tarmog'i sifatida shakllanishini va uning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini o'rgatishdan iborat.

10.1. Tayyorlov tizimini takomillashtirishning obyektiv shart-sharoitlari va uning infratuzilma tarmog'i sifatida shakllanishi

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar nafaqat mahsulot ishlab chiqarishga asoslangan faoliyatni olib borishlari, balki uni qayta ishlash, saqlash va sotish bilan shug'ullanishlari lozim. Moddiy ishlab chiqarish jarayoni faqat unumdar (ishlab chiqaruvchi) mehnatning amal qilishi emas. Bizning holatimizda mahsulotni sotish bo'yicha qilingan mehnat kabi unumsiz (noishlab chiqaruvchi) mehnat ham uning tarkibiy qismi hisoblanadi. Mehnatning bu ikki ko'rinishi o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud. Unumli (ishlab chiqaruvchi) mehnat bilan band bo'lgan shaxslarning unumsiz (noishlab chiqaruvchi) vazifalari qancha kam bo'lsa, mehnat shunchalik unumdar bo'ladi. Shu jihatdan qishloq xo'jaligida sotish bo'yicha asosiy bo'lmasligi ikkilamchi vazifalarni unumdar mehnatdan ajratish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim sharti bo'lib qoladi. Mahsulotni sotish

bo'yicha mehnat esa takror ishlab chiqarishning boshqa ishtirokchilarining vazifasi bo'lishi kerak.

Zamonaviy sharoitlarda shu narsa alohida ma'lum bo'lmoqdaki, qishloq xo'jaligi korxonasining bir vaqtning o'zida ham ishlab chiqarish, ham sotish bilan shug'ullanishi endilikda asoslangan hisoblanadi. Fan-texnika taraqqiyoti sharoitida ishlab chiqarishning oqilona tashkil etilishi va boshqarilishi vazifalari tobora qiyinlashmoqda. Zamonaviy ishlab chiqarish intensivlashtirish va konsentratsiyalash asosida rivojlanmoqda. Bu jarayonlarning o'zi juda murakkab va maxsus e'tibor va sa'y-harakatlar talab qiladi.

Qishloq xo'jaligining u yoki bu sohasidagi rahbar va mutaxassis bevosita ishlab chiqarishni tashkil etish, uni boshqarish bo'yicha tobora ko'proq hajmdagi ishlarni bajarishi lozim. Agar bunda bir vaqtning o'zida ishlab chiqarish va sotish masalalarini hal qilishga to'g'ri kelsa, ko'pincha rahbar qay birini afzal ko'rishi kerak, degan savolga (tanlovga) duch keladi. Chunki aynan shu yerda ishlab chiqariб bo'lingan mahsulotning buzilishi va nobud bo'lishi ro'y beradi va bu bosqichda u (sotish) murakkabroq (qiyinroq, chigalroq) bo'ladi. Bu esa ishlab chiqarishning ko'p tomonlari boy berilishiga olib keladi. Qishloq xo'jaligidan tarmoqlarning ajralib chiqishi uning rivojanish darajasi bilan doim mos holda ro'y bergen. Qishloq xo'jaligi o'z rivojida yangi pog'onaga ko'tarilishi bilanoq, avval u uchun majburiy hisoblanmagan ba'zi vazifalar bilan shug'ullanish qiyin bo'lib bordi.

Bu sohaning rivojidagi yangi bosqich unga avval xos bo'lgan ba'zi vazifalar, bizning holda mahsulot sotishning ajralib chiqishi haqidagi masalani yana ko'tardi. Shu narsa kutiladiki, ta'minot va sotish xizmatlarini mustaqil bo'limlarga ajratish, ishlab chiqarish omillarini boshqarish foydasiga qishloq xo'jaligini boshqarish usulini tubdan o'zgartiradi.

Bunday tizimda ixtisoslashgan texnologik va funksional xizmatlar yaratiladi. Agronomik, zootexnik va boshqa

xizmat turlari mustaqil xizmatlarga bo'linadi. Bu xizmatlarni bosh mutaxassislar boshqaradi. Ammo bu narsa maxsus ta'minot va sotish xizmatlarini yaratishni taqozo etadi. Qisqacha aytganda, ishlab chiqarishni boshqarishni takomillashtirish masalalarini tubdan hal qilishda qayta qurish va boshqa xizmatlarning, shu jumladan, sotish va ta'minot xizmatlarining ajralib chiqishi talab etiladi.

Ba'zan maxsus xizmatlarni tashkil qilishning maqsadga muvofiqligi haqida shubha tug'iladi, chunki bu ma'muriy-boshqaruv personalining soni oshishi bilan bog'liq. Lekin bu masalaning yechimi boshqarish progressiv tizimining o'zidan topiladi. Boshqarishning chekli tuzilmasida funksional aloqalar qisqaradi. Boshqaruv xodimlarining ixtisoslashuv darajasi oshadi, ishlab chiqarish bo'limlari soni kamayadi va mutaxassislarning xizmat ko'rsatish zonasi kengayadi. Bularning barchasi boshqaruv xodimlarining soni qisqarishiga olib keladi. Shu rezerv hisobiga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish bo'yicha maxsus xizmatlar tashkil qilinishi kerak.

Ishlab chiqarish va sotish faoliyatlarini ajratish zarurati yalpi va tovar mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarining o'sishi va uni realizatsiya qilishning bir qator tashkiliy va iqtisodiy sharoitlari o'zgarishi holatidan kelib chiqadi. Avvalo ba'zi mahsulot turlarini yetkazish masofasi o'zgaradi, bu esa differensial renta I ning shakllanishiga tubdan katta ta'sir ko'rsatadi. Xo'jalikning yo'llar, magistrallar, qayta ishlovchi korxonalar va tayyorlov bazalariga nisbatan joylashuvi omili mahsulot realizatsiyasi bo'yicha transport va boshqa xarajatlarning darajasini belgilaydi.

10.2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash, saqlash, qayta ishlash va sotish infratuzilmasini rivojlantirish

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish davrida qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlarni tayyorlash, saqlash, qayta ishlash va sotish tizimining

tashkiliy-iqtisodiy asostari o'zgardi, bir-biriga bog'liq tarmoqlar o'rtasidagi bozor munosabatlari talablari joriy etildi.

Respublikada 1994-yildan boshlab bosqichma-bosqich qishloq xo'jaligi mahsulotlariga davlat buyurtmasi bekor qilinib, bugungi kunda strategik mahsulot sifatida faqatgina paxta va g'allaga davlat buyurtmasi saqlanib qoldi.

Ushbu ikki turdag'i mahsulotning kafolatlangan bozori mavjud bo'lib, tayyorlov tashkilotlari bilan tuzilgan kontraktatsiya shartnomasiga muvofiq mahsulot yetishtiruvchilar belgilangan davlat xarid narxlarida sotadilar.

Qishloq xo'jaligi tovar mahsuloti yetishtiruvchilar meva, sabzavot, kartoshka va poliz mahsulotlarini yetishtirish va sotishdan ham yuqori moddiy manfaat ko'radilar. Chunki bu turdag'i mahsulotlarini yetishtirish va sotish to'liq dehqonlarning ixtiyorida bo'lmoqda. Ammo mamlakatimizda bu turdag'i oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish miqdorini ko'paytirish va sifatini yaxshilash borasida ko'plab kamchiliklar mavjud. Jumladan, respublikamiz bo'yicha qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va sotishni o'r ganuvchi axborot – marketing tizimi yetarli darajada shakllanmagan. Shu sababli yillar bo'yicha ayrim turdag'i mahsulotlar baholarining nobarqarorligi oqibatida yo iste'molchi yoki dehqonlar zarar ko'rmoqdalar.

Oziq-ovqat mahsulotlari (meva-sabzavot, go'sht, sut, tuxum va boshqalar) asosan dehqon xo'jaliklarida yetishtirilib, bu turdag'i mahsulotlarni qayta ishlash va tayyorlash bilan bog'liq ishlar xususiy yoki qo'shma korxonalar tomonidan amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda sabzavotning 12-15 foizi, meva va uzumning 18-20 foizi, sut va go'shtning 13-15 foizi qayta ishlanib, bozorga chiqarilmoqda yoki umumiyl holatda qariyib 80-85 foizi mahsulot yangi uzilgan holda iste'mol qilinmoqda (10.2.1-jadval).

10.2.1-jadval

**2008–2010-yillarda respublika bo'yicha qishloq xo'jaligi
mahsulotlarini ishlab chiqarish ko'rsatkichlari**

Oziq-ovqat mahsulotlari turlari nomi	O'lkchov birligi	2008-yil	2009-yil	2010-yil	O'sish sur'ati, %
Sabzavot	ming tonna	5217,4	5704,7	6346,4	121,6
Kartoshka	ming tonna	1398,7	1524,5	1692,9	121,0
Poliz	ming tonna	981,2	1071,0	1182,4	120,5
Meva	ming tonna	1402,8	1542,9	1110,3	79,1
Uzum	ming tonna	791	899,6	987,3	124,8
Go'sht (tirik vaznda)	ming tonna	1288	1367,7	1461,4	113,5
Sut	ming tonna	5426,3	5779,0	6169,0	113,7
Tuxum	mln.dona	2431,5	2715,9	3058,8	125,8

10.2.2-jadval

2010-yilda ishlab chiqarilgan asosiy turdag'i qishloq xo'jalik mahsulotlarining aholi jon boshiga to'g'ri kelishi

	Sabzavot	Kartoshka	Poliz	Meva	Uzum	Go'sht*	Sut	Tuxum**
Qoraqalpo-g'iston Respublikasi viloyatlar:								
Andijon	81,3	17,7	42,1	15,0	2,1	23,9	111,2	279
Buxoro	331,9	65,3	25,0	138,2	14,7	23,7	208,3	874
Jizzax	216,7	70,4	48,6	92,2	61,1	57,4	329,4	1061
Qashqadaryo	203,2	33,7	137,1	49,6	20,0	73,2	294,3	944
Navoiy	120,4	36,6	32,3	27,5	18,6	44,8	246,0	721
Namangan	172,5	49,4	48,8	70,9	53,6	72,4	314,5	1674
Samarqand	191,2	66,5	21,3	55,0	32,2	23,8	167,5	433
Surxondaryo	330,2	116,9	22,0	72,9	113,2	37,9	238,8	1815
Sirdaryo	229,7	60,3	53,8	43,6	36,4	35,9	240,0	737
Toshkent	251,8	39,7	288,6	27,3	11,6	37,0	276,2	755
Farg'onha	497,6	103,0	39,1	53,6	44,2	42,6	217,5	3336
Xorazm	146,8	54,4	14,6	82,0	21,1	21,0	188,2	574

2009-yilda yetishtirilgan meva-sabzavot, kartoshka, poliz va uzum mahsulotlarining 2008-yilga nisbatan o'sish sur'atlari, (%)

Hududlar	Sabzavot	Kartoshka	Poliz	Meva	Uzum	Go'sht	Sut	Tuxum
Qoraqalpog'iston Respublikasi	104,1	116,6	109,9	108,1	103,1	107,6	107,9	104,8
viloyatlar:								
Andijon	111,2	109,1	104,5	111,7	105,9	106,3	106,0	109,7
Buxoro	108,1	106,1	107,2	108,5	119,7	107,4	109,0	107,8
Jizzax	104,3	108,6	103,8	105,2	115,2	106,1	108,4	114,7
Qashqadaryo	115,6	114,4	109,4	115,5	119,6	105,5	107,3	109,6
Navoiy	112,9	107,9	106,3	105,4	109,6	106,7	107,2	112,1
Namangan	104,9	101,9	102,7	106,4	111,3	105,6	107,0	119,6
Samarqand	107,5	108,6	102,2	107,9	111,5	105,5	105,0	109,1
Surxondaryo	115,1	105,0	110,3	108,5	146,7	105,0	104,7	105,9
Sirdaryo	108,3	108,3	113,3	108,2	109,1	105,3	108,1	115,0
Toshkent	110,5	112,5	103,0	107,8	109,7	107,4	106,8	113,5
Farg'on'a	109,4	116,1	148,0	117,1	106,2	106,1	106,1	114,0
Xorazm	105,8	102,4	116,0	107,4	110,0	106,0	105,1	119,3
Jami	109,3	109,0	109,2	110,0	113,7	106,2	106,5	111,8

Ma'lumki, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlar bir qismi takror ishlab chiqarish uchun qishloq xo'jaligining o'zida ishlataladi, ma'lum bir qismi qayta ishlashga va qolgan qismi aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish uchun iste'molga yo'naltiriladi va ichki iste'mol talabini tashkil etadi. Ichki iste'mol talabidan kelib chiqqan holda aholining oziq-ovqat bilan ta'minlanganlik darajasi aniqlanadi (10.2.2-jadval).

Aholining o'sishi va korxonalarining ishlab chiqarish hajmini oshishi natijasida ularni oziq-ovqat mahsulotlari va xomashyo bilan ta'minlash maqsadida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish sur'atlari oshib bormoqda (10.2.3 - jadval).

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash yo'naltirilgan hajmi ham oshib bormoqda va bu tayyorlov korxonalarini yanada jadal rivojlantirishga asos bo'lmoqda (10.2.4 - jadval).

10.2.4-jadval

2009-yilda ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining qayta ishlashga yo'naltirilgan qismi (%)

Hududlar	Sabzavot	Meva	Uzum	Go'sht	Sut
Qoraqalpog'iston Respublikasi viloyatlar:					
Andijon	3,8	0,5	0,0	35,0	43,4
Buxoro	6,3	6,9	23,3	9,7	6,7
Jizzax	9,5	15,9	16,8	20,5	9,6
Qashqadaryo	22,4	28,2	28,7	18,9	8,0
Navoiy	11,7	12,6	2,1	0,8	1,4
Namangan	9,7	31,3	35,0	8,0	3,7
Samarqand	40,2	34,3	21,7	13,6	3,5
Surxondaryo	0,1	1,1	15,7	2,0	1,1
Sirdaryo	3,3	18,1	26,4	13,4	9,9
Toshkent	7,0	80,6	68,5	6,6	2,1
Farg'ona	4,1	6,7	3,8	32,2	5,1
Xorazm	5,3	9,2	13,2	2,0	0,8
Jami	11,9	19,0	25,7	14,9	5,6

Respublikada abolini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi asosan ichki imkoniyatlardan kelib chiqqan holda amalga oshirilmoqda. Ammo ayrim turdag'i qishloq xo'jaligi mahsulotlari import hisobiga qondirilmoqda. Shuningdek, ayrim turdag'i qishloq xo'jaligi mahsulotlari xorij mamlakatlarga eksport qilinmoqda (10.2.5 - jadval).

10.2.5-jadval

2009-yilda asosiy turdag'i oziq-ovqat mahsulotlari eksport va import ko'rsatkichlarining ishlab chiqarishdagi ulushi, (%)

Mahsulot turlari	eksport	Import
Sabzavot	2,6	0,6
Poliz	4,9	0,0
Meva	7,1	1,8
Uzum	11,7	0,0
Go'sht va go'sht mahsulotlari	0,0	0,8
Sut va sut mahsulotlari	0,0	0,2
Tuxum	0,0	0,1
Un	4,4	14,7
O'simlik yog'i	0,0	9,6
Shakar	0,0	48,1

Hozirgi kunda respublikada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashni yanada jadal rivojlantirish maqsadida hududlar bo'yicha qayta ishlash korxonalari tashkil etilmoqda (10.2.6 - jadval).

Qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talab va taklifni bozor muvozanatida ushlab turish maqsadida respublikamiz hududlarida meva-sabzavot mahsulotlarini zaxiraga qo'yish bo'yicha omborlar va muzlatkichli kameralar xizmat ko'rsatishi tashkil etilib, aholiga sifatli mahsulotlar yil davomida yetkazib berilmoqda (10.2.7-jadval).

2010-yilda tashkil etiladigan qayta ishlash korxonalari

Hududlar	Loyihalar soni				
	Un mahsulotini qayta ishlash	Qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarish	Meva-sabzavotni qayta ishlash	Sutni qayta ishlash	Go'shtni qayta ishlash
Qoraqalpo-					
g'iston					
Respublikasi	20	5	2	7	5
Andijon	-	3	2	6	5
Buxoro	7	3	6	8	8
Jizzax	7	1	8	7	3
Qashqadaryo	10	15	2	7	7
Navoiy	14	8	5	8	9
Namangan	3	2	7	5	4
Samarqand	10	1	12	8	7
Surxondaryo	5	6	1	9	5
Sirdaryo	3	3	3	3	2
Toshkent	9	2	4	5	7
Farg'ona	9	4	3	7	7
Xorazm	19	4	6	5	6
Toshkent sh.	3	9	1	2	2
Respublika bo'yicha jami:	119	66	62	87	77

Hozirgi paytda eksport qilinayotgan asosiy qishloq xo'jaligi mahsuloti – paxta tolasi (umumiy ishlab chiqarilgan tolasining 68 foizi) hisoblanib, boshqa turdag'i mahsulotlar eksporti 15 foizni tashkil qilmoqda. Jahon bozorida tola narxining o'zgarishi mamlakat iqtisodiyotiga va valyuta tushumiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun meva, sabzavot, moyli ekinlar (o'simlik yog'i va hokazo) eksportini ko'paytirish va turdag'i mahsulotlar eksporti tarmoq eksport hajmining 60 – 65 foizini tashkil qilishi lozim. Ushbu holda

tarmoq eksportida valyuta tushumini bir me'yorda ushlab turish imkoniyati yaratiladi.

10.2.7-jadval

Respublika hududlarida meva-sabzavot mahsulotlarini zaxiraga qo'yish bo'yicha omborlar va muzlatkichli kameralar

Hududlar	2009-2010-yillar zaxira hajmi (ming tonna)	Jami omborlar va muzlatkichli kameralar sig'imi (ming tonna)	shu jumladan, muzlatkichli kameralar (ming tonna)
Qoraqalpog'iston Respublikasi viloyatlar:			
Andijon	43,0	13,1	2,4
Buxoro	26,0	26,7	0,7
Jizzax	17,0	17,1	1,7
Qashqdaryo	34,0	52,0	5,0
Navoiy	21,0	25,1	5,0
Namangan	43,0	48,5	16,8
Samarqand	46,0	34,1	8,9
Surxondaryo	21,0	20,0	4,5
Sirdaryo	12,0	12,2	1,0
Toshkent	69,0	75,1	13,5
Farg'ona	46,0	51,9	9,8
Xorazm	24,0	14,4	2,4
Toshkent sh.	75,0	21,3	8,5
Jami respublika bo'yicha:	515,0	435,3	82,7

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, tayyorlash va sotish tizimini bir-biriga yaqinlashtirish va tarkibiy bog'liq tizimni shakllantirish maqsadida ulgurji va dehqon bozorlari, agrofirmalar, savdo uylari kabi yangi shakldagi subyektlar tashkil qilinib, rivojlana boshlandi.

Respublikamizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasini rivojlantirish pirovard natijada:

- mahsulotlarni uzoq muddat saqlashga erishish;

- mahsulotlarni uzoq masofaga, jumladan, eksport qilish maqsadida transportda tashish;
- mahsulotlarning nobud bo‘lishini kamaytirish;
- mahsulotlar pishib yetiladigan qisqa davrda ularni sotish, olish va narx-navosi tushib ketishining oldini olish;
- mahsulotlarni qayta ishlash natijasida qo‘srimcha ishchi o‘rinlarni yaratish va daromad miqdorini oshirilishiga erishiladi.

Mahsulotlarni tayyorlash va qayta ishlash tizimini rivojlantirish qishloq xo‘jaligining iqtisodiy barqaror rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki meva-sabzavot va uzum mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashgan hududlarda mahsulotlarni yetishtirish, hosilni yig‘ish, transportda tashish va ularni qayta ishlash korxonalariga topshirishgacha bo‘lgan bosqichda ayrim yillarda 20 – 30 foizi nobud bo‘lmoqda.

Shuning uchun respublikamizning barcha hududlarida aholi tomonidan iste’mol qilinadigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini uzoq muddat saqlash va qayta ishlashga ixtisoslashgan korxonalarni tashkil etish orqali aholiga tayyor mahsulotlarni yetkazib berish nafaqat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining nobudgarchiligining oldini olish, balki xo‘jalik va tashkilotlarinng moliyaviy barqaror rivojlanishini ta’minlash, yangi ish o‘rinlarni ochish evaziga aholi bandligi darajasini oshirish imkoniyatini yaratadi.

Respublikamiz ASMda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, tayyorlash, qayta ishlash va sotish tizimining uzviy bog‘liqligini ta’minlash asosida butun majmuuaning iqtisodiy barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- bozor tamoyillari va iqtisodiyotni erkinlashtirish talablaridan kelib chiqqan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tayyorlash va qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan yangi huquqiy-me’yoriy xujjatlarni qabul qilish, amaldagilarni takomillashtirish;

- fermer va dehqon xo'jaliklari uchun zarur bo'lgan moddiy-texnika vositalari va aylanma mablag'larni sotishga ixtisoslashgan maxsus ulgurji – chakana savdo do'konlarini tashkil etish va rivojlantirish, ularni respublikamizda va xorijda ishlab chiqarilgan resurslar bilan tanishtirish va tegishli maslahatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan hududiy ko'rgazmalarni doimiy tashkil etish;
- fermer va dehqon xo'jaliklari bilan tayyorlov va qayta ishslash korxonalar o'rtaсидаги iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish, jumladan, to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzishni rag'batlantirish asosida bo'naklash va yakuniy hisob-kitoblar tizimini takomillashtirish;
- fermer xo'jaliklari tomonidan mahsulotlarni saralash va saqlash infratuzilmasini rivojlantirish, qayta ishslash korxonalarini tashkil etilishini iqtisodiy rag'batlantirish maqsadida imtiyozli kredit ajratish, xorijdan texnologiya va asbob-uskuna olib kelish bilan bog'liq jarayonlarni erkinlashtirish;
- respublikamizda dehqon va fermer xo'jaliklari hamda agrofirmalar o'rtaсида ko'ngilli va ixtiyoriy birlashish asosida kooperatsiya munosabatlarini tashkil etish, shuningdek, ular tomonidan shartnomalar asosida olib kelinayotgan mini texnologik sexlar, qurilma va asbob-uskunalarga imtiyozlarni doimiy belgilash;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini erkinlashtirish maqsadida uni iqtisodiy rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash, eksport bilan bog'liq tizimdagи hujjatlashtirish jarayonlarini, ayniqsa ruxsatnoma olish, litsenziyalashtirish va sertifikatlashtirish bilan bog'liq tizimini soddalashtirish;
- oziq-ovqat mahsulotlari eng avvalo meva-sabzavot va chorva mahsulotlarining marketingini rivojlantirish asosida mamlakatda yetishtirilayotgan mahsulotlar turi va hajmi, narx-navosi bo'yicha choraklik va yillik haqiqiy va istiqbol ko'rsatkichlaridan iborat bo'lgan ma'lumotlarni doimiy ravishda tarmoq matbuotida chop etib borish.

Ushbu tadbirlar bosqichma-bosqich amaliyotga joriy qilinishi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, jumladan meva - sabzavotning 35-40 foizi, uzumning 50 foizi, sutning 30 foizi va go'shtning 40 foizining qayta ishlaniishi, qishloq hududlarida yangi ishchi o'rinalarini yaratish va qo'shimcha daromad ko'payishini ta'minlaydi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Qishloq xo'jaligida tayyorlov korxonalari tizimining vazifalari va ahamiyati nimalardan iborat?
2. Tayyorlov korxonasining tashkiliy-iqtisodiy asoslari nimalardan iborat?
3. Davlat ehtiyojlari uchun mahsulot yetishtirish deganda nimani tushunasiz?
4. Tayyorlov tizimining iqtisodiy samaradorlik darajasiga va rivojlanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
5. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar va tayyorlov korxonalari o'rtaсидagi iqtisodiy aloqalar nimalardan iborat?

XIBOB. IJTIMOIY INFRATUZILMA FAOLIYATINI TASHKIL QILISH

O'quv maqsadi: ijtimoiy infratuzilma mohiyati, mazmuni, uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va uni rivojlantirish yo'llari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

11.1. Ijtimoiy infratuzilmaning mohiyati va mazmuni

Ijtimoiy infratuzilma tarkibi agrar sohada ishchi kuchini takror ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan xizmatlar: maorif va madaniy muassasalar, sport, turar joy va kommunal xo'jaligi, sog'liqni saqlash va himoya qilish muassasalari, bog'chagacha, muktabgacha bo'lgan bolalar muassasalari, umumovqatlanish korxonalari, savdo, aholiga

xizmat ko'rsatuvchi transport, mehnatni muhofaza qilish xizmatlari, texnika havfsizligi, o'quv-ishlab chiqarish kombinatlari, sog'lomlashtirish muassasalari kiradi. Ijtimoiy infratuzilma – insonning har tomonlama kamolat topishi va unga erishish sohasida ko'rsatiladigan xizmatlar yig'indisidir.

«Ijtimoiy infratuzilma» tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, bu o'rinda uni xalq xo'jaligi majmuasining mustaqil bo'g'ini sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, «infratuzilma», «ijtimoiy infratuzilma» atamalari ishlab chiqarish jarayonlarini o'rganishda va jamiyat ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishda paydo bo'lgan hamda ishlab chiqarishning rivojlanishi davomida bir-biri bilan uzviy aloqada rivojlangan. Bundan tashqari, ijtimoiy infratuzilmaning ma'lum elementlar majmuasi – bu umumiyl ishlab chiqarishda insonning samarali faoliyat yuritishi uchun sharoitlarni yaratib beruvchi jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining bir qismidir. Tarixiy rivojlanish jarayonida ishlab chiqarish kuchlarining ayrim turlari (transport, aloqa liniyalari va boshqalar) inson faoliyati va farovon hayoti uchun sharoit yaratish bilan bog'liq bo'lgan boshqa ijtimoiy vazifalarni bajarib kelmoqda.

Ijtimoiy infratuzilma majmuasi – bu mehnatkashlarning mehnat va dam olish uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlovchi, yagona respublika xalq xo'jaligi majmuasining muhim va keng rivojlangan kichik tizimlaridan biridir.

Zamonaviy qishloq infratuzilmasining yanada rivojlanishiga turki bo'lувчи omillardan biri – bu ushbu sohaga yangi toifadagi mutaxassisliklarni jalb qilish hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi ishchilarining ta'lim va kvalifikatsiya darajalarini oshirish, ularning madaniy hamda axloqiy o'sishi, iste'molining rivojlanishi va takomillashuvi bilan bog'langan. «Qishloq ijtimoiy infratuzilmasi» atamasi qishloq aholi punktlarida istiqomat qiluvchi va faoliyat yurituvchi aholi o'rtasidagi iqtisodiy va umumiyl munosabatlarni hamda ular tomonidan ishchi kuchini takror

ishlab chiqarish, shaxsnинг barkamol rivojlanishi, individiumlarning jamiyat faolligi uchun zarur bo'lgan o'ziga xos ne'matlarni, ya'ni moddiy va nomoddiy xizmatlarning iste'molini bildiradi.

U yoki bu darajada qishloq ijtimoiy rivojlanishini qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligining natijalari sifatida haqqoniy ko'rib chiqishimiz mumkin. Ammo pirovard natijalar nafaqat qishloq xo'jaligi hamda unga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarning rivojlanish darajasiga, balki barcha qishloq aholisiga xizmat ko'rsatish darajasiga ham bog'liq bo'ladi.

Agar butun respublikaning ijtimoiy infratuzilmasi haqida gap ketganda (qishloq ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish uchun yo'naltirilgan resurslarning bir qismi ilmiy asoslanganligini hisobga olgan holda), unda qishloq ijtimoiy infratuzilmasining rivojlanish darajasini hisobga olishda qiymat va natural ko'rsatkichlarda ko'rsatish yetarlidir, so'ngra ushbu ma'lumotlarni yillar bo'yicha normativlari bilan taqqoslab chiqib, hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun ajratiladigan resurslarni qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti faoliyatining umumiyligi samara ko'rsatkichlari bilan solishtiriladi.

Tuman ichida va tumanlararo darajada ijtimoiy infratuzilmaga qishloq xo'jaligi faoliyati natijasi sifatida baho berish esa ancha murakkabdir. Xo'jalik yuritish samarasi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga sarflanadigan energetik va moddiy resurslarning hajmiga ham bog'liq.

Agrar ijtimoiy infratuzilma quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- mehnat faoliyati infrastrukturasi; xalqqa xizmat qiladigan transport, aloqa vositalari;
- sotsial madaniy infratuzilma: turar joy, kommunal xo'jaligi, umumiyligi ovqatlanish;
- ma'naviy hayot madaniyati infratuzilmasi: madaniyat, sayohat, xalq maorifi;
- sog'liqni saqlash infratuzilmasi: sog'liqni saqlash, sport va hordiq chiqarish muassasalari;

- bozor infratuzilmasi: ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xaridorlarga yetkazib berish jarayonidagi xizmat turlari;
- muhitni muhofaza qilish infratuzilmasi: atmosfera, suv, tuproq, tabiatni muhofaza qilish bo‘g‘inlari uchun ko‘rsatiladigan xizmatlar.

Agrar ijtimoiy infratuzilmalarning bu guruhlari bir-birlari bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, shaxsning kamolatga yetishida benihoya katta ahamiyatga ega.

I. Mehnat faoliyati infratuzilmasi:

- aholining bir joydan ikkinchi joyga borish bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar (taksi, avtobus, tramvay, trolleybus, metro, poyezd, samolyot, paroxod va boshqa turdagи xizmatlar);
- aholining sutkalik, haftalik, oylik, yillik byudjet vaqtidan unumli foydalanishi;
- aholining ish joylariga o‘z vaqtida yetib borishi va mehnat unumdarligining oshishiga;
- ishchilarning bo‘s sh vaqtarda madaniy hordiq chiqarishi kabi xizmatlarni bajaradi.

II. Ijtimoiy-madaniy infratuzilma:

- abolining turar joy bilan ta’minlanish va unda normal yashash uchun barcha sharoitlarni yaratish xizmatlarini;
- aholining yashash va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan savdo shoxobchalari xizmatini;
- aholining ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan ovqatlanish shoxobchalari ko‘rsatgan xizmatlari (oshxona, choyxona, restoran, bufet);
- qishloqda yashash madaniyatini shahar darajasiga ko‘tarishga erishish xizmatlarini;
- aholining bo‘s sh vaqtlaridan ijtimoiy, madaniy hordiq chiqarish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratish tadbirlarini amalga oshiradi.

III. Ma’naviy hayot madaniyati infrastrukturasi xizmatlari:

- madaniyatning barcha xizmat ko‘rsatish bo‘g‘inlarini (teatrlar, klublar, konsert brigadalari, xalq talantlari, kurash, futbol va boshqalar) kengaytirish;

- erishilgan madaniyat yutuqlari ko‘riklari o‘tkazish;
- kino, festival, kutubxona, qishloq hayotini yuksaltirish bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar;
- har xil sayohatlar, dam olish uylari tashkil etish;
- bolalar yaslilari, bog‘chalari, dam olish oromgohlari hamda xalq maorifi bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar;
- yangi ta’lim va kadrlar tayyorlash to‘g‘risidagi qonunlarni amalda bajarishga erishish xizmatlari.

IV. Sog‘liqni saqlash infratuzilmalari quyidagilarni amalga oshiradi:

- sog‘liqni saqlashning zamonaviy talablariga mos keladigan muassasalar va ularning xizmat sifatini oshirish;
- sog‘liqni saqlash muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali kadrlar bilan ta’minalash;
- dori-darmonlar bilan ta’minalash, sog‘liqni saqlash madaniyatini ko‘tarish;
- sog‘liqni saqlash to‘g‘risida chet mamlakatlar bilan hamkorlik, «Qizil yarim oy» jamiyatining rolini qishloqda oshirish;
- ish vaqtini kasallik hisobiga yo‘qotishni kamaytirish tadbirlarini amalga oshirish;
- qishloqda davolash muassasalari sonini ko‘paytirish, sifatini yaxshilash;
- dorixonalar xizmatini yaxshilash, pulli davolash muassasalari ish faoliyatini yaxshilash;
- yirik davolash markazlari tashkil etish;
- aholining sog‘lig‘ini ta’minlovchi dam olish uylari, sanatoriya, qayta davolash va dam olish xizmatlarini kengaytirish;
- sport xizmatlarini kengaytirish, qishloq aholisini jalb etish, ularning samarasini oshirish ishlari.

V. Bozor infratuzilmasi xizmatlari quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotib oluvchi xaridorlar topish;

- marketing xizmatlarini agrar sanoat majmui bo‘g‘inlariga chuqur joriy etish va dehqonlarni bozor konyukturasi qonuniyatlari bilan yaqindan tanishtirish;
- dehqon uchun keng ko‘lamda tovar sotish reklamalarini targ‘ib etish;
- jahon bozoriga chiqish xizmatlarini bajarishni amalga oshiradi.

VI. Atrof muhitni muhofaza qilish infratuzilmasi xizmatlari:

- atmosferaning ifloslanishiga qarshi kurash choralarini o‘zida ifoda etadigan tadbirlar;
- tuproq eroziyasiga va tuproq unumдорligi pasaya borish qonuning harakatini o‘rganish va uni amalga oshirilishiga qaratilgan xizmatlar;
- suv tozaligi, undan unumli foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar;
- kimyoiy dorivorlardan foydalanishni tartibga solish xizmatlari.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish sohasida xizmat ko‘rsatsa, ijtimoiy infratuzilma esa insonning salomatligi, uning mehnat qobiliyatini tiklash tadbirlarini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlarni bajarib, ishlab chiqarish jarayoniga bilvosita ta’sir etadilar.

Qishloq uy-joy kommunal qurilishi vositalarining asosiy qismi soha bo‘yicha kapital qo‘yilma sifatida noishlab chiqarish asosiy fondlariga ajratilmoqda. Ular ijtimoiy infratuzilmaning asosiy obyektlarini ko‘tarish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ular tarkibida uy-joy fondi, sog‘liqni saqlash muassasalari, maktabgacha yosh bolalar muassasalari va boshqalar mavjud. Shu bilan birga, ular ichida ikki guruhni ajratish mumkin:

Birinchisi – xo‘jalik hududida joylashishi zarur bo‘lgan, ya’ni ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan, ehtiyojlarni qondirish uchun mo‘ljallangan obyektlar, ya’ni maishiy, umumiyl ovqatlanish, madaniyat

va dam olish, sog'liqni saqlash, qo'riqxona va yong'in xavfsizligi va boshqalar kiradi. Ularning barchasi chorvachilik majmualarda, mashina-traktor parki va dala shiyponlarida joylashtirilishi zarur. Ularning quvvati, sifat ko'rsatkichlari ishlovchilarning soni, ishlab chiqarishning tavsifiga va texnologik jarayonlariga bog'liq holda ilmiy asoslangan normalardan kelib chiqib hisobga olinishi lozim.

Ikkinci guruhga – ishlab chiqarish obyektlaridan tashqarisida joylashgan, inson hayoti uchun sharoitlar yaratuvchi, yalpi ijtimoiy infratuzilma obyektlari kiradi. Uning tarkibiga ish vaqtidan bo'sh vaqtida zarur bo'lgan infratuzilma tarmoq va obyektlarining bir qismi kiradi: uyjoy communal xo'jaligi, maishiy xizmat, sog'liqni saqlash, maorif, madaniyat muassasalari va boshqalar, ya'ni nafakat qishloq xo'jaligi korxonalarida bevosita ishlovchilarga zarur bo'lgan, balki ularning faoliyat turi va ijtimoiy kelib chiqishidan, qaysi sohaga taalluqli bo'lishidan qat'iy nazar aholining barcha qatlamlariga zarur bo'lgan barcha obyekt va xizmat turlari kiradi.

Ikki guruhga bo'lishdan maqsad, bevosita qishloq xo'jaligi korxonalarida ijtimoiy-maishiy sharoitlarni tahlil qilishda zarur bo'ladi, shuningdek, ijtimoiy infratuzilma elementlarining rivojlanishiga obyektiv baho berish uchun ham zarurdir. Agarda ishlab chiqarish hamda texnologiya murakkabligi bir xil darajada va xususiyatda bo'lganida ushbu guruhlarda sezilarli farqlar aniqlangan bo'lsa, me'yor darajasiga yetish uchun zarur bo'lgan resurslarning hajmini har bir ishlab chiqarish obyekti bo'yicha (chorvachilik majmuasi, mashina-traktor parki) aniqlash zarur, so'ngra har bir tarmoq bo'yicha hisoblash zarur. Ushbu bahoga mos ravishda ijtimoiy infratuzilma obyektlarining xizmatlari bilan teng ravishda to'liq ta'minlangunga qadar, qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan zarur bo'lgan mablag'larning ajratish muddatini belgilab olish kerak bo'ladi.

11.2. Qishloqda zamonaviy uy-joylar qurish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati

2009-yilda ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish borasida aholi turar joy sharoitlarini yaxshilash tadbirlariga katta e'tibor qaratildi. Hududlarda 2100 ta ko'p xonadonli uylar to'liq kapital ta'mirlanib, mazkur ishlarga mahalliy byudjet manbalari hisobidan 24,2 mlrd. so'm mablag' sarflangan. Shuningdek, qishloq joylarda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini rivojlantirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi (11.2.1-jadval).

11.2.1-jadval

2009-yilda qishloq joylarda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalarining rivojlantirilishi

Ko'rsatkich	Rejada	Amalda	Bajarilishi, foizda
Ishlab chiqarish infratuzilmasi			
Tabiiy gaz ta'minoti, km	180,4	197,2	109,3
Ichimlik suv tarmoqlari quvurlarini qurish, km	1168	1665	142,6
Ijtimoiy soha infratuzilmasi			
QAP ichimlik suv ta'minoti obyektlarini rekonstruksiya qilish, QAP Obodonlashtirish boshqarmalarini maxsus texnikalar bilan jihozlash, dona	304	366	120,4
1991-yilgacha qurilgan ko'p qavatli uylarni mukammal ta'mirlash, dona	2086	2100	100,7
1991-yilgacha qurilgan ko'p qavatli uylarni mukammal ta'mirlash, dona	125	134	107,2

Jadval ma'lumotlaridan ko'rindaniki, yil davomida qishloq joylarda 197,2 km uzunlikdagi tabiiy gaz, 1665 km uzunlikdagi ichimlik suv tarmoqlari quvurlarini tortish, 366 ta qishloq aholi punktlarida ichimlik suv ta'minoti obyektlarini rekonstruksiya qilish, obodonlashtirish

boshqarmalarini 2100 dona maxsus texnikalar bilan jihozlash, 134 ta ko‘p qavatli uylarni mukammal ta’mirlash ishlari amalga oshirilgan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida qishloq aholisining turmush darajasini yuksaltirishga, qishloqlarimiz qiyofasini o‘zgartirishga, jahon andozalariga mos keluvchi zamonaviy arxitektura va dizayn asosida barpo etiladigan, barcha qulayliklar va kommunikatsiya tizimlariga ega bo‘lgan shinam uy-joylar barpo etishga, ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi aholisining 13,4 mln. nafari yoki 48,4 foiz qismi qishloqda, 14,3 mln. nafari yoki 51,6 foiz qismi shaharda istiqomat qiladi.

Zamonaviy qishloq avvalombor arxitektura va me’moriy rejalashtirish talablariga mos kelishi, bosh reja asosida tartib bilan qurilishi, barcha qulayliklar va kommunikatsiya tarmoqlariga (elektr, gaz uzatish tarmoqlari, suv ta’minoti, yo’llar va boshqa) ega bo‘lishi hamda zamonaviy ko‘rinishi va shinamligi bilan ajralib turishi lozim.

Me’moriy rejalashtirish talablariga ko‘ra qishloq aholi punktlari ularda yashayotgan aholi soniga ko‘ra 4 toifaga ajratiladi va shunga mos qishloqlarning me’moriy bosh rejasи ishlab chiqiladi (11.2.2-jadval).

Birinchi toifaga aholi soni 100 dan 1000 kishigacha bo‘lgan kichik qishloqlar kiritiladi.

Ikkinci toifaga aholi soni 1000 kishidan 3000 kishigacha bo‘lgan o‘rtacha qishloqlar kiritiladi.

Uchinchi toifaga aholi soni 3000 kishidan 5000 kishigacha bo‘lgan katta qishloqlar kiritiladi.


To‘rtinchi toifaga aholi soni 5000 kishidan ortiq bo‘lgan yirik qishloqlar kiritiladi.

**O'zbekistonda qishloq aholi punktlarining toifalanishi
(2011-yil 1-yanvar holatida)⁴⁹**

Aholi punktlarining toifasi	Aholi soni	Aholi punktlari ning soni	Jamiga nisbatan foizda
Kichik aholi punktlari	100 dan 1000 kishigacha shundan:	5882	49,7
	100 dan 500 kishigacha	2974	25,1
	500-1000	2908	24,6
O'rtacha aholi punktlari	1000 dan 3000 kishigacha	4511	38,2
Katta aholi punktlari	3000 dan 5000 kishigacha	1052	8,9
Yirik aholi punktlari	5000 kishidan ortiq	375	3,2
Jami:		11820	100

Jadval ma'lumotlaridan ko'tinib turibdiki, mamlakatimizda jami 11820 ta qishloq aholi punktlari mavjud bo'lib, ularning 5882 tasida (49,7 foizi) aholi soni 100 dan 1000 kishigachani, 4511 tasida (38,2 foizi) 1000 dan 3000 kishigachani, 1052 tasida (8,9 foizi) 3000 dan 5000 kishigachani tashkil etadi va faqat 375 tasida (3,2 foizi) 5000 kishidan ortiq. Zamonaviy arxitektura va me'moriy qurilish talablariga mos kelmaydigan qishloq aholi punktlari yagona rejaning mavjud emasligidan ko'p hollarda tartibsiz va

⁴⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatni barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. 2010. 140-bet.



11.2.1-rasm. Qishloq aholi punktlari bosh reja bilan ta'minlanganligi

tarqoq holda quriladi. Ayniqsa, tumanlarning markazlaridan uzoqda joylashgan qishloq aholi punktlari bosh reja asosida qurilmagani bois uy-joylar ko'chalarga bo'lingan holda batartib qurilmagan (11.2.1-rasm). Bunday qishloqlardagi uy-joylarning tashqi ko'rinishida ham xilma-xillik uchraydi. Shu sababdan, ko'rinishi zamonaviy dizayn va shaharsozlik mezonlariga mos kelmaydi hamda kommunikatsiya tarmoqlariga ularash jarayonida noqulayliklar keltirib chiqaradi.

11.2.1 – rasmda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rilib turibdiki, respublikamizdagи mavjud jami 11820 ta qishloqlardan 7371 tasining (62 foizi) bosh rejasи umuman ishlаб chiqilmagan, 3982 tasining (34 foizi) bosh rejasи eskirgan, 467 tasining (4 foizi) bosh rejasи yaroqli hisoblanadi. Demak, mavjud qishloqlarimizning 96 foizini zamonaviy arxitektura talablari darajasida bosh reja bilan ta'minlash talab etiladi.

«Qishloqqurilishloyha» instituti tomonidan ishlаб chiqilgan va tasdiqlangan uy-joy loyihasi bo'lib, u zamonaviy qurilish materiallari va texnologiyalarini respublika mintaqalarining tabiiy - iqlim sharoitlarini va joylarning relyefini, ijtimoiy - demografik xususiyatlarini hisobga olgan holda tayyorlanadi (12.2.3-jadval).

Qurilayotgan uy - joylar to‘g‘risida ma’lumot

Qurilish olib borila- digan yillar	Massivlar soni	Uylar soni	Qurilish hajmi (ming m ²)	Qurilish qiymati (mln. so‘m)	shu jumladan		
					aholi mablag‘i hisobidan (mln. so‘m)	aholi mablag‘i ulushi (%)	ajratilgan imtiyozli kredit hisobidan (mln. so‘m)
2009-yil	42	847	100,6	50696,0	19235,0	37,9	31461,0
2010-yil	225	6800	809,7	428980,8	169516,1	39,5	256172,7
2011-yil	372	7400	1134,4	576509,3	208470,3	36,1	368039,0
Jami	639	15047	2044,6	1056186,1	397221,8	x	655672,9

Prezidentimiz I.Karimovning tashabbusi bilan yurtimizda 2009-yilning «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» deb e’lon qilinishi, shu munosabat bilan qabul qilingan Davlat dasturining amalga oshirilishi qishloqlarimiz qiyofasini zamonaviy arxitektura va sanoat asosida tubdan o‘zgartirish va yangilash, uy-joy, ijtimoiy va kommunal obyektlar, kommunikatsiyalarini barpo etish bo‘yicha uzoq muddatga mo‘ljallangan aniq maqsadli ishlarimizning boshlanishi bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 9-martdagи 59-sonli «Zamonaviy arxitektura-shaharsozlik talablarini inobatga olgan holda aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini tashkil etish qoidalari» hamda 2009-yil 7-apreldagi 148-sonli «Qishloq aholi punktlarini bosh rejalar va hududlarni me’moriy rejalashtirishni tashkil etish loyihalari bilan o‘z vaqtida ta’minalash, ushbu hududlarni shaharsozlik jihatdan kompleks rivojlantirishni amalga oshirish to‘g‘risida»gi farmoyishiga muvofiq qishloq aholi punktlarini zamonaviy bosh rejalar bilan ta’minalash

va hududlarni me'moriy rejalashtirishni tashkil etish loyihalarini amalga oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 13-martdagi 68-sonli «O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qaroriga binoan respublikamizdagi 965 ta aholi punktlari shahar posyolkalari toifasiga kiritilib, ularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni yanada kuchaytirish borasida chora-tadbirlar belgilandi. Jumladan, mazkur qarorda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari:

- manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda aholi punktlari toifalarining o'zgartirilishi bilan bog'liq ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlashlari;
- shahar posyolkalari toifasiga kiritilgan aholi punktlariga nisbatan qo'yiladigan shaharsozlik talablariga rioya etilishini ta'minlash va muhandislik, transport hamda ijtimoiy infratuzilmalarni oqilona joylashtirish masalalarini hal etish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqishlari;
- shahar posyolkalari toifasiga kiritilgan aholi punktlari nomlarini «O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish, toponimik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasi talablariga muvofiqlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rishlari belgilab berildi. Zamonaviy uy-joy loyihalari o'z ichiga zamonaviy qurilish materiallari va texnologiyalarini, respublika mintaqalarining tabiiy-iqlim sharoitlarini va jooning relefini, ijtimoiy-demografik xususiyatlarini hisobga olgan holda tayyorlanadi.

Bugungi kunda zamonaviy arxitektura va me'moriy qurilish talablariga mos keladigan, shinam va barcha qulayliklarga ega bo'lган, kommunikatsiya tizimlariga ulangan, jahon andozalari darajasidagi qishloqlarni barpo etish bo'yicha yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-

yil 26-yanvardagi 1046-sonli «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturi to‘g‘risidagi Qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida 2010–2014-yillar davomida aholi soni 10 ming kishidan ortiq bo‘lgan qishloq aholi punktlarini bosh reja loyihalari ishlab chiqish bo‘yicha dasturiga jami 62 ta, qishloq aholi punktlarini qurilishi hamda qishloq ho‘jaligi korxonalarini hududlarini me’moriy rejalashtirish va tashkil qilish bosh reja sxema loyiha hujjatlarini ishlab chiqish bo‘yicha dasturga aholi soni 5 ming kishidan kam bo‘lgan qishloq aholi punktlari bo‘yicha 990 ta, aholi soni 5 mingdan 10 ming kishigacha bo‘lgan aholi punktlari bo‘yicha 353 ta loyihani amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

Eng avvalo, qishloqda quriladigan zamonaviy uy-joylar va ijtimoiy infratuzilmalarni loyihalashtirishsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Buning uchun loyihalashtirish ishlaridan yaxshi xabardor bo‘lgan, barcha moddiy-texnikaviy bazaga hamda yetarli ilmiy salohiyatga ega ixtisoslashgan loyiha-qidiruv institutlarini tashkil etish talab etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 27-yanvarda qabul qilingan 1049-sonli «MCHJ «Qishloq qurilish loyiha» loyiha-qidiruv institutini tashkil qilish to‘g‘risida»gi Qaroriga muvofiq tashkil etilgan «Qishloq qurilish loyiha» loyihalash-qidiruv instituti aynan shu vazifani amalga oshirishga xizmat qiladi. «Qishloq qurilish loyiha» instituti:

- qishloq aholi punktlarini me’moriy rejalashtirish tizimini shakllantirish, rivojlantirishning bosh sxema loyihalarini ishlab chiqish;

- qishloq aholi punktlaridagi turar-joy binolari, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlarining namunaviy loyihalarini ishlab chiqish ishlarini amalga oshiradi.

«Qishloq qurilish loyiha» instituti hukumatimiz ko‘magi bilan qishloqlarni zamonaviy arxitektura talablari asosida me’moriy loyihalashtirish ishlari uchun zarur bo‘lgan barcha moddiy-texnikaviy va ilmiy salohiyat bilan ta‘minlagan. O‘tgan yili «Qishloq qurilish loyiha» instituti tomonidan 31 ta uy-joy loyihalari, 16 ta ijtimoiy soha obyektlarining

loyihalari va hududlardagi loyiha institutlari tomonidan 20 ta uy-joy loyihalari ishlab chiqilib, qo'llash uchun tavsiya etildi.

Qishloqlarda zamonaviy uy-joylar va infratuzilmalar barpo etish uzoq muddatga mo'ljallangan, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan yirik dastur bo'lib, uni hayotga tattiq etish uchun katta mablag' talab etiladi. Qishloq qurilishiga sarflanadigan mablag'larning manbalari quyidagilardan iborat:

- qishloq aholisining o'z mablag'lari;
- «Qishloq qurilish bank» ochiq turdag'i aksiyadorlik tijorat bankining kredit resurslari;
- davlat byudjetidan shu maqsadlarga ajratilayotgan mablag'lar;
- moliyalashtirishning boshqa manbalari.

11.3. Qishloq xo'jaligida ijtimoiy infratuzilmani tashkil etish va rivojlantirish yo'llari

Hozirgi vaqtgacha ijtimoiy infratuzilmaning kompleks rivojlantirish darajalarini belgilovchi normativlar tizimi ishlab chiqilmagan. Amaldagi idoraviy me'yorlar va normativlar odatda, ijtimoiy maqsadlarga yo'naltiriladigan resurslardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi tizimiga asoslanadi. Shaharlar, shaharchalar va qishloq aholi punktlarini rejalashtirishda hamda qurishda qo'llaniladigan qurilish me'yorlari va qoidalari majburiy tusda emas, chunki ularda qishloq joylar va shahar manzillari ijtimoiy infratuzilmasi o'rtasidagi aloqa hisobga olinmaydi.

Shu tufayli ijtimoiy infratuzilma barcha unsurlarini majmua tarzida muvozanatlangan rivojlantirishga erishib ham bo'lmaydi (11.3.1-jadval). Undan tashqari, tavsiya etilayotgan ko'pgina me'yorlarni zudlik bilan qayta ko'rib chiqish talab etilmoqda. Ijtimoiy infratuzilmaning me'yoriy bazasi va ijtimoiy normativlar tizimi quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

- maqsadli normativlar;
- ijtimoiy infratuzilma muassasalari xizmatlari bilan ta'minlanishning eng kam darajasi;
- faoliyat sharoitining kompleks ijtimoiy andozalari;
- iqtisodiy normativlar (qiyosiy sarflar normativlari, foydalanilayotgan resurslar uchun to'lovlar).

Ijtimoiy normativlar tizimini ishlab chiqishda mintaqaviy xususiyatlar, shahar va qishloq joylarda, aholi turmush tarzi va boshqa ko'p jihatlar o'rtaсидagi tafovutlarni hisobga olmoq lozim. Ular doirasida quyidagi jamlama omillarini ajratish mumkin:

11.3.1 - jadval

Ijtimoiy infratuzilma obyektlarini rivojlantirish

	O'Ichov birligi	2007y.	2008y.
Uy-joy qurish, jami shundan:			
Yakka tartibda uy-joy qurish qishloq joylarda	ming. kv m	6964,5	7239,8
Kasalxonalar qishloq joylarda	ming. kv m	6112,4	6214,0
Shifoxonalar (QVP bilan) qishloq joylarda	joylar soni	240	365
Umumta'lim maktablari	joylar soni	180	205
Shuningdek, kapital remont	qabullar soni	2310	1705
Akademik litseylar	qabullar soni	2210	1295
Kasb-hunar kollejlari qishloq joylarda	o'rin	212393	217945
Gaz quvurlari qishloq joylarda	o'rin	374664	408482
Ichimlik suv quvurlari qishloq joylarda	o'rin	12885	14655
km	110940	113195	
km	86385	93810	
km	774,5	824,3	
km	710,7	724,2	
km	1900,7	2666,8	
km	1641,6	1865,1	

Jo'g'rofiy omillar – aholi joylashuv tarkibi, shaharlashuv (urbanizatsiya) darajasi; biologik iqlim xususiyatlari, tabiiy iqlim sharoitining mehnat tusi va rejimiga, xalq xo'jaligining ixtisoslashuvi, me'morchilikka ta'siri, rekreatsiya

imkoniyatlari va ulardan foydalanish darajasi; tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik va tabiatdan foydalanish xususiyati.

Demografik omillar – aholining ko'payish tartibi, uning soni, tarkibi va tabiiy ko'chib yurish ta'sirida joylashuvning o'zgarishi, aholi migratsiyasi va safarbarligi; aholi va mehnat resurslarining jinsiy va yosh tarkibi; oilalarning shakllanishi, o'sish va ajratish sharoiti, ularning turi va tarkibi, migratsiya tusi, migratsiya oqimlari tarkibi, aholining milliy tarkibi, ayrim millatlar va elementlarni zich yoki tarqoq yashash darajasi.

Ijtimoiy omillar – ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanish darajasi va o'sish istiqboli, mintaqaning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi ulushi; hozirgi bosqichda va istiqbolda xalq xo'jaligining tarkibi, boshqaruv tizimi, mintaqada ilmiy-texnik taraqqiyoti tusi, shahar va qishloq aholisining turmush tarzi, milliy va maishiy xususiyatlar, an'anaviy etnik qadriyatlar, ularning me'morchilikda aks etishi; mintaqada yashovchi millatlar va elatlarning, milliy va etnografik guruhlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishi hamda madaniy ehtiyojlar tusi va til taraqqiyoti.

Mazkur omillarni mintaqaviy xususiyatlar va boshqa alomatlardan kelib chiqib, sifat va aralash tavsiflar bo'yicha tashkil qilish; ulardan hal etish zaruratiga ko'ra, eng dolzarb omillarni ajratish mumkin. Iqtisodiyotning ijtimoiy sohaga yo'naltirilishi ijtimoiy infratuzilmani mustaqil boshqaruv obyekti, uni rivojlantirish muammolariga tizimli yondashuv sifatida alohida ajratib olishni shart qilib qo'yadi.

Infratuzilmaning yaxlit boshqaruv obyekti sifatida ajratilishi butun xalq xo'jaligi muvozanatli va mutanosiblik asosida rivojlantirilishi, mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi nomutanosibliklarga barham berish imkonini yaratadi. Ijtimoiy adolat prinsiplarini ro'yobga chiqarishdan iborat maqsad ijtimoiy infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirishning asosiy vazifalarini

mahalliy boshqaruv idoralari, hokimliklar qo'liga topshirishni taqozo etadi.

Kuchli ijtimoiy siyosat yuritish muammolari ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishni davlat vazifasi darajasiga ko'tarishni, ayni vaqtida moliyalash manbaidan qat'iy nazar, investitsiya siyosatini, uni amalga oshirishning barcha belgilangan afzalliklari bilan birga qayta ko'rishni taqozo etadi.

Respublikamizda qishloq obodonligini hamda uning aholisi farovonligini ta'minlash davlatimiz iqtisodiy siyosatining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, qishloq aholisini uy-joy bilan ta'minlashning ahamiyatli chora-tadbirlari amalga oshirilishi natijasida mazkur ko'rsatkich sezilardi darajada o'sib bormoqda. Agar 1996-yilda qishloq uy-joy fondi 180,5 mln. kv. metrni tashkil etgan bo'lsa, 2006-yilda 240,9 mln. kv. metrga yetgan. Umuman olganda, 1996–2006-yillar davomida respublika bo'yicha jami uy-joy fondining o'sish darajasi 127,4% ni tashkil etgani holda, bu ko'rsatkich shaharda 118,6% ni, qishloqda 133,5% ni tashkil etgan. Bu esa qishloq farovonligi va obodonchiligining oshishida muhim shart-sharoit yaratadi.

«Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturi doirasida ham qishloq aholisining uy-joy sharoitini yaxshilash chora-tadbirlarini kuchaytirish ko'zda tutilgan. Buning uchun eng avvalo yakka tartibda uy-joy qurish dasturini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu asosda qishloq joylarida 7100 ming kv.m uy-joy qurilishi amalga oshiriladi. Albatta, bu jarayonlarni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun imtiyozli kreditlar ajratish ko'zda tutilgan. Shunga ko'ra, 2009-yilda qishloq yashash joylarini to'la inventarizatsiyadan o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Uy-joy qurilishi ishlarini jadallashtirish, ularni izchil amalga oshirish maqsadida xususiy qurilish uyushmalari faoliyatini tashkil etishni yo'lga quyish muhim tadbirlardan hisoblanadi. Ushbu jarayonlarni aholi keng e'tiboriga yetkazish borasida qishloqlarda qurilayotgan namunali uy-

joylar to‘g‘risida axborot beruvchi «Shinam uy» teleko‘rsatuvini tashkil etish ham ko‘zda tutilgan.

Keyingi yillarda qishloqdagi aholining har bir kishi hisobiga uy-joy bilan o‘rtacha ta‘minlanganligi oshib bormoqda. Ayni paytda, obodonchilik darajasining oshishiga ta‘sir qiluvchi shart-sharoitlar ham yaxshilanib bormoqda. Masalan, tabiiy gaz bilan ta‘minlanganlik darajasi 1996-yildagi 58,6% dan 2006-yilda 71,4% ga, vodoprovod bilan ta‘minlanganlik darajasi 23,9% dan 45,1% gacha oshgan. Biroq hali qishloq obodonchiligini ta‘minlashda hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar ham mavjud. Jumladan, yillar davomida oshib borayotganligiga qaramay, bugungi kunda qishloqdagi uy-joylarning markaziy isitish vositalari (17%), kanalizatsiya (9%), issiq suv ta‘minoti (2,3%), vanna (2%) bilan ta‘minlanish darajasi juda past.

Shunga ko‘ra hozirda qishloq hududlarini suv bilan barqaror ta‘minlash bo‘yicha 1836 km yangi suv tizimini qurish, 304 ta obyektni rekonstruksiya qilish, bu boradagi 2010–2015-yillarga mo‘ljallangan dasturni ishlab chiqish tadbirlarini ham o‘z ichiga oladi. Shu qatorda 2009-yilda uzunligi qariyb 700 kilometrlik tabiiy gaz tarmoqlarini ishga tushirish, chekka tumanlarni suyultirilgan gaz bilan ta‘minlashni tubdan yaxshilash belgilangan.

Qishloq joylarining obodonligi va aholisining farovonligini avtomobil yo‘llari va transport vositalari tizimisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra, 2009-yilda qishloq joylarda avtomobil yo‘llarini rivojlantirish va transport xizmatini yaxshilash maqsadida 67 ta yangi avtomobil marshrutini yo‘lga qo‘yish va 1913,9 km mahalliy yo‘llarni ta‘mirlash ko‘zda tutilgan.

Aholi turmush darajasi ko‘p jihatdan xizmat ko‘rsatish va servis sohasining rivojiga bog‘liq. Ayniqsa, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish darajasi qishloqdagi turmush farovonligiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. 2009-yilda xizmat ko‘rsatish va servisni yangi sifat darajasiga ko‘tarish, jumladan, qishloqda xizmatlar sohasida 140 ming yangi ish

joylari tashkil etish, 452 ta savdo magazinlari, 1856 ta maishiy xizmat korxonalari, 500 dan ortiq minibanklar tashkil etish, qishloq aholisi yashayotgan joylarda telefon va aloqa tizimini tubdan yaxshilash, sport va turizmni rivojlantirish tadbirlari belgilangan.

Shuningdek, qishloq joylarni obodonlashtirish ishlarini izchil tizimga solish, ularni muntazam ravishda olib borish maqsadida obodonlashtirish moddiy-texnika bazasini mustahkamlashning 2009–2011-yillarga mo‘ljallangan dasturini ishlab chiqish, obodonlashtirish ishlari tashkil qilish va rag‘batlantirish qoidalarini tayyorlash jarayonlari amalga oshirilmoqda.

Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish o‘z ichiga mahalliy qurilish materiallari ishlab chiqarishni kengaytirish, qishloqda yangi qurilish texnologiyalarini qo‘llash ishlarini ham oladi. Bunda yangi qurilish materiallari ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish, mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirish tadbirlari ko‘zda tutiladi. Qishloq joylarida 77 ta yangi qurilish materiallari firma magazinlarini tashkil qilish ham shular jumlasidandir.

Qishloqni yoqilg‘i energetika zaxiralari bilan barqaror ta’minalash uchun qulay sharoitni yaratish borasida mavjud elektr va gaz tarmoqlarini to‘la inventarizatsiya qilish, yangi elektr va gaz tarmoqlarini qurish, mavjudlarini kapital ta’mirlash va rekonstruksiya qilish, uzoq joylarda joylashgan qishloqlarni gaz va ko‘mir bilan ta’minalashga mo‘ljallangan servis markazlarini tashkil etish belgilangan.

Qishloqlarning qiyofasini yangilash, qishloqda istiqomat qiluvchi aholi uchun munosib turmush tarzini shakllantirishda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma obyektlarining ahamiyati katta. Aynilsa, aholini toza ichimlik suvi, elektr quvvati, gaz bilan ta’minalash, zamonaliviy yo‘llar hamda boshqa kommunikatsiya tarmoqlari qishloq taraqqiyoti va farovonligi uchun o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda nafaqat zamonaviy va qulay uy-joylar va kottejlar qurish, ayni vaqtida bolalar bog'chalari, umumta'lim maktablari, musiqa va san'at maktablari, sport inshootlari, tibbiyot muassasalari, xizmat ko'rsatish obyektlari, keng va ravon yo'llar, ya'ni, qishloq aholisining qulay va munosib hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan barcha sharoitlarni o'z ichiga olgan zamonaviy va obod qishloqlarni barpo etish ko'zda tutilmoqda.

Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish orqali aholi yashash sharoitlarini yanada yaxshilash, turmush darajasini oshirish va xalq farovonligini ta'minlashga erishish maqsad qilib qo'yilgandir. Hukumatimiz tomonidan infratuzilmalarni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan yirik davlat dasturlari natijasida hududlarda bir qator diqqatga sazovor ishlar qilindi.

Respublika bo'yicha jami 964,2 km gaz tarmoqlarida qurilish va rekonstruksiya ishlari to'liq yakunlanib, foydalanishga topshirildi, 2,3 ming km suv tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirilgan, 366 ta (19 mlrd. so'mlik) qishloq aholi punktlarida suv obyektlari qurib, foydalanishga topshirilgan.

2009-yilda davlat byudjeti mablag'lari hisobidan 182 ta zamonaviy litsey va kollejlarda hamda 697 ta maktablarda qurilish ishlari to'liq yakunlangan. Bundan tashqari, mahalliy byudjet va homiylar mablag'lari hisobidan hududlarda jami 1,5 mingga yaqin maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarini (17,7 mlrd. so'mlik), 246 ta kasalxona va qishloq vrachlik punktlari (6 mlrd. so'mlik), 84 ta sport obyektlari (8,2 mlrd. so'mlik) to'liq ta'mirdan chiqarilib, foydalanishga topshirilgan.

Hududlarda 2100 ta ko'p xonardonli uylar to'liq kapital ta'mirlanib, mazkur ishlarga mahalliy byudjet manbalari hisobidan 24,2 mlrd. so'mlik mablag' sarflangan.

Qishloqlarning taraqqiyotini yuksaltirish, ularni zamonaviy arxitektura talablari asosida qayta qurish, ijtimoiy infratuzilmalarni va kommunikatsiya tizimlarini

keng ko'lamda barpo etish qishloq aholisining farovonligini yuksaltirish, ular uchun munosib turmush tarzini shakllantirishga qaratilgandir (11.3.2-jadval).

11.3.2-jadval

O'zbekistonda xizmatlar hajmining o'sish sur'ati (o'tgan yilga nisbatan foizda)

Xizmat turlari	2007-yil	2008-yil	2009-yil	2010-yil
Jami xizmatlar	126,6	121,3	116,7	113,2
Savdo va umumiy ovqatlanish	132,5	126,8	121,8	115,7
Transport xizmatlari	121,1	112,7	110,4	107,1
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	151,5	140,1	121,6	129,0
Moliya xizmatlari	123,8	132,2	124,7	122,6
Turistik-sayyohlik xizmatlari	122,3	140,1	121,6	112,7
Mehmonxona xizmatlari	109,3	122,5	112,3	109,0
Kommunal xizmatlar	109,3	108,4	101,1	99,1
Maishiy xizmatlar	128,0	129	122,6	121,8
Avtomobillar va boshqa texnikani ta'mirlash xizmatlari	138,7	139,2	130,2	124,4
Boshqa xizmatlar	142,5	130,6	128,6	120,5

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, qishloqda uy-joy qurish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishni jadallashtirish dasturi zamirida juda ulkan hajmdagi ishlar mujassam ekanini, u o'n minglab yangi ish o'rinalarini yaratish, ana shu keng ko'lamli bunyodkorlik ishlarida mamlakatimiz aholisining faol ishtirokini ta'minlash imkonini berishini unutmasligimiz kerak.

Keyingi yillarda qishloqda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar:

- jami 964,2 km gaz tarmoqlarida qurilish va rekonstruksiya ishlari to'liq yakunlanib, foydalanishga topshirildi;

2,3 ming km suv tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirildi;

– 366 ta qishloq aholi punktlarida suv obyektlari qurib foydalanishga topshirildi;

– Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan 182 ta zamonaviy litsey va kollejlarda hamda 697 ta maktablarda qurilish ishlari to‘liq yakunlandi.

Mahalliy byudjet va homiylar mablag‘lari hisobidan:

– jami 1,5 mingga yaqin maktab va maktabgacha ta’lim muassasalari (17,7 mlrd. so‘mlik);

– 246 ta kasalxona va qishloq vrachlik punktlari (6 mlrd. so‘mlik);

– 84 ta sport obyektlari (8,2 mlrd. so‘mlik) to‘liq ta’mirdan chiqarilib, foydalanishga topshirildi;

– 2100 ta ko‘p xonadonli uylar to‘liq kapital ta’mirlanib, mazkur ishlarga mahalliy byudjet manbalari hisobidan 24,2 mlrd. so‘mlik mablag‘ sarflandi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ijtimoiy infratuzilmaning mohiyati, mazmuni va vazifalari nimalardan iborat?

2. «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi» Davlat dasturi doirasida qishloq joylarda zamonaviy uy-joylarni qurish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda nimalarga e’tibor qaratilgan?

3. Ijtimoiy infratuzilmaning qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishga ta’siri nimadan iborat?

4. Qishloq xo‘jaligida ijtimoiy infratuzilmani tashkil etish va yanada rivojlantirish yo‘llari nimalardan iborat?

5. Qishloq aholisini ish bilan ta’minlashda ijtimoiy infratuzilmaning o‘rni nimadan iborat?

XII BOB. QISHLOQ AHOLISIGA MADANIY-MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH

O‘quv maqsadi: aholiga madaniy-maishiy xizmat ko‘rsatish turlari, ularni tashkil etish hamda kadrlar tayyorlash va sog‘liqni saqlash tizimlarini takomillashtirish bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

12.1. Aholiga madaniy-maishiy xizmat ko‘rsatish turlari va ular faoliyatini tashkil qilish

Qishloqni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ko‘p jihatdan qishloq joylarda aholi uchun qulay madaniy-maishiy xizmat ko‘rsatish shoxobchalarini tashkil etish va ularning turlarini ko‘paytirishga bog‘liq.

Qishloqlarning istiqbolda ijtimoiy rivojlanishini xizmat ko‘rsatish sohalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Aholini ish bilan ta’minalash muammosini hal etish qishloqda sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish tadbirlarini amalga oshirish bilan bevosita bog‘liq. Bugun sanoat, xizmat ko‘rsatish sohalarini qishloqqa olib kelish, mahsulotlarni qayta ishlaydigan sanoat korxonalarini qishloqqa joylashtirishni mahalliy hokimiyatlar, tadbirkor ishbilarmonlar, turli mulk egalari oldiga asosiy vazifa etib qo‘ylgani ham tasodifiy emas.

Bugungi kunda xizmat ko‘rsatish tarmoqlari asosan shahar va tuman markazlarida ko‘proq joylashgan bo‘lsa, endi uni shahar atrofidagi posyoqla, qishloqlarda tashkil etish zarurati ortmoqda. Shuni doimo nazarda tutmog‘imiz kerakki, xizmat ko‘rsatish tarmoqlari darajasi mamlakatning taraqqiy etayotganligi, jamiyatning rivojlanayotganligini ko‘rsatuvchi muhim mezondir.

Aholiga madaniy-maishiy xizmat ko‘rsatish to‘g‘risida so‘z borar ekan, biz O‘zbekistonda amal qilayotgan xizmat turlarini sanab o‘tishimiz lozim. Bular turli sohalarda bo‘lib, quyidagilardan iborat:

- maishiy xizmat ko'rsatish;
- yo'lovchi tashish xizmati;
- aloqa xizmati;
- uy-joy xo'jaligi;
- ta'lif tizimi;
- madaniy xizmat ko'rsatish;
- sayyoqlik-ekskursiya xizmati;
- jismoniy tarbiya va sport xizmati;
- sog'liqni saqlash (tibbiy) xizmati;
- sanatoriya-kurort va sog'lomlashtirish xizmati;
- huquqiy tusdagi va bank muassasasi xizmati;
- kommunal xizmatlar.

Madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish tarkibiga quyidagi xizmatlar kiradi:

- poyabzal ta'mirlash va tikish;
- kiyim-bosh va trikotaj mollarini tikish, to'qish va ta'mirlash;
- teleradio, video, audio apparatlarini ta'mirlash;
- metall buyumlarini tayyorlash va ta'mirlash;
- avtomobilarga texnik xizmat ko'rsatish;
- mebel yasash va ta'mirlash;
- kimiyoziy tozalash va bo'yash;
- kir yuvish xizmati;
- uy-joylarni ta'mirlash va qurish;
- surat va kinolaboratoriya xizmati;
- hammom va dush xizmati;
- sartaroshlik va kosmetologik xizmat;
- buyumlarni ijaraaga berish xizmati;
- aholiga yuk tashish transporti xizmati;
- marosimlar o'tkazish xizmati.

12.2.Madaniy-maishiy xizmat ko'rsatuvchi muassasalarining qishloq aholisi turmush darajasini oshirishdagi roli

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning ustuvor vazifalaridan biri, qishloqda turmush darajasini yuksaltirishga, qishloqlarimiz qiyofasini o'zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli va bir-biri bilan chambarchas bog'liq keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni jadallashtirish, mulkdorning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o'rni va ahamiyatini tubdan qayta ko'rib chiqish, fermer xo'jaliklari rivojini har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan iborat (12.2.1-jadval).

12.2.1-jadval

O'zbekiston Respublikasi qishloq joylarida mavjud infratuzilmaning zamonaviy holati

	Yillar					2008-yilda 2004-yilga nisbatan o'zgarishi
	2004	2005	2006	2007	2008	
Qishloq joylarda umumta'lim maktablari bilan ta'minlanganlik darajasi, %	70,6	70,7	72,1	73,2	74,8	4,2 f.p.
Qishloq joylarda kasalxonalarining ishgaga tushirilishi, koyka soni	200	300	65	180	205	102,5
Poliklinikalarga 1 smenada davolanganlar soni, ming kishi	12595	13490	13450	2410	1705	13,5%

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida diqqat markazda inson va uning farovonligi turibdi. Avvalambor,

ushbu omil hozirgi kunda demokratik rivojlanish yo‘lida bo‘lgan harakat bilan aniqlanadi.

Qishloqni isloh qilish qishloq aholisining turmush darajasini oshirish – hozirgi bosqichda agrar siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Davlat qishloq va shahar aholisining turmush tarzini yaxshilashda qishloq xo‘jaligi korxonalarining barcha bo‘g‘inlarini malakali kadrlar bilan ta‘minlashga, qishloq mehnat resurslaridan to‘liq va unumli foydalanishga, bandlik tarkibini yaxshilashga qaratilgan siyosatni amalga oshirmoqda.

Respublikamizda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning asosiy maqsadi – jamiyatda aholining asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirishni ta‘minlaydigan qulay ijtimoiy muhit va shart-sharoitlarni yaratish. Ushbu ijtimoiy siyosatning asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- iqtisodiy faoliyat erkinligi;
- aholining mehnat faoliyatini oshirish;
- aholini adresli ijtimoiy himoyalash;
- aholiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasini rivojlantirish.

Iqtisodiy islohotlar chuqurlashib, barqarorlashib borgan sari asta-sekin aholini yalpi ijtimoiy himoyalash tizimidan ishonchli ijtimoiy kafolat berish va aholining faqat muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmi yaratilishiga bosqichma-bosqich o‘tila boshlandi. Aholining hamma qatlamlarini yoppasiga ijtimoiy qatlam va guruhlarga tabaqalashtirish bilan almashtirildi va aholini adresli ijtimoiy himoyalash tizimi shakllana boshlandi. Bu tizimga: byudjet mablag‘lari hisobidan aholining ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlariga nafaqa to‘lash, qonuniy ravishda belgilangan eng kam miqdordagi ish haqi, pensiya to‘lash uchun saflash aholining muayyan toifasiga bepul ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni ta‘minlash; qator ijtimoiy xizmatlarni minimal darajada iste’molchilarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazib berish va boshqalar kiradi.

Iqtisodiyot erkinlashtirilayotgan va bozor islohotlari chuqurlashib borayotgan bosqichda kuchli ijtimoiy siyosat to‘laligicha ustuvor bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bu borada: «Aholining ijtimoiy himoyasini ta‘minlash islohotlarning barcha bosqichida asosiy yo‘nalish bo‘lib xizmat qiladi. Bu islohotlarimizga asos qilib olingan besh tamoyillardan biridir. Biz bundan keyin ham shu tamoyilga tayangan holda ish olib borishimiz kerak», – deb alohida ta‘kidlaydi.

Islohotlarning dastlabki yillarida tarkib topgan o‘tmish davri aholining real daromadlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Faol institutsional o‘zgarishlar, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, shuningdek makroiqtisodiy barqarorlashtirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar inflyatsiya darajasining pasayishiga daromadlar yangi manbalarining shakllanishiga va aholining nodavlat sektorida band bo‘lgan shaxslar foydasiga tabaqalashuvi kuchayishiga olib keldi.

Aholi daromadi haqida so‘z yuritganimizda, uning turmush darajasini belgilaydigan omillar haqida to‘xtalib o‘tsak, ular quyidagilardan iborat:

- Makroiqtisodiy omillar – inflyatsiya, soliq va pul-kredit siyosati;
- Aholinig shaxsiy iste’moli ko‘rsatkichlari;
- Demografik o‘sish;
- Ish bilan bandlik darajasi, mehnat bozoridagi talab va taklif, ish vaqtining davomiyligi;
- Iqtisodiy o‘sish;
- Uy-joy va kommunal xizmatlar bilan ta‘minlanganlik;
- Sog‘liqni saqlash ko‘rsatkichlari;
- Ta’lim darajasi;
- Ijtimoiy ta‘minot tizimi.

Aholinig mavjud daromadi uning ijtimoiy farovonligining indikatoridir. Aholining iqtisodiyotni isloh qilish ta’sirida uzoq vaqt davomida o‘zgarishlarga uchragan pul daromadlari tarkibi nisbiy muvozanatga keldi.

MDH davlatlari bo'yicha 2004-yilda aholi turmush darajasini belgilovchi 20 ta asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha ijtimoiy farovonlik indeksining o'sishi tahlil qilib chiqilganda 12 ta davlat ichida O'zbekiston Respublikasi 0,738 indeksi bilan 1-o'rinda turadi. Rossiya davlati 0,626 koeffitsient bilan 6-o'rinda, Tojikiston Respublikasi 0,619 koeffitsient bilan 8-o'rinda turadi.

«Turmush darajasi»ga berilgan ta'riflarning aksariyati ushbu tushunchaning ayrim jihatlarini ifodalaydi. Biroq mazkur atamaning mohiyatini majmuaviy tarzda ochib berishga qaratilgan ta'riflar alohida e'tiborga molik. Chunonchi, rus iqtisodchisi Gurev V.I. «Turmush darajasi» tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: «Turmush darajasi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy atama bo'lib, kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining qondirilganlik darajasini ifodalaydi. U ko'plab unsurlardan tashkil topadi. Bunday unsurlar jumlasiga mehnatkashlarning real daromadlari hajmi, aholi tomonidan moddiy boyliklar va xizmatlarining iste'mol qilinishi darajasi, aholining qulay uy-joy sharoitlari bilan ta'minlanganligi, fuqarolarga tibbiy va madaniy-maishiy xizmat ko'rsatishning rivojlananlik darajasi, tabiiy muhitning holati va boshqalarni kiritish mumkin».⁵⁰

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, aholining turmush darajasini belgilaydigan omil uning daromadidir. Iqtisodiy adabiyotlarda aholining daromadlari, ya'ni daromad deganda – insonning jismoniy, aqliy va moddiy holatini saqlab borishga yo'naltiriladigan pul va natural vositalar jamuljami, deb ta'rif berilgan.

Aholi daromadlarining shakllanishiga tashqi va ichki omillar ta'sir etadi. Tashqi omillar quyidagilardan iborat:

– Iqtisodiy va jo'g'rofiy holat;

⁵⁰ Xolmatov A.A. Aholi turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi // Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida kuchli ijtimoiy siyosat va inson omilining rivojlanishi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiysi tezislari to'plami.

- Tabiiy-iqlimi sharoitlar;
 - Tabiiy resurslar;
 - Aholi tarkibi va demografik salohiyati;
 - Moliyaviy ta'minlanganlik;
 - Hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi;
- Ichki omillarga esa quyidagilar kiradi:
- Aholining iste'mol va sarf-xarajatlari darajasi;
 - Pul jamg'armalari;
 - Ko'chmas mulk va uy xo'jaligi aktivlari;
 - Ta'lim va salomatlik;
 - Ish bilan bandlik kabi ko'rsatkichlar kiradi.

O'zbekistonda iqtisodiy himoyani amalga oshirishning asosiy manbai davlat byudjeti, byudjetdan tashqari fondlar, ijtimoiy sug'urta jamg'armasi, korxona va jamoat tashkilotlari ajratayotgan mablag'lardan tashkil topadi.

Hozirgi kunda ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda, MDH shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida aholi daromadlarini tartibga solish va uni ijtimoiy himoya qilishning turli shakllari va uslublari qo'llanilmoqda. Bunday tartibga solishning asosiy shakl va uslublari quyidagilar hisoblanadi:

- huquqiy (qonuniy) tartibda ishlab chiqarishning mulk shaklidan qat'iy nazar eng kichik ish haqini, eng kichik nafaqa haqini, ish kunining davomiyligini, ishlovchilar uchun ta'tilni o'rnatish;
- byudjetdagi ishlovchilar uchun hamda davlat korxonalarida ishlovchilar uchun mehnatga haq to'lashning tarif tizimini o'rnatish;
- pensiya, nafaqa, stipendiya va urush hamda mehnat fronti qatnashchilari uchun imtiyozlar darajasini belgilaydi;
 - aholi daromadlariga soliq solishning progressiv tizimi;
 - qishloq aholisiga qo'shimcha 60 ming sug'oriladigan maydon ajratildi;
 - byudjet xarajatlarida ijtimoiy rivojlantirishga, shu jumladan, aholini ijtimoiy himoyalashga xarajatlar ajratildi;



12.2.1-rasm. Aholi pul daromadlarining tarkibiy tuzilishi

Nominal daromad – aholi tomonidan ma'lum vaqt oralig'ida olingan daromadlarining pul ko'rinishidagi miqdori.

Real daromad – narx darajasi o'zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo'lgan daromadga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori bo'lib, real daromad aholining ixtiyorida bo'lgan daromadning xarid quvvatini bildiradi.


Ish haqi va aholi real daromadlarining ahamiyatli darajada o'sishi milliy iqtisodiyotning barqaror sur'atlarda rivojlanishi bilan bir qatorda tashqi savdo va eksport sohasidagi faoliyatning samaradorligiga ham bog'liq. Aholining real daromadlari 2009-yil davomida 26,5 foizga ko'paygani, ish haqi, pensiya va nafaqalarning o'sishi 2009-yilda o'rta hisobda 40 foizni tashkil etgani buning tasdig'idir.

So'nggi yillarda ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdorini oshirish, jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq stavkalarini kamaytirish, inflyatsiya darajasini pasaytirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida aholining yalpi va real daromadlari sezilarli ravishda oshdi, uning xarid qobiliyati barqaror sur'atda o'sib bormoqda. Jumladan, 2009-yilda 2000-yilga nisbatan o'rtacha ish haqi 28,5 barobar, pensiyalarning o'rtacha miqdori qariyb 18 barobar, aholi jon boshiga nisbatan pul daromadlari esa 12 barobar oshdi.

2010-yilda ham ish haqini kamida 30 foizga, real daromadlarni esa 23 foizga oshirish mo'ljallanmoqda. Aholining uzoq muddatli foydalanishga mo'ljallangan sanoat tovarlarini xarid qilish bo'yicha xarajatlari sezilarli darajada o'sdi.

Bunday sharoitda aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati bilan mammakatimiz korxonalarida ishlab chiqarilayotgan iste'mol tovarlari hajmi o'rtaida ichki bozorda mutanosiblikni ta'minlash, bunday mahsulotlar turini kengaytirish, bozorlarimizni ular bilan ishonchli tarzda to'ldirib borish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aholining turmush farovonligi ko'p jihatdan uning oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Mazkur masalani hal etishda ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish, dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatlaridan yanada samarali foydalanish zarur bo'ladi.

Aholi turmush darajasiga uning pul sarf-xarajatlari va jamg'armalari tarkibi hamda ular o'rtaisdagi nisbat ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Umumiy holda aholi pul sarf-xarajatlari va jamg'armalari tarkibi tovar sotib olish va xizmatlarga to'lovlar, majburiy to'lov va badallar, omonatlar, qimmatli qog'ozlar, qat'iy valyuta xarid qilish va boshqa sarf-xarajatlardan iborat bo'ladi (12.2.2-rasm).



12.2.2-rasm. Aholi pul sarf-xarajatlari va jamg'armalari


Ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish jarayoni aholi hayot faoliyati uchun sharoitlar yaratadi. Bu sharoitlar «tur mush sifati» tushunchasi bilan tavsiflanadi.

Turmush sifati – jamiyat farovonligi darajasini namoyon etuvchi va mohiyatiga ko‘ra uning o‘lchovi hisoblanuvchi tushuncha.


Turmush sifati ko‘plab omillar ta’sirida shakllanadi (12.2.3-rasm).

Hozirgi kunda aholi turmush darajasini yaxshilash va ularga qulayliklar yaratish jarayonida xonadonlarni gazlashtirish va aholi uchun yetkazib beriladigan tabiiy gaz narxini belgilash masalasi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Respublikamiz xalq xo‘jaligi tarmoqlari va aholiga yetkazib berilayotgan tabiiy gaz qo‘sni davlatlarga nisbatan arzon narxlarda yetkazib beriladi. Masalan, aholiga 1 ming m³ hajmdagi tabiiy gazni sotish uchun Qирг‘изистонда 309 dollar, Тојикистонда 303,5 dollar, Qозог‘истонда 100-140 dollar, О‘збекистонда esa 30 dollar narx belgilangan.

Shuningdek, mamlakatimizda mustaqillikka erishilgach aholi uy-joy va xonadonlarini gazlashtirishga katta e’tibor



12.2.3-rasm. Tur mush sifatining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar



12.2.4-rasm. Xonadonlarni tabiiy gaz bilan gazlashtirilganlik darajasi⁵¹

qaratilmoqda (12.2.4-rasm). Ayniqsa, bu borada shahar va qishloqlarni gaz bilan ta'minlanganlik darajasi o'rtasida tafovutni keskin qisqartirishga ahamiyat berilmoqda.


Buning natijasida 2010-yil 1-yanvar holatiga ko'ra respublikamizdagi xonadonlarning gaz bilan ta'minlanganlik darajasi shahar joylarida 85 foizni, qishloq joylarida esa 78,7 foizni tashkil etdi. Shu kunga qadar jami gazlashtirilgan xonadonlar soni 4270,6 mingtani tashkil etib, shundan 2419,8 mingta xonadon shaharda, 1850,8 mingta xonadon qishloqda joylashgan.

Aholining iste'mol buyumlari bilan ta'minlanganlik va real daromadlari hajmining o'sishini ular jamg'armalari,

⁵¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatni barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rGANISH bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. 2010. 154-bet.

xususan moliyaviy muassasalardagi omonatlari miqdorining oshishi orqali ham kuzatish mumkin. Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda aholining kredit tashkilotlaridagi omonatlari qoldig'i 2009-yil davomida 1 trln. 190,4 mlrd. so'mga yoki 69,1 foizga oshib, 2010-yil 1- yanvar holatiga ko'ra 2 trln. 914,2 mlrd. so'mni, shu jumladan tijorat banklarida – 2 trln. 749,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Demak, 2009-yilning o'zida aholining tijorat banklaridagi omonati 1,7 barobar oshganligi uning real daromadlari o'sib borayotganligidan darak beradi.

Qishloqda turmush darajasini yuksaltirishga, qishloqlarning qiyofasini o'zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli va bir-biri bilan chambarchas bog'liq keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni jadallashtirish, mulkdorning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o'rni va ahamiyatini tubdan qayta ko'rib chiqish, fermer xo'jaliklari rivojini har tomonlama qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloqda turmush darajasini yuksaltirish hamda qishloqlarning qiyofasini o'zgartirishga qaratilgan chora-tadbirlar ichida, eng avvalo, qishloqda



12.2.5-rasm. 2009-yilda qishloq joylarida ishga tushirish ko'zda tutilgan ta'lim tizimi va bolalar sporti obyektlari, dona

yashayotgan aholi manfaatlarini yanada to'laroq ta'minlash maqsadida qonuniy-me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish muhim hisoblanadi. Chunki, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning amal qilish samaradorligi ko'p jihatdan ularning huquqiy va iqtisodiy asoslarini uyg'unlashtiruvchi yaxlit mexanizmning to'g'ri ishlab chiqilishiga bog'liq.

Qishloqda turmush darajasini yuksaltirish ko'p jihatdan aholining sog'lig'ini saqlash, madaniyatini oshirish, ta'lim tizimi sifatini yanada ko'tarish bilan bog'liqdir. Bu esa, birinchi navbatda, investitsiya dasturlari asosida sog'liqni saqlash muassasalarini tibbiyot texnikasi va apparaturalar bilan ta'minlashni taqozo etadi.

Qishloq joylarida ta'lim tizimi va bolalar sporti moddiy-texnik negizini mustahkamlash maqsadida 2009-yilda ko'plab obyektlarni ishga tushirish ko'zda tutilmoqda (12.2.5-rasm).

12.3. Qishloqlarda madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'ida kadrlar tayyorlash

Yurtboshimiz mustaqillikning dastlabki yillaridayoq kadrlar tayyorlash ishiga muhim e'tibor qaratib quyidagi fikrlarni bildirgan edilar: «Agar ertangi kunimizni o'ylab ish qilmoqchi bo'lsak, kelajakda ishimizni davom ettiradigan bugungi yoshlarimizga sharoit yaratib ularning hayoti haqida qayg'uradigan bo'lsak, avvalo, mahalliy yoshlarni tarbiyalash ishiga munosabatimizni mutlaqo o'zgartirishimiz kerak...

... kadrlarni puxta qilib tayyorlamasdan, ularning qadriga yetmasdan, ularga ishonmasdan va qo'llab-quvvatlamasdan, o'ylaymanki, biron-bir sohada ahvolni hech qanaqa tarzda o'zgartirib bo'lmaydi».⁵²

⁵² I.A.Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: O'zbekiston, NMIU, 2011, 70-71-betlar.


Qishloqda maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarini tashkil etilishi mehnatga yaroqli aholining ish bilan band bo'lgan ortiqcha qismini, asosan qishloqda yashayotgan xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilish va shu tariqa qishloqlarda ishsizlikning kuchayib borish xavfi barham topishida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Maishiy xizmat ko'rsatish sohasida kadrlar tayyorlash o'tish davrining talabi bo'lgan uzlusiz ta'lim asosida bajariladi. Maishiy xizmat ko'rsatish sohasida ishlashni xohlovchi qishloq yoshlari majburiy ta'limdan so'ng joylarda tashkil qilingan litsey va kollejlarda kasb-hunar egallaydilar. Hozirgi vaqtida uzlusiz ta'lim tizimini jahon andozalariga to'liq javob bera oladigan darajaga ko'tarish amalga oshirilmoqda. Ularda ta'lim xarajatlari davlat tomonidan ajratilgan mablag'lar hisobiga qoplanadi.

Maishiy xizmat ko'rsatish xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash hozirda tashkil qilinayotgan o'quv markazlari, oylik kurslarda, chet elning O'zbekistondagi o'quv fondlari, firmalar yoki jismoniy shaxslar buyurtmalari bo'yicha pullik amalga oshiriladi.

Hozirda o'sib kelayotgan avlodning bugungi kunda ta'lim sohasida tashkil etilgan zamonaviy moddiy-texnik bazasidan samarali foydalanishni ta'minlash, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimidagi yo'nalishlar va mutaxassislar bo'yicha davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, o'quv-metodik adabiyotlarni qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2010-yilda ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini takomillashtirish doirasida 14 ta umumta'lim maktablari, 4 ta akademik litsey, 99 ta o'quvchi talabalar turar joylarini, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, Termiz Davlat universiteti, Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialining yangi o'quv korpuslarini qurish, Toshkent Moliya institutining o'quv korpusini qayta ta'mirlash amalga oshirilishi rejalashtirilgan.



12.3.1-rasm. Respublika oliv ta'lim muassasalarida bitiruvchilar tahlili⁵³

Yosh avlodni kasbga o'rnatish ularda kasbiy mahorat va ko'nikmalarni hosil qilishda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. 2009-yilda iqtisodiyot tarmoqlarining kichik mutaxassis kadrlar bilan ta'minlanishi holati o'rganilib, hududlar kesimida muayyan mutaxassisliklarga bo'lgan ehtiyoj qondirilganligini va yangi mutaxassisliklarga istiqbolda talab mavjudligini inobatga olgan holda, 123 ta kasb-hunar kollejida 62 ta mutaxassislik bo'yicha kadrlar tayyorlash to'xtatildi; 159 ta kasb-hunar kollejlarida 86 ta mutaxassislik bo'yicha kadrlar tayyorlash

⁵³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatni barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rGANISH bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. 2010. 162-bet.

Barkamol avlodni shakllantirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish

<p>2010 – 2011-yilda umuta’lim maktablari, akademik liiseylar, kasb-hunar kollejlari lokal tarmog’iga ulangan kompyuter sinflarini tashkil etish</p>	<p>Kasb-hunar kollejlari o’quv laboratoriyalarini multimediyalar bilan ta’minlash</p>
<p>Qishloq hududlarida internet xizmatlarini bosqichma-bosqich kengaytirish</p>	<p>2011-yilda harsha umumia’sim maktablarini elektron darsliklar va o’quv filmlar bilan ta’minlash</p>
<p>Bo’lalar bog’chalarini DVD magnatofonlari bilan ta’minlash</p>	

12.3.2-rasm. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish

yo’lga qo’yildi; 34 ta kasb-hunar kollejining ixtisosligi o’zgartirildi.

Ma’lumotlar shuni ko’rsatadiki, 2009-yilda respublika oliv ta’lim muassasalarini 66426 nafar yosh mutaxassis (20930 nafari - 32 foizi davlat granti asosida, 45496 nafari - 68 foizi to’lov-kontrakt asosida) tamomlagan (12.3.1-rasm).

Jumladan, bakalavriatning kunduzgi bo’limlarini 52011 nafar (18246 nafari davlat granti asosida, 33765 nafari to’lov-kontrakt asosida), maxsus sirtqi bo’limlarini 6140 nafar (1236 nafari davlat granti asosida, 4904 nafar to’lov-kontrakt asosida), magistraturani 8275 nafar (1448 nafari davlat granti asosida, 6827 nafari to’lov-kontrakt asosida) yosh mutaxassis bitirib chiqqan.


XXI asr axborot texnologiyalari asri deb e’tirof etilishi hisobga olinsa, barkamol avlodni shakllantirish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, o’quv yurtlarida o’quv laboratoriyalari bazasini takomillashtirish, o’qituvchi-murrabiylarning mehnat faoliyatini moddiy va ma’naviy rag’batlantirishning samarali tizimini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi (12.3.2-rasm).

Hukumatimiz tomonidan bugungi kunda yoshlarni, ziyo'lilarni, olimlarni taraqqiy topgan davlatlar ilmiy

jamoatchiligining e'tibor markazida turgan, eng ilg'or, istiqbolli ilmiy izlanish va tadqiqot ishlarni yurtimizda rivojlantirishga undab, ushbu maqsadda Fanlar akademiyasi va oliy o'quv yurtlari tarkibida yangi laboratoriyalarni tashkil qilish, ularning rivojlangan mamlakatlardagi ilm-fan markazlari bilan samarali hamkorlik aloqalarini o'rnatish zarurligiga e'tibor qaratildi.

Bu yo'nalishdagi ishlarga yangi turtki berish, xorijiy davlatlardan zamонавиј ilmiy jihoz va uskunalarни olib kelish, eng iqtidorli, talantli yoshlarni bu ishga safarbar qilish va rag'batlantirish maqsadida Prezident tomonidan Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi qoshida alohida fond tuzish va uni yetarli darajada valyuta mablag'lari bilan ta'minlash taklif etildi.

Kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining, xususan, qishloq joylardagi yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish borasida mamlakatimizdagi iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishlarda chuqr bilimli, yuksak saviyali, yangicha fikrlaydigan yoshlarning ishtirok etishini ta'minlash barchamizning birinchi navbatdagi vazifamiz hisoblanadi. Chunki:



12.3.3-rasm. Qishloq yoshlarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish tadbirlari

- bugungi kunda O‘zbekiston aholisining yarmidan ko‘prog‘ini 30 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etadi;
- bugungi yoshlar – ertangi kunimizning, kelajagimizning buniyodkorlaridir;
- bozor iqtisodiyotining asosini tashkil etuvchi tadbirkorlik faoliyati o‘z mohiyatiga ko‘ra tavakkalchilik, harakatchanlik, ishbilarmonlik kabi sifatlarni taqozo etadiki, bularning aksariyati ko‘pincha yoshlarda mujassamlashgan bo‘ladi;
- inson mehnatining sermahsulligi darajasi, uning yaratuvchanlik qobiliyati yoshlik davrida nisbatan yuqori bo‘ladi.

Shuningdek, oliy va o‘rta-maxsus o‘quv yurtlari bitiruvchilari va qishloq yoshlarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etishning faol tadbirlarini amalga oshirish muhim hisoblanadi (12.3.3-rasm).

12.4. Istiqbolda qishloq joylarda sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish yo‘llari

Aholi salomatligini mustahkamlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Sog‘liqni saqlash tizimida islohot sog‘liqni saqlashni rivojlantirishni intensifikatsiyalash va zaxiralardan samarali foydalanish bo‘yicha yangi iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirishga qaratilgan.

Hozirgi vaqtida mamlakatimizda salomatlikni muhofaza etish borasida qator qonunchilik hujjalariiga tayanilmoqda. Ulardan eng muhimi – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1996-yil 29-avgustda tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida»gi qonundir. Ushbu qonun xalqaro ekspertlar ishtirokida ishlab chiqilgan va xalqaro standartlarga muvofiq keladi. U fuqarolarning sifatli tibbiy yordam olishga bo‘lgan teng huquqlarini ta‘minlaydi. Sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, respublikada yuksak jahon talablari darajasidagi yuqori texnologiyali, ixtisoslashtirilgan tibbiy markazlarni shakllantirish, ilg‘or

tibbiy texnologiyalarni keng joriy etishning tashkiliy, moliyaviy-iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlarini vujudga keltirish maqsadida muhim vazifalar amalga oshirilmoqda.

Ilg‘or chet el tajribasini hisobga olgan holda yuqori malakali, ixtisoslashtirilgan, tibbiy yordamga muhtoj bemorlarni qabul qiluvchi hamda zamonaviy tashxis va davolash tibbiy uskunalaridan foydalanib davolaydigan maxsus klinikalar va tibbiy markazlarni tashkil etish orqali sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilinmoqda. Maxsus klinikalar va tibbiy markazlar, qoida tariqasida, quyidagi talablarga mos kelishi lozim:

- yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan va o‘z tibbiyot sohasida tan olingen hamda yuksak obro‘-e’tibor qozongan shifokormutaxassislarga ega bo‘lish;
- yuqori texnologiyali tashxis va davolash tibbiy uskunalar bilan jihozlangan, zamonaviy moddiy-texnika bazasiga ega bo‘lish;
- o‘z tibbiy amaliyotida jahon talablariga mos keladigan davolash va tashxisning murakkab usullarini joriy etish hamda keng qo‘llash.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Ijtimoiy kompleksi, Sog‘liqni saqlash vazirligi va Moliya vazirligining tajriba tariqasida quyidagilarni tashkil etish to‘g‘risidagi taklifiga binoan:

- O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining Urologiya ilmiy markazi negizida Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya markazi;
- O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining akademik V.Vohidov nomidagi Jarrohlik ilmiy markazi negizida Respublika ixtisoslashtirilgan jarrohlik markazi;
- Toshkent shahridagi Toshkent viloyat ko‘z mikroxirurgiyasi markazi negizida Respublika ixtisoslashtirilgan ko‘z mikroxirurgiyasi markazi;
- Kardiologiya ilmiy-tadqiqot instituti va Toshkent shahridagi 15-shahar klinik shifoxonasi negizida Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya markazi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.


Sog'liqni saqlashdagi islohotlarning asosiy qoidalari sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishni intensifikatsiyalash va zaxiralardan samarali foydalanish bo'yicha yangi iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirishdir. Bu tibbiyot xizmatini qayta tuzish va tibbiy yordam ko'rsatishning samarali, yangi shakllarini joriy qilishni talab etadi. Islohotning dastlabki bosqichida samarasiz foydalanilayotgan kasalxona o'rnlari qisqartirildi, ular o'rniga kunduzgi – qatnab davolash muassasalari, uyda davolash va ambulatoriya-yordam markazi kabi turdag'i tibbiy yordam ko'rsatishning yangi shakllari rivoj topdi. Bu islohot tibbiy yordam ko'rsatish salmog'ini qimmatbaho statsionar sektoridan ambulatoriya xizmati tomon ko'chirishni ta'minladi.

Sog'liqni saqlashni isloh qilishning eng muhim shartlaridan biri tarmoqni moliyalashtirishning yangi shaklini izlab topish bo'ldi. Ambulatoriya-poliklinika muassasalarini moliyalashtirish xizmat ko'rsatilgan aholi soniga, doimiy davolash muassasalarida davolangan bemorlar soniga qarab belgilana boshladi. So'nggi yillarda samarasiz foydalaniilgan o'rinn-to'shak sonlari qisqartirildi, bu tibbiy yordam ko'rsatishning iqtisodiy rentabelli ambulatoriya shaklini joriy etish imkonini berdi.

Qishloq aholisining sog'lig'ini saqlash, madaniyatini oshirish, ta'lim tizimi sifatini yanada ko'tarishda quyidagi yo'nalishlardagi ishlarni kuchaytirish zarur:

- qishloq joylarda joylashgan Mehribonlik va Muruvvat uylarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;
- qishloq aholisining sog'lig'ini saqlash bo'yicha tibbiy madaniyatini oshirish, jumladan profilaktika va targ'ibot ishlarini kuchaytirish;
- xalqaro grantlar asosida maktab, akademik litsey va kollejlar o'qituvchilarining malakalarini oshirish;
- qishloq maktablari va kollejlaridagi axborot resurs markazlarini xalqaro internet tarmog'iga ulash va h.k.

O'zbekiston barcha rivojlangan davlatlar qatori Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida birinchilardan bo'lib



12.4.1-rasm. Onalar, bolalar va o'smirlar sog'ligini muhofaza qilish tizimini rivojlantirish shart-sharoitlari

«Onalikni muhofaza qilish» kabi o'nlab xalqaro hujatlarni ratifikatsiya qilgan (12.4.1-rasm).

Bugungi kunda respublikamizda 3165 ta qishloq vrachlik punkti tashkil qilingan. Barcha qishloq vrachlik punktlari Xalqaro bankning «Sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'ini islohoti» loyihasi tomonidan zamonaviy tibbiy jihozlar bilan ta'minlanmoqda. Bugungi kunda respublikadagi qishloq vrachlik punktlariga 10,2 mln. AQSH dollari qiymatidagi tibbiy jihozlar va asbob-uskunalar yetkazib berildi va yana 2,5 mln. dollar qiymatidagi asbob-uskunalar xarid qilindi.

2007-yil 1-oktabrdan boshlab 5 yil muddatga aholiga pullik xizmat ko'rsatuvchi (stomatologiya va kosmetologiya xizmatlari bundan mustasno) tibbiyot muassasalari barcha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan ozod etilgan, tejalgan mablag'lar tibbiyot muassasalarini zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlashga maqsadli ravishda yo'naltiriladi.

Bundan tashqari, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, tibbiyot muassasalari (stomatologiya va kosmetologiya xizmatlari bundan mustasno) Vazirlar Mahkamasi tomoni-

dan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha olib kelinadigan yangi tibbiy jihozlar uchun 2013-yil 1-yanvargacha bo'lgan muddatgacha bojxona to'lovlaridan ozod qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi aholisi 2009-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 27 mln. kishidan ziyodni tashkil etgan bo'lsa, shulardan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar 38,5 foizni, fertil yoshidagi onalar 28,4 foizni tashkil etadi. Bundan ko'rindaniki, O'zbekiston nisbatan aholisi «yosh» davlatlar qatoriga kiradi.

Ma'lumki, aholi salomatligi ko'p jihatdan oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasiga ham bog'liq (12.4.1-jadval).

12.4.1-jadval

**Asosiy turdag'i oziq-ovqat mahsulotlarining minimal iste'mol normasi
(1 kishi hisobiga)**

Mahsulot turlari	O'lcov birligi	Minimal iste'mol normasi
Sabzavot	kg/yil	109,2
Kartoshka	kg/yil	54,6
Poliz	kg/yil	19,6
Meva	kg/yil	76,7
Uzum	kg/yil	13,9
Go'sht (so'yilgan vaznda submahsulot bilan)	kg/yil	40,2
Sut	kg/yil	136,7
Tuxum	dona/yil	296,0
Un	kg/yil	99,0
O'simlik yog'i	kg/yil	6,6
Meva-sabzavot konservalari	sh.b./yil	13,0

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish turlari nimalardan iborat?

2. Qishloqda madaniy-maishiy xizmat ko'rstishda kadr-larni tayyorlash qanday amalga oshiriladi?
3. Madaniy-maishiy xizmat ko'rsatuvich muassasalarining qishloq aholisining turmush darajasini oshirishda ahamiyati qanday?
4. Madaniy-maishiy xizmat ko'rsatishda xorijiy tajribalardan foydalanish yo'llari nimalardan iborat?
5. Qishloq joylarda sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish yo'llari nimalardan iborat?

XIII BOZOR QISHLOQ XO'JALIGIDA BOZOR INFRATUZILMASINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

O'quv maqsadi: bozor infratuzilmasining mohiyati, uni rivojlantirishda xorijiy tajribalardan foydalanish va qishloq xo'jaligi infratuzilmasini moliyalashtirish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

13.1. Bozor infratuzilmasining iqtisodiy mohiyati

Qishloq xo'jaligida yashaydigan, xususan fermerchilik bilan shug'ullanayotgan aholini turmush darajasini yaxshilash va uni ta'minlash bozor infratuzilmalarini joylarda barpo etish va tashkil etish katta ahamiyatga ega. Chunki bozor infratuzilmasi muassasalari bozorda tovarlar, pul, mehnat resurslari, axborotlar harakatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bozor infratuzilmasi – mahsulot (xizmatlar) ishlab chiqaruvchini iste'molchi bilan yagona bozor makonida birlashtirib, ishlab chiqarish va iste'mol ko'lamlari o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etuvchi va uning barcha ishtirokchilari o'z oldilariga qo'ygan maqsadlariga erishishlarini ta'minlovchi muassasalar va vositachilik tarkiblari tizimidir.

Bozor infratuzilmasining xizmat turlari:

- bank xizmati;

- birja va brokerlik xizmati;
- ulgurji savdo va yarmarkalar xizmati;
- audit va sug'urtalash xizmati;
- axborot va konsalting markazlari;
- fermerlarni tayyorlash va qayta o'qitish;
- yuridik xizmatlar.

Qishloqda bozor infratuzilmasini rivojlantirish, asosan, bu sohada ishlash uchun kadrlar tayyorlash va ular kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish bilan bog'liq. Shuni hisobga olgan holda viloyatlarda mavjud oliy o'quv yurtlari hamda boshqa o'quv tizimlarida investitsion loyihalarini tuzish, mulkni baholash, brokerlik, korxona menejeri, marketing sohalari bo'yicha mutaxassislar tayyorlash va ularni qayta o'qitishni kengaytirish zarur. Bu sohada yana bir muhim masala – bozor infratuzilma muassasalarining xizmatlari uchun to'lanadigan haq doimo o'sib bormoqda. Shu tufayli ko'plab kichik korxonalar, dehqon, fermer xo'jaliklari bozor infratuzilma muassasalari xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega emaslar. Viloyatlarda faoliyat ko'rsata-yotgan aksariyat bozor infratuzilma muassasalarining bosh tashkilotlari Toshkent shahrida joylashgan, shuni hisobga olgan holda, ular tasarrufidagi viloyat bo'limlariga xizmat xarajatlarini pasaytirishga har tomonlama yordam berishlari lozim. Shuningdek, viloyatlarda qishloqdag'i tadbirkorlarga turli xizmat ko'rsatayotgan konsalting, axborot-maslahat, auditorlik markazlariga soliq bo'yicha imtiyozlar berish ham bu yo'nalishdagi ishlar rivojiga muhim iqtisodiy asos bo'lar edi.

Bugungi kunda «Agrobank» tizimida 45 mingdan ortiq fermer xo'jaliklariga, «O'zpaxtasanoat» uyushmasi tarkibidagi 122 ta, «O'zdonmahsulot» davlat aksiyadorlik kompaniyasi tarkibidagi 45 ta, «O'zagromashservis» uyushmasi tarkibidagi 193 ta, 800 dan ziyod muqobil mashina traktor parklariga, «O'zqishloqxo'jalikkimyo» tizimidagi 172 ta korxonalarga, 755 ta qurilish korxonalariga, 375 ta transport korxonalariga va 74 mingdan ortiq

kichik biznes subyektlariga keng qamrovli bank xizmatlari ko'rsatilmoqda.


«Agrobank» respublikaning barcha hududlarida o'zining muassasasiga ega bo'lib, 186 ta tuman (shahar) filiali, 724 ta mini-banki, 175 ta maxsus kassa, 275 ta valyuta ayriboshlash shoxobchasi, qariyb 498 mingdan ortiq jismoniy va yuridik shaxslarga bank xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda.

Minibanklar xizmatidan foydalanishdagi muammolar;

- fermerlarning ishlab chiqarishni kengaytirish, qishloq xo'jalik texnikasi, qora mol sotib olish uchun imtiyozli kreditlar bo'yicha iltimoslari qondirilmasligi;

- bankda naqd pul yo'qligi sababli yollangan ishchilarining ish haqini vaqtida bermasligi;

- fermerlarning kerakli hollarda davlat ehtiyojlari uchun sotib olinayotgan mahsulotlarni yetishtirish uchun zarur avans to'lovlarini (imtiyozli kreditlarni) o'tkazish haqidagi iltimoslari qondirilmasligi;



13.1.1-rasm. Bozor va ishlab chiqarish infratuzilmasi subyektlarining qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiruvchilar bilan o'zaro munosabatlari

– fermerning hisob raqamidagi mablag'larini ularning roziligesiz fermerlar «istamagan tomonga» yo'naltirishga yo'l qo'yish;

– bank mutaxassislarining malakasi pastligi, ish tartibiga rioya qilmaslik, operativlikning yo'qligi va h.k.

Bank xizmatchilari ularning ish va harakatiga bog'liq bo'lman holatlarning mavjudligi:

– kerakli texnik jihozlar bilan yaxshi ta'minlanmaganlik (kompyuterlar, printerlar, modem, telefonlar);

– mini-bank ishini samarali yo'lga qo'yish uchun mijoz-fermerlarning yetarli emasligi;

– qishloq joylarida elektr energiyasining doimiy o'chirib qo'yilishi;

– malakali mutaxassislarning yetishmasligi;

– mini-banklar xodimlarining yetarlicha rag'batlantirilmasligi;

– mini-banklarga ishga jo'natilgan mutaxassislarning uy-joy bilan ta'minlanmaganligi va h.k.

Sug'urta mamlakatda fermerlikni rivojlantirishning asosiy masalasi hisoblanadi. Ekspert baholariga ko'ra qishloq xo'jaligida hosilning 30-35 % dehqonning harakatiga, qolganlari esa ob-havo, yer, suv sharoitlari, shuningdek, yaratilgan infrastrukturaga bog'liq. Ko'pchilik fermerlarning hosilni sug'urta qildirishga yetarlicha mablag'i yo'qligini hisobga olgan holda, chet ellarda bo'lgani kabi ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Jahon tajribasining ko'rsatishicha, deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda hosilni sug'urtalash davlat tomonidan subsidiyalanadi. Bu sohada Yaponianing tajribasi e'tiborga loyiq. Unga ko'ra, sug'urta mukofotlari subsidiyalanadi (50 foizgacha), shuningdek, yig'ilgan sug'urta mukofotining (badallari) oldindan kelishilgan darajasidan (80 foizgacha) oshgan zararlar qoplanadi.

13.2. Bozor infratuzilmasini rivojlantirishda xorijiy tajriba

Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy va siyosiy jihatdan rivojlanish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni har doim ham muammolarsiz va iqtisodiy tebranishlarsiz o'tmagan. Xorijiy mamlakatlar tarixida to'plangan tajribalarni o'rganish, tahlil qilish va mintaqamizdag'i qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, ilg'or chet el mamlakatlarining tajribalaridan ijodiy foydalanish yo'naliishlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, respublikada qishloq xo'jaligi infratuzilmasini rivojlantirishda bu sohada bir qator yutuqlarga erishgan rivojlangan hamda mintaqamiz hududiga va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanish xususiyatiga yaqin bo'lgan mamlakatlar tajribasini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Rossiyada fermer (dehqon) xo'jaliklarini rivojlantirish va tashkil etish shakli O'zbekistonda fermer xo'jaliklarini tashkil etish kabi bosqichma-bosqich amalga oshirildi va fermer xo'jaliklarini quyidagi hollarda tashkil etish belgilandi:

- mahalliy hokimiyat tomonidan berilgan yerlarida;
- jamoa qishloq xo'jaligi korxonalarini qayta tashkil etish natijasida;
- o'ziga tegishli yer va mulkiy paylarni jamoa xo'jaligidan olib chiqish yo'li bilan;
- yer maydonlarini kengaytirish hisobiga tomorqa xo'jaligini fermer xo'jaligiga aylantirish yo'li bilan.

Rossiya Federatsiyasida qishloq xo'jaligida davlat va jamoa mulkini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayoni fermer xo'jaliklarini va unga xizmat qiluvchi infratuzilma obyektlarini rivojlantirishga turtki bo'ldi. Fermer xo'jaliklariga texnik servis xizmati ko'rsatish maqsadida texnik ta'mirlash parklari tashkil etildi.

Rossiyada tashkil etilgan bunday parklarning asosiy faoliyat turlariga quyidagilar kiradi:

- mavjud traktorlarning, shuningdek, unga biriktirilgan qism va qishloq xo‘jaligi mashinalarini kapital va joriy ta‘mirlash;
- «UAZ», «GAZ», «ZIL» va boshqa turdag‘i avtomobilarni joriy ta‘mirlash va texnika xizmati;
- chorvachilik fermalariga texnik xizmat ko‘rsatish;
- transport xizmatlar;
- bug‘ va issiq suv ko‘rinishida issiqlik energiyasini ishlab chiqish va sotish;
- D-606 buldozer tirkamalarni va nostandard jihozlarni tayyorlash;
- elektr ta‘minoti, suv ta‘minoti va kanalizatsiya chiqindilarini chiqarib yuborish;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning moddiy-texnika resurslarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish.

Respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan MTP DAJlar bilan taqqoslaydigan bo‘lsak, ularda Rossiyadagi traktor parklarga nisbatan xizmat ko‘rsatish turlari cheklanganligini ko‘rshimiz mumkin.

«Orenburg texnik ta‘mirlash parki» ochiq aksionerlik jamiyati («Orenburg TTP» OAJ) 1994-yil 20-yanvarda RF Prezidentining 1992-yil 1-iyuldag‘i «Davlat korxonalarini, ixtiyoriy birlashmalarni aksionerlik jamiyatlarga aylantirish bo‘yicha tashkiliy choralar to‘g‘risida»gi qarori asosida tashkil etilgan. «Orenburg TTP» OAJ dan va u xizmat ko‘rsatadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi masofa 0,5 dan 60 kilometrgachani tashkil etadi.

«Orenburg TTP» OAJ quyidagi ishlab chiqarish bo‘limlaridan iborat:

- mexanik-ta‘mirlash ustaxonasi;
- chorvachilik fermalarining mexanizmlarini texnik xizmat ko‘rsatish stansiyasi;
- avtomobilarga texnik xizmat ko‘rsatish stansiyasi;
- moddiy-texnik ta‘minot bo‘limi;

– yordamchi bo‘limlar.

Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan muqobil MTPPlanning ham, MTP DAJlarning ham ish faoliyati asosan dehqonchilik tarmog‘iga xizmat qilish bilan cheklanadi. Vaholanki, chорvachilik tarmog‘ini rivojlantirish bevosita uning ishlab chiqarish jarayonini mexanizatsiyalashtirish, kompleks mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishga bog‘liqdir. Demak, bu borada Rossiya TTPlarning tajribasini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma’lumki, fermer xo‘jaliklari mexanizatsiya ishlarini asosan o‘z texnikalari yordamida amalga oshiradilar, ammo texnikalarni ta’mirlash va ularga servis xizmati ko‘rsatish xususiy servis xizmat ko‘rsatish shoxobchalari tomonidan amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz fermer xo‘jaliklarining yer maydonlari hajm jihatidan kichikligini inobatga oladigan bo‘lsak, fermer xo‘jaliklari tomonidan texnikalarni xarid qilish iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlamaydi va umuman mayda fermer xo‘jaliklari bunday iqtisodiy salohiyatga ega emaslar. Shu sababli rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda respublikamizda fermer xo‘jaliklarining yer maydonlarini yiriklashtirish lozim va kelajakda mashina-traktor parklar o‘rnini texnik servis shoxobchalari egallashi lozim.

Xorijiy mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi xizmatlari yuksak darajada rivojlangan hisoblanadi. Ushbu mamlakatlarda xizmat ko‘rsatish sohalari asosan xususiy sektor zimmasiga to‘g‘ri keladi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining bir bo‘g‘ini hisoblangan bиргина texnikaviy servis xizmatini olib qaraydigan bo‘lsak, ushbu sohada faoliyat ko‘rsatib kelayotganlarning 90%и xususiy dillerlar zimmasiga to‘g‘ri kelmoqda. Qolgan 10% и esa mashinasozlik zavodlarining bevosita vakili hisoblanadi.

Dilerlar orqali amalga oshiriladigan texnikaviy servis xizmati o‘z ichiga sotuv oldi servis xizmatlari, texnikalarni sotish, ijara ga berish, zarur ehtiyyot qismlar bilan ta’minlash, sotuvdan keyingi servis, texnik xizmat va ta’mirlash-tuzatish ishlari, texnikalarni ishlatish va texnik xizmat ko’rsatish bo‘yicha maslahatlar berish, muhandis xodimiarni tayyorlash va malakasini oshirishni oladi. Har bir dilerlik punktida ehtiyyot qismlar ombori, ta’mirlash ustaxonasi, texnikalarni saqlash maydonlari, ko‘chma texnik xizmat ko’rsatish va ta’mirlash ustaxonasi bor.⁵⁴

Chet el firmalari uch xil turdag'i texnik xizmat ko’rsatishadi: sotuv oldi, kafolatli va kafolatdan keyingi xizmat.

Ishlab chiqaruvchi firmalar sotishdan oldin, xaridorga maksimal darajada yaqin joyda joylashgan bosh agent ustaxonalarida mashinalarni maxsus tayyorgarlikdan o’tkazishadi.

Sotuvoldi servis o‘z ichiga: texnikalarni tashish, qadog‘idan yechib olish va ishga tushirish, tashish vaqtida sodir bo‘lgan nosozliklarni bartaraf etish; zavod sozligini tekshirish, zarur bo‘lgan vaqtida uni sozlash; xaridor talablaridan kelib chiqqan holda, qo’shimcha uskunalar o’rnatish. Zavoddagi nosozliklar ishlab chiqaruvchi hisobiga bartaraf etiladi, tashish vaqtida sodir bo‘lgan nosozliklarni-sug‘urta hisobiga, qo’shimcha uskuna o’rnatish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar esa sotuv narxining kalkulyatsiyasiga kiradi.

Sotuvoldi va kafolatli xizmat turlari bepul bajariladi, chunki uning xarajatlari texnikaning balans qiymati tarkibiga kiradi. Kafolatli xizmat vaqtida diler mashinalarning asosiy uzellarning diagnostikasini o’tkazgan holda uchta texnik xizmatni bajarishi lozim.

⁵⁴Rashidov J.X. Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida servis xizmatlarini rivojlantirish muammolari: Dis. ... iqt.fan.nomz.—T.:O‘zBIIITI, 2004. 78-b.

Ishlab chiqaruvchi korxonalar dilerlarga mashinalarni 25–30%ga arzonlashtirilgan narxda sotadi, shu hisobiga dilerlar 10–15% daromad qilishadi.

Texnikaga kafolatdan keyingi xizmatni ma'lum vaqt davomida, uni ishlagan vaqtiga qarab va mavsum oldi o'tkazishadi.

Fermer xo'jaliklariga servis xizmatlarini ko'rsatish Kanadada ham dilerlar zimmasiga to'g'ri keladi. Ushbu mamlakatda 1,5 mingdan ortiq dilerlik punktlari mavjud, boshqalari esa ishlab chiqaruvchi firmalarga qarashli. Oxirgi yillarda dilerlik punktlarning yiriklashuv jarayoni kuzatilmogda, bu esa ularning mehnat unumdarligini oshiradi va xarajatlarni kamaytiradi.

Qozog'istonda bizning mamlakatimizdagi kabi xizmat ko'rsatish sohasi endi shakllanib kelmoqda, raqobat muhitining rivojlanmaganligi bilan xarakterlanadi. Shakllanib kelayotgan mayda shoxobchalar yetarli darajada dilerlik vazifasini bajarmayaptilar.

Rossiyada fermerlarga servis xizmati xizmat ko'rsatish kooperativlari tomonidan amalga oshirilmoqda. Ushbu kooperativlar bajarayotgan ishlariga qarab, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash kooperativlari, savdo kooperativlari, ishlab chiqarish–texnik xizmat kooperativlari va kredit kooperativlari bo'linadi.⁵⁵

Umuman olganda, xizmat ko'rsatish kooperativlari, nafaqat Rossiya mamlakatida, balki bir qator rivojlangan mamlakatlarda, jumladan, Germaniya, Polsha, Fransiya, Kanada, Norvegiya, Daniya, Shvetsiya va boshqa mamlakatlarda ham keng joriy qilingan.

Respublikamizda ham fermerlar uyushmasi tarkibida xizmat ko'rsatish sohalarini shakllantirish va rivojlantirish zarur deb hisoblaymiz.

⁵⁵ Rashidov J. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida servis xizmatlarini rivojlantirish muammolari. Diss... iqt.f.n. – T.: O'zBIITI, 2004. 78-b.

Chunki uyushmaga fermerlarning o'zi a'zo bo'lib, ularga yaqin bo'lgan joyda joylashgan bo'ladi, natijada narxlarning sun'iy oshishiga yo'l qo'yilmaydi. Shuningdek, texnikalarga servis xizmat ko'rsatishda ishlab chiqaruvchi korxonalarini ham jalb qilish bu sohada raqobatni kuchaytiradi. Fermerlar mexanizatsiya, texnika vositalarini ta'mirlash va saqlash xarajatlarini qisqartirish evaziga olingan pul mablag'larini ishlab chiqarishga jalb qilishi va foydani ko'paytirishlari mumkin.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish va intensivlashtirish maqsadida agrar ishlab chiqarishni rivojlantirish va moddiy-texnikani mustahkamlash borasida maqsadli siyosat amalga oshirib kelinmoqda.

Davlat tomonidan qishloq xo'jaligini samarali boshqarishning namunasi sifatida Irlandiya mamlakatini ko'rib chiqishimiz mumkin.

Irlandiyada qishloq xo'jaligi yuqori intensiv xarakterga ega ekanligini quyidagi ko'rsatkichlar orqali ham ko'rishimiz mumkin, fermerlarning jami xarajatlaridan 46% moddiy resurslari (YOMM, o'g'it, urug' va boshqalar), texnikaga ketadigan ekspluatatsiya xarajatlari 43% ni, ish haqi xarajatlari atigi 11% ni tashkil etar ekan. Demak, ishlab chiqarishdagi iqtisodiy natijalar deyarli uning moddiy-texnika ta'minotiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Davlat va Yevropa Ittifoqi ishlab chiqarish xarajatlarining 20–40% gacha yopib, fermerlarga quyidagi yo'nalishlarda ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirishda katta moliyaviy yordam ko'rsatib kelmoqda:

- ishlab chiqarishni yaxshilash, uni mexanizatsiyalash-tirish, progressiv texnologiyalarni qo'llash;
- xo'jalik yuritishning ekologik sharoitlarini yaxshilash va ekologik toza mahsulot ishlab chiqarish;
- nasldor chorva mollarni ko'paytirish, chorvachilikda seleksiya ishlarini olib borish;

– ayrim mahsulotlarni ishlab chiqarish cheklanganligi sababli (ortiqcha mahsulotning ko‘payishini oldini olish maqsadida) fermerlarga kompensatsiya berish.

Qishloq xo‘jaligi vazirligining ma‘lumotlariga ko‘ra, Yevropa Ittifoqi tomonidan berilayotgan subsidiyalarning asosiy qismi fermer xo‘jaliklariga texnikalarni olib berish va ularni ta‘mirlash hamda fermer xo‘jaliklarini jihozlash, shuningdek, unumdorligi past bo‘lgan yerlarda joylashgan, noqulay iqtisodiy sharoitlarda faoliyat ko‘rsatayotgan fermerlarga ajratilmоqda.

Bu ma‘lumot ham fermerlarga berilayotgan moddiy yordamning asosiy qismi xo‘jaliklarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga ketayotganligidan dalolat bermoqda. Bunday yordamsiz fermerlar o‘z ishlab chiqarishlarini talab darajasida moliyalashtira olmasdilar, ko‘plari esa zarar bilan ishlaydigan va past rentabelli xo‘jaliklarga aylanib qolardilar.

Davlat subsidiyasidan tashqari, Irlandiya fermerlariga moliyaviy yordamni «Egrikalcher kredit korporateyshn» agrar tijorat banki ko‘rsatib kelmoqda. Ushbu bank orqali fermerlar o‘zlariga qulay bo‘lgan yiliga 4%li uzoq va qisqa muddatli kreditlar olmoqdalar.

Bundan tashqari, Irlandiya fermerlari lizing xizmatidan ham keng foydalaniб kelmoqdalar. Umuman olganda, Yevropa mamlakatlari ichida Irlandiyada investitsiyalarning umumiy hajmida lizingning hajmi kattadir. Bu yerda barcha investitsiyalarning 45% ni lizing tashkil etadi, vaholanki ushbu ko‘rsatkich Germaniya va Fransiyada 20%, Angliyada 30%, Italiyada – 15% va Rossiyada 2,5% dan kamroqni tashkil etadi. Yevropaning boshqa mamlakatlari ham lizingning rivojlanishi bo‘yicha Irlandiyadan ancha ortda qolmoqdalar.

Ma‘lumki, O‘zbekistonda lizingning asosan moliyaviy turi keng joriy qilingan. Rivojlangan mamlakatlarda lizingning ikki turi ham keng tarqalgan. Operativ lizing turi o‘z navbatida yana ikki turga bo‘linadi: servissiz lizing va servis

xizmatlarini o‘z ichiga olgan lizingdir. Operativ lizingning ikkinchi turi, ayniqsa, keng joriy etilgan. Bunda ishlab chiqarish vositasi lizingga beruvchi tomonidan lizingga oluvchiga foydalanish uchun beriladi, ammo mulkning barcha iqtisodiy va yuridik huquqlari lizing kompaniyasida qoladi. Natijada kompaniya iqtisodiy xavf-xatarni to‘liq o‘z zimmasiga oladi. Texnik xizmat xarajatlari kompaniya tomonidan lizingga oluvchining hisob-kitoblari asosida amalga oshiriladi. Lizing kompaniyasi servis xizmat ko‘rsatuvchi korxonani tanlaydi va u bilan xizmat ko‘rsatish tariflari bo‘yicha shartnoma tuzadi.

Shunday qilib, xorijiy mamlakatlarda lizing operatsiyalarini amalga oshirish bo‘yicha katta tajriba to‘plangan va buning asosida respublikada fermerlarni qimmatbaho texnikani lizing orqali xarid qilishda ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, mamlakatimizda ham, xorijda ham qishloq xo‘jaligi texnikasini lizing orqali xarid qilishning samaradorlik mezoni, avvalambor, qishloq xo‘jaligi mahsulot ishlab chiqaruvchilarining hamda ASMning boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarining manfaatdorligi bilan o‘lchanishi lozim. Lizing operatsiyalarini amalga oshiruvchi moliya institutlarining manfaatdorligi aynan shu mezonga bo‘ysinishi kerak, aks holda lizingning asosiy maqsadi hisoblangan–xo‘jalik yurituvchi subyektlarni yangi texnika xarid qilishga ko‘maklashishga zid bo‘lgan bo‘lar edi. Ma’lumki, ishlab chiqarish vositalari va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari xarid narxlari o‘rtasida vujudga kelgan keskin nomutanosiblik natijasida ko‘pgina xo‘jaliklarning to‘lov qobiliyati pasayib ketdi.

Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, hozirgi sharoitda ishlab chiqaruvchi subyektlarning taraqqiy etishi ko‘p jihatdan uning texnologik rivojlanish darajasi, fan-texnika taraqqiyoti sur’atlariga nechog‘lik muvofiqligi, o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ishonchli ilmiy asos yaratilganligi

bilan belgilanadi. Shu sababli ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda yangi texnologiyalarni joriy etishga ko‘maklashish ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash orqali amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2004-yilda AQSHning qishloq xo‘jaligi vazirligi qishloq xo‘jaligidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga 2,5 milliard dollar mablag‘ ajratgan⁵⁶. Amerika fermerlariga va boshqa agrar tarmoqda faoliyat ko‘rsatayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarining ishlab chiqarish jarayoniga fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy etishda ko‘maklashuvchi dasturlardan biri «Ekstenshn – servis» markazining ish faoliyati diqqatga sazovordir. «Ekstenshn-servis» tizimida mahalliy shtat universitetining vakili shtatda joylashgan fermerlar, agrobiznesmen va boshqa tadbirkorlik subyektlarini yangi bilimlar va fan-texnika yutuqlari bilan tanishtirib boradi. Shu bilan birga, ularning muammolari va kamchiliklari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni universitetning ilmiy xodimlariga ishlab chiqish uchun yetkazib turadi. Amerika qishloq xo‘jaligi va agrobiznesdagi asosiy yutuqlar aynan shu tizim orqali amalga oshirildi deb hisoblashadi. Ushbu tizimni moliyalashtirishga ajratiladigan mablag‘ning faqat 5 foizi federal hukumat tomonidan kelib tushadi, asosiy qismi shtatlardan moliyalashtiriladi.

Hozirgi kunda «Ekstenshn-servis» markazlari nafaqat AQSHda, balki Polsha, Buyuk Britaniya, Fransiya va Gollandiyada rivojlangan. Ushbu markaz Rossiyada ham 1990-yillardan boshlab tajriba sifatida qo‘llanilib kelinmoqda.

O‘zbekistonda ham ilmiy va texnologik salohiyatni yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalardagi islohotlarning strategik vazifalari va ustivor yo‘nalishlariga muvofiq holda respublika ilmiy-texnika taraqqiyotini ta’minlash, olib

⁵⁶ http://www.usda_programs. Один из важнейших факторов развития сельского хозяйства США – государственное регулирование.

borilayotgan ilmiy tadqiqotlar va texnologik ishlamalar darajasi, sifati va samaradorligini oshirish, ulardan amaliyotda keng foydalanish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 20-fevraldag'i «Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3029-sonli Farmoniga, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 4-martdag'i «Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 77-sonli Qaroriga ko'ra, respublika Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ilmiy-texnika taraqqiyotini muvofiqlashtirish kengashi qoshida Fan va texnologiyalar markazi tashkil etildi hamda fan va texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvi organi etib belgilandi. Shuningdek, respublikada fermerlarga axborot-maslahat xizmati ko'rsatish shoxobchalari tashkil etilgan. Ammo o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi va ilm sohasi o'rtaida o'zaro aloqa yaxshi yo'lga qo'yilmagan, tashkil etilgan axborot-konsalting markazlar ilmiy yangiliklarni, ishlab chiqarishga joriy etilayotgan fan-texnika yutuqlarini fermerlarga yetkazib berishda vositachi sifatida faoliyat yuritmayapti. Natijada axborot-konsalting shoxobchalari ning samaradorligi past bo'lmoqda. Shularni inobatga olgan holda, respublikada o'quv jarayoni va OO'YUlardagi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan ishlab chiqarishni bog'laydigan bo'g'in vazifasini bajaradigan «Ekstenshn-servis» markazlarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Respublikada «Ekstenshn-servis» markazi quyidagi yo'naliishlarda faoliyatini olib borishi kerak, deb hisoblaymiz:

- fermer va dehqon xo'jaliklarining ijtimoiy va iqtisodiy holatini yaxshilashga ko'maklashish;
- fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari va agrofirmalarning talablarini o'rganib borish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar o'rtaida hamkorlik munosabatlarini o'rnatishga ko'maklashish;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda va uni qayta ishlash bo'yicha barcha savollarga maslahatlar berish;
- tashkil etish, boshqarish, texnologiyalar sohasidagi ilg'or tajriba va innovatsiyalarni agrar tarmoqqa yetkazish;
- ishlab chiqarishda, ishlab chiqarishni tashkil etish uslublarida va mahsulotni sotishda progressiv texnologiyalarni o'rganish va targ'ib etish;
- fermerlarga ilmiy va texnik yordam berishga yo'naltirilgan xalqaro loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashish;
- ilmiy tadqiqot natijalarini ASM tarmoqlariga joriy etish;
- mutaxassislarning malakasini oshirib borish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning ehtiyoj va talablaridan kelib chiqib ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan ta'limni tashkil etish.

Bu ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish uchun ma'lumotlar bilan ishlash, hamkorlik aloqalarini rivojlantirish va ta'lim berish sohalariga e'tibor berish lozim (13.2.1-rasm).

"Ekstenshu-servis" markazi tomonidan ko'rsatiladigan xizmat turlari

Ma'lumot bilan ta'minlash: <ul style="list-style-type: none"> • Ma'lumot bazasini tashkil etish; • o'quv materializasi, tervisanomalar chop etish va hamkorlarni ular bilan ta'minlash; • ajuman, seminar va simpoziumlarni tashkil etish; • masofaviy o'qitish, respublika va boshqa xorijiy mamlakatlarning ilmiy-tadqiqot institutlari bilan aloqa o'matish; • xo'jaliklarni huquqiy, molloyaviy, hisob, informatsion va boshqa me'yoriy hujujdar bilan ta'minlash. 	Hamkorlik aloqalarini rivojlantirish: <ul style="list-style-type: none"> • qishloq xo'jalik yarmarkalarini tashkil etish; • biznes-reja va investitsion loyihalarini tuzish. 	Ta'lim berish: <ul style="list-style-type: none"> • qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashda yangi texnologiyalar, innovatsiya fachiyatini tashkil etish va boshqarish uslublari bo'yicha menegerlarni tayyorlash; • xo'jaliklarni barqatorlashtirish va iqtisodiy o'sishimi ta'minlovchi kompleks dasturlar ishlab chiqish; • ishlab chiqarish va ta'lim berishda kompyuter texnologiyalarini qo'shish; • respublika OO'YU jari professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish;
--	---	---

13.2.1-rasm. «Ekstenshu - servis» markazi faoliyat turlari

Rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi infratuzilmasi rivojlanish tajribasini o'rganish natijasida O'zbekiston sharoitida ularni quyidagi yo'nalishlarda qo'llashni tavsiya etgan bo'lar edik:

– viloyat MTP davlat aksiyadorlik jamiyatlarida va muqobil MTPlarda xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirib borish, chorvachilik tarmog'iga xizmat qiladigan bo'limlarni tashkil etish. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, muqobil MTPlar asosan kultivatsiya qilish, g'alla va chigit ekish, jo'yak olish, o'qariq olish kabi ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Ammo qishloq xo'jaligi mashinalari yetishmasligi sababli yer tekislash, shudgorlash xizmati kabi xizmat turlarini sifatli bajarish imkoniyati past. MTP DAJlarning ish faoliyati ham faqat asosan dehqonchilik tarmog'iga xizmat qilish bilan cheklanib qolmoqda. Vaholanki, qishloq xo'jaligining yana bir yirik tarmog'i hisoblangan chorvachilik sohasida mexanizatsiyalashtirishga e'tibor berilmay kelmoqda. Shu sababli mashina-traktor parklarida chorvachilik tarmog'iga xizmat qiladigan bo'limlarni tashkil etishni tavsiya etamiz;

– Qashqadaryo viloyati «O'zagromashservis» va «O'z-qishloqxo'jalikmash-lizing» aksiyadorlik lizing kompaniyasi viloyat filiali negizida traktor, kombayn va boshqa qishloq xo'jaligi mashinalariga texnik servis xizmati ko'rsatadigan dilerlik xizmatlarini tashkil etish va takomillashtirish. Dilerlik tizimi kafolatlangan davr mobaynida texnikaning yaroqliligiga va ta'mirlashga javobgar bo'lgan va foydalanishning butun davri mobaynida ehtiyyot qismlar yetkazib beruvchi qishloq xo'jaligi texnikasi tayyorlovchi zavodlar bilan yaqin hamkorlikda ishlashi kerak;

– fermerlar uyushmasi tarkibida moddiy-texnika ta'minoti va texnik servis xizmat ko'rsatuvchi kooperativ tashkil etish. Ma'lumki, tumanlarda tashkil etilgan fermer xo'jaliklari uyushmasi fermer xo'jaliklarini muvofiqlash-tiruvchi muassasa hisoblanadi va fermerlarning manfaatidan kelib chiqib faoliyat yuritishi kerak. Ammo hozirgi kunda


uyushma ma'lumot to'plovchi va fermerlarni nazorat qiluvchi yana bir organga aylanib qolgan. Shu sababli ularning ish faoliyatini qayta ko'rib chiqish va fermer xo'jaliklarining ish faoliyatiga ko'maklashishga yo'naltirish lozim;

– qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilar va agrosanoat majmuasining boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlari manfaatlarini hisobga olgan holda lizing munosabatlarini takomillashtirish, shu jumladan, davlatning tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy mexanizmlarini kuchaytirish;

– fermer xo'jaliklarini rivojlantirishga ko'maklashadigan «Ekstenshn - servis» markazlarini tashkil etish. Umuman olganda, «Ekstenshn - servis» markazi qishloq xo'jaligi tarmoqlariga fan-texnika taraqqiyoti natijalarini joriy etish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayoniga fanni yaqinlashtirish va shu orqali ishlab chiqarishni ilmiy asoslangan holda rivojlantirib borishga ko'maklashadi. «Ekstenshn - servis» xizmatini rivojlantirishning dastlabki yillarda davlat byudjeti «Fan» yo'nalishiga ajratilayotgan mablag' hisobidan moliyalashtirilishi, kelajakda tuman byudjeti va boshqa xususiy sektorning investitsiyalari hisobiga moliyalashtirilishi tavsiya etiladi.

13.3. Qishloq xo'jaligi infratuzilmasini moliyalashtirishning asosiy yo'nalishlari

Har bir korxona o'zining xo'jalik moliyaviy faoliyatini amalga oshirish uchun pul mablag'lariga ehtiyoj sezadi. Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish – bu oddiy va kengaytirilgan moliyaviy ta'minotning turli xil shakl va uslublari, prinsip va sharoitlarining yig'indisidir. Moliyalashtirish deganda korxonada pul mablag'larining barcha shakllarda shakllanishi tushuniladi. Bozor sharoitida ko'pgina korxonalar oldida moliyalashtirish manbalarini izlab topish va tanlash muammosi mavjud. Moliyalashtirish manbalarining samaradorligi ko'p jihatdan sohaninig o'ziga



13.3.1-rasm. Korxonani moliyalashirish manbalari

xos xususiyatiga, mamlakatdagi huquqiy normativlarga va boshqa bir qator omillarga bog'liq.

Barcha korxonalar uchun moliyalashtirish manbalari ikki turga bo'linadi: tashqi va ichki manbalarga (13.3.1-rasm).

Korxona uchun moliyalashtirishning ichki manbalarida bir nechta muqobil variantlar mavjud: taqsimlanmagan foyda, hissadorlik jamiyatlari uchun aksiya va pay ulushlarini chiqarish, iste'mol va jamg'arma fondlari, maqsadli moliyalashtirish va boshqalar.


Hozirgi kunda infratuzilma shoxobchalarining o'z-o'zini moliyalashtirishda imkoniyatlari cheklangan, chunki infratuzilma shoxobchalarida P-T-P ko'rinishdagi iqtisodiy tizim yaxshi yo'lga qo'yilmagan, moddiy-texnika resurslarining yetishmasligi sababli qo'shimcha xizmat turlarini kengaytirish imkoniyatlari cheklangan. Natijada joylardagi qishloq xo'jaligi infratuzilma shoxobchalarining oladigan foydalari moliyalashtirishning ishonchli manbasi bo'lishi mumkin emas. Lekin shuni ta'kidlab o'tish lozimki, fermer xo'jaliklariga davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla yetishtirish xarajatlariga tijorat banklari tomonidan imtiyozli ravishda kredit ajratib kelinmoqda.

Ma'lumki, 2003-yil hosilidan boshlab tajriba tariqasida davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarini ushbu mahsulotlarni yetishtirish bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirishning transh tizimi usulidan imtiyozli kreditlash usuliga o'tila boshlandi. Imtiyozli kreditlash tizimi dastlab 4 ta, 2004-yildan boshlab 8 ta viloyatda tajriba sifatida qo'llanilgan bo'lsa, 2005-yil hosilidan boshlab barcha viloyatlardagi fermer xo'jaliklarida joriy etildi. Ajratiladigan kreditning asosiy qismi aynan infratuzilma shoxobchalariga o'tkazib kelinmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda mineral o'g'it va yoqilg'i-moylash materiallari bilan ta'minlash shoxobchalariga ajratiladigan mablag' keskin oshib bormoqda.

Buni biz Nishon tumani «Turdiyev Sa'dullo» fermer xo'jaligi misolida ham ko'rishimiz mumkin (13.3.2-rasm). Ushbu fermer xo'jaligi 2005–2008-yillar davomida davlat ehtiyojlari uchun yetishtiriladigan paxta va g'alla mahsulotlarini moliyalashtirish uchun jami 18658,2 ming so'm miqdorda imtiyozli kredit olgan.

Tahlillarga ko'ra, fermer xo'jaligida davlat ehtiyojlari uchun olingan kreditning 81 foizga yaqini bevosita o'g'it va yoqilg'iga sarflanmoqda va bu ko'rsatkich ushbu resurslarning narxi keskin oshib borishi natijasida o'sish tendensiyasiga teng.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 24-noyabrdagi PK-515-sonli «2007-yilda qishloq xo'jaligini mineral o'g'itlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga asosan «O'zkimyosanoat» davlat aksionerlik kompaniyasi, «Qishloqxo'jalikkimyo» hududiy aksionerlik jamiyatları 2007-yilda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi tovar ishiab chiqaruvchilariga shartnomalarini imzalaydi.



13.3.2-rasm. Nishon tumani «Turdiyev Sa'dullo» fermer xo'jaligida davlat ehtiyojlari uchun olingan kreditning taqsimlanishi

majburiyatlarini bajarishi uchun mo'ljallangan mineral o'g'itning belgilangan hajmlari uchun har bir yetkazib beriladigan mahsulot qismi haqining 75 foizini oldindan to'lash sharti bilan sotilishini ta'minlash, uzil-kesil hisob-kitob esa mahsulot to'liq yetkazib berilganidan so'ng 60 kun mobaynida amalga oshirilishi ko'rsatib o'tilgan va bu to'lovlar imtiyozli kredit bilan qoplanmoqda.

Korxonani moliyalashtirishning ichki manbalariga, shuningdek, ustav kapitali, ya'ni aksiya, pay ulushlarini chiqarish hisobiga olinadigan foyda kiradi. Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatish tarmog'ida «Qishloqxo'jalikkimyo» va tumanlardagi mashina-traktor parklari-aksionerlik jamiyatlat hisoblanadi, lekin ularda aksiyalarning asosiy qismi davlat va korxona ishchilari qo'lida jamlangan. Misol uchun, Qarshi tuman MTPda aksiya paketlarining taqsimlanishini tahlil qilganimizda, ma'lum bo'ldiki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 24-yanvardagi 3202-sonli farmoniga asosan 2003-yilning 9-dekabridagi davlat mulki qo'mitasi Qashqadaryo viloyat bo'limining 692-sonli buyrug'i bilan jamiyat nizom jamgarmasi 51057,7 ming so'm miqdorda belgilangan, shundan aksiyalar paketi quyidagicha taqsimlangan: jamoa ulushi 10% – 2220dona aksiya (5106,0 ming so'm), Qashqadaryo viloyat MTP OAJ ustav fondini shakllantirishga ajratilgan davlat ulushi 35% – 7770 dona aksiya (17871 ming so'm), qishloq xo'jaligi korxonalariga sotishga ajratilgan ulush 30% – 660 dona aksiya (15318 ming so'm) va erkin savdoga 25 % – 5549 dona aksiya (12767,7 ming so'm). Bunda aksiyalarning asosiy qismi davlat qo'lida mujassamlashgan.

Aksionerlik jamiyatining a'zolari, ya'ni aksionerlar uning majburiyatları bo'yicha javob bermaydilar va korxona faoliyati bilan bog'liq bo'lgan, sotib olgan aksiyalar miqdorida zarar ko'rish xavflari bo'ladi. Bozor sharoitida ko'pgina korxonalar davlat tasarrufidan chiqarildi, shu jumladan «Qishloqxo'jalikkimyo» hududiy aksionerlik

jamiyati va tuman MTP aksionerlik jamiyatlari ham davlat mulkidan jamoa mulkiga aylantirildi.

Respublikaning Samarqand viloyatida agrofirmada ta'sischilar soni 100 kishidan ortiq bo'lsa, aksionerlik jamiyatiga aylantirilgan. Moliyalashtirishning ushbu uslubini muqobil MTP va SIU faoliyatida ham qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki qayta tashkil etilgan shirkat xo'jaliklari hududidagi muqobil MTP va SIUlarning ta'sischilari soni ba'zilarida 30 – 40 kishini, ba'zilarida esa 100 dan ortiq kishini tashkil etmoqda. Bu esa o'z navbatida, ularga mulkiy boshqaruv masalasini hal etishga ham yordam beradi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilganimizda, moliyalashtirishning tashqi manbalar ichida obligatsiyalar emissiyasi katta o'rin tutadi. Rivojlangan mamlakatlarda jami korxona qimmatli qog'ozlar emissiyasi hajmida 10 – 15 foizdan 60 – 65 foizgacha korxona obligatsiyalar hajmi egallaydi. Ammo qimmatli qog'ozlar emissiyasi – o'ta murakkab va ko'p xarajat talab etadigan jarayondir. Ayni vaqtda, respublikada qimmatli qog'ozlar bozori investitsiya kiritadigan darajada rivojlangan deb bo'lmaydi.

Bank kreditlari faoliyatni moliyalashtirishning keng tarqalgan ushublaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda kredit resurslarining manbai sifatida tijorat banklar, shuningdek budjetdan tashqari fondlar – Mehnat vazirligi qoshidagi bandlikga ko'maklashish fondi, Biznes – fond, Dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasi qoshidagi dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlanishiga ko'maklashish jamg'armalari, kredit uyushmalari, shuningdek, chet el va xalqaro moliya institutlarining kredit mablag'lari hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarni kreditlash – qaytarish, to'lovligi, ta'minlanganlik, muddatlilik va ajratilgan kreditlardan maqsadli foydalanish shartlari asosida tijorat banklari tomonidan amalga oshirilmoqda. Bozor sharoitida past rentabelli va zarar bilan ishlayotgan korxonalarga kredit ajratilmaydi.


Kreditlar maqsad va muddatidan kelib chiqqan holda quyidagi turlarga bo'linadi:

– likvidlilik muammosini hal etish va aylanma mablag'larni xarid qilish uchun mo'ljallangan qisqa muddatli kreditlar – 1 - 1,5 yilgacha;

– korxonani modernizatsiyalash va rekonstruksiyalash, yangi texnologik jarayonlarni va yangi mahsulotlarni joriy etish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni moliyalashtirishga mo'ljallangan 1-yildan 5-yilgacha bo'lgan kreditlar – o'rta muddatli kreditlar;

– ishlab chiqarish va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, texnik jihatdan qayta qurollanishini moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag'lar. Kreditning bu turi 5-yil va undan ortiq davrga ajratilishi belgilangan.

2008-yilda viloyatda infratuzilma obyektlariga texnika vositalarini, ehtiyyot qismlarni, kimyoiy vositalarni xarid qilish va kreditor qarzdorliklarini to'lash uchun faktoring xizmati sifatida jami 3888718 ming so'mlik kredit ajratilgan bo'lib, quyidagicha taqsimlab chiqilgan:



13.3.3.-rasm. Qashqadaryo viloyati tijorat banklari tomonidan qishloq xo'jaligi infratuzilmasiga ajratilgan kreditning taqsimlanishi⁵⁷

⁵⁷Viloyat Markaziy bank boshqarmasi ma'lumotlari asosida mualif tomonidan tuzilgan.

- MTP davlat aksiyadorlik jamiyatiga – 2909599 ming so‘m;
- muqobil va MCHJ MTPlarga – 440000 ming so‘m;
- «Qishloqxo‘jalikkimyo» HAJ tuman filiallariga – 294625 ming so‘m;
- o‘simliklarni himoya qilish markazlariga – 244494 ming so‘m.

Ajratilgan kreditning asosiy qismidan muqobil MTP va MTP DAJ foydalangan (13.3.3-rasm).

Hozirgi vaqtida jahon tajribasidan kelib chiqqan holda, lizing moliyalashtirishning zamonaviy va samarali usullaridan biri hisoblanadi.

U orqali har qanday korxonaning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun yirik mablag‘larni jalb etish mumkin. Moliyalashtirishning boshqa uslublariga ko‘ralizing bir qator afzalliklarga ega:

birinchidan, lizing orqali ijaraga oluvchi korxonada bir vaqtning o‘zida o‘z tasarrufidagi mablag‘ni jalb qilmasdan ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish va texnikaning ish sifatini oshirish imkoniyati paydo bo‘ladi;

ikkinchidan, yuqori likvidlikka ega bo‘lgan aylanma mablag‘larning taqchillik muammosini yumshatadi, mol-mulkni sotib olish xarajatlari shartnomaga amal qilish davri mobaynida bir tekisda taqsimlanadi;

uchinchidan, ijara to‘lovlati asosan texnikadan foydalanish natijasida olingan foyda hisobidan qoplanadi;

to‘rtinchidan, lizing orqali lizingga oluvchi ma’lum bir davr mobaynida ma’naviy eskirgan texnikalarni yangilash imkonini beradi;

beshinchidan, mol-mulkni moliyaviy lizing orqali xarid qilinganda kreditdan farqli ravishda lizing obyektining o‘zi ta’midot sifatida qo‘yiladi;


oltinchidan, lizing to‘lovleri belgilangan grafik orqali amalga oshirilishi sababli, lizingga oluvchi korxona kapital qo‘yilmalarini moliyalashtirishga ketadigan xarajatlarni va mahsulotlarni sotishdan keladigan daromadlarni yo‘naltirish imkonini beradi.

• O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 2-noyabrdagi 240-sonli «Qishloqni lizing shartlarida qishloq xo'jaligi texnikasi bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori asosida, lizing operatsiyalarini amalga oshirilishini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida Moliya vazirligi huzurida maxsus jamg'arma tuzildi va u tomonidan «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» lizing kompaniyasiga muntazam ravishda qarz mablag'lari ajratilishi belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi lizingning ikki turi mavjud: moliyaviy va operativ lizing. Lizingning ushbu turlari o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari bilan ajralib turadi. Moliyaviy lizingda lizingga oluvchining talabiga binoan lizing kompaniyasi texnika xarid qiladi va lizing muddati uzoq muddatli bo'lib, muddati tugagandan so'ng lizing oluvchining mulkiga aylanadi. Operativ lizingda texnikalar, odatda, lizing kompaniyasida mavjud bo'lgan texnikalardan ijaraga beriladi, uning muddati texnikalarning xizmat qilish muddatlaridan ancha kam bo'ladi va texnikalar bir necha marta lizingga beriladi.

Hozirgi kunda respublikamizda lizingning asosan moliyaviy turi rivojlangan. Ammo shuni ta'kidlab o'tish lozimki, infratuzilma subyektlari, asosan muqobil MTP va MTP DAJlarning iqtisodiy salohiyati pasayganligi va texnikalarning xarid qiymati keskin oshganligi sababli texnikalarni lizingga olishda muammolar paydo bo'lmoqda. Misol uchun, 2002-yilda TTZ 80 – 11 traktorning xarid qiymati 9392,9 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2008-yilga kelib uning qiymati 32713,2 ming so'mni tashkil etdi, ya'ni deyarli 3,4 barobar oshganligini ko'rishimiz mumkin. Natijada qishloq xo'jaligi infratuzilmasi tomonidan lizingga olingan texnikalar soni va unga ajratilgan mablag' miqdori keskin pasayib borgan (13.3.4-rasm).

Qashqadaryo viloyatida 2008-yilda 2002-yilga nisbatan, qishloq xo'jaligi infratuzilmasi tomonidan lizing asosida olingan texnikalarni «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» ALK



13.3.4-rasm. «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» ALK Qashqadaryo viloyat filiali orqali olingan texnikalarning moliyalashtirilishi⁵⁸

tomonidan moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag' miqdori 14 barobarga kamaygan, ya'ni 2002-yilda olingan texnikalarni moliyalashtirishiga 2421376,8 ming so'm mablag' ajratilgan bo'sha, 2008-yilda 172203,0 ming so'mlik mablag' ajratilgan.

Umuman olganda, qishloq xo'jaligi infratuzilmasi faoliyatini rivojlantirishda amortizatsiya xarajatlari va ilmiy taraqqiyot talablaridan kelib chiqqan holda, ushbu sohaga ma'lum bir investitsiyalarni joriy etishni talab etadi. Infratuzilma obyektlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga sarflangan sarmoya, albatta, iqtisodiy samaradorligini oshirishga yo'naltirish lozim.

Samaradorlik -- xalq xo'jalinining barcha tarmoqlarida rivojlanishni belgilovchi kategoriyalardan biri hisoblanadi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, ishlab chiqarish faoliyatiga ta'sir darajasini ajratib olishning imkonini deyarli yo'qligi sababli, infratuzilma tarmoqlari faoliyatining samarador-

⁵⁸ «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» ALK Qashqadaryo viloyat filiali ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tahlil qilingan va ishlab chiqilgan.

ligini to‘g‘ridan-to‘g‘ri miqdoriy jihatdan aniqlash birmuncha murakkabdir. Infratuzilmaning mutloq samarasi asosan uning yo‘qligi natijasida bo‘ladigan xarajatlarning oldini olishdan iboratdir.

Infratuzilmaning rivojlanishiga kiritiladigan investitsiyalarning samaradorligiga baho berishda turli xil uslublar qo‘llaniladi. Xorijda «xarajat – daromad» (cost - benefit) uslubi keng qo‘llanilib kelinmoqda.

Uning mohiyati shundan iboratki, investitsiya faoliyatining natijasini xarakterlovchi, ijtimoiy va iqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimini hisobga olib, investitsiyalarning samaradorligini va mamlakatning iqtisodiy o‘sishga ta’siri asoslanadi. Bu uslubning afzalligi shundaki, uni nafaqat mikrodarajada, ya’ni alohida korxona misolida, balki infratuzilmaga yirik dasturlar asosida kiritiladigan investitsiyalarning makroiqtisodiy darajada ham tahlil qilish mumkin.

Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasini rivojlantirish va uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga sarflangan sarmoya ushbu sohaning iqtisodiy samaradorligini oshirishga yo‘naltirilishi lozim. Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi tarmog‘i faoliyatining iqtisodiy samaradorligini aniqlash usuli moddiy ishlab chiqarish sohalarida hisoblanadigani kabi bo‘lishi va shu bilan birga, muomala jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olinishi lozim.

Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasining sifat va miqdoriy jihatlarini aniqlovchi omillarning uchta asosiy shakllari mavjud:

- vaqtning qisqarishi va ishlab chiqarish samaradorligining oshishi;
- ishlab chiqarish samaradorligining oshishi hisobiga muomala vaqtining qisqarishi;
- tovar harakatiga ketadigan ijtimoiy xarajatlarning kamayishi.

Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi sohasining samaradorlik ko‘rsatkichini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$C_i = \frac{S_f}{X_{i,ch} + X_m}$$

Bu yerda, C_i – qishloq xo‘jaligi infratuzilmasining samaradorlik ko‘rsatkichi;

S_f – qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi xizmatlari ko‘rsatishdan tushgan sof foyda;

$X_{i,ch}$ – qishloq xo‘jaligi infratuzilmasining ishlab chiqarishga ketgan moddiy xarajatlari (asosiy fondlar amortizatsiyasini hisobga olmagan holda);

X_m – qishloq xo‘jaligi infratuzilma obyektlarining muomala xarajatlari.

Qishloq xo‘jaligi infratuzilma obyektlarini moliyalash-tirishdan olinadigan samaradorlikni uch turga bo‘lish mumkin, ya’ni bevosita, bilvosita va «ko‘rinmas» samaradorlikdir. Bevosita samaradorlikka kiritilgan investitsiyalar natijasida realizatsiya qilingan tovar va xizmatlardan tushgan daromadlardir. Bilvosita samaradorlik – qiymat shaklida ifodalangan, bevosita daromadlarga kirmaydigan investitsiyalar samarasini belgilaydi. «Ko‘rinmas» samaradorlik qiymat shakliga ega emas, ammo investitsiyalarning amalga oshishi natijasida vujudga kelgan samaradir. Infratuzilma obyektlarini tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlarni aniqlashda har bir hududning o‘ziga xos bo‘lgan jihatlarini e’tiborga olish lozim.

Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasini moliyalashtirishning samaradorligini aniqlashda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish lozim:

- qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi va ishlab chiqarish sohasini rivojlantirish maqsadida kiritiladigan sarmoya-larning o‘zaro mutanosib taqsimlanganligi;

- qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi obyektlarini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari;

- infratuzilma obyektlari yetarli darajada rivojlanmagan taqdirda mavjud va kutilayotgan xarajatlarning manbalari va miqyosiga.

Shularni inobatga olgan holda, infratuzilmaning mavjud va rivojlanishi lozim bo'lgan darajasi aniqlanadi.

Umuman olganda, qishloq xo'jaligi infratuzilmasi obyektlarini moliyalashtirishda o'z-o'zini moliyalashtirish tizimlarini (kredit ittifoqlari, o'zaro moliyalashtirish jamiyatlari) shakllantirish, moliyalashtirishning mavjud tizimlarini (lizing, imtiyozli kreditlash) takomillashtirish va yangi tizimlarini (franchayzing) joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.


2010-yilda «Agrobank» tomonidan quyidagi tashkilotlardan va moliyaviy institutlardan chet el kreditlari jalb qilingan:

- Xalqaro Tiklanish va Taraqqiyot Banki (XTTB) – 15,5 mln. AQSH dollar;
- Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (YETTB) – 15 mln. AQSH dollar;
- Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) – 55,5 mln. AQSH dollar;
- Germaniyaning KfV banki – 4,1 mln. AQSH dollar;
- Xitoy Xalq Respublikasining Eksimbanki – 3,3 mln. AQSH dollar;
- Xalqaro taraqqiyot uyushmasi (XTU) mablag'lari – 9,2 mln. AQSH dollar va 12,4 mlrd. so'm.

Shundan Osiyo Taraqqiyot bankining «Agrobank» tomonidan jalb qilingan liniyalari quyidagicha taqsimlandi (13.3.5 - rasm):

«Agrobank» tomonidan fermer xo'jaliklarini kreditlash quyidagi manbalar hisobidan amalga oshiriladi:

1. *Bankning o'z mablag'lari hisobidan* kichik biznes subyektlari, shuningdek, fermer xo'jaliklariga 277.0 mlrd. so'm, shu jumladan mikrokreditlar 57.2 mlrd. so'm, imtiyozli kreditlash maxsus jamg'armasidan 3.7 mlrd. so'm, tadbirkor ayollarga 28.3 mlrd. so'm, PQ-1047-sonli qaroriga asosan oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishga 62.2 mlrd. so'm, PQ-1050-sonli qaroriga asosan nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishga 47.6 mlrd. so'm kredit ajratildi.



13.3.5-rasm. Osiyo Taraqqiyot bankining «Agrobank» tomonidan jalb qilingan liniyalarining taqsimlanishi, %

2. Moliya vazirligi huzuridagi «Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hisob-kitob Jamg'armasi» mablag'lari hisobidan g'alla hosilini imtiyozli kreditlashga 154.9 mlrd.so'm, paxta hosilini imtiyozli kreditlashga 509.0 mlrd.so'm.

3. Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish va Dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi kredit liniyalarini hisobidan 5,8 mlrd.so'm.

4. Xalqaro va xorijiy kredit liniyalaridan 98.5 mln. AQSH dollari, 4.1 mln. YEVRO hamda 12.4 mlrd.so'm;

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Bozor infratuzilmasining mazmuni, mohiyati va tarkibi nimalardan iborat?
2. Bozor infratuzilmasini rivojlantirishda xorij tajribalaridan foydalanish yo'llari qanday?
3. Qishloq xo'jaligi infratuzilmasini moliyalashtirishning asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
4. Bozor infratuzilmasining qishloq xo'jaligi iqtisodiy samaradorligiga ta'sirini izohlab bering.
5. Qishloq xo'jaligida bozor infratuzilmasini yanada rivojlantirishda nimalarga e'tibor berish kerak?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Huquqiy va me'yoriy hujjatlar

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi –T.: O'zbekiston, 2008. – 40 b.
- 1.2. O'zbekiston Respublikasining «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi Qonuni (Yangi tahrirda)// Xalq so'zi. – 15-oktabr 2004-yil.
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to'g'risida»gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi qonun va farmonlar. –T.: O'zbekiston, 1992. – 19 b.
- 1.4. O'zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi»// J. Soliq to'lovchi jurnali. 1998. № 7 – 8. – 12 b.
- 1.5. O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonuni. //Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me'yoriy hujjatlar to'plami. 1-qism. –T.: Sharq, 1998.
- 1.6. O'zbekiston Respublikasining «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonuni. // Xalq so'zi. 6-iyun 1998-yil.
- 1.7. O'zbekiston Respublikasining «Bank va bank faoliyati to'g'risida»gi qonuni. 1996. 25-aprel.
- 1.8. O'zbekiston Respublikasining «Lizing to'g'risida»gi Qonuni. 1999. 14-aprel.
- 1.9. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 2007-yil 25-dekabr. – 263 b.
- 1.10. O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. –T.: Adolat. 1999. – 136 b.
- 1.11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 28-avgustdag'i «Lizing faoliyatini rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni// Xalq so'zi. 2002-yil 30-avgust.
- 1.12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 24-martdag'i «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng

muhim yo‘nalishlari to‘g‘risida»gi Farmoni. // Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asoslari. – T.: Fan. 2003. – 7b.

1.13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 27-oktabrdagi «2004–2006-yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiysi to‘g‘risida»gi Farmoni. // Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asoslari. – T.: Fan. 2003. – 12 b.

1.14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 4-noyabrdagi «2005–2007-yillarda fermer xo‘jaliklarini jadal rivojlantirishga qaratilgan takliflar tayyorlash bo‘yicha maxsus komissiya tuzish to‘g‘risida»gi Farmoni // Xalq so‘zi. 2004-yil 5-noyabr.

1.15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mikrokreditbank AT banki faoliyatini tashkil etish va uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni. 2006. 6-may.

1.16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 28-noyabrdagi PF-4053-sonli «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta‘minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida»gi Farmoni.

1.17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «MTPlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash haqida»gi qarori. 1998. 10-mart.

1.18. «Qishloq xo‘jaligida agrokimyoiy xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 2001. 1-fevral

1.19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2005–2007-yillarda fermer xo‘jaliklarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 607-sonli qarori. 2004. 24-dekabr.

1.20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-oktabrdagi «2004–2006-yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 476-sonli qarori. // Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asoslari. – T.: Fan. 2003. – 41 b.

1.21. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-oktabrdagi «Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish va majburiyatlar bajarilishi uchun tomonlarning javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 383-sonli qarori. // Qishloq xo‘jaligida

iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asoslari. – T.: Fan. 2003. – 16 b.

1.22. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kichik korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklarini mablag' bilan ta'minlash, moddiy-texnik ta'minlash, ularga bojxona imtyozlari berish, bank xizmatlari va boshqa xizmatlar ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2001-yil 10-sentabrdagi 366-sonli Qarori. // O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. –T.: «O'zbekiston», 2002-y.

1.23. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kimyo sanoati korxonalarini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish va qishloq xo'jaligiga agrokimyo xizmati ko'rsatishni yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2004-yil 23-yanvar 33-sonli Qarori.

1.24. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mevasabzavotchilik va uzumchilik sohalarida isloh qilishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. 2006-yil. 11-yanvar.

1.25. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo'jaligi uchun minitexnologiyalar va ixcham uskunalarining Xalqaro ixtisoslashtirilgan ko'rgazma-savdosini o'tkazishni tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. 2006-yil 24-avgustdaggi 449-sonli Qarori.

1.26. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida 2006–2010-yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. 2006-yil. 17-aprel.

1.27. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2007-yilda qishloq xo'jaligi korxonalarini fermer xo'jaliklarga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. 2006-yil. 11-noyabr.

1.28. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida 2010-yil davrgacha xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. 2007-yil. 21-may. 36 b.

1.29. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar bilan tayyorlov, xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtaida shartnomalar tuzish, ularni ro'yxatdan o'tkazish, bajarish, shuningdek ularning bajarilishi monitoringini olib borish tartibi to'g'risidagi Nizom. // Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asoslari. – T.: Fan. 2003. – 18 b.

1.30. Qishloq xo'jaligi korxonalarining davlat extiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risida Nizom. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. 2007. №7. – 2 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari

2.1. Karimov I.A. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'llida. – T.: O'zbekiston, 1995. – 273 b.

2.2. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O'zbekiston, 1998. – 211 b.

2.3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O'zbekiston, 1999. – 125 b.

2.4. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida 2008-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2009-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. 2009-yil. 14-fevral.

2.5. Karimov I.A. Juhon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. – T.: O'zbekiston, 2009. – 56 b.

2.6. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida 2009-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2010-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. – 2010-yil 30-yanvar.

2.7. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010-yil 12-noyabr./–T.: «O'zbekiston», 2010. – 56 b.

2.8. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga

bag‘ishlangan O‘zR Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruza, 2011-yil 21-yany./—T.: O‘zbekiston, 2011. 48 б.

2.9. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. —T.: O‘zbekiston, 2011. 70 б.

2.10. Karimov I.A. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari. Xalq so‘zi. 2012-yil 20-yanvar.

3. Asosiy adabiyotlar

3.1. Бородин К.С. Регулирование агропродовольственных рынков внешнеэкономический аспект. —М.: ВИАПИ им. А.Р. Никонова, Энциклопедия Российских деревен., 2005. — С. 204.

3.2. Jo‘rayev F. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. — Toshkent: Istiqlol, 2004. — 344 б.

3.3. Коныгин А.А. Фермерские хозяйства в развитых странах мира. — М.: Колос, 1998. — С. 172.

3.4. Farmonov T.X. Fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish istiqbollari. — Т.: Yangi asr avlodi, 2004. — 143 б.

3.5. Abdug‘aniyev A., Abdug‘aniyev A.A. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. —Т.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg‘armasi. 2004. — 304 б.

3.6. Berkinov B.B., Tashmatov R.X. O‘zbekistonda fermer xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilmalarni rivojlantirish yo‘nalishlari. O‘quv qo‘llanma. —Т.: TDIU, 2007. — 44 б.

3.7. Конаков М.А., Конаков А.П. Организация и экономические основы фермерских хозяйств. М.: Академия, 2004. — С. 256.

3.8. Лимарев В.Я., Алферьев В.П. Экономические проблемы организации логистических процессов и маркетинга в системе ресурсообеспечения АПК. —М.: АгроПресс ЛТД, 2001. — С. 327.

3.9. Zokirov O., Pardayev A. Qishloq xo‘jalik iqtisodiyoti. Darslik. —Т.: O‘ajBNT, 2003. — 260 б.

3.10. Salimov B.T., O‘roqov N.I. Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. —Т.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg‘armasi. 2004. — 112 б.

3.11. Ergashyev R.X. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. Darslik. Т.: Extremum Press, 2011. — 416 б.

- 3.12.R.H.Husanov, A.N.Hamdamov, I.E.Rafiqov. Qishloq xo'jaligida servis xizmati. Muqobil mashina – traktor parklarini rivojlantirish muammolari. – T.: Yangi asr avlod. 2001. – 76 b.
- 3.13.Rafiqov I.E., Muxtorov A.H., Rahimov B.I. Fermerlarga xizmat ko'rsatishni tashkil etish. – T.: Fan. 2007. – 20 b.
- 3.14.Umurzoqov O.P., Toshboyev A.J., Toshboyev A.A. Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya. 2007. – 228 b.
- 3.15.Bekmurodov A.SH. va b. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlar va fermerlik harakatlar. – T.: TDIU. 2006. – 59 b.
- 3.16. Основные направления совершенствования государственного регулирования государственного рынка ресурсов и производственно-технических услуг для сельского хозяйства / В.П.Алферьев, Н.А. Дорофеев и др.; под ред. В.П.Алферьева. – М.: ВНИИЭСХ, 2002. – С. 64.
- 3.17.Salimov B.T. va b. Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi. – Toshkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi. 2004.–10b.
- 3.18.Fermerlik faoliyatining huquqiy va moliyaviy asoslari / O.Olimjonov, T.Farmonov va b.; O.Olimjonov tahriri ostida. – Toshkent: «Universitet», 2005. – 212 b.
- 3.19.Qishloq xo'jaligida islohotlarni chiqurlashtirishda suv iste'molchilari uyushmasining o'rni / Sh.Xamrayev, N.SHeraliyev va b.; Sh.Xamrayev tahriri ostida. – Toshkent: «Talqin», 2006. – 288 b.
- 3.20.Статистика рынка товаров и услуг: Учеб. для студентов вузов, обучающихся по специальностям «Статистика», «Маркетинг» и др. экон. специальностям / И.К.Беляевский, Г.Д.Кулагина, Л.А. Данченко и др. Под ред. И.К.Беляевский – М.: Финансы и статистика, 2002. С. 364.
- 3.21.Макконел Кемпбелл Р., Брю Стенли Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. В 2-х т. – М.:Республика, 1992. – С. 388.
- 3.22.Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. В 2-х т. – М.:Наука, 1992. Т.1. – С. 13.
- 3.23.Jo'rayev A.M. Qishloq xo'jaligi islohotlarini kengaytirish va chiqurlashtirish masalalariga ustuvorlik //O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. – Toshkent: 2003. - № 11 – 12. 14-17 b.
- 3.24.Murodov Ch. Qishloqda bozor infratuzilmasi asoslarini shakllantirish // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. – Toshkent: 1999. - № 3. 2 – 4 b.

- 3.25. Xamrayeva S.N. Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari. –T.: Fan va texnologiya, 2010, – 148 b.
- 3.26. Xamrayeva S.N. Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasini rivojlantirishda xorij tajribasi.// Bozor, pul va kredit. – Toshkent: 2008. - №11. 53-55 b.
- 3.27.Хамраев С.Н. Развитие инфраструктуры в сельском хозяйстве Республики Узбекистан// Экономика и финансы. 2009. - №2. – С. 42 - 44.
- 3.28. Xamrayeva S.N. Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasing rivojlanishi// Birja - ekspert. – Toshkent. 2009. - №1. 10-13 b.
- 3.29.Хамраев С.Н. Совершенствование договорных отношений между фермерскими хозяйствами и объектами сферы услуг // Экономика и финансы. 2009. -№3. – С. 66 - 68.
- 3.30. Ergashev R.X., Fayziyeva Sh.SH. Fermer xo‘jaligini rivojlantirish iqtisodiyotning istiqboldir. // O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. – Toshkent.: 2003. - № 7. 51 – 52 b.
- 3.31.Эргашев Р.Х. Устойчивое развитие селского хозяйства Каракалпакской области // Экономика и финансы. – Москва: 2009. -№3. – С. 12-14.
- 3.32.Эргашев Р.Х., Хамраева С.Н. Пути развития инфраструктуры села// Международный научный бюллетень. – Прага, 2009. - №1. - С. 99-100.
- 3.33.Эргашев Р.Х., Хамраева С.Н. Решение социальных проблем села // Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida kuchli ijtimoiy siyosat va inson omilining rivojlanishi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya tezislar to‘plami. –Toshkent: O‘zMU, 2003. 191-194 b.
- 3.34. Ergashev R.X. Agrar sohada bozor munosabatlarini shakllantirishda fermerlik harakatining ahamiyati // Agrar sohada iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiysi ma’ruzalar to‘plami. – Toshkent: QMII, 2006. 16-20 b.
- 3.35.Эргашев Р.Х., Хамраева С.Н. Развитие инвестиционной деятельности в Каракалпакской области// Tarmoqlarda hisob tizimlarini takomillashtirish va halqaro andozalarga moslashtirish muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya ma’ruzalar to‘plami. – Toshkent: QMII, 2007. 212 – 213 b.
- 3.36. Ergashev R.X., Shoxo‘jayeva Z.S., Xamrayeva S.N. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti (I qism) // Uslubiy qo‘llanma. – Qarshi, 2009, – 100 b

3.37. Ergashev R.X., Shoxo'jayeva Z.S., Xamrayeva S.N. Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti. Uslubiy qo'llanma, – Qarshi, 2009. 112 bet.

3.38. Эргашев Р.Х. Интеграция в образовании и производственных предприятиях Узбекистана // Экономика и финансы. – Москва: 2009. №3. – С. 6 - 8.

3.39. Эргашев Р.Х. Перспективы развития фермерских хозяйств животноводческого направления // Экономика и финансы. – Москва: 2009 г, №3, С. 24-26

3.40. Ergashev R.X., Hamrayeva S.N. Qishloq xo'jaligida infratuzilmani rivojlantirish masalalari // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ma'ruzalarini to'plami, –Toshkent: 2010, 48-51 b.

3.41. Ergashev R.X., Hamrayeva S.N. Inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida qishloq xo'jaligi infratuzilma obyektlarini optimal joylashtirish masalalalari // Servis, Samarqand, 2010, № 2, 27-31 b.

4. Statistik to'plamlar

4.1. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ko'rsatkichlari. 2002–2010-yillar.

4.2. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari. 2002–2010-yillar.

4.3. Qashqadaryo viloyati Iqtisodiyot bosh boshqarmasi hisobotlari.

4.4. Qashqadaryo viloyati Qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi hisobotlari.

4.5. «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» ALK Qashqadaryo viloyati filiali ma'lumotlari.

4.6. Nishon tumani fermer xo'jaliklari yillik hisobotlari.

5. Internet Veb sahifalari

5.1. http://www.usda_programs

5.2. <http://www.inf.ru/>

5.3. <http://geliopax.tele-kom.ru>

5.4. <http://www.usaidmicro.org>

ILOVALAR

1-ilova

*Vazirlar Mahkamasining 2003-yil
4-sentabrdagi 383-son qaroriga 1-ilova*

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar bilan tayyorlov,
xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtasida shartnomalar tuzish, ularni
ro'yxatdan o'tkazish, bajarish, shuningdek, ularning bajarilishi
monitoringini olib borish tartibi to'g'risida**

NIZOM

I.Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar, tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtasida shartnomalar tuzish va ularni bajarishda paydo bo'ladigan munosabatlarni tartibga soladi, shuningdek, ularni tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlaridan ro'yxatdan o'tkazish hamda ularning bajarilishi monitoringini olib borish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Nizomning amal qilishi qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari), fermer va dehqon xo'jaliklari, boshqa qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari (keyingi o'rnlarda xo'jaliklar deb yuritiladi) hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash, qayta ishlash, moddiy-texnika resurslari yetkazib berish bilan shug'ullanuvchi, mexanizatsiyalashgan ishlarni bajaruvchi, xo'jaliklarga servis, agrokimyo, agrotexnika xizmatlari va xo'jaliklarga qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan bog'liq boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari (keyingi o'rnlarda tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari deb yuritiladi) o'rtasida tuzilgan kontraktatsiya shartnomalariga (ularda davlat ehtiyojlari uchun xarid qilish mayjudligidan qat'iy nazar), moddiy-texnika resurslari yetkazib berish, xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) bo'yicha shartnomalarga tadbiq etiladi.

3. Kontraktatsiya shartnomasi bo'yicha xo'jalik bunday mahsulotlarni qayta ishlash yoki sotish uchun xarid qiluvchi shaxsga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kelishilgan muddatlarda berish

majburiyatini oladi, tayyorlovchi esa muayyan narx bo'yicha kelishilgan muddatlarda haq to'lab ushbu mahsulotlarni sotib olish majburiyatini oladi.

Moddiy-texnika resurslari (ehtiyyot qismlar, urug'lik, o'simliklarni himoya qilish vositaari, yonilg'i-moylash materiallari, mineral o'g'it va boshqalar) **yetkazib berish yuzasidan tuzilgan shartnoma bo'yicha** yetkazib beruvchi tashkilot xo'jalikka o'zi ishlab chiqaradigan yoki xarid qiladigan moddiy-texnika resurslarini qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda foydalanish uchun kelishilgan muddatda yetkazib berish majburiyatini oladi, xo'jalik esa moddiy-texnika resurslarini qabul qilib olish va ular uchun belgilangan yoki kelishilgan narxlar bo'yicha haq to'lash majburiyatini oladi.

Xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) yuzasidan tuzilgan shartnoma bo'yicha bajaruvchi tashkilot xo'jalik buyurtmasiga binoan mexanizatsiyalashgan ishlarni bajarish, servis, agrokimyo, agrotexnika xizmatlari va qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan bog'liq boshqa xizmatlar ko'rsatishni ta'minlash majburiyatini oladi, xo'jalik esa ushbu ishlar (xizmatlar)ni qabul qilib olish va ular uchun belgilangan yoki kelishilgan narxlar bo'yicha haq to'lash majburiyatini oladi.

4. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ayrim turlarini davlat ehtiyojlari uchun xarid qilish mavjud bo'lган taqdirda tayyorlov tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hisob-kitob jamg'armasi bilan qishloq xo'jaligi mahsulotlari xarid qilishni mablag' bilan ta'minlash to'g'risida belgilangan tartibda shartnomalar tuzadi.

5. Xo'jaliklar bilan tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtaida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish, moddiy-texnika resurslari yetkazib berish va xizmat ko'rsatish (ishlarni bajarish) yuzasidan tuzilgan barcha turdag'i shartnomalar tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlarida ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin bajarilishi kerak.

6. Shartnomalarni tuzish va bajarishda har biri o'z majburiyatlarini eng yuqori tejam bilan, boshqa tomonlarning iqtisodiy manfaatlariga rioya qilgan holda bajarishi, majburiyatlarning zarur darajada bajarilmasligi natijasida paydo bo'lishi mumkin bo'lган zararning oldini olish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni ko'rishi va boshqa tomonni ushbu chora-tadbirlar to'g'risida o'z vaqtida

xabardor qilishi, shuningdek, unga majburiyatlarni bajarishda ko'maklashishi kerak.

II. Shartnomalarni tuzish tartibi

7. Shartnomalarni tuzishda tomonlar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga, «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, ushbu Nizomga va boshqa normativ-huquqiy xujjatlarga amal qiladilar.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar bilan tayyorlov, xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtaida shartnomalar tuzish va ularni ro'yxatdan o'tkazish bosqichlari izchilligi sxemasi mazkur Nizomga 1-ilovada keltirilgan.

8. Kontraktatsiya shartlari, shuningdek, moddiy-texnika resurslari yetkazib berish va xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) yuzasidan tuzilgan shartnomalar xo'jaliklarning biznes-rejalarida nazarda tutilgan hajmlardan kelib chiqqan holda, agrotexnika tadbirlarini amalga oshirish boshlanishidan bir oy oldin, lekin kalendor yil boshlanishidan kechikmay tuziladi.

9. Shartnomalarni tuzishda tomonlar tegishli turdag'i shartnomalar uchun ishlab chiqilgan alohida namunaviy shakllarga amal qilishi mumkin.

10. Shartnomalarda quyidagilar ko'rsatiladi:

- shartnomaning mavzusi, mahsulotning nomi, assortimenti, miqdori, (hajmi), sifati, narxi (turlari bo'yicha);
 - shartnomaning umumiy summasi;
 - tomonlarning huquqlari va o'zaro majburiyatlari;
 - mahsulotlarni yetkazib berish tartibi va shartlari, topshirish-qabul qilib olish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish) punktlari va davrlari (muddatlari);
 - idishga, markirovka qilishga, o'rash-joylashga qo'yiladigan talablar;
 - hisob-kitoblar tartibi, shakli va muddatlari, tomonlarning to'lov, pochta va yuklab jo'natish rekvizitlari;
 - shartnoma majburiyatlari, bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarmaganligi uchun tomonlarning mulkiy javobgarligi;
 - nizolarni, fors-major holatlarni hal etish tartibi, tomonlarning rekvizitlari, shartnoma tuzilgan sana va joy.

Davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari xarid qilish yuzasidan tuziladigan kontraktatsiya shartnomalarida davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan hamda xo'jaliklar ixtiyorida qoladigan mahsulotlarning sorti va miqdori ham ko'rsatiladi.

11. Shartnomalarga, shuningdek, aniq turdag'i shartnomalar uchun yoki ularga nisbatan tomonlardan birining arizasiga ko'ra yohud qonunchilikka muvofiq kelishuvga erishilishi kerak bo'lgan shartnomalar uchun nazarda tutilgan boshqa muhim shartlar ham kiritilishi mumkin.

12. Shartnomaga qishloq xo'jalik mahsulotlari, moddiy-texnika resurslari yetkazib berish va xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) muddatlari, miqdori va assortimentini belgilovchi, ikkala tomonning imzosi bilan tasdiqlangan hamda shartnomaning tarkibiy qismi hisoblanadigan jadval ilova qilinadi.

13. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchisining bevosita joylashgan joyidagi tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari agrotexnika chora-tadbirlarini amalga oshirishdan bir oy oldin shartnoma tuzish uchun xo'jalikka o'zining vakolatli vakilini yuborishi kerak.

14. Xo'jalik shartnoma loyihasi tayyorlov yoki xizmat ko'rsatish tashkiloti vakilidan olingan vaqtidan boshlab 7 kun mobaynida uni ko'rib chiqishi va e'tirozlar bo'lgan taqdirda loyihami imzolashi va tayyorlovchiga qaytarishi lozim.

• Xo'jalikda shartnoma loyihasi shartlari bo'yicha e'tirozlar paydo bo'lgan taqdirda xo'jalik yuqorida ko'rsatilgan muddatlarda kelishmovchiliklar to'g'risida protokol tuzadi va uni tayyorlov yoki xizmat ko'rsatish tashkilotiga jo'natadi, bu to'g'rida tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limini xabardor qiladi.

15. Xo'jalikning shartnoma xulosasiga ilgari shartnoma loyihasida nazarda tutilganlardan boshqacha shartlarda roziligi mavjud bo'lganda tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi vakili bilan birgalikda) ko'rib chiqishi va uning natijalari bo'yicha takliflarni shartnoma loyihasiga kiritishi yohud hal etilmagan

16. Tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkiloti kelishmovchiliklar to'g'risidagi protokol olingan vaqtidan boshlab 7 kun mobaynida uni (zarurat bo'lganda tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi vakili bilan birgalikda) ko'rib chiqishi va uning natijalari bo'yicha takliflarni shartnoma loyihasiga kiritishi yohud hal etilmagan

kelishmovchiliklarni huddi shu muddatlarda ko'rib chiqish uchun tegishli xo'jalik sudiga berishi shart.

17. Kelishmovchiliklar to'g'risidagi protokol qabul qilinmaganda yoki uni ko'rib chiqish natijalari to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilinmaganda xo'jalik nizoni ko'rib chiqish uchun sudga berishga haqlidir.

18. Shartnoma tomonlardan har biri va tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi uchun bir nusxadan tuziladi. Shartnomaning barcha nusxalari bir xil yuridik kuchga ega bo'ladi.

19. Tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari xo'jaliklar bilan shartnomalarining o'z vaqtida tuzilishi uchun javob beradi.

III. Shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish tartibi

20. Tuzilgan shartnoma imzolangan vaqtidan boshlab 3 kun mobaynida tayyorlov yoki xizmat ko'rsatish tashkilotlari tomonidan tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limiga ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etiladi.

Ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan shartnomalarini ko'rib chiqish qishloq va suv xo'jaligi bo'limi tomonidan 3 ish kuni mobaynida amalga oshiriladi.

Shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazishda qo'shimcha hujjatlar yoki to'lov talab qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

21. Shartnoma:

uning amaldagi qonun hujjatlariga muvofiqligi;

unda ushbu Nizomning 10-bandida ko'rsatilgan muhim shartlar mavjudligi;

xizmat ko'rsatish tashkilotlari tomonidan narx bo'yicha tartibga solinishi kerak bo'lgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) narxlarining oshirib yuborilishi yuzasidan tekshiriladi.

22. Shartnoma qo'yiladigan talablarga muvofiq bo'lgan taqdirda ro'yxatdan o'tkaziladi. Shartnomaning barcha nusxalariga ro'yxatdan o'tkazganlik to'g'risida belgi qo'yiladi, tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi xodimi tomonidan imzolanadi, imzo muhr bilan tasdiqlanadi.

Tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi xodimlari ro'yxatdan o'tkazishning to'g'riliqi uchun javob beradi.

Shartnoma belgilangan talablarga muvofiq bo'lmasan taqdirda ro'yxatdan o'tkazishni rad etish to'g'risida qaror chiqariladi.

Asoslangan holdagi rad etish aniq sabablar ko'rsatilgan holda yozma shaklda rasmiylashtiriladi.

Shartnomani ro'yxatdan o'tkazish rad etilgan taqdirda tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari shartnoma puxtalashtirilgandan keyin 3 kun muddatda uni takroran taqdim etishlari shart.

23. Tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlarida Shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish daftarlari yuritiladi, ularda quyidagi ma'lumotlar mavjud bo'ladi:

- shartnomaning ro'yxatdan o'tkazish tartib raqami;
- shartnoma tuzilgan sana;
- shartnoma ro'yxatdan o'tkazilgan sana;
- shartnomaning tomonlari;
- yetkazib beriladigan mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlar (bajarilgan ishlar) turlari va miqdori (hajmlari);
- shartnoma summasi;
- ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomani olgan shaxsning imzosi va sana.

24. Shartnoma ro'yxatdan o'tkazilgan taqdirda tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari shartnoma ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab ikki kun muddatda xo'jaliklarga ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomaning bir nusxasini jo'natishlari shart.

Shartnomani ro'yxatdan o'tkazish rad etilgan taqdirda tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari bu haqda xo'jalikni rad etish sabablarini ko'rsatgan holda rad etish hujjati olingen kundan boshlab 2 kun muddatda xabardor qilishi shart.

25. Ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomaga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar shartnoma bilan bo'lgan tartibda rasmiylashtiriladi va ular tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlarida ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin bajarilishi kerak.

26. Shartnomaning tomonlarda hamda tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limida qoladigan nusxalari tomonlar shartnoma majburiyatlarining hammasini bajargan vaqtidan boshlab uch yil mobaynida saqlanadi.

IV. Tomonlarning huquqlari

27. Xo'jalikning huquqlari:

- shartnomada nazarda tutilgan hollarda tayyorlov tashkilotidan urug' va ekish materiallari bilan ta'minlashni talab qilish;

- mahsulotni topshirishda, uning sifatini aniqlashda qatnashish va tayyorlov tashkilotidan mahsulot uchun tegishli to‘lovni talab qilish;
- tayyorlov tashkilotidan mahsulot yetishtirish uchun shartnomada belgilangan muddatlarda va miqdorda avans to‘lanishini talab qilish;
- tayyorlov va xizmat ko‘rsatish tashkilotidan amaldagi davlat standartlari va shartnomani bajarish uchun zarur bo‘lgan boshqa normativ hujjatlar bilan ta’minlashni talab qilish;
- tayyorlov va xizmat ko‘rsatish tashkilotidan mahsulot xo‘jalik hisobidan tashilganda transport xarajatlarini qoplanishini talab qilish;
- xizmat ko‘rsatish tashkilotidan shartnomaga muvofiq beriladigan buyurtmanomaga binoan tegishli sifatdagi, assortimentdagi mahsulotlar yetkazib berishni va xizmatlar ko‘rsatishni (ishlarni) talab qilish;
- tayyorlov va xizmat ko‘rsatish tashkilotidan shartnomaga shartlarini bajarmaslik yoki zarur darajada bajarmaslik natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini talab qilish.

Tovar (ishlar, xizmatlar) unga yomon sifat bilan sotilganda xo‘jalik o‘z xohishiga ko‘ra:

- zarur sifatdagi ana shunday tovar (ishlar, xizmatlar)ga almashtirishni;
- tovar (ishlar, xizmatlar)ning nuqsonlarini bepuł bartaraf etishni yoki nuqsonlarni tuzatish uchun sotib oluvchi yohud uchinchi shaxs tomonidan qilingan harajatlari to‘lanishini;
- narxlarning mutanosib ravishda kamaytirilishini talab qilishga haqlidir.

Xo‘jalik amaldagi qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘ladi.

28. Xo‘jalikning majburiyatları:

- mahsulotning muayyan turlarini tayyorlovchi tashkilotga shartnomada belgilangan miqdorlarda va assortimentda hamda muddatlarda tegishli sifat bilan yetkazib berish;
- ilova qilinayotgan hujjatlarni to‘g‘ri rasmiylashtirish va mahsulotni topshirishda qo‘yiladigan boshqa talablarga (idishga joylash, qadoqlash, qoramollarni tamg‘alash va boshqalarga) rioya etish;
- mahsulotni tayyorlov tashkilotiga topshirish uchun o‘z vaqtida tayyorlash;

Yetkazib berilgan moddiy-texnika resurslari va ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar) uchun to'lovni (hisob-kitoblarni) xizmat ko'rsatish tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalarga muvofiq o'z vaqtida amalga oshirish.

Xo'jalik qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham o'z zimmasiga oladi.

29. Tayyorlov tashkilotining huquqlari:

– tasdiqlangan jadvalga muvofiq shartnomada belgilangan muddatlarda mahsulotlarning muayyan turlarini belgilangan miqdorlarda va assortimentda tegishli sifat bilan o'z vaqtida topshirishni talab qilish;

– qishloq xo'jalik mahsulotlari avans summasida nazarda tutilgan hajmlarda topshirilmagan taqdirda tuzilgan shartnomaga muvofiq ilgari berilgan avans mablag'lari qoplanishini xo'jaliklardan talab qilish.

Tayyorlov tashkiloti qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'ladi.

30. Tayyorlov tashkilotining majburiyatları:

– qonun hujjatlariga muvofiq xo'jaliklar bilan tomonlar kelishgan hajmlarda o'z vaqtida shartnomalar tuzish;

– xo'jaliklarga shartnomalarda belgilangan davrlarda, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish muddatlariga muvofiq mahsulotlar qiymatining kamida 50 foiz miqdorida (chorvachilik mahsulotlari bo'yicha - shartnomalarda ko'rsatilgan hajmlar qiymatining 25 foizi miqdorida) avans mablag'lari to'lash;

– xarid qilinadigan mahsulotning vazni va sifatini to'g'ri aniqlash;

– xo'jaliklar tomonidan yetkazib beriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini shartnomada nazarda tutilgan miqdorlarda va muddatlarda xarid qilish, ularning uzluksiz qabul qilib olinishini ta'minlash;

– xo'jaliklar ixtiyorida qoladigan mahsulotlarni shartnomada nazarda tutilgan hollarda davlat standartlari va texnik shartlar talablariga muvofiq saqlash hamda ularning holati to'g'risida xo'jaliklarga muntazam ravishda xabar qilib turish;

– xo'jaliklar ixtiyorida qoldiriladigan mahsulotlar sifatining yomonlashishi oqibatida xo'jaliklarga yetkazilgan zararni qoplash;

– agar shartnomada o'zgacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kelishilgan jadvalga muvofiq qabul qilib olishni va tashishni ta'minlash;

- xarid qilinayotgan mahsulot sifatini amaldagi standartlar talablariga muvofiq aniqlash, shartnomada belgilangan narxlarga muvofiq va muddatlarda mahsulot uchun hisob-kitob qilish;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash, tayyorlash, tashish va qayta ishlashda ular nobud bo‘lishining oldini olish;
- mahsulotlarni amaldagi standartlarga muvofiq qayta ishlash, sotishga tayyorlash va ularni sotishga taalluqli hujjatlarni rasmiylashtirish;
- xo‘jaliklarni idishlar, o‘rash materiallari va normativ-texnik hujjatlar (standartlar, texnik shartlar, mahsulotlarning ayrim turlarini xarid qilish, qabul qilib olish, sifatini baholash tartibini tartibga soluvchi qoidalar) bilan shartnomalarga muvofiq ta’minalash;
- shartnomalarda nazarda tutilgan hollarda xo‘jaliklarni urug‘lik va ekish materiallari bilan ta’minalash;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tayyorlov tashkiloti joylashgan joyda yoki ular ko‘rsatgan boshqa joyda qabul qilib olingan taqdirda xo‘jaliklar tomonidan kontraktatsiya shartnomasiga muvofiq yetkazib berilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini belgilangan muddatlarda qabul qilib olish.

Tayyorlov tashkiloti qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlarini ham o‘z zimmasiga oladi.

31. Xizmat ko‘rsatish tashkilotlarining huquqlari:

- amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va miqdorlarda shartnomaga muvofiq yetkazib beriladigan moddiy-texnika resurslari va ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun oldindan haq to‘lashni va yakuniy hisob-kitob qilishni ta’lab qilish;
- taqdim etilgan buyurtmanomaga muvofiq yetkazib berilgan moddiy-texnika resurslarini va ko‘rsatiladigan xizmatlarni asossiz ravishda rad etish natijasida yetkazilgan zararni qoplashni xo‘jaliklardan ta’lab qilish.

Xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot qonun hujjatlarini va shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘ladi.

32. Xizmat ko‘rsatish tashkilotlarining majburiyatları:

- xo‘jaliklar bilan qonun hujjatlariga muvofiq o‘z vaqtida shartnomalar tuzish va shartnoma majburiyatlarining bajarilishini ta’minalash;
- xo‘jaliklarning buyurtmanomalariga binoan shartnomaga muvofiq muddatlarda, miqdorda va sifatda moddiy-texnika resurslari yetkazib berish hamda xizmatlar ko‘rsatish (ishlarni bajarish);

- yetkazib beriladigan moddiy-texnika resurslari, ko'rsatiladigan xizmatlar sifatining shartnomada belgilangan talablarga, shuningdek, amaldagi standartlar va normativlarga muvofiqligini ta'minlash;
- shartnomani bajarmaslik yoki zarur darajada bajarmaslik zimmasida xo'jalikka yetkazilgan zararni qoplash.

Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham o'z zimmasiga oladi.

V. Narxlar va hisob-kitoblar

33. Mahsulotni tashish va tushirish bo'yicha barcha xarajatlar tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari zimmasida bo'ladi.

Mahsulot xo'jalik transportida yetkazib berilsa, tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari xo'jalikka mahsulotni tashish xarajatlarining haqiqiy vazni (idishni ham qo'shib) bo'yicha qoplaydi.

34. Mahsulotni tashish xarajatlari butun masofa uchun qoplanadi. Kontraktatsiya shartnomalari bo'yicha xarajatlar mahsulot xo'jalikdan jo'natilgan joydan boshlab (saralash punkti, brigada, bo'lim, chorvachilik fermasi, yaylov, markaziy ombor, xo'jalikning markaziy qo'rg'oni va hokazolar) shartnomada nazarda tutilgan qabul qilish punktigacha qoplanadi. Moddiy-texnika resurslarini yetkazib berish shartnomalari bo'yicha harajatlar mahsulotni qabul qilish punktidan shartnomada nazarda tutilgan yetkazib berish joyigacha qoplanadi.

35. Xo'jaliklarning transportda tashish va tushirish xarajatlari qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlangan normalar va tariflar bo'yicha yohud tomonlarning kelishuviga ko'ra belgilanadi.

36. Tayyorlov tashkilotining qo'shimcha talablariga rioya qilgan holda mahsulot jo'natish bilan bog'liq shartnomada belgilanmagan xarajatlar tegishli ravishda tayyorlovchi hisobiga to'lanadi.

37. Tayyorlov tashkiloti tomonidan standart talablariga muvofiq bo'Imagan, shuningdek, konditsiyaga muvofiq bo'Imagan mahsulot qabul qilingan taqdirda qo'shimcha ravishda sortlarga ajratish tayyorlovchi tomonidan bajariladi, ishlarni bajarish bo'yicha xarajatlar esa qo'shimcha bitim bo'yicha qoplanadi.

38. Xo'jaliklar bilan tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtaqidagi oldindan haq to'lash va yakuniy hisob-kitoblar

shartnomada va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, shaklda va muddatlarda amalga oshiriladi.

VI. Shartnomalarini bajarish

39. Shartnomalar shartnoma shartlari va talablariga hamda qonun hujjatlariga rioya qilingan holda zarur darajada bajarilishi kerak.

Agar tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlasa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

40. Shartnomani bajarishdan bir tomonlama voz kechishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki shartnomada belgilangan hollar bundan mustasno.

1§. Kontraktatsiya shartnomalarining bajarilishi

41. Shartnomada mahsulot yetkazib berishning davrlari belgilanishi bilan birgaliyda tovarlarni yetkazib berish jadvallari ham (o'n kunlik, sutkalik va boshqalar) nazarda tutilishi mumkin.

Agar shartnomada bunday jadval nazarda tutilmagan taqdirda, xo'jalik tayyorlov tashkilotini mahsulotni shartnomada nazarda tutilgan assortimentda realizatsiya qilish uchun shartnomada belgilangan muddatlarda mo'ljallanayotgan hajmlar va topshirish muddatlari to'g'risida xabardor qilishi kerak. Agar shartnomada bunday muddat ko'rsatilmasa, mahsulot topshirilgunga qadar 30 kunlik muddatda (mavsumiy mahsulotlar bo'yicha – 15 kundan kechikmay) topshirishi va mahsulotni kalendar (sutka bo'yicha) topshirish jadvalini tayyorlov tashkiloti bilan kelishishi kerak.

42. Xo'jalik tomonidan mahsulot tayyorlov tashkilotiga jo'natilganda (yetkazib berilganda) mahsulotga belgilangan shakldagi hujjatlar ilova qilinishi, mahsulot tayyorlov tashkiloti tomonidan bevosita xo'jalikning o'zida qabul qilib olingan taqdirda, qabul qilish-topshirish hujjatlari ilova qilinishi kerak.

43. Xo'jalik tomonidan tayyorlov tashkilotiga shartnomaga muvofiq yetkazib beriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari davlat standartlari talablariga, texnik shartlarga, veterinariya va sanitariya nazorati qoidalariga muvofiq bo'lishi kerak.

44. Tayyorlov tashkiloti xo'jaliklardan shartnomada nazarda tutilgan hajmlardan ortiqcha yetishtirilgan mahsulotni faqat

qo'shimcha bitim asosida qabul qilishi mumkin. Xo'jalik bilan tuziladigan qo'shimcha bitim yozma shaklda rasmiylashtirilishi va tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limida ro'yxatdan o'tkazilishi kerak.

45. Tayyorlov tashkiloti bilan kelishgan holda xo'jalik mahsulotni keyingi topshirish davri hisobiga o'tkazgan holda muddatidan oldin topshirishi mumkin.

46. Shartnomada nazarda tutilgan hollarda xo'jalikning o'zida qayta ishlangan mahsulot tayyorlov tashkiloti tomonidan xarid hajmlarining amaldagi ekvivalentlari (koeffitsientlari) bo'yicha bajarish hisobiga qabul qilinadi.

47. Mahsulotni tayyorlov punktlariga jo'natishda mahsulotni transportga yuklash va qaytariladigan idishni bo'shatish xo'jalikning kuchi va mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi, qabul qilish punktida mahsulotni, xo'jalikka jo'natish uchun idishni tushirish tayyorlov tashkilotlarining kuchlari hisobiga amalga oshiriladi.

48. Agar tomonlardan biri yuklash yoki tushirish bo'yicha boshqa tomonning majburiyatlarini bajarsa, o'z majburiyatlarini bajarmagan tomon belgilangan tariflar asosida, bunday tariflar mavjud bo'magan taqdirda esa, o'zaro kelishuvga ko'ra bajarilgan ishlar qiymatini unga to'laydi.

49. Shartnomada yetkazilgan mahsulotni tayyorlov punktiga yoki tayyorlovchi korxonaga yetkazib berish nazarda tutilgan hollarda yetkazib bergenligi uchun haq mahsulotning haqi to'lanishi bilan birgafikda tayyorlov tashkiloti tomonidan to'lanadi.

50. Tomonlar shartnomani bajarish davomida o'zaro kelishuvga ko'ra mahsulotni yetkazib berish jadvali va joyini o'zgartirishga haqlidir.

51. Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi tuzilgan sana xo'jalik tomonidan shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilgan kun deb hisoblanadi, mahsulot oluvchining manziliga yuklab jo'natilgan taqdirda esa mahsulot transport tashkiloti vakiliga topshirilgan sana majburiyatlar bajarilgan kun deb hisoblanadi.

Hisob-kitob hujjatidagi bank muassasasi shtampida ko'rsatilgan sana mahsulotga haq to'lash bo'yicha tayyorlov tashkilotining majburiyati bajarilgan sana deb hisoblanadi.

52. Tayyorlov tashkilotlari va xo'jaliklari tovar-transport yuk xatida transport vositasi kelgan va mahsulot tushirib (ortib) bo'lingan vaqtini ko'rsatishlari shart.

53. Shartnoma majburiyatlarini bajarishda xarid qilinayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotining sifati va miqdorini baholash uning uchun haq o'z vaqtida va to'g'ri to'lanishi bo'yicha tomonlar o'rtasida nizoli masalalar va kelishmovchiliklar paydo bo'lган taqdirda, bunday masalalar va kelishmovchiliklar tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi tomonidan sudgacha bo'lган tartibda yoki xo'jalik sudi tomonidan hal etiladi.

54. Mahsulot qabul qilinishi rad etilganda tayyorlov tashkiloti rad etish holati to'g'risida xo'jalikni yozma shaklda xabardor qilishi shart (tovar-transport yuk xatiga belgi qo'yish, telegraf orqali va boshqalar). Agar tayyorlov tashkiloti mahsulotni qabul qilish rad etilishi to'g'risida yozma ariza berishdan bosh tortsa, u holda xo'jalik tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi vakili ishtirokida rad etish holatini tasdiqllovchi dalolatnomaga tuzadi.

55. Tayyorlov tashkiloti shartnomaga va topshirish-qabul qilishning kelishilgan jadvaliga muvofiq tayyorlovchiga taqdim etilgan tez buziladigan mahsulotni qabul qilishni rad etgan taqdirda, xo'jalik ushbu mahsulotni o'z ixtiyoriga ko'ra boshqa shaxslarga sotishi mumkin.

Bunda tayyorlov tashkilotlari mahsulotni qabul qilish rad etilganligi uchun mulkiy javobgarlikdan ozod etilmaydi.

56. Tayyorlov tashkiloti tomonidan bevosita xo'jalikning o'zida qabul qilingan mahsulot (kartoshka, sabzavot, poliz mahsulotlari, meva va rezavor mevalar, uzum) xo'jalik hududida vaqtincha saqlanganligi uchun qo'shimcha haq shartnomada shartlariga muvofiq to'lanadi.

57. Xo'jalik tomonidan shartnomada belgilangan davrda (muddatlarda) topshirilmagan mahsulot tomonlar o'rtasida kelishilgan muddatlarda va shartnomada nazarda tutilgan muddatlarda topshirish hisobiga o'tkazish yo'li bilan topshirilishi kerak.

58. Agar tuzilgan shartnomada mahsulot idishda yoki o'ramda yetkazib berilishi nazarda tutilgan bo'lsa, tayyorlov tashkiloti xo'jalikni shartnomada belgilangan miqdorda va muddatlarda zarur idish, o'rash materiallari bilan ta'minlaydi.

Agar shartnomada o'zgacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, xo'jalik tayyorlovchilardan oladigan tovar tushgan ko'p aylanadigan idish va paketlash vositalari egasiga qaytariladi. Boshqa idish va o'rash materiallari faqat shartnomada nazarda tutilgan hollarda qaytarilishi kerak.

Mahsulotlarning ayrim turlari uchun mo‘ljallangan idish va o‘rash materiallaridan foydalanish xususiyatlari, shuningdek, ularni qaytarish tartibi va muddatları mahsulotning tegishli turlarini xarid qilishni tartibga soluvchi yo‘riqnomalar, qoidalarda yoki tuzilgan shartnomalarda nazarda tutiladi.

59. Tuzilgan shartnomaga muvofiq yetkazib berilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotining amaldagi miqdori xo‘jaliklar bilan tayyorlov tashkilotlari o‘rtasida mahsulot yetkazib berish yakunlari bo‘yicha tushadigan qiyosiy dalolatnoma asosida belgilanadi.

60. Xo‘jaliklar tasarrufida qoladigan va qayta ishlanadigan mahsulot tayyorlov tashkilotlari tomonidan belgilangan tartibda qabul qilinadi.

Ushbu mahsulot standartlar talablariga va texnik shartlarga muvofiq qayta ishlanishi va saqlanishi kerak hamda faqat xo‘jaliklarning buyurtmasi bo‘yicha yuklab jo‘natiladi.

Xo‘jaliklar tasarrufida qoladigan mahsulotni saqlash, qayta ishlash, sotishga tayyorlash va yuklab jo‘natish masalalari shartnomaga muvofiq alohida normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Xo‘jaliklar tasarrufida qoladigan qayta ishlangan qishloq xo‘jaligi mahsuloti alohida hisobga olinadi va xo‘jaliklar tomonidan amaldagi tartibga muvofiq o‘z xohishlariga ko‘ra sotiladi.

28. Moddiy-texnika resurslariga xizmat ko‘rsatish va yetkazib berish uchun tuzilgan shartnomalaroing bajarilishi

61. Moddiy-texnika resurslari yetkazib berish yoki xizmatlar ko‘rsatish (ishlarni bajarish) to‘g‘risida qabul qilish, topshirish dalolatnomasi tuzilgan sana shartnoma bo‘yicha majburiyatlar bajarilgan sana deb hisoblanadi, mahsulot oluvchining manziliga jo‘natilgan taqdirda esa mahsulot transport tashkiloti vakiliga topshirilgan sana majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi.

Hisob-kitob hujjatida bank muassasasi shtampida ko‘rsatilgan sana xo‘jaliklarning mahsulot (idishlar, xizmatlar)ga haq to‘lash bo‘yicha majburiyatları bajarilgan sana hisoblanadi.

62. Xo‘jaliklarning roziligi bilan moddiy-texnika resurslari muddatidan oldin yetkazib berilishi mumkin. Yetkazib berilgan va xo‘jaliklar tomonidan qabul qilingan moddiy-texnika resurslariga haq to‘lanadi va keyingi davrlarda yetkazib berilishi kerak bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hisobiga o‘tkaziladi.

Xo'jalik muddatlar buzilgan va zarur sifatga muvofiq bo'lмаган holda yetkazib berilgan moddiy-texnika resurslarini qabul qilishni rad etishga haqlidir.

Nazarda tutilgan miqdordan ortiqcha bir nomdag'i tovarlar yetkazib berilishi ushbu assortimentga kiruvchi boshqa nomdag'i yetkazib berilmagan tovarlar o'rmini to'ldirish sifatida qaralmaydi va yetkazib bermasliklar o'rni to'ldirilishi kerak, bunday yetkazib berishlar xo'jalikning oldindan berilgan yozma roziligi bo'yicha amalga oshirilgan hollar bundan mustasno.

63. Yerni mexanizatsiya vositasida shudgorlash bo'yicha bajarilgan ishlar va boshqa xizmatlar xo'jaliklarning bevosita mas'ul xodimlari tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi.

Dalolatnomada bajarilgan ishlar (xizmatlar) miqdori, ularning sifati, shudgorlar chuqurligi va boshqa agrotexnika ko'rsatkichlari ko'rsatiladi.

64. Moddiy-texnika resurslarini yetkazib berish, shartnomada nazarda tutilgan xizmatlar (ishlarni) ko'rsatish xo'jaliklarning yozma buyurtmanomasi asosida amalga oshiriladi. Xo'jaliklarning buyurtmanomalarini ro'yxatdan o'tkazish daftarni yuritadilar. Ushbu daftarlarda taqdim etilgan buyurtmanomaga muvofiq mahsulot yetkazib berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi (ishlar bajarilishi) to'g'risidagi axborot bo'lishi kerak.

Buyurtmanoma mahsulot yetkazib berishning, tegishli xizmatlar ko'rsatishning (ishlarni bajarishning) taxmin qilinayotgan sanasidan kamida besh kun oldin chopar, pochta orqali yoki boshqa tarzda beriladi. Buyurtmanomani chopar orqali qabul qilishda tayyorlov va xizmat ko'rsatuvchi tashkilot xodimi xo'jalikda qoladigan nusxaga sanani ko'rsatgan holda qabul qilinganligi to'g'risida belgi qo'yadi.

65. Xo'jalik ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yoxud mahsulot yetkazib berish, tegishli xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) sanasini o'zgartirishga haqlidir, tayyorlov va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bu haqda buyurtmanomada ko'rsatilgan sana boshlanishidan kamida bir kun oldin xabardor qilinadi.

VII. Mulkiy javobgarlik

66. Shartnoma bo'yicha tomonlarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 324-339-moddalari talablariga muvofiq belgilanadi.

67. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kontraktatsiya shartnomasida belgilangan assortiment va turlarda, muddatlarda topshirishdan asossiz bo'yin tovlagan xo'jalik tayyorlovchiga topshirilmagan mahsulot qiymatining 25 foizi miqdorida jarima to'laydi. Jarima miqdori o'tgan davr (oy, chorak, yil) da mahsulotning shakllangan o'rtacha narxidan kelib chiqib, xarid narxlariga belgilangan ustamalar to'lashni hisobga olmasdan hisoblab chiqiladi. Bundan tashqari, zararning mahsulot yetkazib berilmaganligi tufayli yuzaga kelgan, jarima bilan qoplanmagan qismi ham to'lanadi.

68. Qishloq xo'jalik mahsulotini kontraktatsiya shartnomasida belgilangan assortiment, turlar va muddatlarda qabul qilib olish rad etilgan har bir holat uchun tayyorlov tashkiloti xo'jalikka belgilangan ustamalar to'lashni hisobga olmasdan shakllangan o'rtacha narxidan kelib chiqib, qabul qilinmagan mahsulot qiymatini 25 foizi miqdorida jarima to'laydi. Bundan tashqari, mahsulotni qabul qilishni rad etilganligi tufayli xo'jalik ko'rigan zararni jarima bilan qoplanmagan qismi ham to'lanadi.

69. Kontraktatsiya shartnomasiga muvofiq topshirilgan (yuklab jo'natilgan) qishloq xo'jaligi mahsuloti uchun haq to'lashdan asossiz bosh tortilganda (xo'jalikka tegishli summalarini, belgilangan ustamalarni ham qo'shib, o'z vaqtida hisoblab o'tkazmaslik, hisobkitoblarning aktsept shaklida esa to'lov topshirig'i aktseptini asossiz to'liq yoki qisman rad etganda) tayyorlov tashkiloti xo'jalikka to'lanmagan summani, o'zi to'lashdan bosh tortgan summaning 15 foizi miqdoridagi jarimani to'laydi. Tayyorlov tashkiloti jarimadan tashqari xo'jalikka muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun belgilangan muddatda to'lanmagan summaning 0,4 foizi miqdorida, biroq muddati o'tkazib yuborilgan summalarining 50 foizidan ortiq bo'limgan penya to'laydi.

70. Tovar-transport hujjatini rasmiylashtirishni rad qilganligi yoki noto'g'ri rasmiylashtirilganligi uchun aybdor tomon boshqa tomonga tovar-transport hujjatini rasmiylashtirishni rad qilganligi yoki noto'g'ri rasmiylashtirilganligining har bir holati uchun eng kam oylik ish haqi miqdorida jarima to'laydi.

Yuklab jo'natilgan tovarlarga to'lov yoki tovar-transport hujjatining nusxasi belgilangan muddatda yuborilmaganligi yoki tovarlar yuklab jo'natilganlini to'g'risida boshqa axborot taqdim qilmaganligi uchun aybdor tomon har bir holat uchun tovar qiymatining 1 foizi miqdorida jarima to'laydi.

71. Xo'jalikning standartlari talablari va texnik shartlarga javob beradigan, mahsulotning tegishli turlarini xarid qilishni tartibga soluvchi yo'riqnomalar va qoidalarda yoki kontraktatsiya shartnomasida belgilangan miqdorda va muddatlarda idish va o'rash materiallari bilan ta'minlanmaganligi uchun tayyorlov tashkiloti xo'jalikka yetkazib berilmagan idish, o'rash materiallarini yetkazib berish vaqtida amalda bo'lgan qiymatining 2 baravari miqdorida jarima to'laydi. Tayyorlovchining xo'jalikni idish bilan ta'minlamaganligi mahsulot sifatining pasayishiga yoki tez buziluvchi mahsulotning buzilishiga olib kelgan bo'lsa, tayyorlov tashkiloti xo'jalikka ko'rilgan zararning jarima bilan qoplanmagan qismini ham to'laydi. Bunda xo'jalik sifatsiz qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetkazib berilganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadi.

72. Tomonlar o'rtasida kelishilgan jadvalga muvofiq kelgan transportning belgilangan muddatdan ortiqcha bekor turib qolganligi uchun aybdor tomon bekor turib qolish bilan bog'liq xarajatlarni qoplaydi. Bekor turib qolish vaqtı tomonlar o'rtasida imzolangan shartnomaga muvofiq rasmiylashtiriladi.

73. Tayyorlov yoki xizmat ko'rsatish tashkilot tomonidan mahsulot va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati, miqdori noto'g'ri aniqlanishi, mahsulot qiymati noto'g'ri belgilanishi va undirilishi aniqlangan taqdirda tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari mahsulot va ko'rsatilgan xizmatlar sifatini, shuningdek, ularning miqdorini hisobga olgan holda qayta hisob-kitob qiladilar hamda ushbu hisoblangan summadan tashqari, xo'jalikka noto'g'ri hisoblangan summaning 20 foizi miqdorida jarima to'laydilar.

Mahsulot uchun hisob-kitob qilishda tayyorlovchi tomonidan ortiqcha olingan pul summalari qaytarib berilmagan taqdirda (ayni bir mahsulotning o'ziga takroran haq to'langanda, mahsulot narxi noto'g'ri qo'llanilganda, tovarsiz to'lov talabnomasiga haq to'langanda va boshqalarda) tayyorlovchi ushbu sunmani qaytaradi va boshqa tomonga ushbu pul mablag'laridan foydalilanigan butun vaqt uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta molイヤash stavkasi miqdorida ortiqcha olingan summa uchun jarima to'laydi.

74. Agar yuklab jo'natilgan mahsulot (bajarilgan ishlар yoki ko'rsatilgan xizmatlar)ning sifati, assortimenti, sorti standart talablariga, texnik shartlarga, namunalarga (etalonlarga) yoki

shartnomada belgilangan boshqa shartlarga javob bermagan taqdirda, aybdor tomon sifati zarur darajada bo'lmagan mahsulot (bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar) qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

75. Moddiy-texnika resurslari yetkazib berish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilishi rad etilganligi uchun xizmat ko'rsatuvchi tashkilot xo'jalikka belgilangan ustamalardan tashqari yetkazib berilmagan moddiy-texnika resurslari yoki ko'rsatilishi kerak bo'lgan xizmatlar qiymatining 25 foizi miqdorida jarima to'laydi. Jarimadan tashqari xizmat ko'rsatuvchi tashkilot xo'jalikka moddiy-texnika resurslari yetkazib berilmaganligi, ishlar bajarilmaganligi yoki xizmatlar ko'rsatilmaganligi natijasida yetkazilgan zararni ham to'laydi.

76. Yetkazib berish muddati kechiktirilgan, tovarlar yetkazib berilmagan, ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko'rsatilmagan taqdirda xizmat ko'rsatuvchi tashkilot xo'jalikka muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan ortiq bo'imasligi kerak. Penya to'lanishi shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomaning zarur darajada bajarilishidan va yetkazib berish kechiktirilganligi, tovarlar to'liq yetkazib berilmaganligi, ishlar bajarilmaganligi yoki xizmatlar ko'rsatilmaganligi tufayli yetkazilgan zararlar qoplanishidan ozod qilmaydi.

77. Tomonlarning kelishuviga ko'ra shartnomada shartnoma majburiyatlarining bajarilmasligi yoki zarur darajada bajarilmasligi uchun javobgarlikning amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa choralar ham nazarda tutilishi mumkin.

78. Zilzila, qurg'oqchilik, suv toshqini, yong'in va boshqa tabiiy ofatlar natijasida oldindan ko'rish va bartaraf etish mumkin bo'lmagan holatlar (fors-major holatlar) munosabati bilan ularning irodasi va xohishiga bog'liq bo'lmagan sabablar bo'yicha o'z zimmalariga olgan shartnoma majburiyatlari bajarilmaganligi uchun bir tomon boshqa tomon oldida javob bermaydi.

79. Xo'jaliklar tomonidan kontraktatsiya shartnomalari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun ularni javobgarlikka tortishda, shuningdek, xatti-harakatlari (harakat-

sizligi) natijasida kontraktatsiya shartnomalari bo'yicha shartnoma majburiyatlari xo'jaliklar tomonidan bajarilmasligi (zarur darajada bajarilmasligi) uchun xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning javobgarligi ham ko'rib chiqiladi.

Xizmat ko'rsatish tashkilotlarining aybi bilan xo'jaliklar tomonidan kontraktatsiya shartnomalarining bajarilmasligi (zarur darajada bajarilmasligi) natijasida yetkazilgan zarar ushbu tashkilotlar tomonidan belgilangan tartibda qoplanadi.

80. Shartnomalarning bajarilmasligi va zarur darajada bajarilmasligi uchun mazkur Nizomning 67-76 bandlarida nazarda tutilgan javobgarlik choralar, agar shartnomada o'zgacha nazarda tutilmagan bo'lsa, qo'llaniladi.

VIII. Shartnomalar bajarilishining monitoringini olib borish tartibi

81. Tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari xo'jaliklar bilan tuzilgan shartnomalar bajarilishining monitoringini o'tkazadi.

Ushbu maqsadlarda tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlarida har bir xo'jalik bo'yicha Shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish va ularning bajarilishini monitoring qilish daftari yuritiladi.

82. Tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari hisobot davridan keyingi oyning 10-kunidan kechikmay har oyda xo'jaliklar joylashgan joydagi tegishli tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlarini mazkur Nizomning 2-ilovasiga muvofiq shakl bo'yicha paxta, boshqoli ekinlar doni va sholi bo'yicha xo'jaliklar bilan tuzilgan shartnomalar bajarilishining borishi to'g'risida xabardor qiladi.

Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar hisobot davridan keyingi oyning 10-kunidan kechikmay har oyda xo'jaliklar joylashgan joydagi tegishli tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlarini mazkur Nizomning 3-5 ilovalariga muvofiq shakl bo'yicha paxta, boshqoli ekinlar doni va sholi yetishtirish uchun xo'jaliklar bilan moddiy-texnika resurslari yetkazib berish va xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) bo'yicha tuzilgan shartnomalar bajarilishining borishi to'g'risida xabardor qiladi.

83. Tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari xo'jaliklar tomonidan taqdim etilgan axborotni 5 kun muddatda (15 kunda) viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalariga yuboradi.

83. Viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalari viloyat bo'yicha shartnomalar bajarilishining borishini 5 kun muddatda (20 kunda) umumlashtiradilar hamda tumanlar, tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari bo'yicha yig'ma axborot tayyorlaydilar.

Yigma axborot O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga hamda hududiy adliya organlariga yuboriladi.

84. Adliya organlari hamda qishloq va suv xo'jaligi organlari tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari tomonidan shartnoma majburiyatlari bajarilishi ustidan o'z vakolatlari doirasida nazorat qiladilar va monitoring olib boradilar.

XI. Yakuniy qoidalar

85. Tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlarining rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslari shartnoma majburiyatlari, shuningdek, mazkur Nizom talabiarining bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

86. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda tomonlar qoidaga ko'ra, ularni sudgacha hal etish yuzasidan mustaqil yohud tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari ishtirokida choratadbirlar ko'radilar.

Tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari nizoni ko'rib chiqishda ishtirok etish paytida vakolatli davlat organlarining ma'lumotlari va axboroti asosida mahsulotning sifati pasaytirilishi yoki buzilishi hollari bo'yicha xulosa, shuningdek, tabiiy ofatlar va boshqa noqulay shart-sharoitlar oqibatida yohud tayyorlovchining aybi bilan shartnomalar bo'yicha majburiyatlarning bajarilmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilish uchun xulosa berishlari mumkin.

Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni hal etish uchun bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir.

- Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar bilan tayyorlov, xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtaida shartnomalar tuzish, ularni ro'yxatdan o'tkazish, bajarish, shuningdek, ularning bajarilishi monitoringini olib borish tartibi to'g'risidagi nizomga 1-ilova**
- Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar va tayyorlov, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar o'rtaida shartnomalar tuzish, ularni ro'yxatdan o'tkazish bosqichlari**

Bosqichlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari	Mas'ular
1-bosqich	Shartnomalar tuzishga tayyor-garlik ko'rish	Agrotexnika tadbirlari boshlanishi-dan bir oy oldin 7 kun mobaynida	Tayyorlov, xizmat ko'rsatuvchi va boshqa tashkilotlar
2-bosqich	Shartnomalarni ko'rib chiqish va imzolash	3 kun mobaynida	Qishloq xo'jaligi korxonalari
3-bosqich	Shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish uchun berish	3 ish kuni mobaynida	Tayyorlov, xizmat ko'rsatuvchi va boshqa tashkilotlar
4-bosqich	Shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish	Ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin 1 kun mobaynida	Qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari
5-bosqich	Shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazgandan keyin tayyorlov, xizmat ko'rsatuvchi va boshqa tashkilotlarga berish	Ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin 2 kun mobaynida	Qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari
6-bosqich	Ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomalarni xo'jaliklarga berish	Barcha shart-noma shartlari bajarilgandan keyin 3 yil mobaynida	Tayyorlov, xizmat ko'rsatuvchi va boshqa tashkilotlar
7-bosqich	Shartnomalarni saqlash		Tayyorlov, xizmat ko'rsatuvchi va boshqa tashkilotlar

Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-oktabrdagi
476-son qaroriga 10-ilova

Namunaviy kontraktatsiya shartnomasi*

№ _____ 20 ____ y. «____» _____
(shartnomma tuzilgan joy)

asosida ish ko'ruvchi,
(fermer xo'jaligi ustavi)
 keyinchalik «Xo'jalik» deb yuritiluvchi _____
(fermer xo'jaligining nomi)
 nomidan fermer xo'jaligi boshlig'i _____
(F.I.O.)
 bir tomondan, va _____
(ustav, qaror, ishonchnoma)
 asosida ish beruvchi, keyinchalik «Tayyorlovchi» deb yuritiluvchi _____
(korxona, tashkilot nomi)
 nomidan ish ko'ruvchi _____
(lavozimi, F.I.O.)

ikkinci tomondan mazkur shartnomanini quyidagilar to'g'risida
tuzdilar:

I.Shartnoma mavzusi

1.1. «Xo'jalik» mazkur shartnomaning 1.2-bandida ko'rsatilgan
o'zi yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotini (keyingi o'rinnlarda
«Mahsulot» deb yuritiladi) «Tayyorlovchi»ga qayta ishlash yoki
sotish uchun berish. «Tayyorlovchi» esa Ushbu «Mahsulot»ni
kelishilgan muddatlarda muayyan narx bo'yicha haqini to'lab xarid
qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.2. Quyidagi qishloq xo'jaligi mahsuloti mazkur shartnoma
mavzusi hisoblanadi:

(«Mahsulot»ning turi, navi, tipi, klassi, hajmi)

2. Tomonlarning huquq va majburiyatları

2.1. «Xo'jalik»ning huquqlari:

Shartnomada nazarda tutilgan hollarda «Tayyorlovchi»dan
urug'lik va ekish materiallari bilan ta'minlashni talab qilish;

* «Mahsulot» ni topshirishda, uning sifatini aniqlashda hozir bo‘lish va «Tayyorlovchi»dan unga tegishli ham to‘lanishini talab qilish;

«Tayyorlovchi»dan «Mahsulot» yetishtirish uchun mazkur shartnomada belgilangan muddatlarda va summada avans to‘lanishini talab qilish;

«Tayyorlovchi»dan shartnomani bajarish uchun zarur bo‘lgan amaldagi davlat standartlari va boshqa normativ hujjatlar bilan ta’minlashni talab qilish;

«Tayyorlovchi» dan «Mahsulot» xo‘jalik hisobidan transportda tashilganda transport xarajatlarini qoplashni talab qilish;

«Tayyorlovchi» dan shartnomada shartlari bajarilmasligi yoki zarur darajada bajarilmasligi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini talab qilish.

2.2. «Xo‘jalik»ning majburiyatları:

«Tayyorlovchi»ga 200 yil dan kechikmay tegishli sifatga ega bo‘lgan hajmda va assortimentda «Mahsulot» ning muayyan turlarini yetkazib berish;

Ilova qilinadigan hujjatlarni zarur tarzda rasmiylashtirish va «Mahsulot»ni topshirishda talab qilinadigan boshqa talablarga (o‘rash, qadoqlash va boshqalar) rioya qilish;

«Mahsulot»ni «Tayyorlovchi»ga topshirish uchun o‘z vaqtida tayyorlash;

«Mahsulot»ni mazkur shartnomada nazarda tutilgan muddatlarda topshirish muddatlariga rioya qilish imkonini bo‘lmagan taqdirda, bu haqda «Tayyorlovchi» ga «Mahsulot»ni topshirish muddati boshlanishidan kundan kechikmay ma’lum qilish.

2.3. «Tayyorlovchi»ning huquqlari

«Mahsulot»ning muayyan turlari shartnomada belgilangan tegishli sifat va muddatlarda, hajmlar va assortimentda hamda tomonlar kelishgan jadvalga muvofiq o‘z vaqtida topshirilishini talab qilish;

Tuzilgan shartnomaga muvofiq topshirilayotgan «Mahsulot» hisobida ilgari berilgan avans mablag‘lar qoplanishini «Xo‘jalik» dan talab qilish.

2.4. «Tayyorlovchi»ning majburiyatları:

«Xo‘jalik»ka avans mablag‘larini mazkur shartnomada belgilangan muddatlar va hajmlarda to‘lash;

Amaldagi standartlar talablariga muvofiq xarid qilinadigan «Mahsulot» og‘irligi va sifatini aniqlash;

«Xo‘jalik» tomonidan yetkazib beriladigan «Mahsulot»ni mazkur shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va muddatlarda xarid qilish.

«Mahsulot»ning haqini mazkur shartnomada ko‘rsatilgan narx bo‘yicha «Mahsulot» olingan paytdan boshlab ____ kun mobaynida to‘lash;

shartnomada nazarda tutilgan hollarda «Xo‘jalik» tasarrufida qoladigan «Mahsulot»ni davlat standartlari va texnik shartlar talablariga muvofiq saqlash va uning holati to‘g‘risida «Xo‘jalik»ga muntazam ravishda ma’lum qilish;

«Xo‘jalik» tasarrufida qoladigan mahsulotning sifati yomonlashishi oqibatida «Xo‘jalik»ga etkazilgan zararni qoplash;

mazkur shartnomaga muvofiq «Mahsulot»ning tashilishini, tomonlar kelishgan jadvalda nazarda tutilgan muddatlarda «Tayyorlovchi» joylashgan joy bo‘yicha yoki u tomonidan ko‘rsatilgan boshqa joyda qabul qilib olinishini ta’mintash;

«Mahsulot»ni saqlashda, tayyorlashda, transportda tashishda, unga birlamchi ishlov berishda uning kamomadini oldini olish;

amaldagi standartlarga muvofiq «Mahsulot»ni qayta ishslash, sotuvga tayyorlash va uni sotishga tegishli hujjatlarni rasiniylash-tirish;

shartnomalarga muvofiq «Xo‘jalik»ni idish, o‘rab-joylash materiallari va normativ texnik hujjatlar (mahsulotning ayrim turlarini harid qilish, qabul qilish, sifatini baholashni tartibga soluvchi standartlar, texnik shartlar, qoidalar) bilan ta’mintash;

200____yil ____dan kechikmay yoki ushbu davr mobaynida «Xo‘jalik»ning buyurtmanomasida ko‘rsatilgan muddatlarda va hajmda, unga ushbu materiallarni yetkazib berishning mo‘ljallanayotgan sanasidan kamida besh kun oldin beriladigan ____ navli, _____ tipdag‘i, _____ klassli, _____ kg urug‘lik va ekish materiallari bilan «Xo‘jalik»ni ta’mintash. Buyurtmanoma chopar orqali qabul qilinganda «Tayyorlovchi»ning xodimi sanani ko‘rsatgan holda u qabul qilinganligi to‘g‘risida belgi qo‘yadi. «Xo‘jalik» oldin berilgan buyutrmanomani bekor qilishga yoxud urug‘lik va ekish materiallari yetkazib berish sanasini o‘zgartirishga haqidir, bu davrda «Tayyorlovchi»ga buyurtmanomada ko‘rsatilgan sanadan kamida bir kun oldin ma’lum qiladi.

III. Bahosi va hisob-kitob tartibi

3.1. «Mahsulot»ning bahosi 1 (bir) tonnasi uchun so‘mni tashkil etadi. Mazkur shartnomaga bo‘yicha umumiyligi summa _____ so‘mni tashkil etadi.

3.2. «Xo‘jalik» urug‘lik va ekish materiallarini avans hisobida yoki bevosita sotib olish yo‘li bilan oladi (zarur bo‘lmagan o‘chirib tashlanadi).

«Xo‘jalik» ta‘minlanadigan urug‘lik va ekish materiallari narxi 1 (bir) kg uchun _____ so‘mni tashkil etadi. Urug‘lik va ekish materiallarning umumiyligi summasi _____ so‘mni tashkil etadi.

3.3. «Tayyorlovchi» «Xo‘jalik»da avans mablag‘larini «Mahsulot» qiymatining kamida 50% miqdorida (urug‘lik va ekish materiallari avans hisobiga olinganda ularning qiymati avans mablag‘lar summasiga kiritiladi) quyidagicha va muddatlarda to‘laydi:

– shartnomaga summasining kamida _____ foizi _____ da;

(yil oyi, davr)

– shartnomaga summasining kamida _____ foizi _____ da;

(yil oyi, davr)

– shartnomaga summasining kamida _____ foizi _____ da;

(yil oyi, davr)

3.4. Yetishtirilgan «Mahsulot» uchun _____

(hisob-kitob shakli ko‘rsatiladi)

yo‘li bilan _____ paytdan boshlab naqd pulsiz tarzida

_____ mobaynida hisob-kitob qilinadi.

3.5. «Tayyorlovchi» to‘lov amalga oshirilganligi to‘g‘risida

paytdan boshlab _____ yo‘li

(muddatlar ko‘rsatiladi) (olinganligi tasdiqlanadigan

telegramma, faks va h.k.)

bilan _____ muddatda

(muddat ko‘rsatiladi)

«Xo‘jalik»ni xabardor qiladi.

3.6. «Mahsulot»ni transportda tashish va tushirish bo‘yicha barcha xarajatlarni «Tayyorlovchi» ko‘taradi.

«Mahsulot» «Xo‘jalik»ning transporti bilan yetkazib berilgan taqdirda «Tayyorlovchi» transportda tashish xarajatlarini unga qoplaydi (idishni ham o‘z ichiga olgan holda amaldagi massa bo‘yicha).

IV. Mahsulot beriladigan joy

4.1. «Mahsulot» beriladigan joy hisoblanadi (joy ko'rsatiladi).

V.Tomonlarning javobgarligi

5.1. «Mahsulot» mazkur shartnomada belgilangan assortimentda va turlar bo'yicha, muddatlarda qabul qilinishi rad etilishining har bir holati uchun «Tayyorlovchi» «Xo'jalik»da belgilangan ustamalar to'lanishi hisobiga olinmagan holda amalda shakllangan o'rtacha narxdan kelib chiqib, qabul qilinmagan «Mahsulot» qiymatining 25 foizi miqdorida, tez buziladigan «Mahsulot»lar bo'yicha esa - to'liq qiymati miqdorida jarima to'laydi. Bundan tashqari, «mahsulot»ni qabul qilish rad etilganligi natijasida «Xo'jalik» tomonidan ko'rilgan, jarima bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

5.2. Shartnomada belgilangan miqdorda va assortimentda, turlar bo'yicha muddatlarda «Mahsulot» topshirilishi asossiz bosh tortilganligi uchun «Xo'jalik» «Tayyorlovchi»ga topshirilmagan mahsulot qiymatining 25 foizi miqdorida jarima to'laydi. Jarima xarid narxiga belgilangan ustamalar to'lanishi hisobga olinmagan holda o'tgan davrda (oy, yil choragi, yil) «Mahsulot»ning amalda shakllangan o'rtacha narxidan kelib chiqib hisoblanadi. Bundan tashqari, «mahsulot» to'liq yetkazib berilmaganligi natijasida paydo bo'lган jarima bilan qoplanmagan zarar qoplanadi.

5.3. Mazkur shartnomaga muvofiq topshirilgan (yuklab jo'natilgan) «Mahsulot» haqini to'lashdan asossiz bo'yin tovlaganligi uchun («Xo'jalik»da berilishi kerak bo'lган summa, shu jumladan belgilangan ustamalar o'z vaqtida o'tkazilmasligi hisob-kitobning aktsept shaklida esa- to'lov hujjati aktseptidan asossiz to'liq yoki qisman rad etilganligi uchun), «Tayyorlovchi» «Xo'jalik»da olinmagan summani, o'zi to'lashdan bo'yin tovlagan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi. Jarimadan tashqari, «Tayyorlovchi» «Xo'jalik»da muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun muddati o'tkazib yuborilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, biroq muddati o'tkazib yuborilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lмаган miqdorda penya to'laydi.

5.4. Tovar-transport hujjatini rasmiylashtirish rad etilganligi yoki noto'g'ri rasmiylashtirilganligi uchun aybdor tomon boshqa tomonga har bir tovar-transport hujjati uchun eng kam oylik ish haqi miqdorida jarima to'laydi.

Yuklab jo‘natilgan «Mahsulot»ga to‘lov yoki tovar-transport huijati nusxasi belgilangan muddatda yuborilmaganligi yoki yuklab jo‘natish to‘g‘risida boshqa ma’lumot taqdim etilmaganligi uchun aybdor tomon har bir bunday holat uchun yetkazib berilayotgan «Mahsulot» qiymatining 1 foizi miqdorida jarima to‘laydi.

5.5. «Xo‘jalik» mazkur shartnomada belgilangan miqdorda va muddatlarda standart va texnik shartlar talablariga javob beradigan idish va o‘rab-joylash materiallari bilan ta’minlanmaganligi uchun «Tayyorlovchi» «Xo‘jalik»da «Mahsulot» yetkazib berish paytida amalda bo‘lgan idish, o‘rab-joylash materiallari qiymatining ikki baravari miqdorida jarima to‘laydi. Agar «Tayyorlovchi»ning «Xo‘jalik»ni idish bilan ta’milanganligi «Mahsulot» sifatining pasayishiga yoki buzilishiga olib kelsa, «Tayyorlovchi» «Xo‘jalik»da jarima bilan qoplanmagan qism bo‘yicha zararlarni qoplaydi. Bunda «Xo‘jalik» sifatsiz «mahsulot» yetkazib berilganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadi.

5.6. «Tayyorlovchi» tomonidan «Mahsulot»ning miqdori noto‘g‘ri aniqlangan, uning qiymati noto‘g‘ri belgilangan va undirilgan hollar aniqlangan taqdirda, «Tayyorlovchi» «Mahsulot»ning sifatini, shuningdek, uning miqdorini va undan tashqari hisoblab chiqilgan summani hisobga olgan holda qayta hisob-kitob qiladi, «Xo‘jalik»da noto‘g‘ri hisoblab chiqilgan summaning 20 foizi miqdorida jarima to‘laydi.

5.7. «Xo‘jalik» tomonidan mazkur shartnomada bajarmaganligi yoki zarur darajada bajarmaganligi uchun «Xo‘jalik»ni javobgarlikka tortishda, shuningdek, ularning xatti-harakatlari (harakatsizligi) «Xo‘jalik» tomonidan mazkur shartnomada bo‘yicha shartnomada majburiyatları bajarilmasligiga (zarur tarzda bajarilmasligiga) olib kelgan xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlarning javobgarligi ham ko‘rib chiqiladi.

Xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlarning aybi bilan mazkur shartnomaning «Xo‘jalik» tomonidan bajarilmasligi (zarur tarzda bajarilmasligi) natijasida yetkazilgan zarar belgilangan tartibda ushbu tashkilotlar tomonidan qoplanadi.

5.8. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan tomonlarning javobgarligi chora-tadbirlari fuqarolik qonunchiligi normalariga muvofiq qoplanadi.

VI. Nizolarni hal etish tartibi

6.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda yohud tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ishtirokida ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

Tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi nizoni ko'rib chiqishda qatnashishda mahsulotning sifati pasayishi yoki buzilishi hollari bo'yicha xulosa berishi, shuningdek, tabiiy ofatlar va boshqa noqulay shart-sharoitlar oqibatida yohud «Tayyorlovchi» ning aybi bilan shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun «Xo'jalik»ni javobgarlikdan ozod qilish uchun xulosa berishi mumkin.

6.2. Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni hal etish uchun bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir.

VII. Shartnomaning amal qilishi

7.1. Mazkur shartnoma mazkur shartnomaning 8.4-bandiga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab amalga kiradi va tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajargunga qadar amal qiladi.

7.2. Tomonlar o'rtaсидаги munosabatlar ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan va hisob-kitob to'liq tugallangan taqdirda ko'rsatiladi.

VIII. Yakuniy qoidalar

8.1. Mazkur shartnoma tomonlarning kelishuviga ko'ra yoki boshqa tomon shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda, tomonlardan birining talabi bo'yicha sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

8.2. Mazkur shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma shaklda sodir etilishi va tomonlarning bunga zarur darajada vakil qilingan vakillari tomonidan imzolanishi sharti bilan haqiqiy hisoblanadi.

8.3. Mazkur shartnoma tomonlarning har biri va qishloq va suv xo'jaligi bo'limi uchun bir nusxdan uch nusxada tuziladi. Shartnomaning barcha nusxalari teng yuridik kuchga egadir.

8.4. Mazkur shartnoma, unga o'zgartirishlar (qo'shimchalar) «Xo'jalik» joylashgan joy bo'yicha tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limida ro'yxatni o'tkazilgandan keyin bajarilishi kerak.

IX. Tomonlarning manzili va bank rekvizitlari

«Xo‘jalik»

«Tavvorlovchi»

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami

Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami

M.U.Fermer xo'jaligi bosh
lig'ining imzosi, F.I.O

M.U. imzo, lavozimi, F.I.O.

20 ____ y «____» _____ da _____ raqami bilan
tuman qishloq va suv xo'saligi bo'limida

«РОЎХАТДАН ОТКАЗИЛДИ»

M.U. imzo, lavozimi, F.I.Q.

Yuristning xulosasi:

(imzo) _____ (F.I.Q.) _____

Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-oktabrdagi
476-son qaroriga II-ilova

**Moddiy-texnika resurslari yetkazib berishga
NAMUNAVTY SHARTNOMA***

№ _____ 20 ____ y. «____» _____
(shartnomá tuzilgan joy)

asosida ish ko'rvuchi,
(fermer xo'jaligi ustavi)
keyinchalik «Xo'jalik» deb yuritiluvchi
(fermer xo'jaligining nomi)
nomidan fermer xo'jaligi boshlig'i
(F.I.O.)
bir tomondan, va
(ustav, qaror, ishonchnoma)
asosida ish beruvchi, keyinchalik «Tayyorlovchi» deb yuritiluvchi

(korxona, tashkilot nomi)
nomidan ish ko'rvuchi
(lavozimi, F.I.O.)

ikkinci tomondan mazkur shartnomani quyidagilar to'g'risida
tuzdilar:

I.Shartnoma mavzusi

1.1. Mazkur shartnoma bo'yicha «Yetkazib beruvchi» «Xo'jalik»
ka

(keyingi o'rinnarda «Moddiy-texnika resurslari» deb yuritiladi)
yetkazib berish, «Xo'jalik» esa ularni qabul qilish va qiymatini to'lash
majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

«Moddiy-texnika resurslari»ning aniq turlari, ularning soni, sifati
va narxi, shuningdek, yetkazib berish muddatlari mazkur
shartnomaning tarkibiy qismi hisoblangan ilovada keltirilgan.

II. Tomonlarning huquq va majburiyatları

2.1. «Xo'jalik»ning huquqlari:

«Yetkazib beruvchi» dan shartnomani bajarish uchun zarur
bo'lgan amaldagi davlat standartlari va boshqa normativ hujjatlar
bilan ta'minlashni talab qilish;

«Moddiy-texnika resurslari» «Xo'jalik»ning hisobiga transportda tashilganda «Yetkazib beruvchi»dan transport xarajatlarini qoplashni talab qilish;

«Yetkazib beruvchi» dan mazkur shartnomaga muvofiq beriladigan buyurtmanomaga muvofiq tegishli sifat, assortimentdagi «Moddiy-texnika resurslari» yetkazib berilishini talab qilish;

- zarur sifatga ega bo'Imagan «Moddiy-texnika resurslari» yetkazib berilmagan taqdirda o'z tanlashiga ko'ra;

- zarur sifatga ega bo'Imagan «Moddiy-texnika resurslari» shunga o'xhash «Moddiy-texnika resurslari» bilan almashtirilishi;

- kamchiliklar bepul bartaraf etilishini yoki kamchiliklar «Xo'jalik» yoxud uchinchi shaxslar tomonidan to'g'rilanishi xarajatlarini qoplashni;

- bahosining mutanosib tarzda kamaytirilishini talab qilish;

- mazkur shartnoma shartlari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini «Yetkazib beruvchi»dan talab qilish.

2.2. «Xo'jalik»ning majburiyatları:

- o'z buyurtmasi bo'yicha yetkazib berilgan «Moddiy-texnika resurslari»ni mazkur shartnomaga muvofiq qabul qilish;

«Moddiy-texnika resurslari»ga mazkur shartnomaning 3.1-bandida ko'rsatilgan narx bo'yicha, qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan paytdan boshlab _____ kun mobaynida haq to'lash.

2.3. «Yetkazib beruvchi» quyidagi huquqlarga ega:

Yetkazib berilgan «Moddiy-texnika resurslari» uchun oldindan haq to'lanishini va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va hajmda uzil-kesil hisob qilinishini xo'jalikdan talab qilish;

Berilgan buyurtmanomaga muvofiq yetkazib berilgan «Moddiy-texnika resurslari»ni qabul qilish asossiz rad etilishi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini «Xo'jalik»dan talab qilish.

2.4. «Yetkazib beruvchi» quyidagilarga majbur:

«Xo'jalik»ka «Moddiy-texnika resurslari»ni mazkur shartnomaga muvofiq yoki «Xo'jalik» tomonidan mazkur shartnomaning 4.8-bandida nazarda tutilgan tartibda beriladigan uning buyurtmanomasiga muvofiq muddatlar, sifat va miqdorda yetkazib berish;

agar «Moddiy-texnika resurslari»ni yetkazib berish jarayonida «Yetkazib beruvchi» shartnoma shartlari va normativlaridan

cheqlanishga yo'l qo'ygan bo'lsa, «Xo'jalik»ning talabi bilan aniqlangan barcha kamchiliklarni kun muddatda tekin tuzatib berish.

III. Shartnomaning bahosi va hisob-kitob tartibi

- 3.1. Mazkur shartnomaning bahosi _____
(summa raqamlar va harflar bilan yoziladi)
so'mni tashkil etadi.
- Yetkazib beriladigan «Moddiy-texnika resurslari»ning bahosi mazkur shartnomadagi ilovada ko'rsatilgan.
- 3.2. Mahsulotni transportda tashish va tushirish bo'yicha barcha xarajatlarni «yetkazib beruvchi» ko'taradi.
- Mahsulot «Xo'jalik»ning transporti bilan yetkazib berilgan taqdirda «Yetkazib beruvchi» transportda tashish xarajatlarini unga qoplaydi (idishni ham o'z ichiga olgan holda amaldagi massa bo'yicha).
- 3.3. «Xo'jalik» yetkazib beriladigan «Moddiy-texnika resurslari» turkumi summasining foizi miqdorida oldindan haq to'laydi. Yetkazib berilgan «Moddiy-texnika resurslari» uchun qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangandan keyin _____ kun muddatda uzil-kesil hisob-kitob qilinadi.
- 3.4. Yetkazib berilgan «Moddiy-texnika resurslari» uchun _____ yo'li bilan naqd pulsiz _____ tartibda
(hisob-kitob shakli ko'rsatiladi)
hisob-kitob qilinadi.

IV. Shartnomaning bajarilishi

- 4.1. Shartnoma mazkur shartnoma va qonun hujjatlari va talablariga muvofiq zarur tarzda bajarilishi kerak.
Agar tomonlar o'z zimmalariga qabul qilingan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlasa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.
- 4.2. Shartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.
- 4.3. «Moddiy-texnika resurslari» qabul qilish-topshirish dalolatnomalari tuzilgan sana shartnomalar bo'yicha majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi.
Hisob-kitob hujjatida bank muassasasi shtampida ko'rsatilgan sana «Moddiy-texnika resurslari»ga haq to'lash bo'yicha «Xo'jalik» majburiyatları bajarilgan sana hisoblanadi.

4.4. «Xo‘jalik»ning roziligi bilan «Moddiy-texnika resurslari» muddatidan oldin yetkazib berilishi mumkin. Yetkazib berilgan va «Xo‘jalik» tomonidan qabul qilingan «Moddiy-texnika resurslari» uchun keyingi davrlarda yetkazib berilishi kerak bo‘lgan «Moddiy-texnika resurslari» hisobiga haq to‘lanadi va ular hisobiga o‘tkaziladi.

4.5. «Xo‘jalik» muddatlar buzilgan holda yetkazib berilgan «Moddiy-texnika resurslari»ni qabul qilishni rad etishga haqlidir.

4.6. Nazarda tutilgan miqdordan ortiqcha bir nomda «Moddiy-texnika resurslari» boshqa nomdag'i yetkazib berilmagan «Moddiy-texnika resurslari» o‘rnini to‘ldirish sifatida qaralmaydi va yetkazib berilmagan «Moddiy-texnika resurslari» ning o‘rni to‘ldirilishi kerak, bunday «Moddiy-texnika resurslari» yetkazib berish «Xo‘jalik»ning oldindan berilgan yozma roziligi bo‘yicha amalga oshirilgan hollar bundan mustasno.

4.7. Yetkazib berilgan «Moddiy-texnika resurslari» bevosita «Xo‘jalik»ning mas’ul xodimi tomonidan dalolatnoma bo‘yicha qabul qilinadi. Dalolatnomada yetkazib berilgan «Moddiy-texnika resurslari» miqdori, ularning sifati ko‘rsatiladi.

4.8. Mazkur shartnomada nazarda tutilgan «Moddiy-texnika resurslari» yetkazib berish mazkur shartnomaga muvofiq yoki «Xo‘jalik»ning buyurtmanomasida ko‘rsatilgan muddatlar va hajmda mazkur shartnomada ko‘rsatilgan davr mobaynida amalga oshiriladi. Ushbu maqsadlarda «Yetkazib beruvchi» xo‘jaliklarning buyurtmanomalarini ro‘yxatdan o‘tkazish daftарini yuritadi:

Buyurtmanoma «Moddiy-texnika resurslari»ning tegishli turkumlarini yetkazib berishning mo‘ljallanayotgan sanasigacha kamida 5 kun oldin chopar orqali, pochta orqali yoki boshqacha tarzda beriladi. Buyurtmanomani chopar orqali qabul qilishda «Yetkazib beruvchi»ning xodimi «Xo‘jalik»da qoladigan nusxaga sanani ko‘rsatgan holda u qabul qilganligi to‘g‘risida belgi qo‘yadi.

4.9. «Xo‘jalik» ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yoxud «Moddiy-texnika resurslari»ning tegishli turkumlarini yetkazib berish sanasini o‘zgartirishga haqlidir, bu haqda «Yetkazib beruvchi»ni buyurtmanomada ko‘rsatilgan sana boshlanishidan kamida 1 kun oldin xabardor qiladi.

V. Tomonlarning javobgarligi

5.1. Tomonlar o'rtasida kelishilgan jadval bo'yicha kelgan transportning belgilangan muddatlardan ortiqcha turib qolganligi uchun aybdor tomon bekor turib qolganlik bilan bog'liq sarf-xarajatlarni to'laydi. Bekor turib qolish vaqtini tomonlar o'rtasida imzolangan dalolatnomaga muvofiq rasmiylashtiriladi.

5.2. Yetkazib berilayotgan «Moddiy-texnika resurslari» sifati, miqdori «yetkazib beruvchi» tomonidan noto'g'ri aniqlanishi, ularning qiymati noto'g'ri belgilanishi va undirilishi hollari aniqlangan taqdirda «Yetkazib beruvchi» yetkazib berilayotgan «Moddiy-texnika resurslari»ning sifatini, shuningdek, ularning miqdorini hisobga olgan holda qayta hisob-kitob qiladi va hisoblab chiqilgan ushbu summadan tashqari «Xo'jalik»ka noto'g'ri hisob-kitob qilingan summaning 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.3. Agar yetkazib berilgan «Moddiy-texnika resurslari» ning sifati, assortimenti, navlari, standart, texnik shartlar talablariga, namunalarga (etalonlarga) yoki shartnomada belgilangan boshqa shartlarga javob bermagan taqdirda, aybdor tomon yetkazib berilgan, sifati zarur darajada bo'lmasgan «Moddiy-texnika resurslari» qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.4. «Moddiy-texnika resurslari» yetkazib berish bo'yicha shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilishi rad etilganligi uchun «Yetkazib beruvchi» «Xo'jalik»ka belgilangan ustamalardan tashqari yetkazib berilishi kerak bo'lgan «Moddiy-texnika resurslari»ning 25 foizi miqdorida jarima to'laydi. Jarimadan tashqari, «Yetkazib beruvchi» «Xo'jalik» ka «Moddiy-texnika resurslari» yetkazib berilmasligi natijasida yetkazilgan zararni to'laydi.

5.5. «Moddiy-texnika resurslari»ni yetkazib berish kechiktirilgan yoki to'liq yetkazib berilmagan taqdirda «Yetkazib beruvchi» «Xo'jalik»ka kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan «Moddiy-texnika resurslari» qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak. Penya to'lanishi shartnomada majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomani zarur tarzda bajarishdan va «Moddiy-texnika resurslari» yetkazib berish muddati kechiktirilishi yoki to'liq yetkazib berilmasligi tufayli yetkazilgan zararlar qoplanishidan ozod etmaydi.

5.6. Yetkazib berilgan «Moddiy-texnika resurslari» uchun o‘z vaqtida haq to‘lanmaganda «Xo‘jalik» «Yetkazib beruvchi» ga muddati kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to‘lov summasining 0,4 foizi miqdorida penya to‘laydi, biroq bu kechiktirilgan to‘lov summasining 50 foizidan ortiq bo‘lmasligi kerak.

5.7. «Xo‘jalik» tomonidan tegishli kontraktatsiya shartnomasi bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun «Xo‘jalik»ni javobgarlikka tortishda, shuningdek, uning xattiharakatlari (harakatsizligi) «Xo‘jalik» tomonidan kontraktatsiya shartnomasi bo‘yicha shartnoma majburiyatları bajarilmasligiga (zarur tarzda bajarilmasligiga) olib kelgan «Yetkazib beruvchi»ning javobgarligi ham ko‘rib chiqiladi. «Yetkazib beruvchi»ning aybi bilan kontraktatsiya shartnomasining «Xo‘jalik» tomonidan bajarilmasligi (zarur tarzda bajarilmasligi) natijasida yetkazilgan zarar belgilangan tartibda «Yetkazib beruvchi» tomonidan qoplanadi.

5.8. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan tomonlarning javobgarligi chora-tadbirlari fuqarolik qonunchiligi normalariga muvofiq qo‘llaniladi.

VI. Nizolarni hal etish tartibi

6.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko‘ra, mustaqil ravishda yoxud tuman qishloq va suv xo‘jaligi bo‘limi ishtirokida ularni sudgacha hal etish choralarini ko‘radilar.

6.2. Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni hal etish uchun bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir.

VII. Shartnomaning amal qilishi

7.1. Mazkur shartnoma mazkur shartnomaning 8.4-bandiga muvofiq ro‘yxatdan o‘tkazilgan kundan boshlab amalga kiradi va tomonlar ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajargunga qadar amal qiladi.

7.2. Tomonlar o‘rtasidagi munosabatlar ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan va hisob-kitob to‘liq tugallangan taqdirda to‘xtatiladi.

VIII. Yakuniy qoidalar

8.1. Mazkur shartnoma tomonlarning kelishuviga ko'ra yoki boshqa tomon shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda, tomonlardan birining talabi bo'yicha sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

8.2. Mazkur shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma shaklda sodir etilishi va tomonlarning bunga zarur darajada vakil qilingan vakillari tomonidan imzolanishi sharti bilan haqiqiy hisoblanadi.

8.3. Mazkur shartnoma tomonlarning har biri va qishloq va suv xo'jaligi bo'limi uchun bir nusxadan uch nusxada tuziladi.

Shartnomaning barcha nusxalari teng yuridik kuchga egadir.

8.4. Mazkur shartnoma, unga o'zgartirishlar (qo'shimchalar) «Xo'jalik» joylashgan joy bo'yicha tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limida ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin bajarilishi kerak.

IX. Tomonlarning manzili va bank rekvizitlari

«Xo'jalik»	«Tayyorlovchi»
-------------------	-----------------------

M.U.Fermer xo'jaligi
boshlig'ining imzosi, F.I.O

20 ____ y «____» da _____ raqami bilan
tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limida

M.U. imzo, lavozimi, F.I.O.

«RO'YXATDAN O'TKAZILDI»

M.U. imzo, lavozimi, F.I.O.

Yuristning xulosasi:

(imzo) _____ (F.I.O.)

5-*itova*

20 yildagi «...» shartnomaga ilova

Mineral o'g'itlar yetkazib berish jadvali

Yetkazib beruvchi _____
(imzo, muhr)

Xo'jalik _____
(imzo, muhr)

6-*ilova*

20 yildagi «» -son shartnomaga ilova

Neft mahsulotlari yetkazib berish jadvali

Yetkazib beruvchi _____
(imzo, muhr)

Xo'jalik _____
(imzo, muhr)

Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-oktabrdagi
476-sod qaroriga 12-ilova

**Xizmatlar ko'rsatishga (ishlarni bajarishga)
NAMUNAVIY SHARTNOMA***

№ _____ 20 ____ y. «____» _____
(shartnoma tuzilgan joy)

asosida ish ko'ruvchi,
(fermer xo'jaligi ustavi)
keyinchalik «Xo'jalik» deb yuritiluvchi _____
(fermer xo'jaligining nomi)
nomidan fermer xo'jaligi boshlig'i _____
(F.I.O.)
bir tomondan, va _____
(ustav, qaror, ishonchnomma)
asosida ish beruvchi, keyinchalik «Tayyorlovchi» deb yuritiluvchi
(korxona, tashkilot nomi)
nomidan ish ko'ruvchi _____
(lavozimi, F.I.O.)

ikkinci tomondan mazkur shartnomani quyidagilar to'g'risida
tuzdilar:

I.Shartnoma mavzusi

1.1. Mazkur shartnoma bo'yicha «Bajaruvchi» «Xo'jalik» ka

(keyingi o'rinnlarda «Moddiy-texnika resurslari» deb yuritiladi)
yetkazib berish, «Xo'jalik» esa ularni qabul qilish va qiymatini to'lash
majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

«Xizmatlar»ning aniq turlari, ularning soni, sifati va narxi,
shuningdek, yetkazib berish muddatlari mazkur shartnomaning
tarkibiy qismi hisoblangan ilovada keltirilgan.

2. Tomonlarning huquq va majburiyatları

2.1. «Xo'jalik»ning huquqlari:

«Bajaruvchi»dan shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan
amaldagi davlat standartlari va boshqa normativ hujjatlar bilan
ta'minlashni talab qilish;

«Bajaruvchi»dan «Xizmatlar» «Xo‘jalik»ning hisobiga transportda tashilganda transport xarajatlarini qoplashni talab qilish;

«Bajaruvchi»dan mazkur shartnomaga muvofiq beriladigan ko‘rsatilishini buyurtmanomaga muvofiq tegishli sifatga ega bo‘lgan «Xizmatlar» ko‘rsatilishini talab qilish;

zarur sifatga ega bo‘lмаган «Xizmatlar» ko‘rsatilgan taqdirda o‘z tanlashiga ko‘ra:

-zarur sifatga ega bo‘lмаган «Xizmatlar» shunga o‘xhash «Xizmatlar» bilan almashtirilishini;

-«Xizmatlar»ning kamchiliklari bepul bartaraf etilishini yoki kamchiliklar «Xo‘jalik» yohud uchinchi shaxslar tomonidan to‘g‘ilanishi xarajatlarini qoplashni;

-bahosining mutanosib tarzda kamaytirilishini talab qilish;

shartnoma shartlari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini «Bajaruvchi»dan talab qilish.

2.2. «Xo‘jalik»ning majburiyatları:

o‘z buyurtmasi bo‘yicha ko‘rsatilgan «Xizmatlar»ni mazkur shartnomaga muvofiq qabul qilish;

«Xizmatlar»ga mazkur shartnomaning 3.1-bandida ko‘rsatilgan narx bo‘yicha, qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan paytdan boshlab ____ kun mobaynida haq to‘lash.

2.3. «Bajaruvchi» quyidagi huquqlarga ega:

Ko‘rsatilgan «Xizmatlar» uchun oldindan haq to‘lanishini va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va hajmda uzilkesil hisob qilinishini «Xo‘jalik»dan talab qilish;

Berilgan buyurtmanomaga muvofiq ko‘rsatilgan «Xizmatlar» ni qabul qilish asossiz rad etilishi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini «Xo‘jalik»dan talab qilish.

2.4. «Bajaruvchi» quyidagilarga majbur:

«Xo‘jalik»ka «Xizmatlar»ni mazkur shartnomaga muvofiq yoki «Xo‘jalik» tomonidan mazkur shartnomaning 4.8-bandida nazarda tutilgan tartibda beriladigan uning buyurtmanomasiga muvofiq muddatlar, sifat va miqdorda ko‘rsatish; agar «Xizmatlar»ni ko‘rsatish jarayonida «Bajaruvchi» shartnoma shartlari va normativlaridan chekinishga yo‘l qo‘yan bo‘lsa, «Xo‘jalik»ning talabi bilan aniqlangan barcha kamchiliklarni ____ kun muddatda tekin tuzatib berish.

III. Shartnomaning bahosi va hisob-kitob tartibi

3.1. Mazkur shartnomaning bahosi

so‘mni tashkil etadi
(*summa raqamlar va harflar bilan yoziladi*).

Yetkazib beriladigan «Xizmatlar»ning bahosi mazkur shartnomadagi ilovada ko‘rsatilgan.

3.2. «Xo‘jalik» ko‘rsatiladigan «Xizmatlar» turkumi summasining foizi miqdorida oldindan haq to‘laydi. Ko‘rsatilgan «Xizmatlar» uchun qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangandan keyin kun muddatda uzil-kesil hisob-kitob qilinadi.

3.3. Ko‘rsatilgan «Xizmatlar» uchun
(*hisob-kitob shakli ko‘rsatiladi*)
yo‘li bilan naqd pulsiz tartibda hisob-kitob qilinadi.

IV. Shartnomaning bajarilishi

4.1. Shartnoma mazkur shartnoma va qonun hujjatlari va talablariga muvofiq zarur tarzda bajarilishi kerak.

Agar tomonlar o‘z zimmalariga qabul qilingan barcha majburiyatlar bajarilishini ta’milasa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

4.2. Shartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

4.3. «Xizmatlar» qabul qilish-topshirish dalolatnomalari tuzilgan sana shartnomalar bo‘yicha majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi.

Hisob-kitob hujjatida bank muassasasi shtampida ko‘rsatilgan sana «Xizmatlar»ga haq to‘lash bo‘yicha «Xo‘jalik» majburiyatları bajarilgan sana hisoblanadi.

4.4. «Xo‘jalik»ning roziliqi bilan «Xizmatlar» muddatidan oldin yetkazib berilishi mumkin. «Xo‘jalik» tomonidan ko‘rsatilgan va qabul qilingan «Xizmatlar» uchun keyingi davrlarda ko‘rsatilishi kerak bo‘lgan «Xizmatlar» hisobiga haq to‘lanadi va ular hisobiga o‘tkaziladi.

4.5. «Xo‘jalik» muddatlar buzilgan holda ko‘rsatilgan «Xizmatlar» ni qabul qilishni rad etishga haqlidir.

4.6. Nazarda tutilgan miqdordan ortiqcha bir nomda «Xizmatlar» ko‘rsatilishi ushbu assortimentga kiruvchi boshqa nomdagagi ko‘rsatilmagan «Xizmatlar» o‘rnini to‘ldirish sifatida qaralmaydi va ko‘rsatilmagan «Xizmatlar»ning o‘rni to‘ldirilishi kerak, bunday

«Xizmatlar» ko'rsatish «Xo'jalik»ning oldindan berilgan yozma roziligi bo'yicha amalga oshirilgan hollar bundan mustasno.

4.7. Ko'rsatilgan «Xizmatlar» bevosita «Xo'jalik»ning mas'ul xodimi tomonidan dalolatnomada bo'yicha qabul qilinadi. Dalolatnomada ko'rsatilgan «Xizmatlar» miqdori, ularning sifati ko'rsatiladi.

4.8. Mazkur shartnomada «Xizmatlar» ko'rsatish mazkur shartnomaga muvofiq yoki «Xo'jalik»ning buyurtmanomasida ko'rsatilgan muddatlar va hajmda mazkur shartnomada ko'rsatilgan davr mobaynida amalga oshiriladi. Ushbu maqsadlarda «Bajaruvchi» xo'jaliklarning buyurtmanomalarini ro'yxatdan o'tkazish daftarini yuritadi.

Buyurtmanoma «Xizmatlar»ning tegishli turkumlarini ko'rsatish mo'ljallanayotgan sanasigacha kamida 5 kun oldin chopar orqali, pochta orqali yoki boshqacha tarzda beriladi. Buyurtmanomani chopar orqali qabul qilishda «Bajaruvchi»ning xodimi «Xo'jalik»da qoladigan nusxaga sanani ko'rsatgan holda u qabul qilganligi to'g'risida belgi qo'yadi.

4.9. «Xo'jalik» ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yoxud «Xizmatlar»ining tegishli turkumlarini yetkazib berish sanasini o'zgartirishga haqlidir, bu haqda «Bajaruvchi»ni buyurtmanomada ko'rsatilgan sana boshlanishidan kamida 1 kun oldin xabardor qiladi.

V. Tomonlarning javobgarligi

5.1. Ko'rsatilayotgan «Xizmatlar»ning sifati, miqdori «Bajaruvchi» tomonidan noto'g'ri aniqlanishi, ularning qiymati noto'g'ri belgilanishi va undirilishi hollari aniqlangan taqdirda «Bajaruvchi» ko'rsatilayotgan «Xizmatlar»ning sifatini, shuningdek, ularning miqdorini hisobga olgan holda qayta hisob-kitob qiladi va hisoblab chiqilgan ushbu summadan tashqari «Xo'jalik» noto'g'ri hisob-kitob qilingan summani 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.2. Agar ko'rsatilayotgan «Xizmatlar»ning sifati, assortimenti, navlari, standart, texnik shartlar talablariga, namunalarga (etalonlarga) yoki shartnomada belgilangan boshqa shartlarga javob bermagan taqdirda, aybdor sifati zarur darajada bo'lмаган ko'rsatilgan «Xizmatlar» qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.4. «Xizmatlar» ko'rsatish bo'yicha shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilishi rad etilganligi uchun «Bajaruvchi» «Xo'jalik» ka belgilangan ustamalardan tashqari ko'rsatilishi kerak bo'lган «Xizmatlar»ning 25 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Jarimadan tashqari, «Bajaruvchi» «Xo‘jalik» ka «Xizmatlar» ko‘rsatilmasligi natijasida yetkazilgan zararni to‘laydi.

5.5. «Xizmatlar» ko‘rsatish kechiktirilgan yoki to‘liq ko‘rsatilmagan taqdirda «Bajaruvchi» «Xo‘jalik» ka kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to‘laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ko‘rsatilmagan «Xizmatlar» qiymatining 50 foizidan ortiq bo‘imasligi kerak. Penya to‘lanishi shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomani zarur tarzda bajarishdan va «Xizmatlar» ko‘rsatish muddati kechiktirilishi yoki to‘liq ko‘rsatilmasligi tufayli yetkazilgan zararlar qoplanishidan ozod etmaydi.

5.6. Ko‘rsatilgan «Xizmatlar» uchun o‘z vaqtida haq to‘lanmaganda «Xo‘jalik» «Bajaruvchi» ga muddati kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to‘lov summasining 0,4 foizi miqdorida penya to‘laydi, biroq bu kechiktirilgan to‘lov summasining 50 foizidan ortiq bo‘imasligi kerak.

5.7. «Xo‘jalik» tomonidan tegishli kontraktatsiya shartnomasi bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun «Xo‘jalik»ni javobgarlikka tortishda, shuningdek, uning xattiharakatlari (harakatsizligi) «Xo‘jalik» tomonidan kontraktatsiya shartnomasi bo‘yicha shartnoma majburiyatlarini bajarilmasligiga (zarur tarzda bajarilmasligiga) olib kelgan «Bajaruvchi»ning javobgarligi ham ko‘rib chiqiladi.

«Bajaruvchi»ning aybi bilan kontraktatsiya shartnomasining «Xo‘jalik» tomonidan bajarilmasligi (zarur tarzda bajarilmasligi) natijasida yetkazilgan zarar belgilangan tartibda «Bajaruvchi» tomonidan qoplanadi.

5.8. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan tomonlarning javobgarligi chora-tadbirlari fuqarolik qonunchiligi normalariga muvofiq qo‘llaniladi.

VI. Nizolarni hal etish tartibi

6.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko‘ra, mustaqil ravishda yoxud tuman, qishloq va suv xo‘jaligi bo‘limi ishtirokida ularni sudgacha hal etish choralarini ko‘radilar. Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni hal etish uchun bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir.

VII. Shartnomaning amal qilishi

7.1. Mazkur shartnoma mazkur shartnomaning 8.4-bandiga muvofiq ro‘yxatdan o‘tkazilgan kundan boshlab amalga kiradi va

tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajargunga qadar amal qiladi.

7.2. Tomonlar o'rtasidagi munosabatlardan ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan va hisob-kitob to'liq tugallangan taqdirda to'xtatiladi.

VIII. Yakuniy qoidalar

8.1. Mazkur shartnoma tomonlarning kelishuviga ko'ra yoki boshqa tomon shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda, tomonlardan birining talabi bo'yicha sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

8.2. Mazkur shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma shaklda sodir etilishi va tomonlarning bunga zarur darajada vakil qilingan vakillari tomonidan imzolanishi sharti bilan haqiqiy hisoblanadi.

8.3. Mazkur shartnoma tomonlarning har biri va qishloq va suv xo'jaligi bo'limi uchun bir nusxadan uch nusxada tuziladi. Shartnomaning barcha nusxalari teng yuridik kuchga egadir.

8.4. Mazkur shartnoma, unga o'zgartirishlar (qo'shimchalar) «Xo'jalik» joylashgan joy bo'yicha tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limida ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin bajarilishi kerak.

IX. Tomonlarning manzili va bank rezvizitlari

«Xo'jalik»

«Tayyorlovchi»

Soliq to'lovchining
identifikatsiya raqami

Soliq to'lovchining
identifikatsiya raqami

M.U.Fermer xo'jaligi
boshlig'ining imzosi, F.I.O

M.U. imzo, lavozimi, F.I.O.

20 ____ y «____» _____ da _____ raqami bilan
tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limida

«RO'YXATDAN O'TKAZILDI»

M.U. imzo, lavozimi, F.I.O.

Yuristning xulosasi:

(imzo)

(F.I.O.)

8-*itova*

Mineral o'g'itlar yetkazib berish jadvali

Yetkazib beruvchi _____
(imzo, muhr)

Xo'jalik _____
(imzo, muhr)

Qishloq xo'jaligida sug'urta turlari

Nº	Sug'urta turlari	Sug'urta mukofoti %
I. Majburiy sug'urta turlari		
1	Qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish bo'yicha ishlarni o'tkazish uchun avans tariqasida beriladigan va fuuchers kontraktlari bo'yicha mablag'lar qaytarilishini sug'urta qilish	1,0
2	Transport egalarining fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish	0,5-2,0
3	Garovga qo'yilgan mol-mulkni sug'urta qilish	0,25
2. Ixtiyoriy sug'urta turlari		
1	Qishloq xo'jaligi korxonalarining ekinlari hosilini ixtiyoriy sug'urta qilish	2,5-8,5
2	Qishloq xo'jalik ekinlarini qayta ekish natijasida oldindan ko'zda tutilmagan xarajatlarni ixtiyoriy sug'urta qilish	8-10
3	Qishloq xo'jalik hayvonlarini tabiiy ofatlar, yuqumli kasalliklar natijasida nobud bo'lishini sug'urta qilish	4-8
4	Bog'lar va uzumzorlar hosilini tabiiy ofatlardan sug'urta qilish	8-12
5	Qishloq xo'jaligi korxonalarining tabiiy pichanzorlari, yaylovlar hosilini va tut daraxtlari barglarini sug'urta qilish	2-3
6	Pilla hosilini sug'urta qilish	1-2
7	Qishloq xo'jaligi korxonalarining mol-mulkini sug'urta qilish	0,5
8	Qishloq xo'jaligi korxonalarining mol-mulkini sug'urta qilish	0,5-4,0
9	Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklariga davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta xomashyosi va g'alla yetishtirishning mablag' bilan ta'minlashga beriladigan imtiyozli kreditlar qaytarilishi bo'yicha tadbirkorlik xavfini sug'urtalash	0,75
10	Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan jo'natiladigan yuklarni sug'urta qilish	0,4-4,0

Texnikalardan foydalanishda me'yoriy ko'rsatkichlar

Traktorlarga bo'lgan talab

Texnika vositala- rining turlari	1000 ga ekin maydoni hisobiga, dona		Farqi +;-	Me'yorga nisbatan yetish- maydi, dona
	Haqiqatda mavjud	Me'yorga nisbatan		
Haydov traktorlari	1,2	2,8	-1,6	1653
Chopiq traktorlari (3 g'ildirakli)	4,4	21,7	-17,3	23797
Chopiq traktorlari (4 g'ildirakli)	2,5	12,0	-9,5	20362
Omochlar	0,8	3,4	-2,6	1984
Kultivatorlar	1,6	16,9	-15,3	7220
Don ekish seyalkalari	2,2	4,8	-2,6	4120
Chigit ekish seyalkalari	1,7	13,3	-11,6	6215
Don o'rish kombaynlari	1,1	2,0	-0,9	630
Yerlarni tekislash mashinasi	0,1	5,6	-5,5	549
Traktor pritseplari	4,6	32,0	-27,4	40724

**Qishloq xo'jaligi mashinalarining yillik (mavsumiy) bajariladigan
ish hajmi va vaqt me'yorlari**

Qishloq xo'jalik mashinala- rining turi, nomi	Rusumi	Yillik (mavsumiy) ish hajmi va vaqt me'yori	
		Soat	Gektar
1	2	3	4
Traktor pritseplari:	3 PTS -12 V		
	1 PTS-9 V	850	-
	2 PTS-4-887 A		-
	2 PTS-4-793	420	-
Omochlar umumiy maqsaddagi:			
8-9 korpusli osma va yarim osma		230	454
5 korpusli osma		280	177
4 korpusli osma		280	120
3 korpusli		220	30
2 korpusli		205	20
Omochlar 2 yarusli:			
3-4 korpusli		400	150
Chizellar:	CHKU-4 A	200	210
Katok	EKGSH-6	350	1120
Baronalar, diskasimon	BDT-10, BDT-7	160	330
	BDT-3	320	310
Baronalar bog'dorchilik uchun diskasimon	BDN-3,5	210	187
Tishli baronalar	BZDS-1,0	80	8,0
	BZSS-1,0	80	8,0
Mineral o'g'it solish mashinasi	RUM-5	250	240
Organik o'g'itlarni tashish va solish mashinasi	NRU-0,5	175	208
	RPN-4		
Purkagichlar	OP-2000, OP-1600	435	180
	OVX-28	285	240
Seyalkalar	SZ-3,6, SZT-3,6	135	210
Jatka (o'roqlar)	JNU-6	200	90

1	2	3	4
G'alla kombaynlar	SK-5M «NIVA»		
Enisey-1200	160	270	
G'alla, sholi o'rish kombayni	Enisey -1200 R	160	50
Makka seyalkalari	SM-4	70	160
Kultivator – o'g'itlagich	KRN-4,2	485	160
Kartoshka ekkich va kovlagiehlar	SK-4V, SKS-4, KSM-4	18	65
	SAYA-4	215	40
	KON-2,8	505	32
	KNO-2,8	505	32
	KST-1,4	170	36
Kartoshka yig'gich	KKU-2 A	170	26
Sabzavot seyalkasi	SKO-4,2	125	130
	SKON-4,2		
Paxta seyalkasi	SXU-4	60	58
Kultivator	KXU-4	1020	43
Ko'rak terish mashinasi	SKO-2,4	140	77
	SKO-3,6	150	117
Ko'sak chuvish mashinasi	UPX-1,5 V	525	160
G'o'zani yulgich	KV-3,6 A	210	210
	KV-4 A	235	112
Paxta terish mashinasi	XNP-1,8	235	33
	14 XV-2,4 A	230	43
Traktor o'rgichlar	KIR-1,5	590	150
	KSG-2,1	590	135
	KRN-2,1	590	190
	KPP-3	590	-
Xaskashlar		490	195
Toylab zichlagich	PS-1,6	520	330
O'rgich-maydalagich	PSE-1,6 G		
	KUF-1,8, KPI-2,4	625	437

100

**ERGASHEV RAXMATULLA XIDIROVICH
XAMRAYEVA SAYYORA NASIMOVNA**

**QISHLOQ XO'JALIGI INFRATUZILMASI
IQTISODIYOTI**

O'quv go'llanma

Muharrir
Gavhar MIRZAYEVA

Texnik muharrir
Vera DEMCHENKO

Kompyuterda sahifalovchi
Feruza BOTIRIVA

Bosishga 2.02.2012 y.da ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1\32.
Bosma tobog'i 10,375. Shartli bosma tobog'i 17,33.
Garnitura «LexTimes Cyr+Uzb». Ofset qog'oz.
Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 9.
Bahosi kelishiilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi.
Litsenziya raqami: AI № 198. 2011 yil 28.08 da berilgan.
«El-press» MCHJ da bosildi.
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi – 278-36-89; Marketing bo'limi – 128-78-43
faks – 273-00-14; web-saytimiz: www.yangiasr.uz
internet-do'kon: www.yangidavr.uz e-mail: info@yangiasr.uz

Ergashev Raxmatulla Xidirovich



Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Iqtisodiyot” kafedrasi professori, iqtisod fanlari doktori. 3 ta monografiya, 3 ta darslik, 20 ta o’quv-uslubiy qo’llanma, 5 ta ma’ruza matn va 170 dan ortiq ilmiy-amaliy maqolalar muallifi, shu jumladan 20 ta maqolasi nufuzli xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Ilmiy ishlari agrar sektorda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, fermer xo’jaliklarini rivojlantirish, ularning barqarorligini ta’minlashga bag’ishlangan. Vashington shahridagi Umum-jahon Banki qoshidagi Iqtisodiy Rivojlanish institutini tugatgan. Shuningdek, Vashington, Shimoliy Dakota, Toronto, Goaga, Anqara shaharlariда Xalqaro Konferensiya va seminarlarga ilmiy ma’ruzalar bilan qatnashib, tajriba almashib kelgan.

Xalqaro dasturlar g’olib sifatida AQSH, Gollandiya, Kanada, Turkiya, Afg'oniston davlatlarida bir necha bor o’z malakasini oshirgan.

R.X.Ergashev rahbarligida 10 ta fan nomzodlari tayyorlangan.

Xamrayeva Sayyora Nasimovna



Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Iqtisodiyot” kafedrasi katta o’qituvchisi, iqtisod fanlari nomzodi. 1 ta o’quv qo’llanma, 1 ta monografiya, 15 ta o’quv-uslubiy qo’llanma, 4 ta ma’ruza matn va 40 dan ortiq ilmiy-amaliy maqolalar muallifi, shu jumladan 6 ta maqolasi nufuzli xorijiy va MDH jurnallarida chop etilgan.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iste’dod” jamg’armasining

grant sovrindori sifatida 2006-yilda Moskva Davlat Universitetida malaka oshirib kelgan, shuningdek xalqaro Ednet dasturlari asosida tashkil etilgan seminarlarda ishtirot etib tajribasini orttirgan.

S.N.Xamrayeva “Qishloq xo’jaligi infratuzimasini rivojlantirish yo’llari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Hozirgi vaqtda “Qishloq infratuzilmasini innovatsion rivojlantirishning tashkiliy - iqtisodiy asoslarini takomillashtirish” mavzusida doktorlik dissertatsiyasi ustida ilmiy-tadqiqot ishlari olib bormoqda.

ISBN 978-9943-08-818-4

9 789943 088184